

821.111/73-31

B-74



GARRIET BICHER-STOU
**TOM TOG'ANING
KULBASI**

ROMAN I KITOB

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

GARRIET BICHER-STOU

TOM TOG‘ANING KULBASI

Roman

Birinchi kitob



ZIYO NASHR

Toshkent
2020

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy Jabborov,
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimon:

Sharif RIZO

Saxovatli va oqko'ngil mulk egalari xonadonida oilasi bilan totuv hayot kechirayotgan Tom tog'aning boshiga kulfat tushadi. Quldordan qarz bo'lib qolgan mister Shelbi mulkini asrab qolish uchun Tom tog'a va yosh Garrini sotishga majbur bo'ladi. Bu voqeadan xabar topgan Garrining onasi o'g'li bilan quldorning uyidan qochib ketadi...

Qullarning og'ir va mashaqqatli hayotidan hikoya qiluvchi ushbu roman sizning sevimli asarlaringiz qatoridan o'rin olishiga ishonamiz.

2020/ 6 482

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqmiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dunder Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'g'irgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'g'irmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

I BOB

Bunda kitobxon eng insonparvar shaxs bilan tanishadi.

Izg'irin fevral kuni... Kechqurun Kentukking P. shahrida ikki jentelmen tuppa-tuzuk jihozlangan mehmonxonada vino ichib o'tirishardi. Bo'lmada xizmatkorlar yo'q. Bu jentelmenlar kursilarini yaqin qo'yishib, allaqanday bir ishni qizg'in muhokama qilmoqdalar. Ularning ikkovini ham hozir biz qulay bo'lsin degan andisha bilan jentelmen deb atadik. Sinchiklab qaralsa, ulardan birining bu nomga aslo munosib emasligi yaqqol bilinadi. U qo'pol va behayo, pastak va bukri kishi.

Ustidagi haddan ziyod yarqiroq va olifta libosi uning aft-angoriga juda mos: ustida didga o'tirmaydigan, rangorang matodan tikilgan nimcha; bo'ynida bachkana sariq xol-xol havorang galstuk chapanicha bog'langan. Uning katta va g'o'labur qo'lining barmoqlarida ko'pgina uzuklar yarqiraydi, soatining yo'g'on tilla zanjirlariga rangorang munchoqlar osilgan. U qizg'in hangoma vaqtida bularni zavq bilan o'ynab o'tiradi. So'zlaganda til qoidalariga rioya qilmasdan gapiradi. Shunga ko'ra, biz o'z qisqamizni jonli va yorqinroq qilishni istasak ham, uning har bir qulay paytda ishlatayotgan odobsiz, be'mani gaplarini yozishni ma'qul topmadik.

Ikkinchi suhbatdosh – mister Shelbi bo'lib, afti-angorigan haqiqiy jentelmenning o'zginasi. Uyining jihozlanishi uning to'q yashashidan, hatto boyligidan darak beradi.

Yuqorida aytganimizdek, ular ikkisi gap bilan ovora.

– Bu ishni men ana shunday qilib to‘g‘rilardim, – dedi mister Shelbi.

– Yo‘q, men bu yo‘sinda savdo qilolmayman... mutlaqo qilolmayman, mister Shelbi! – dedi uning suhbatdoshi, stakanni ko‘tarib yorug‘ga tutib qararkan.

– Nima uchun qilolmaysiz, Geli? Axir Tom juda ajoyib odam, uni bu pulga hamma yerda olaverishadi. Insofli, qobiliyatli, ishonchli. U mening qo‘ramdagi ishlarning barini juda yaxshi idora qilyapti.

– Insofli emish, negrning insofiligi qayergacha borardi! – deb miyig‘ida kuldi Geli, o‘z stakaniga aroq quyib.

– Yo‘q, u chindan ham juda insofli, sofdil, fahm-farosatli va taqvodor odam... Unga men hamma narsani: pul, uy va otlarni ishonib topshirib qo‘yganman, butun mamlakatda erkin yurishga ijozat berganman. U menga hamma narsada hamisha sodiq, u juda rostgo‘y...

– Negrlarning ham taqvodori bor ekanligiga ko‘plar ishonmaydi, lekin men ishonaman, – dedi Geli o‘z gapining to‘g‘riligiga samimiy ishonganligini qo‘l qimirlatish bilan ifodalab. – Shu yil yozda, Orleanga olib borgan to‘damda o‘shandaqa bir negr bor edi. Uning ibodat qilganini ko‘rsangiz hayron bo‘lardingiz! Juda xushko‘ngil, gap uqadigan... Uni juda katta pulga sotib yubordim. O‘zini esa kimoshdi savdosiga arzonga sotib olgandim... Undan rappa-raso olti yuz dollar foyda qildim. Shuning uchun men negrning xudojo‘yligini juda soz deb hisoblayman, agar uning bu xudojo‘yligi soxta bo‘lmay, chinakam xudojo‘ylik bo‘lsa, albatta.

– Tom kabi halol negrni topish mumkin emas, – dedi unga javoban mister Shelbi. – O‘tgan yil kuzakda men uning yolg‘iz o‘zini bir ish bilan Sinsinnatiga yubordim. U, topshirg‘imni bajarib, uyga besh yuz dollar pul olib keldi.

Jo'natayotganimda unga: „Tom, senga ishonaman, bila-manki, meni aldab ketmaysan“, dedim. Tom aytganimni qilib, qaytib keldi. Uning qaytib kelishini bilardim. Unga ko'p ablalar: Tom, Kanadaga qochib ketavermaysanmi?“ – deyishgan ekan, u: „Xo'jayin menga ishonadi, uni aldamayman“, deb javob qaytaribdi. Menga undan ajralish og'ir. Agar sizda qatracha insof qolgan bo'lsa, Geli, siz Tomni hamma qarzim baravariga olishingiz kerak.

– Savdogar odamga qancha insof kerak bo'lsa, o'shancha insofim borku-ya, – deb kulimsiradi Geli, – albatta, do'stlarimni xursand qilish uchun aytganimdan uncha-muncha qaytishim mumkin, ammo siz mendan haddan ziyodini talab qilyapsiz.

Savdogar tashvishlanib uf tortdi va stakaniga picha aroq quydi.

– Xo'p, Geli, ayting-chi, shartlaringiz qanday, deb so'radi mister Shelbi, bir necha daqiqa sukunatdan keyin.

– Tomning yoniga qo'shib beradigan o'g'il yoki qizingiz yo'qmi?

– Xm! Men hech kimdan ajralolmayman. Rostini aytsam, men xizmatkorlarimni noilojlikdan sotyapman. Ulardan ajralishni yomon ko'raman!

Shu chog' eshik ochilib, yoshi to'rt yarimlarda bo'lgan bir kichkina kvarteron bo'lmaga kirib keldi. U juda chiroyli va jozibador edi. Uning kuldirgichli yumaloq yuzi atrofida ipakdek mayin, qop-qora qo'ng'ir sochlari yarqirab, jamalak bo'lib, uzun kipriklari ostidan jozibali, mayin, javdiroq qora ko'zlari chaqnab turardi. Bola bo'lmaning har tomonini qiziqib ko'zdan kechirdi. Katak-katak qizg'ish-sariq matodan yaxshi tikilgan bejirim kastum uning husniga husn qo'shib turardi. Uning afti-angoridan o'ziga juda ishonganlik sezilar, bu esa bola xo'jayinning erkasi ekanligini ko'rsatardi.

– Ha, bo‘talog‘im, Jim! – dedi mister Shelbi, keyin u hushtak chalib, bir shingil uzum tashladi, – Ma, ilib ol!

Bola epchillik bilan sakrab, uzumni ilib oldi. Xo‘jayin kulib yubordi.

– Bu yoqqa kel, Jim, qarog‘im, – dedi u.

Bola keldi. Xo‘jayin uning qo‘ng‘ir sochli boshini silab, bag‘baqasiga urib qo‘ydi.

– Qani, Jim, mana bu jentelmenga ashulangdan aytib, o‘yinlaringni ko‘rsat-chi.

Bola kuchli va sof ovoz bilan ajoyib bir negrcha qo‘shiqni ayta boshladi. Qo‘shiq aytarkan, qo‘l, oyoq va butun gavdasini qiziq qilib qimirlatardi. U, ohang – ritmni buzmasdan, juda yaxshi aytayotgani sezilib turardi.

– Yasha! – deb Geli bolaga chorakta apelsin tashladi.

– Endi, Jim, Qudjo amaking bod kasali qo‘zg‘ab qolganda qanday yuradi, ko‘rsat, – dedi xo‘jayin.

Bolaning qayishqoq gavdachasi bir lahzada bukchaydi; u mukkaydi-da, xo‘jayinning hassasiga suyanib olib, bo‘lmada oqsoqlanib yura boshladi. Bola azob chekkandek yuzini tirishtirdi-da, cholga taqlid qilib har tomonga tupuraverdi.

Ikkala suhbatdosh qah-qah urib kulishdi.

– Balli! Balli! Otangga rahmat! – dedi Geli. – Bola joyida, azbaroyi Xudo, boladan odam chiqadi. Sizga ayt-sam, – dedi u tuyqusdan, mister Shelbining yelkasiga urib: – Bolani qo‘shib bering-u, shu bilan ikkovimiz ora ochiq bo‘la qolaylik. Ayting-chi, bu insofdan emasmi?

Eshik ohista ochilib, bo‘lmaga yigirma besh yashar kvarteronka kirdi.

Kirgan ayol bu bolaning onasi ekanligini birinchi ko‘rishdayoq bilish mumkin edi. Xuddi bolaniki singari uning ham qora ko‘zlari katta va jozibali, qo‘ng‘ir qora sochlari ipakdek mayin edi. U, tortinmasdan, zavqlanib

qarab turgan begona kishini ko'rgach, darrov qizarib ketdi. Ustiga kiygan libosi uning qaddi qomati kelishganligini yana-da bo'rttirib ko'rsatardi, sotiladigan odamlarga bir ko'z tashlashi bilanoq baho berishga odatlangan odam-furush uning nozik qo'llari va kelishgan oyoqlariga ham diqqat bilan qaradi.

– Nima deysan, Eliza? – deb so'radi xo'jayin, ayol unga qarashga botinmay to'xtab qolganini ko'rgach.

– Kechirasiz, ser, men Garri shu yerdamikin deb qaragani kirgandim.

Bola unga tashlanib, ko'ylagining etagiga yashirib olgan apelsinni ko'rsatdi.

– Ol bo'lmasa, uni bu yerdan olib keta qol! – dedi mister Shelbi.

Yosh ayol bolasini qo'lga olib, shoshilganча bo'l-madan chiqib ketdi.

– Padar qusur-ey! Mol, ana bu! – dedi savdogar zavqlanib. – Yangi Orleanda uning uchun juda katta pul beradilar. Bundan yomon qizlarga ham ming-minglab to'lashganini ko'rganman.

– Uni sotib davlat orttirishni istamayman, – deb sovuqqina javob qaytardi mister Shelbi. Suhbatni o'zgartirish maqsadida u yangi bir shishani ochdi va suhbat-doshidan: „Qalay, vino ma'qulmi?“ – deb so'radi.

– Juda o'tkir ekan, ser! Birinchi nav ekan! – dedi savdogar va mister Shelbining yelkasiga takallufsizlik bilan urib so'radi: – Xo'sh, o'z narxingizni ayting-chi. Bu xotin uchun qancha so'raysiz?

– Mister Geli, u sotilmaydi, – dedi Shelbi. – Bu kvarteronkaning bo'yi baravar oltin berganingizda ham xotinim undan aslo ajralmaydi.

– Be! Xotinlarning bunday deyishlarining sababi shuki, ular pul sanashni bilmaydilar. Lekin, agar bu tillalar-

ga nechta soat, qancha tuyaqush pati-yu, qancha o'yinchoq-munchoq olish mumkin ekanligini aytsangiz, darrov ko'nadilar.

– Sizga qaytarib aytamanki, Geli, bu to'g'rida gapirib ovora bo'lmang. Yo'q dedim, yo'q, vassalom, dedi Shelbi cho'rt kesib.

– Bo'пти, unday bo'lsa bolani bera qoling, – dedi savdogar. – Iqror bo'lishingiz kerak, sizdan juda oz olyapman.

– Bu go'dak sizga nima uchun kerak bo'lishi mumkin, aying-chi? – deb so'radi mister Shelbi.

– Bilasizmi, mening bitta og'aynim bor, uning kasbi shunaqa: chiroyli o'g'il bolalarni sotib oladi-da, boqadi, keying katta qilib sotadi. Bular „oddiy“ mol emas, boshqacha mol. Bunday chiroyli bolalarni boylar yaxshi pul to'lab malaylikka oladilar. Badavlat kishilar, ko'chadan kelganda eshikni chiroyli bolalar ochishini va dasturxon yonida shularning xizmat qilishini sevadilar. Bunday bolalar savdosi katta daromad keltiradi. Endi bu kichkintoy shaytonga kelganimizda, u shunday qiziqi... Muzikaga ham qobiliyati bor ekan... Xuddi bizga zarur „mol“ning o'zginasi-da.

– Sotgani ko'nglim yo'q, – xayol surib dedi mister Shelbi. – Bilasizmi, ser, men insonparvar odamman, onani bolasidan ajratishni juda yomon ko'raman.

– Rosti bilan-a?.. Xayr, nima derdik, bu tabiiy hol. Bu yerda xotinlar bilan ish qilishga to'g'ri kelganini yaxshi tushunyapman. Bu esa unchayam yoqimli ishlardan emas. Men o'zim ham xotinlarning chiyillab dodlashini jon-jahdim bilan yomon ko'raman... Ammo mening ishim shunday yaxshi yo'lga qo'yilganki, xotinlar bunga tumshuqlarini suqa olmaydilar, ser. Onasini bir-ikki kunga biror yoqqa jo'natsangiz nima bo'ladi! Shunday qilgani-

ngizda biz bu ishni shovqin-suronsiz bitkazib olardik. Uyga qaytganida hamma ish bitgan bo'lardi. Xotiningiz unga isirg'ami, yangi usti-boshmi yoki shunga o'xshash biror narsa sovg'a qilsa, darrov yupanadi.

– Bundan hech narsa chiqmaydi deb qo'rqaman-da!

– Aslo qo'rqmang! Bu maxluqlar oqlarga o'xshagan emas: tezda ko'nikib qolishaveradi. Faqat ishga astoydil kirishish kerak. Odamfurushlik, – dedi Geli, o'zini juda ko'ngliochiq qilib ko'rsatgandek bo'lib, – bizni toshyurak qilib qo'yarmish. Menimcha, bu gap noto'g'ri. Rostini aytsam, men bu ishda odamfurushlarning kuniga qaraganda ancha muloyimko'ngilman. Qay bir savdogarlar bo'ladi, bolani sotayotganda, uni onasining qo'lidan shartta yulib olishadi, onasi esa bu vaqt jinnidek dod-voy sola boshlaydi... Bu juda yomon usul... Molni buzadi va onalarini yana ishga yaramaydigan qilib qo'yadi. Men Orlanda juda chiroyli bir xotinni bilardim... Bu xotin mana shunday muomala natijasida o'ldi. Uni sotib olgan kishiga bolasi kerakmas ekan. Xotin esa g'ashini keltirishganda quturib ketardi. Bilasizmi, u, bolasini mahkam bag'riga bosib, to'xtovsiz gapiradigan bo'lib qoldi. Unga qarab qo'rqardingiz, esimga tushsa, hozir ham etlarim uvushib ketadi. Uni uyga qamab, bolasini olib ketganlaridan keyin, jinni bo'lib qoldi va bir necha kundan keyin o'ldi. Nuqul ziyon, ser, ming dollar ziyon! Buning hammasiga sabab shuki, bunday ishlarni bartaraf qilish yo'lini bilmaydilar. Ha, ser, insonchasiga ish tutsangiz doim foyda qilasiz, buni men tajribadan bilaman.

Suhbat mavzuyi Gelini juda ham qiziqtirganligi ko'rinib turardi, chunki mister Shelbi xayol surgancha apelsin tozalarkan, Geli, go'yo haqiqiy ahvolni oxirigacha izhor etish tilagi bilan to'lib-toshgandek shu mavzuda yana gapira boshladi.

– Albatta, odam o‘zini o‘zi maqtashi yaxshi emas, lekin bunday deyishimga sabab shuki, bu haq gap. Mening bozorga chiqaradigan negrlarim eng yaxshi mol hisoblanadi. Buni o‘zimga ming marta aytishgan. Shu narsani o‘zimga qoida qilib qo‘yganman: negrlarim xushchaqchaq, semiz va sog‘ bo‘lsinlar. Boshqalarnikidan ko‘ra menda negr oz o‘ladi. Buning sababi shuki, ser, men ular bilan muomala qilishni bilaman... Shuni aytishim kerakki, insonparvarlik – mening negrlar bilan qiladigan muomalamning negizi bo‘ladi.

Mister Shelbi nima javob berishni bilmasdan:

– Rosti bilan-a? – deb so‘radi.

– Ha, mening prinsiplarim bor, ser. Odamlar bu prinsiplarimni masxara qilib, menga: „Prinsiplaringni yig‘ishtirib qo‘y“, deb ko‘p aytishgan. Bunday prinsiplar juda kamdan kam uchraydi deyavering. Bular tufayli o‘zimga ancha dushman orttirib olganman, lekin bu prinsiplarga doim qattiq rioya qilib keldim... Buning soyasida anchagina pul ham ishlab oldim... Ha, ser, bu prinsiplar menga xiyolgina daromad berdi, desam bo‘ladi. Savdogar, shu so‘zlarni aytib bo‘lgach, o‘z hazilidan xursand bo‘lib, kulib yubordi. Insonparvarlikni bu xilda maqtash shu qadar erish ko‘rinaridiki, mister Shelbi ham kulib yubordi.

Mister Shelbining kulishi savdogarni tetiklantirdi va u davom etdi:

– Qiziq ish. Buni men odamlarning miyasiga hech singdirolmadim. Natchezda Tom Loker degan eski sherigim bor edi. Aqli joyida edi-yu, lekin negrlar bilan muomalada itday quturib ketardi. O‘zi juda xushko‘ngil odam, biroq prinsip jihatidan negrlarni urardi. Uning tutgan sistemasi shunaqa edi, ser. Men unga hamisha: „Hoy Tom, nega sen negr ayollarning boshiga chertasan? Nega ular dod-

lay boshlaganda urasan? Bu ishlaring yaramaydi, ziyoni ham katta. Yig'lasa-yig'layversin, meningcha, bundan hech zarar yo'q. Agar ular to'yib yig'lab olmasa, qayg'usi ko'kragiga to'planib qolib, keyin boshqa bir narsada o'zini ko'rsatadi. Bilib qo'y, Tom, bu ishing „mol“ni buzadi. Sening qizlaring kasal, esipast, ba'zilari esa, ayniqsa, yoshlari mayib bo'lib qoladi... Bularni tuzatish uchun qancha kuch kerak bo'lishini bilasanmi? Nima uchun ular bilan yaxshiroq muomala qilmaysan? Chertish va do'pposlash bilan maqsadga yetish qiyin, Tom. Insonlarcha muomala qilsang, tezroq murodga erishasan“, derdim. Lekin Tom bu haq gapni tushunolmadi va mening shuncha „mol“imni ishdan chiqardiki, uning juda sofko'ngil va juda koranda bo'lishiga qaramay, u bilan aloqani uzishga majbur bo'ldim.

– Siz o'z sistemangizni ularnikidan yaxshi deb o'ylaysizmi? – deb so'radi mister Shelbi.

– Albatta, ser, bu haqda hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas. Men mumkin qadar ko'ngilsiz voqealardan o'zimni nari olib qochaman. Kichkina bolalarni sotadigan kunim onalarini biror yoqqa jo'natib, ko'zdan nari qilaman. Ko'zdan nari bo'ldimi – shovqin-suron ham bo'lmaydi. Ish abjirlik bilan, silliqqina bajarilgandan keyin, onalari o'z qismatlariga noiloj ko'nikib qolishadi. Bular – „Xotin va bola-chaqalaringdan ajralmasdan yashash kerak“, deb ta'lim oladigan oqlar emas-ku axir. Ko'ngildagidek tarbiyalangan negrlarning xayoliga bu kabi narsalar kelmaydi ham. Shuning uchun ularda bunaqa mojarolar ancha osonlik bilan o'tib ketaveradi.

– Mening negrlarim ko'ngildagidek tarbiyalanmagan bo'lsalar kerak, deb qo'rqaman, – dedi mister Shelbi.

– Ehtimol, Siz kentukkilar, o'z negrlaringizni buzib qo'yasizlar. Ularga yaxshilik qilmoqchi bo'lasizlar-u,

ammo men bunda chinakam yaxshilikni ko'rmayapman. Bilasizmi, negr dunyoda sotilish uchun yaratilgan: u goh Tom, goh Dik, goh yana boshqa birovlariga o'tib, qo'lmaqo'l yurishi kerak. Uning ko'nglida har qanday umidlar tug'dirib, haddan ziyod insonparvarlik bilan tarbiyalash – yaxshilik qilish emas, chunki keyin uning boshiga tushadigan hamma kulfatlar unga yana-da og'irroq ko'rinib qoladi. Men o'ylaymanki, boshqa plantatsiyalarning negrlari qah-qahlashib qo'shiq aytadigan joylarda, sizning negrlaringiz yig'lashardi. Albatta, mister Shelbi, har kim o'z tutgan ishini boshqalarnikidan yaxshi deb o'ylaydi. Shuning uchun, menimcha, negrlar qanday muomalaga loyiq bo'lsalar, ular bilan shunday muomala qilayotgan bo'lsam kerak.

– O'zidan xursand odamni baxtli odam deyish kerak, – dedi mister Shelbi, yelkasini oz-moz uchirib, sezilar-sezilmas jirkanish bilan. Ikkala suhbatdosh yong'oq chaqisharkan, birmuncha vaqt indamay o'tirishdi.

– Xo'sh, pirovardida qanday qarorga keldingiz? – deb so'radi Geli.

– Picha o'ylab, xotinim bilan kengashib ko'raman, – deb javob berdi mister Shelbi, lekin, Geli, ortiqcha shovqin bo'lishini istamasangiz, qo'ni-qo'shniga ayta ko'rmang. Agar sotish haqidagi ovozalarni odamlarim eshitib qolishsa, keyin bironta negrni ham jo'ngina sotib bo'lmaydi. Ularning fe'lini bilaman.

– Xotirjam bo'ling! Mening og'zim mahkam. Lekin sizga aytсам, ishim juda zarur va oshig'ich, shuning uchun, qaroringiz qanday bo'lishini mumkin qadar tezroq eshitishni istardim.

Geli o'midan turib, paltosini kiydi.

– Bugun kechqurun soat olti bilan yettining orasida kiring, javobini olasiz, – dedi mister Shelbi.

Savdogar ta'zim qilib, bo'lmadan chiqdi.

„Uni zinadan tashlab yuborish qo'limdan kelganda edi, – dedi mister Shelbi, mehmon chiqib eshik yopilgach. – Shunaqa ham o'zidan mamnun surbet bo'ladimi! Ammo, u biladi – men uning qo'lidaman. Agar burun meniga birov: „Sen Tomni Janubga, mana shu kabi ablahlarning biriga sotasan“, deb qolsa bormi, dangal: „Mening qulim it emas!“ – deb javob berardim. Endi bundan qutulishning iloji yo'q. Elizaning bolasi-chi? Bilamanki, u tufayli xotinim bilan o'rtamizda ham katta mojaro bo'ladi... Tom tufayliyam. Hammasi qarzning kasofati! Batamom uning qo'lida ekanligimni biladi-da ablah, mumkin bo'lgan narsani qo'ymay mendan sug'urib oladi“.

Mister Shelbi yomon odam emas: muloyim, xushko'ngil, atrofda qilarga rahmdil kishi edi. U, o'z mulkidagi negrlarning ahvolini yaxshilash uchun hech narsani ayamasdi. Lekin u katta savdogar kirishib ketdi; bu esa ziyonli bo'lib chiqdi. U, qarzga botib qolib, uning veksellari Gelingning qo'lga tushdi.

O'chakishgandek, Eliza eshik yoniga kelib, bo'lma ichida bo'layotgan so'zlarni eshitdi va tushundiki, savdogar mister Shelbiga qandaydir bir negrni sotishni taklif qilayпти.

U eshik yonida turib, yana quloq solardi-yu, lekin shu chog' beka chaqirib qolganidan, uning yoniga ketdi.

Biroq unga, savdogar uning bolasini sotish haqida gapirgandek tuyuldi. Balki, yanglishgandir? Yuragi urmay qoldi. U, nima qilishini bilmay, bolasini ko'ksiga qattiq bosdi, bola unga hayron bo'lib qaradi.

Boshidan hushi uchgan Eliza suv to'la ko'zani yiqitib yubordi, ish stolchasini ag'dardi va, nihoyat, shkafdan shoyi ko'ylakni olib kelish o'rniga, bekasiga tungi uzun ko'ylakni uzatdi, shunda beka undan:

– Eliza, azizim, bugun senga nima bo‘ldi? – deb so‘radi. Eliza cho‘chib tushdi.

– E, xonim! – dedi Eliza boshini ko‘tarib, keyin ko‘zidan yosh quyildi-da, kursiga o‘tirib yig‘lay boshladi.

– Eliza, bolaginam, nima gap o‘zi? – deb so‘radi beka.

– E, xonim, xonim! – dedi Eliza. – Oshxonada xo‘jayin bilan qulfurush gaplashyapti. Men ularning gapini eshitdim.

– Ha, xo‘p, gapirishsa gapirishibdi, lekin ularning gapidan senga nima ziyon, tentak?

– E, xonim, qanday deb o‘ylaysiz: nahotki, xo‘jayin mening Garrimni sotishga rozi bo‘lsa!

Bechora ayol kursiga tashlandi va titrab ho‘ngray boshladi.

– Garrini sotadi deysanmi? Jinni bo‘ldingmi? Sen bilasan-ku, xo‘jayin bu janubiy qulfurushlar bilan hech oldi-sotdi qilmaydi, u o‘zini yaxshi tutib yurgan xizmatkorlarini sotmaydi ham. Aqling yo‘q, bolasan, sening Garriningni kim sotib olardi? U senga qanday shirin bo‘lsa, boshqalarga ham shunaqa ko‘rinadi, deb o‘ylaysanmi? Qo‘y, yig‘lama, ko‘ylagimning tugmasini sol, sochimni o‘rib, chiroyli turmaklab qo‘y – yaqinda o‘rgatishgan turmak esingda turibdimi? O‘shanaqa qil... Eshik tagiga bo‘rib birovning gapiga hech quloq solma.

– Lekin xonim, siz, Garrining sotilishiga... Yo‘l qo‘ymasangiz kerak deyman-a?..

– Yo‘q, yo‘q... Behuda gap! Nega bu to‘g‘rida gapirasan? Uning o‘rniga o‘z bolamning birortasini sotishga rozi bo‘laman. O‘z o‘g‘ilchangni haddan tashqari yaxshi ko‘rasan, bilaman, Eliza? Eshikda birov ko‘rinishi bilan, sen darrov: „Mening o‘g‘limni olgani kelibdi“, deb o‘ylaysan.

Bekaning o'ziga ishonib so'zlashidan ko'ngli tinchigan Eliza, unga kiyinishga tez va epchillik bilan ko'maklasharkan, u bilan birgalashib o'zining qo'rquvidan kulardi.

Shelbi xonim erining iqtisodiy qiyinchiliklaridan xabarsiz edi, shuning uchun, uning saxovatparvarligini bilganidan, Elizaning gumoniga ishonmasdi. Kechqurun mehmonga borish kerak edi, shuning taraddudi bilan band bo'lib, tezda buni mutlaqo esidan chiqardi.

II BOB

Ona

Elizani yoshligidan bekaning o'zi tarbiyaladi. U Elizani sevar va erkalardi.

Janubiy shtatlarni kezgan sayyohlar shu narsani allaqachon payqagan bo'lsalar kerak; kvarteronka va mulatkalarda o'zlariga xos tug'ma noziklik, ovoz va xulq-larida tabiiy muloyimlik bo'ladi. Kvarteronkalarining qaddi-qomatlari kelishgan bo'lishi bilan birga, ko'pincha juda chiroyli va jozibali ham bo'ladilar.

Eliza – xayoliy tasavvur samarasi bo'lmay, balki yozuvchining o'zi uni bir vaqtlar Kentukkida ko'rgan va uning rasmini esida qolgancha chizgan.

Uning eri – chiroyli, iste'dodli qul – mulat Jorj Garis qo'shni qo'rg'onchada yashardi. Jorjning xo'jayini uni qop-qanor fabrikasiga berdi. Jorj epchilligi va ixtirochiligi soyasida fabrikada birinchi o'rin oldi. U, kanop tozalaydigan mashina ixtiro qildi; uning juda oz bilim egasi ekanligini nazarga olganda, uning mexanika sohasida haqiqatan ham bir daho ekanligini e'tirof qilmasdan bo'lmaydi.

Chiroyli va xushfe'l Jorjni fabrikada hamma sevardi. Lekin qonun unga – inson emas, balki buyum deb qara-

ganidan, uning barcha fazilatlarini behayo, tentak bir zolimning ixtiyoriga topshirilgan edi. Bu xo'jayin, Jorjning ixtiro qilgan mashinasini hamma maqtayotganini eshitib, o'ziga qarashli bu jonli buyumning nima qilganini ko'rish uchun fabrikaga keldi.

Fabrika egasi Jorjning xo'jayinini shodiyona kutib olib, bunday qimmatbaho quli borligi uchun tabrikladi.

Jorj xo'jayinini fabrikaga olib kirib, o'zi ixtiro qilgan mashinani ko'rsatdi. Jorj hayajonlanib, juda chechan so'zlar, o'zini erkin tutar, shunday mardonavor va go'zal ko'rinardiki, xo'jayin uning o'zidan afzalligini payqab kayfi qochdi. Nima uchun uning quli mamlakatda tomosha qilib yurish huquqidan foydalanarkan? Nima uchun mashinalar ixtiro qilarkan? Jentelmenlar bilan o'zini tengdek tutarkan? Bunga chek qo'yish kerak. Xo'jayin: „Uni uyga olib boraman-u, yer qazishga majbur qilaman; ana undan keyin ko'ramiz – g'ururidan nima qolganini!“ – degan qarorga keldi. Xo'jayin to'satdan Jorjning maoshini talab qilib, uni hozirning o'zidayoq uyga olib ketmoqchi ekanligini bildirdi. Buni eshitgan fabrika egasi va hamma ishchilar shu darajada taajjublandilarki, uni tasvirlash ham qiyin.

– Mister Garris, – dedi fabrika egasi, – qaroringizda andakkina mulohazasizlik yo'qmi?

– Bo'lganda nima edi? Yo bo'lmasa bu odam mening mulkim emasmi?

– Oyligini ham darhol oshirardik, ser.

– Gap unda emas, ser. Ishchi kuchini hushimga kelsa yollangani beraman, hushimga kelmasa bermayman. Bunga ehtiyojim yo'q.

– Lekin, ser, bu ishda u zo'r qobiliyat ko'rsatgan edi...

– Ko'rsatsa ko'rsatgandir. Ammo mening uyimdagi ishlarda zarracha qobiliyat ko'rsatgan emas. Yana shuni aytishim kerakki...

– Uning qanday mashina ixtiro qilganini ham o‘ylab ko‘ring! – dedi gap kelgan bir paytda ishchilardan biri.

– E-ha! Qullarni mehnatdan xalos qiladigan mashinani-a? Xuddi shunaqa mashina ixtiro qilishini oldindan bilgandim. Negr faqatgina mana shunday mashinani o‘ylab topadi-da! Holbuki, negrlarning o‘zlari mashina! Gap bitta, u men bilan ketadi.

Jorj xo‘jayinining o‘taketgan o‘jarligini bilardi, shunday bo‘lishiga qaramay, xo‘jayinning o‘zi haqidagi hukmini eshitib, qotib qoldi. U, qo‘llarini qovushtirdi, ko‘ksida achchiq tuyg‘ular yonganidan, lablarini mahkam qisib oldi, kattakon qora ko‘zlari cho‘g‘dek yashnadi. U tez-tez nafas ola boshladi. Qahr-g‘azabi oshib-toshib ketgan Jorjning biron bema‘ni ish qilib qo‘yishiga sal qolgan edi, xayriyatki, shu chog‘ xushko‘ngil fabrika egasi uning qo‘lidan ushlab:

– Nachora, Jorj, ko‘na qol. Xo‘jayining bilan boraver. Biz senga yordam berishga harakat qilamiz, – dedi.

Zolim xo‘jayin bu shivir-shivirni eshitdi, u, nima deyilganini aniq bilmasa ham, taxminiy mazmunini fahmladi. Bu hol, o‘z qulini qo‘ldan aslo chiqarmaslik haqidagi fikrini yanayam mustahkamladi.

Jorj xo‘jayininikiga qaytarib keltirilgandan keyin eng og‘ir ishga qo‘yildi. U noroziligini bosishga majbur bo‘ldi va indamay yuraverdi. Ammo chaq nab turgan ko‘zlari va tirishgan peshonasi, odamni buyum qilish aslo mumkin emasligini yaqqol aytib turardi.

Jorj fabrikada ishlab yurgan yaxshi kunlarida Elizaga uylangandi. U vaqtda fabrika egasining xushko‘ngilligi tufayli, Jorj o‘z bilganicha ish tuta olardi.

Nikoh, xonim Shelbining roziligi bilan bo‘ldi: u o‘zining chiroyli erkasini har jihatdan munosib bo‘lgan kishiga berganidan xursand edi. Nikoh marosimi Shel-

bixonim uyidagi katta zalda o'tkazildi. Qalliqning go'zal sochlarini bekaning o'zi gullar bilan bezadi, so'ngra uning boshiga, nikoh ro'molini yopintirdi. Bu ro'mol, Elizaning boshiday go'zal boshni birinchi marta bezashi bo'lsa kerak. Hamma oq qo'lqop kiygan; pirog bilan vino serob. Mehmonlar qalliqning go'zalligidan va bekaning xushko'ngilligi va saxiyligidan zavqlanardilar. Bir-ikki yil Eliza eri bilan tez-tez ko'rishib turdi, ularning baxtli turmushlariga hech narsa xalal bermadi. Elizaning bu davrda birgina qayg'usi bo'lib, bu qayg'u – jonidan ham yaxshi ko'rgan ikki bolasining vafoti edi. U, bolalarining o'limi uchun juda qattiq musibat tortdi, beka esa onalarday g'amxo'rlik qilib, shirinso'zlik bilan uni yupatar va jo'shqin fe'lli Elizani aql-idrok yo'liga solib yuborish uchun harakat qilardi.

Jajjigina Garri tug'ilgandan keyin Eliza asta-sekin ovundi. U, eri Jorj fabrikada to'satdan ishdan olinib, qonuniy egasining jabr-zulmi ostida qolib ketgunigacha o'zini to'la baxtiyor his etdi.

O'z so'ziga sodiq fabrikant Jorj ketgandan ikki hafta o'tgandan keyin: „Mister Garrining achchig'i bosilgandir endi“, degan umid bilan uning oldiga keldi va har xil bahonalar bilan uni – Jorjni fabrikaga yuborishga ko'ndirmoqchi bo'ldi.

– Bunday gaplar bilan behuda ovora bo'lmang, – dedi xo'jayin qat'iy suratda. – Nima qilishim kerakligini yaxshi bilaman, ser.

– Sizning ishingizga aralashishga haddim yo'q, ser. Ammo, men o'ylovdimki, biz taklif qilayotgan shartlarni qabul qilib, uni bizga bersangiz, siz uchun foydali bo'lar edi.

– Ey, gapning tagi qayerda ekanligini yaxshi bilaman! Sizning Jorj bilan pichirlashganingizni ko'rganman! Meni

qo'lga tushurolmaysiz! Biz ozod mamlakatda yashaymiz, ser! Bu odam meniki, uni nima qilsam o'z ixtiyorim.

Jorjning so'nggi umidi ham chippakka chiqdi. Demak, uning kelgusidagi hayoti zahmat va kulfatlarga to'la bo'ladi, berahm, zolim xo'jayinining bachkana qiliqlari va jabr-zulmlari uning hayotini burungidan battar og'irlashtiradi.

III BOB

Er va ota

Shelbi xonim mehmonga ketdi. Eliza esa ayvonda turing, yiroqlashib borayotgan fayton orqasidan ma'yus qarab qoldi. Shu chog', to'satdan yelkasiga birovning qo'li tekkanini sezdi. Eliza o'girilib qaradi va chiroyli shahlo ko'zlarida tabassum yoyildi.

– Senmisan, Jorj! Juda qo'rqitib yubording! Kelganing uchun juda xursandman! Beka mehmonga ketdi, kech qaytadi. Yur bo'lmanga.

Shu so'zlar bilan u, erini ayvon oldidagi shinam uychasiga olib kirdi. Bu yerda u, odatda, chok tikib o'tirar va bekasiga yaqin bo'lganidan, chaqirgan zamon uning oldiga kelardi.

– Men juda baxtiyorman!.. Nega qovog'ing soliq?.. Garriga qara, katta yigit bo'lib qoldi!

Bola onasining dazmollangan burma ko'ylagidan ushlab, ko'ziga tushib turgan kokili ostidan otasiga qo'rqib-pisib boqardi.

– Buning yaxshiligini ko'r! – dedi Eliza, bolaning uzun kokilini ko'zi ustidan olib, uni o'parkan.

– Dunyoga kelmagani yaxshiroq edi! – dedi Jorj qayg'urib. – Mening o'zim ham tug'ilmaganim yaxshiroq edi!

Bu soʻzlardan choʻchigan va taajjublangan Eliza kursiga oʻtirib qoldi. Keyin boshini erining yelkasiga qoʻyib, yigʻlay boshladi.

– Menga shunisi ogʻirki, seni ham azob chekishga majbur qilyapman, – dedi Jorj mayingina, – nega bir-birimiz bilan uchrashdik? Men boʻlmasam, sen baxtiyor boʻlarding.

– Jorj, Jorj, bunday soʻzlarni aytishga qanday tiling boradi! Boshingga biron kulfat tushib qoldimi? Men shu choqqacha sen-u men baxtiyormiz, deb yurardim.

– Toʻgʻri, baxtiyor edik, azizam! – dedi Jorj.

U, oʻgʻilchasini tizzasiga oʻtkazdi-da, goʻzal qora koʻzlariga tikilib, uzun kokillarini taray boshladi.

– Xuddi oʻzing-a, Eliza! Men senday chiroyli va yaxshi odamni hech koʻrgan emasman. Shunday boʻlsa ham, sen bilan uchrashmasam yaxshiroq boʻlardi!

– Hoy, Jorj, nima deyapsan?

– Shunday, Eliza, kelajagimiz qaygʻu, alam, hasratdan iborat. Mening turmushim qalampirdek achchiq! Mendagi hayotga boʻlgan havas va ishtiyoq bitdi. Men yuk tashiydigan bechora va shoʻrlik bir maxluqman. Mening kaso-fatimga uchrab sen ham baxtsiz boʻlasan. Men seni ham jarga sudrayapman. Biror ish qilish uchun, biror narsani oʻrganish va biror narsaga erishish uchun harakat qilishning nima keragi bor? Yashab nima qilaman? Oh, oʻlib qoʻya qolsam deyman?

– Bunday yomon gaplarni soʻzlagani uyalmaysanmi, azizim Jorj? Fabrikadagi joyingdan mahrum qilinganing uchun qattiq azob chekayotganingni ham, xoʻjayiningning berahmligini ham bilaman. Ammo yolvorib soʻrayman: sabr qil. Ehtimol...

– Sabr qil emish? – dedi u Elizaning soʻzini boʻlib. – Men sabr qilmayapmanmi? Hamma men bilan juda xush-

muomala bo'lgan fabrikaga xo'jayinim kelib, hech qanday vajsiz, to'satdan u yerdan olib ketganda, men bir so'z aytdimmi? Maoshimni tiyinigacha unga berib keldim, fabrikada ishimga hamma qoyil edi.

– Rost, bu juda yomonku-ya, – dedi Eliza. – Lekin nachora, u sening xo'jayining.

– Xo'jayining emish! Uni kim menga xo'jayin qilibdi? Men ham o'shanga o'xshagan odamman. Hatto undan yaxshiroqman: har qanday ishni undan yaxshiroq tushunaman va uddalayman, men undan yaxshiroq xo'jayinman, undan ko'ra yaxshiroq o'qib, yoza olaman. Bularning hammasini o'zim o'rganganman, mening undan qarzim yo'q. Aksincha, u mening o'qishimga xalal beryapti. Bas, shunday ekan, meni otday ishlatishga nima haqi bor? Meni yaxshi ko'rgan ishimdan ayirib, hatto ot ham qilolmaydigan ishga buyurish insofdanmi? U meni rasvo qilish uchun jo'rttaga eng iflos va og'ir ishga yuboradi. Menga: „Seni oyoqosti qilaman, xo'rlayman“, deydi.

– Hoy Jorj, Jorj, qo'rqyapman! Sen hech vaqt bundaqa gapirmasding. Biror yomon ish qilib qo'yasan deb qo'rqyapman. Bilaman – senga oson emas, lekin og'ir bo'l, azbaroyi men va o'g'ilchang haqi o'zingni tut!

– Og'irlik qildim, chidadim, lekin kun sayin battarroq bo'lyapti. Endi mening tanam bunday azoblarga bardosh berolmaydi. Xo'jayin meni bo'lar-bo'lmasga hadeb haqorat qilishga harakat qiladi. Ishini tez va yaxshilab bajarsam, o'qishim uchun bo'sh vaqt qoladi, deb o'ylagan edim. Ammo qancha ko'p ishlasam, u ustimga shuncha ko'p ish yuklaydi. U menga: „Sen jimgina yursang ham ichingda shayton bor, men o'sha shaytonni ichingdan haydab chiqaraman!“ – deydi. O'lay agar bir kunmas-bir kun o'sha shayton ozodlikka chiqib, bu zolimning jazosini beradi!

– Hay azizam! Nima qilsak ekan? – deb so‘radi Eliza ma’yuslanib.

– Kecha aravaga tosh yuklayotgandim. Yosh mister Tom otning yonida qamchi o‘ynatib turardi. Qamchini ko‘rib, ot hurkdi. Men undan, yaxshilikcha qamchini bu yerda o‘ynatmasligini so‘rasam, quloq solmadi. Men yana iltimos qildim, u o‘girila solib, qamchisi bilan meni ura boshladi. Qamchilayotgan qo‘lini ushlagandim, dodlab pitirlay boshladi, so‘ngra otasining oldiga borib: „Meni urdi“, deb chaqdi. Hash-pash deguncha otasi g‘azab bilan yugurib kelib, menga: „Xo‘jayining kim ekanligini bildirib qo‘yaman!“, – dedi va meni daraxtga bog‘lab, ancha xipchin kesdi va o‘g‘liga berib: „Qo‘llaring charchaguncha ur!“ – dedi. O‘g‘li otasi aytgancha qildi. Mayli! Bir kun men ham bularning barini uning yodiga solib qo‘yaman!

Yigitning yuzida xafaqonlik kezdi. Ko‘zlari dahshat aks etib chaqnadi, yosh xotin cho‘chib ketdi.

– Bu odamni menga kim xo‘jayin qilib qo‘ygan, shuni bilгим keladi! – dedi u.

Eliza titraganidan churq etmasdi. U hech qachon erini bunday darg‘azab ko‘rmagandi.

– Menga sovg‘a qilgan bechora kuchuging esingda bormi? – deb so‘zini uladi Jorj. – Bu it men chekkan barcha jafo va mashaqqatlarimda hamdam edi. Kechasi birga yotardik, kunduzlari esa qayerga borsam orqamdan ergashib borardi, mening sezgilarimni tushungandek, yuzimga qarardi. Yaqinda oshxona eshigi tagida unga salqit ovqatlar yedirib turgandim, xo‘jayin kelib qoldi va menga qarab: „Itning ham xo‘jayinning ovqatini yeydi; har qaysi negrning bittadan it asrashiga yo‘l qo‘yolmayman. Itning bo‘yniga tosh bog‘lab hovuzga tashla!“ – dedi.

– Jorj, sen buni qilmagan bo‘lsang keraga?

– Qilolmadim-u, ammo uning o‘zi itni suvga cho‘ktirib

yubordi. Cho'kib ketayotgan itni Tom ikkovi tomosha qilishdi. Sho'rlik it!.. U xuddi men uni qutqazib olmayotganday ko'zlarini jovdiratib, qutqarmayotganimga hayron bo'lgandek qarardi. Keyin esa: „Itni suvga cho'ktirishdan bosh tortding, deb meni kaltakladilar. Mayliga, kaltaklayversinlar! Bir kun menga ham gal kelar va kaltak yeb „yuvosh“ bo'lmaganimni xo'jayin o'z tanasiga tushgan zarbalardan bilib qoladi. Agar o'zini tiymasa, jazosini beraman. Sening bundan hali xabaring yo'q.

– Yana nimalar bo'lishi mumkin?

– Yaqinda xo'jayin menga: Elizaga uylanishingga ijozat berib juda chakki qildim“ – dedi. Mister Shelbini ham, uning yaqin kishilarini ham juda yomon ko'rganligini aytdi. Ular mag'rur emish, xo'jayinni pisand qilmasmishlar. Uning aytishicha, oliftalik qilishni menga sen o'rgatarmishsan. Shuning uchun meni endi bu yoqqa yubormasmish, boshqa xotin olib berib, o'z mulkidan joy qilib berarmish. Avvallari u vaysab so'kinardi, xolos, kecha esa: „Mmnaga uylanib, bostirmaga joy qilib ol, yo'qsa Janubga sotib yuboraman seni!“ – dedi.

– Axir, sen menga uylangansan-ku! Ruhoniy oqlarga o'qiganday qilib bizga ham nikoh o'qigan-ku, – deb qichqirdi Eliza soddadillik bilan.

– Nainki, qulning uylana olmasligini bilmasang? Qulga nikoh ahdi qilish uchun ruxsat beradigan qonun yo'q. Agar xo'jayin bizni bir-birimizdan ajratishni istasa, sen mening xotanim bo'lmay qolaverasan. Shuning uchun ham, seni ko'rmaganimda yaxshiroq bo'lardi, tug'ilmasam yaxshiroq edi, deb aytaman. Bizning ikkimiz uchun ham o'shanda yaxshi bo'lardi. Mana bu sho'rlik bola uchun ham yaxshi bo'lardi. Shunday og'ir kulfat buning boshiga ham tushishi mumkin.

– Axir, mening xo'jayinim, muruvvatli odam!

– Kim bilsin? U vafot etsa, bolani noma'lum joyga sotib yuborishadi. Bunda, bolaning husni, aqli va quvnoqligidan nima foyda? Ko'rasan, Eliza, o'g'lingdagi hamma yaxshi fazilatlar uchun, uning hayotdan oladigan har bir quvonchi uchun joningni qattiq azobga soladilar. Bola chindan ajoyib bola bo'lib yetishganida ham, baribir yoningda saqlab qololmaysan.

Eliza bu so'zlarni yuragi achib tinglardi. Ko'z o'ngida qulfurushning jirkanch siymosi paydo bo'ldi. Uning rangi o'chib ketdi, o'lim shabadasini sezgandek, nafasi to'xtab qoldi. O'g'li ayvonga chiqib ketgandi; u, cho'chib ayvonga qaradi. O'g'il, o'z ota-onasining xafaqon suhbatidan zerikib, tashqarida mister Shelbining tayoqchasini minib, to'polon qilib chopib yurardi. Eliza eriga o'z gumonlarini aytmoqchi bo'ldi-yu, o'zini tutib qoldi.

„Yo'q, aytib nima ham qilaman, uning ahvoli busiz ham og'ir, – deb o'yladi u. – Balki, gumonim asossizdir. Beka bizni hech vaqt aldamaydi“.

– Xo'sh, azizim Eliza, ruhing tushmasin! Xayrlashaylik, men ketaman, – dedi eri ma'yuslik bilan.

– Ketasanmi, Jorj? Qayerga ketasan?

– Kanadaga – dedi u qomatini rostlab. – Kanadaga borganimdan keyin seni sotib olib cho'rilikdan qutqaraman. Bizning birgina umidimiz mana shu, xolos. Xo'jayining xushko'ngil odam, o'g'lim ikkingizni menga sotgani unasa kerak.

– Hoy Jorj, qo'rqaman!.. Ushlab olsalar nima bo'ladi?

– Ushlayolmaydilar! O'lsam o'laman-ku, ushlatmayman. Yo o'laman, yo ozod bo'laman!

– Jorj, nahotki o'zingni o'zing o'ldirsang?

– Bunga ehtiyoj bo'lmas deyman, ular o'zlari meni o'ldirishadi. Tirik ekanman, meni Janubiy shtatlarga hech qachon sotolmaydilar.

– Hoy Jorj, agar meni desang, ehtiyot bo'lib ish tut! O'zingni ham, boshqalarni ham yosh jonidan ayirma.

– Rejamni eshit, Eliza. Xo'jayin qo'limga xat berib, Simme degan bir misterning oldiga yubormoqchi. U mister bu yerdan bir mil narida yashar ekan. Senga shuni aytib qo'yayki, u menga berayotgan hamma azoblari haqida senga hikoya qilib berishimni istaydi. Uning aytishicha, „Shelbining urug'i“ undan g'azablanib tutgan ishini qoralasa, xursand bo'lar emish. Men uning hamma dilorliklarini unutib, „Peshonamga yozilgani shu ekan-da“, deb uyga mo'min bo'lib tinchgina qaytaman. Qochishning taraddudini ko'rib ham qo'rganman; menga yordamlashadigan odamlar ham bor. Bir haftadan keyin men bedarak yo'qolib ketaman. Xayr endi, – dedi Jorj Elizaning qo'lidan ushlab va ko'ziga qarab.

Ular bir nafas jim turishdi. So'nggi so'zlar gapirildi, yig'i-sig'i bo'lib, achchiq ko'zyoshlar to'kildi! Qaytib sira uchrashish umidi yo'q kishilar abadiy vidolashgandek, er-xotin xayrlashdi.

IV BOB

Tom tog'a kulbasida bir kecha

Tom tog'aning kulbasi deb xo'jayinning uyiga tutashtan kichkina yog'och bino aytilardi. Kulbaning oldiginasida yaxshigina bog'cha qilingan bo'lib, astoydil parvarish qilinganidan, har yil yozda qulupnay va malinalar, turli meva-cheva va sabzavot bitar edi. Devorning oldingi tomonini qip-qizil katta begoniyalar va rang-barang jaydari gullar chulg'ab olgandi, bu gullar bir-biri bilan bus-butun chirmashib, kulbaning dag'al ustunlarini qoplab olgandi. Gulzorda yashnoq begoniyalar, oltinrang

gullar, bo'tako'zlar yashnab yotardi. Xloya xola bu gullar bilan faxrlanardi.

Xo'jayinning uyida kechki ovqat yeb bo'lindi. Bosh oshpaz vazifasini o'tovchi Xloya xola qozon-tovoqlarni tozalash va yuvishni yordamchilariga topshirib, o'zi cholini ovqatlantirgani uyiga jo'nadi – u erini „cholim“ deb atardi.

Mana u plita yonida turib, ovqatning biqirlab qaynayotganiga tashvish va qiziqish bilan quloq sola boshladi, keyin, tez qozoncha qopqog'ini oldi – otilib chiqqan bu mazali ovqat pishayotganidan darak berdi.

Uning xushchehra, yumaloq qora yuzi yarqirab ketdi, xuddi u yuziga, pirog betiga surkaganday, tuxum oqi surkab olganga o'xshardi. Ohorlangan qalpoqcha ostida bu yuzda chiroyli mamnunlik aks etardi. Xloya xolaning mamnun bo'lishiga sabab bor: u tevarak-atrofdan eng yaxshi pazanda bo'lib nom chiqargan.

Darhaqiqat, u chin oshpaz edi. Parrandalar qo'rasida Xloya xola paydo bo'lishi bilan, har bir jo'ja, kurka bolasi va o'rdak jo'jasini qaltiroq bosib: „Endi ajalim yetibdi“, deganday ko'rinardi. Ehtimol, bu jo'jalar Xloya xolaning hamisha qiyma, qovurma kabi xonaki qushlarga dahshat soladigan ovqatlarni o'ylab yurishini payqagandirlar. Uning makka unidan qiladigan piroglarining son-sanog'i yo'q. Ponchiklar-u, shirmoylar-u, mayiz kulchalarni aytin... Bularni shunchalik shirin va mazali qilib pishirishni hech kim bilmasdi. Bu hunariga birovlarning taqlid qilib, behuda ovora bo'lgani haqida kekkayib gapira boshlaganida semiz badani selkillardi.

Atayin chaqirilgan mehmonlar uchun tushki yoki kechki ovqat tayyorlanadigan bo'lsa, Xloya xolaning g'ayratiga g'ayrat qo'shildi. Mehmonlar kelib, ayvon chamadonga to'lib qolganda, u juda huzur qilardi; chunki

bu narsa yana mehnat qilishdan va yana shuhrat qozonishdan darak berardi.

Hozir Xloya xola ovqat tayyorlash bilan band. Uni qozon yonida qoldirib, Tom tog'a yashaydigan uyning tasvirini tugallaylik.

Bir burchagida karavot qo'yilgan, ustiga yaxshilab oppoq ro'ja yozilgan, karavot pastida, polda kattagina gilam solig'liq. Bu burchak – uyning eng izzatli joyi – Xloya xolaning qarorgohi edi. Gilam bilan karavot va, umuman, butunlaycha shu burchak yosh avlodning kufrlarcha qilinadigan vayronkorlik bosqinidan imkon boricha mahkam qo'riqlanardi. Bu burchak mehmonxona hisoblanardi.

Uyning ikkinchi burchagiga yana bir karavot qo'yilgan, ammo u birinchisiday yasatilgan emas. Aftidan, unda yotsalar kerak. Manqal pechka (kamin)ning chap devori Injildan olib ishlangan manzaralar va general Vashingtonning rasmi bilan bezatilgan, generalning rasmi shunchalik rango-rang qilib bo'yalganki, mabodo biror vaqt Vashington o'zining bu rasmini ko'ra qolsa, hayratdan og'zi ochilib qolar edi.

Burchakda qorako'z, dumaloq yuzli, qo'ng'irsoch ikkita bola dag'al ishlangan skameykada o'tirib, kichkina qizchanning teta-poya qilishini tomosha qilishardi. Qizcha salgina oyoq bosib turardi-da, keyin polga yiqilardi. Uning har bir yiqilishini bolalar ajoyib, oqilona ish singari juda zavqli kulgi bilan qarshilardilar.

Manqal pechka oldida ustiga dasturxon yopig'liq, oyog'i qaltirab turgan stol turardi. Uning ustida idishlar va, umuman, ovqatlanish uchun zarur narsalar bor edi.

Stol yonida mister Shelbining o'ng qo'li hisoblanmish Tom tog'a o'tirardi. Tom tog'a bosh qahramonimiz bo'lgani uchun uni o'quvchilarimizga yaxshigina tasvirlab berishimiz kerak. U – barvasta, kuchli, kiftlari keng,

qora terisi yaltirab turgan odam edi, uning yuzlarida jiddiylilik va aqllilik aks etardi. U so‘zlashganda izzatga loyiq yo‘sinda o‘zini dadil, hamda shu bilan birga kamtar va sodda tutardi.

U, oldidagi toshtaxtaga sekin va zehn qo‘yib harflar yozardi, uning bu ishiga o‘n uch yashar sho‘x bola – yosh mister Jorj qarab turardi, u zo‘r ishtiyoq bilan o‘qituvchilik rolini bajarardi.

– Bundaymas, Tom tog‘a, bundaymas! – dedi u as-toydil qichqirib, Tom tog‘aning „e“ harfining dumini noto‘g‘ri yoqqa chiqarayotganini ko‘rib. – Seniki „e“ emas, „Z“ bo‘lib chiqyapti.

– Rost, boshqa narsa chiqyapti! – dedi Tom tog‘a, kichkina muallimining „e“ va „z“ harflarini katta-katta qilib bir necha marta yozishiga ehtirom va havas bilan qarab.

Tom tog‘a yo‘g‘on barmoqlari bilan toshtaxtani yana ushlab, qunt bilan harflarni yoza boshladi.

Xloya xola bir chekkada, pirog pishiradigan tovaga cho‘chqa yog‘i solarkan:

– Oqlar shunaqa ishlarni birpasda qilib tashlaydi-ya! – dedi ishini bir dam to‘xtatib.

U zavq bilan Jorjga qaradi:

– Judayam ajoyib: ham o‘qiydi, ham yozadi, tag‘in kechqurun kelib bizlarni o‘qitadi ham.

– Xloya xola, qornim juda ochdi, – dedi Jorj. – Pirog hali ham pishgani yo‘qmi?

– Hozir pishadi, mister Jorj, – dedi Xloya xola, pirog pishayotgan pechkaning qopqog‘ini ko‘tarib. – Qizarib pishayotganini ko‘ring! Pirog pishirishga chakanamasman. „Yaqinda bekamiz o‘rgansin“, deb Selliga pirog pishirtirdi. Shunda men: „Oh, bekam, – dedim unga, – shuncha narsaning nobud bo‘lishiga chidab turolmayman! Axir ko‘ring, pirog xuddi kavushimga o‘xshab qiyshayib ket-

di, xunukligini ko'ring, aftiga qarab bo'lmaydi-ya; uyat, nomus qilasan kishi! E, bu uning ishimi axir!“

Xloya xola Sellining tajribasizligiga ijirg'anib qarangani ana shu tarzda izhor qilib, pechkani ochdi, shunda hammalari juda yaxshi pishirilgan shirin pirogni ko'rdilarki, shahar konditerlari ham bunday pirog pishirsalar jon derdilar.

Eng muhim ish qilingach, endi Xloya xola quvonch bilan dasturxon yoza boshladi.

– Qani, hay Moz, hay Pit, yo'lni to'smang, negrchalar! Nariroq tur, Polli, jonginam, onang hozir seni ham ziyofat qiladi. Mister Jorj, kitobni yig'ishtirib cholim yoniga o'tiring. O'choqdan kolbasani olay, keyin bir zumda tarelkangizda pirog hozir bo'ladi.

– Meni ovqatlangani uyga chaqirgandilar, – dedi Jorj, – lekin, Xloya xola, siznikida shirin ovqat pishishini ko'nglim sezib turuvdi.

– Har holda qolib yutqizmadingiz! – dedi Xloya xola uning tarelkasiga hovuri burqib chiqayotgan pirogni qo'ya turib, – kampir sizga pirogning eng yaxshi joyini olib qo'yishini bilasiz-da! Siz ham chakanamassiz!

U dimog'i chog'likdan Jorjni barmog'i bilan turti va shu ondayoq tovaga o'girildi.

– Qani, pirogga qaraylik! – dedi Jorj, plita yonida ivirsirashlar biroz tingach va katta pichoqni olib, kesmoqchi bo'ldi.

– Mister Jorj, Xudo yorlaqagur! – dedi Xloya xola, qo'rqib quloch yozarkan. – Pirogni hali shunday katta pichoq bilan kesmoqchimisiz? Pirog cho'kib, mazasi ketadi. Mening kichkina eski pichoqcham bor, ataylab qayrab qo'yanman. Buni ko'ring, qushning patidek yengil... Ana endi olavering, marhamat. Bundaqa yaxshi pirogni hech qachon yemagansiz!

– Tom Linkolnning aytishicha, – dedi Jorj, og‘zini pirogga to‘ldirib, – ularning Djinni degan oshpazlari sendan yaxshi pishirarmish.

– Qo‘ysangiz-chi shu Tom Linkolningizni! – dedi nafratomuz Xloya xola. – Linkolnlarni bizning xo‘jayinlarimiz bilan tenglashtirasiz-a! Albatta ular ham hurmatli odamlar-u, ammo rostini aytganda, soddaroq odamlar. Ular yaxshi ovqat qanday bo‘lishini bilishmaydi. Mister Linkolnni mister Shelbi bilan tenglashtirib bo‘ladimi axir! Linkoln xonim esa uyga mening bekam kabi ulug‘vorlik bilan kira oladimi? Shunday mag‘rurlik va jiddiylik bilan-a? E, menga Linkolnlarni pesh qilmay qo‘ya qoling!

Bu so‘zlarni aytarkan, Xloya xola: „Bunaqa ishlarni boshqalar tushunmasa ham men juda yaxshi tushunaman“, degandek boshini chayqab turardi.

– Djinni juda mohir oshpaz, deb maqtaganingni o‘zimga eshitgandim-ku, – deb uning so‘zini bo‘ldi Jorj.

– Ha, aytganman, aytaman ham, Djinni oddiy ovqatlarini yaxshi pishira oladi... Kartoshka pishirishga usta... Lekin makka piroglarining mazasi yo‘q, boshqa oshpazlarnikidan yaxshi ham emas, yomon ham. Ammo a‘lo darajadagi pazandalikni olsangiz, bu masalada u nimani tushunadi? Albatta, u pashtet pishira oladi, lekin uni qirmoch oldirib yuboradi! U og‘izga tushmasdan erib ketadigan, tivitdek yengil pirojniy pishira oladimi? Esimda bor, Meri xonim erga tegayotganda, Djinni pishirgan pirogini menga ko‘rsatdi. Djinni bilan biz qalin do‘stmiz, shuning uchun unga hech nima demadim... Lekin, mister Jorj, men shunaqa pirog pishirsam bormi, nomus qilganimdan, bir haftagacha uxlayolmasdim.

– Ehtimol, Djinni o‘zi pishirgan pirogini eng yaxshi pirog deb o‘ylagan bo‘lsa kerak, – dedi Jorj...

– Bo'lmasam-chi! Eng yaxshi deb o'ylagan, albatta! Yo'qsa uni ko'rsatib maqtanarmidi bechora! Uning bir paqirga arzimasligi xayoliga ham kelmagan. Gap shundaki, u pirog pishirishni bilmaydi. Uning xo'jayinlari esa buning fahmiga yetishmaydi! Unda ayb ham yo'q, undan hech narsa talab qilib ham bo'lmaydi! E, mister Jorj, qanday baxtiyor oilada yashayotganingizni bilmaysiz ham!

Xloya xola shu gaplarni aytib uf tortdi va ta'sirlan-ganidan ko'zini yuqori ko'tardi.

– Bizning pashtet va pudinglarimiz boshqalarnikidan yaxshi ekanligini juda yaxshi bilaman va bundan faxrla-naman ham, – dedi Jorj. – Tom Linkolndan so'rang-chi, ko'rganda har safar uning g'ashini keltirib, piroglarini masxara qilaman.

Xloya xola kursiga o'tirarkan, yosh xo'jayinning hazi-lidan xursand bo'lib, qah-qahlab kuldi. U qattiq kulgani-dan, yaltiroq qora betlaridan yoshlar oqa boshladi. U, Jorjni turtib va yelkasiga qoqib, „Hazilingiz qursin, meni kuldirib o'ldirayozdingiz“, deb qotib-qotib kula berdi. U shunday kulardiki, Jorj o'zini: „Men – chindan ham o'tkir hazilkash bo'libman shekili“, deb o'yladi.

– Siz Tomga shunday deb aytdingizmi? Tomning g'ashini keltirmadingizmi? Rosa boplad-ingizmi? Mister Jorj, har qanday odamni kuldirasiz!

– Ha, – dedi Jorj. – Unga men: „Tom, sen Xloya xola-ni piroglarini ko'r! Ana uni pirog desa arziydi!“ – dedim.

– Bechora Tom! Afsuski, u piroglarimni ko'rolmay-di-da, – dedi Xloya xola.

Tom Linkolnning mushkul ahvolga tushib qolganligi-ga bu xushko'ngil ayolning qayg'urayotganligi ko'rinib turardi.

Uni tushlikka chaqirganingizda juda yaxshi bo'lar-di-da. Bilasizmi, mister Jorj, hech kimning oldida katta-

lik qilish kerakmas, buni esingizdan chiqarmang, – dedi Xloya xola juda jiddiy ravishda.

– Tomni kelasi hafta chaqiraman, – dedi Jorj, – sen esa, Xloya xola, bir uning og‘zini ochirib qo‘y. Bir to‘ydirki, ikki haftagacha ovqat yeyolmasin.

– To‘ydiraman ham, – dedi zavq bilan Xloya xola. – Ko‘rasiz! Bizning ba‘zi ovqatlarimiz esingizda bormi? General Noks biznikida ziyofatda bo‘lganida pishirgan tovuq pashtetimni unutib bo‘ladimi? O‘shanda qirmochini talashib beka bilan urishib qolayozgandik. Bilmayman, goho xonimning miyasiga g‘alati narsalar keladi. Odamning zimmasiga juda katta mas‘uliyatli ish yuklangan ekan, oshpaz u ovqatga bor hunarini ishlatishi kerak, ular bo‘lsa tevaragimizda ivirsishib, har narsaga aralashaveradilar, ishga xalal berishadi. Beka tepamga kelib olib, hadeb: „Unday qilma, bunday qil“, deyaveradilar. Nihoyat, toqatim toq bo‘lib ketib: „Beka barmoqlari uzun, chiroyli oq qo‘llaringizga bir qarang. Uzuklaringiz mening oq Nilufarlarimga tushgan shabnamdek yarqiraydi. Lekin mening qora cho‘ltoq qo‘llaringa ham qarang. Bularni ko‘rib, o‘ylaysizki, Xudoyi taolo meni „Oshxonada pashtet pishirsin“ deb, sizni esa „Mehmonxonada farog‘at qilsin“ deb yaratgan. U kishiga men ana shunday qattiq gapirganman, mister Jorj.

– Onam nima deb javob berdi?

– Nima deb javob berardi? Kattakon shahlo ko‘zlarini o‘ynatib kuldi-qo‘ydi. Keyin: „Xo‘p, xo‘p, gaping to‘g‘ri, Xloya xola“, deb o‘girilib, mehmonxonaga kirib ketdi. Aslida, mening bunday dag‘al so‘zligim uchun boshimni uzib tashlashi kerak edi-yu, lekin nima qilay, fe‘lim qurg‘ur shunaqa: beka oshxonada bo‘lsa ishlayolmayman.

– O‘shanda juda shirin ovqat pishirgan eding, esimda... Hammalari maqtashgandi, – dedi Jorj.

– Ha, balli! O‘shanda men oshxonaning eshigi tagida turmabmidim? Generalning: „Shu pashtetdan solinsin“, deb tarelkasini uch marta uzatganini ko‘rmabmidim? Boz ustiga: „Shelbi xonim, ko‘p ajoyib oshpazingiz bor ekan-da!“ – demabmidi? Suyunganimdan yorilib ketay dedim, azbaroyi Xudo! General esa ovqatning mazasini ko‘p tushunadigan odam! – deb jiddiyat bilan so‘zini davom etardi Xloya xola. – Juda yaxshi odam ekan bu general! Qadimgi Virginiyaning eng atoqli zotlaridan ekan. Ovqatning fahmini ham mendan kam tushunmaydi. Bilasizmi, pirog shunday narsaki, uni tushunib yeyish kerak, ammo buning eng muhim joyi nimada ekanligini har kim ham bilavermaydi. General bo‘lsa buni bilar ekan, buni darhol sezdim. Ha, u pirogning qadr-qimmatini tushunar ekan!

Bu orada Jorj shu holga yetdiki, hatto o‘g‘il bolalar ham (rost, bunday hol kam uchraydi) bu darajaga yetganlarida ortiq bir to‘g‘ram ham yeyolmay qoladilar. Shundagina u, qo‘ng‘ir sochli, shahloko‘z negrchalarga ko‘zi tushdi: ular uyning narigi burchidan katta ishtaha bilan Jorjga va Xloya xolaga qarab turardilar.

– Ushla, Moz, Pit! – dedi u, pirogdan burdalab sindirib, negrchalarga tashlarkan. – Yeysizlarmi? Xloya xola, ularga ham pishirib ber.

Jorj bilan Tom manqal pechka yonidagi bejirimgina burchakka o‘tirib olishdi. Xloya xola esa ancha-muncha pirog pishirib, keyin qizchani tizzasiga o‘tirg‘izdi-da, navbat bilan dam o‘zining og‘ziga, dam bolaning og‘ziga burdalab pirog sola boshladi. Pit bilan Moz, aftidan, ovqatni stol ostida yeyishni bexatar va ma‘qul ko‘rdilar shekilli, goh bir-birlarini qitiqlab, goh qizchanning oyoq uchidan tortib, u yerda anchagacha yumalashdilar.

– Ketinglar bu yerdan, – dedi ona, stol ostida to‘polon juda kuchayib ketganda, ularni oyog‘i bilan sekin turtib. –

Oqlar uyingizga mehmonga kelganda odobli bo'linglar. Bo'ldi, bo'ldi deyman!.. Yo'qsa, ta'ziringizni yeysizlar. Mister Jorj ketsin-chi, sizlarning adablaringni bermasam...

Bu dahshatli po'pisaning nimadan iborat ekanligini tushuntirish uncha oson emas. Xuddi mana shuning uchun ham yosh gunohkorlarga bu gap juda sust ta'sir qildi.

– Ana endi shunday avjga chiqishdiki, o'zlarini to'xtata olishmadi! – dedi Tom.

Bolalar stol tagidan chiqishdi. Ularning qo'l va yuzlari shira edi, shu ahvollaricha ular qizchani zo'r berib o'pa boshlashdi.

– Yo'qolinglar bu yerdan! – deb qichqirdi ona, ularning qo'ng'irsoch boshlaridan tortib, – Hademay shira betlaringiz bir-biriga yopishadi, agar o'zlaringizni shunday tutsalaringiz, keyin hech ajratolmaysizlar! Ariqqa bo'rib yuzlaringni yuvinglar.

Bu maslahat orqasidan qattiq shapaloq tushdi, bundan bolalar yanayam qattiqroq kulishdi. Ostona orqasida ular shiddat bilan bir-birlariga to'qnashdi va zavqlanib yana chiyillashdi.

– Bunday bo'lmag'ur bolalarni hech ko'rganmisiz? – dedi Xloya xola mamnunlik bilan.

U, shu ish uchun maxsus saqlangan eski sochiqni oldi, keyin yoriq choynakdagi suv bilan ho'lladi-da, qizchanning beti va qo'lidagi shirani arta boshladi. Xloya xola qizchanning yuzini yaltiratib tozalagach, uni Tomning tizzasiga qo'yib, o'zi stol ustini yig'ishtirishga kirishdi.

Qizcha Tomning burnidan tortar, betini timdalar, semiz qo'lchalarini uning qo'ng'ir sochlari ichiga yashirar va bundan juda huzurlanar edi.

– Judayam sho'x qiz-da! – dedi Tom, uni boshdan oyoq ko'rsatish uchun qo'liga baland ko'tarib.

Tom o'rnidan turib, qizchasini o'z yelkasiga mindirdi-da, sakrab o'ynay boshladi. Jorj qizchaga dastro'molchasini ko'rsatib uni aylantirar, yuzlarini yuvib qaytib kelgan Moz bilan Pit esa qizchaga qarab ayiq singari bo'kirishardi, nihoyat, Xloya xola ularga: „Shovqin-ingizdan boshim yorilib ketayozdi“, dedi. Biroq uning gaplari kor qilmadi. Bunday to'polon, uning aytishicha, kulbada oddiy hodisa bo'lib, xushchaqchaqlik hammalari holdan toyib yiqilib qolguncha davom etardi.

– O'yinlarning tamom bo'lgandir, – dedi Xloya xola, qo'pol yig'ma karavotni yozarkan. – Endi Moz va Pit, yotib uxlanglar, chunki tezda ibodat qilgani odamlar kelishadi.

– Uxlashni xohlamaymiz, oyi. O'tirib odamlarning ibodat qilishini ko'ramiz. Juda qiziq bo'ladi. Tomosha qilaylik, oyi, xo'pmi?

– Hoy, Xloya xola, karavotni yig'ishtirib qo'y, o'tirsa o'tirishaversin, – dedi Jorj haligi karavotni birdaniga tepib.

Odobga rioya qilinganidan xursand bo'lgan Xloya xola ochiqdan ochiq suyunib, karavotni yashirarkan: „Balki, ularga buning foydasi tegib qolar“, dedi.

Uydagilar qanday qilib ibodatga yaxshiroq tayyorlanish haqida maslahatlasha boshlashdi.

– Shuncha kursini qayerdan topaman, boshim qotdi, – dedi Xloya xola.

Shuni aytish kerakki, Tom tog'aning kulbasida ibodat marosimi har haftada bir maromda kursi bilan o'tardi, shunga binoan, ibodat qilgani keluvchilarning bu safar ham bir iloj qilib joylashishlariga ishonsa bo'lardi.

– O'tgan hafta Piter tog'a ana bu kursining ikkita oyog'ini sindirib qo'ydi, – dedi qo'qqisdan Moz.

– Yo'qol, o'zing sindirgansan, sening qilig'ing bu, – dedi Xloya xola.

– Mayli, devorga suyab qo‘yaman, turaveradi! – dedi Moz.

– Lekin unga Piter tog‘ani o‘tirg‘izish kerakmas, – dedi Pit. – Piter tog‘a ibodat qilayotganda kursini doim minib yuradi. O‘tgan safar u kursini minib uyni bir aylanib chiqdi.

– Yo‘q, uni albatta oyoqsiz kursiga o‘tirg‘izish kerak, – deb e‘tiroz bildirdi Moz. – U: „Ma‘sumlar va gunohkorlar, kelinglar, mening so‘zimga quloq solinglar“ duosini maqomga solib o‘qiy boshlashi bilan kursi taq etib sinadi-yu, u polga do‘mbaloq oshib tushadi.

Moz, kekxa Piter tog‘ani masxaralab, do‘ng‘illab duo o‘qidi, keyin bo‘lishi mumkin sanalgan falokatni qilib ko‘rsatish maqsadida polga yumaladi.

– To‘g‘ri o‘tir! – dedi Xloya xola. – Uyalmaysanmi?

Mister Jorj masxarabozning tarafini olib, „Moz yaxshi bola“, dedi. Shuning uchun ham, onaning gapi hech natija bermadi.

– Qani, chol, – dedi Xloya xola eriga, – bochkachalarni olib kel bu yoqqa.

– Esingda bormi, o‘tgan hafta bitta bochkaning tagi tushib ketib, ibodat qilayotganda hammalari yiqildi, – dedi Pit.

– Qiziq bo‘luvdi-da!

Uyga ikkita bochkachani olib kirdilar va qimirlamasin uchun ostiga tosh tirab, ustiga taxta qo‘ydilar. Keyin bir necha tog‘ora va paqirlarni to‘ntarib qo‘ydilar, oyog‘i butun kursilarni joy-joyiga o‘rnashtirdilar. Shu bilan hozirlik tamom bo‘ldi.

– Mister Jorj juda yaxshi o‘qiydilar. Shu yerda qolib bizga o‘qib bersalar juda ajoyib ish bo‘lardi-da! – dedi Xloya xola.

Jorj darhol unadi, chunki har bir bola kattalik qilishni yaxshi ko‘radi.

Uy ichi tez orada turli-tuman odamlarga to'ldi. Bu yerda sakson yashar oppoq sochli bobo ham, yoshi o'n beshdan oshmagan bolalar ham bor edi. Beg'araz laqmalik boshlandi. Selli xola buncha chiroyli ro'molni qayerdan oldi ekan? Beka o'ziga yangi kiyim tiktirgach, muslin ko'ylagini Elizaga bermasmikan? Mister Shelbi shunday toy sotib olarmishki, dovrug'i hamma yoqqa ketarmish. Keluvchilarning ba'zilari boshqa xo'jayinlarning qullari bo'lib, bu yerga egalarning ruxsati bilan kelgan edilar. Ular boshqa qo'rg'onchalarda nimalar bo'layotgani haqida bir qop gap, g'iybat olib kelgandilar. Xullas, yuqori tabaqa kishilari to'planishganda yangi xabarlarini bir-birlariga qanday aytishsalar, bu yerda ham shunday edi.

Birozdan keyin qiroat boshlanib, hamma suyunib ketdi. Ovozlar birmuncha dimog'dan chiqsa ham, bu tug'ma qiroatxonlarning ilhom bilan o'qigan qiroatlarida qandaydir nafas bor edi.

Quyidagi so'zlar, ayniqsa, chuqur his va viqor bilan o'qildi:

*O'laylik jang maydonida,
O'laylik jang maydonida,
Shon-sharaflar bo'lur bizlarga.*

– Sevib o'qiladigan yana bir surada quyidagi so'zlar ko'p marta takrorlanardi:

*Farog'atga boraman – men bilan ketmaysanmi?
Farishtalar meni chorlar – ko'ryapsanmi?
Mangu zar shahri, so'nmas kun kutar bizni!*

„Dajla sohillari“, „Xanaan dashtlari“ va „yangi Quddusi sharif“ so'zlari to'xtovsiz eslatib o'tiladigan baytlar ham bor edi. Chunki, ta'sirga beriluvchi tetik negrlar jo'shqin iboralar hamda yaxshi tasvirlangan obrazlarni yoqtiradilar.

Qiroat vaqtida ular goh kulishar, goh yig'lashar, goh chindan ham boshqa sohilga eson-omon yetib olgandek, chapak urishib, bir-birlariga bosh silkishardi.

Ular, qiroat bilan birga, nasihatgo'ylik va ibratli qis-salar ham aytishardi. Anchadan buyon ishlaymay qolgan, o'tmishning jonli tarixi kabi, hamma hurmat qiladigan bir oqsoch kampir o'rnidan turdi-da, hassasiga suyanib, dedi:

– Bolalarim, men sizlarni yana bir marta ko'rib, qiroatlaringni eshitganim uchun baxtiyorman, chunki men farog'atda bo'luvchilar yurtiga qachon ko'chib ketishim-dan bexabarman, lekin, bolalarim, men tayyorman; sa-far tugunim bog'langan, qalpoqcham boshimda, faqat-gina meni uyimga eltib qo'yadigan aravani kutyapman, xolos. Ba'zi kechalari bu aravaning g'ildirak ovozlari-ni eshitgandek bo'laman. Bolalarim, sizlar ham shaylanib turinglar, – dedi u tayog'ini polga urib, – chunki farog'at buyuk ishdur. Sizlar esa uning g'amini yemayapsizlar. Bu ishingizga hayronman.

Kampir o'tirarkan, ko'zyoshlari yuzidan oqardi, atrof-dagi kishilar esa:

*Hoy Xanaan, yorug' Xanaan,
Xanaan ortiga tezroq yetay derman! –*

deb qiroat qila boshladilar.

Mister Jorjdan Apokalipsisning so'nggi boblarini o'qib berishini iltimos qildilar; u o'qirkan, uning qiroati:

– Voy-voy!

– Buni qarang-a!

– Shu gaplarning hammasi bo'lganmikan? – degan so'zlar bilan bo'linib turardi.

Jorj zehni, ziyrak bola edi. Hamma undan zavqlana-yotganini sezib, u goh-goh tushunarli bo'lmagan son-larga o'zidan so'z qo'shib, sharhlab bordi va bu bilan

kichiklarning zavqiga va kattalarning minnatdorchiligiga sazovor bo'ldi. Hamma: „Ruhoniyning o'zi ham injilni bundan yaxshi tushuntirib berolmasdi. Juda soz“, deb xursand bo'lardi.

Bu atrofdagi odamlar diniy ishlarda Tom tog'ani xuddi ruhoniylar kabi bilimlilar hisoblardi. U g'oyat axloqli, ko'pgina negrlarga qaraganda aqlli va bilimlilar bo'lib, ular Tom tog'ani xuddi ruhoniylar kabi hurmat qilishardi, uning sodda, samimiylar va yurakdan chiqarib aytadigan nasihatlarini bilimlilar tinglovchilarni ham ta'sirlantirardi. U, ayniqsa, ibodatni yaxshi qilardi. U ta'sirlantiruvchi soddalik, bolalarcha qiziqish va ishtiyoqlar bilan ibodat qilardi. U ibodat qilayotganida Injildan suralar keltirar va bu suralar hamma vaqt o'rinli bo'lardi. Eski bir dindor negrning so'zi: „U bexato ibodat qilardi“. Odatda, uning qiroatlari taqvodor somelarga shu qadar kuchli ta'sir qilardiki, hamma yoqni qattiq yig'i va oh-voh sadolari bosardi.

Qulning uyi – xursandchilik, uning xo'jayinining uyi esa – qattiq xafaqonlik bilan to'lgandi.

Oshxonada mister Shelbi va savdogar o'tirishardi. Ularning oldidagi stol ustida bir qancha qog'oz va yozuv asboblari yotardi.

Mister Shelbi bir turkum veksellarni sanab Geliga uzatar, u esa yana sanardi.

– Ishlar endi joyida bo'ldi, – dedi savdogar, – faqat mana bu tilxatlarga qo'l qo'yilsa bas.

Mistr Shelbi vasiqani oldiga tortdi-da, go'yo yoqimsiz bir majburiyatdan tezroq qutulishga harakat qilgandek, unga shoshilib qo'l qo'ydi va pullar bilan birga nariga surib qo'ydi.

Geli hamyonidan bir qog'ozni olib, unga ko'z yugurtirib chiqdi-da, keyin mister Shelbiga uzatdi. Mister Shelbi bu qog'ozni ochko'zlik bilan mahkam ushlab oldi.

– Ana endi ishimiz bitdi! – dedi savdogar o‘rmidan turib.
– Bitdi! – diqqat bo‘lib dedi mister Shelbi. Keyin og‘ir uf tortib takrorladi: – Bitdi!

– Bu ishlar sizga uncha ma‘qul tushmadi shekilli, – dedi savdogar.

– Geli, – dedi mister Shelbi o‘ylamasdan, – ishonamanki, siz o‘z va‘dangizni bajarib, Tomni yomon odamga sotmasangiz kerak.

– Siz o‘zingiz uni yomon odamga sotdingiz-ku ser, – dedi savdogar.

– Meni bunga sharoit majbur qilganini yaxshi bilasiz, – dedi mister Shelbi takabburona.

– Sharoit meni ham majbur qilishi mumkin, – deb javob qaytardi qulfurush, – lekin har holda Tomni yaxshi yerga joylashga urinib ko‘raman. O‘zim bo‘lsam uni ranjitmayman, xotirjam bo‘ling. Xudoga shukr, men hech qachon, hech bir sharoitda shafqatsiz bo‘lmayman.

Mister Shelbi yuqorida aytganimizdek, bu odamning insonparvarlik prinsipi nimadan iborat ekanligini bilgandi. Shuning uchun qulfurushning va‘dasi uning ko‘nglini tinchitmadi. Lekin shu tobda mister Shelbi vijdoniga xilof ish qilishga majbur edi, shu tufayli u savdogarga bir og‘iz ham javob bermaslikni afzalroq ko‘rdi. U indamay savdogar bilan xayrlashdi-da, sigara cheka boshladi.

V BOB

Tirik molning egasi o‘zgargach, holi nima kechadi?

Mister Shelbi bilan Shelbi xonim yotoqxonaga kirdilar.
Mister Shelbi keng kresloga cho‘zilib, tushki paytdan keyin kelgan xatlarni ko‘zdan kechira boshladi. Shelbi

xonim esa ko'zgu oldida turib, Eliza o'rib qo'ygan go'zal soch va kokillarini tarardi. U Eliza yuzining oqarib va ko'zlarining xumdek shishganini ko'rib, unga: „Qo'y, o'zim yechinaman, sen uyingga kirib yot“, dedi. Ammo sochini yozarkan, yosh ayol bilan ertalab bo'lgan suhbat uning yodiga tushdi, u qayrilib eriga qarab, beparvo so'radi.

– Ha, aytmoqchi, Artur, bugun tushlikka sudrab kelgan odobsiz odaming kim edi?

– Ismi – Geli, – deb javob berdi Shelbi, kresloda o'ng'aysiz aylanarkan, xatdan ko'zini uzmasdan.

– Geli? U kim o'zi? Bu yerda nima ishi bor ekan?

– Men so'nggi marta Natchezga borganimda u bilan oldi-sotdi qilgandim.

– Bir marta oldi-sotdi qilganing uchun, bu yerni o'z uyidek fahmlab, biznikida tushlik qilishga jur'at qilibdimi?

– Uni o'zim taklif qildim. U bilan ba'zi bir hisoblarim bor edi.

– U qulfurushmi? – deb so'radi Shelbi xonim, erining aft-angoridan qandaydir o'ng'aysizlikni payqab.

– Nima bo'ldi senga, azizim? Bunday behuda gaplarni senga kim aytdi? – dedi Shelbi unga qarab.

– Hech kim. Faqat tushlikdan keyin Eliza, bu yerga qon qaqqash yugurib kelib, sening qulfurush bilan so'zlashayotganingni va u senga: „Shu xotinning bolasini soting menga“, deganini aytdi. Tentak xotin!

– Eliza aytdimi? Shundaymi? – dedi Shelbi, yana xat o'qiy boshlab.

U bir qancha vaqt o'zini xat o'qish bilan banddek ko'rsatib o'tirdi. Holbuki xatni teskari ushlagan va buni sezmasdi.

U dilida: „Bu ish baribir ma'lum bo'ladi, yaxshisi tezroq ma'lum bo'lib qo'ya qolsin“, deb o'yladi.

– Men Elizaga: „Ahmoqsan, qo‘rqishlaringning hammasi behuda, mister Shelbining qulfurush bilan hech qanday aloqasi yo‘q“, deb aytdim, – dedi Shelbi xonim sochini tarab. – Men ishonamanki, sen o‘z odamlaringdan birortasini ham sotmaysan, Elizaning bolasi u yoqda tursin, hatto eng yomonini ham sotmaysan.

– Ha, Emili, – dedi mister Shelbi, – men o‘zim ham ilgari shunday deb o‘ylardim. Ammo, noilojmiz: hozir mening ishlarim shunday ahvoldaki, odamlarimdan birortasini sotishga to‘g‘ri keladi!

– Shu ablahga-ya? Yo‘q! Mister Shelbi, hazillashmang!

– Afsuski, chinini aytyapman. Tomni sotishga rozilik berdim.

– Nima, Tomimizni-ya? Yoshligidan buyon sening sodiq xizmatkoring bo‘lib kelgan, eng xushko‘ngil va vafodor odamni-ya? Hoy mister Shelbi, siz unga ozodlik va‘da qilgandingiz – bu to‘g‘rida unga o‘zingiz ham, men ham yuz marta aytganmiz! Endi men butun gapga ishon-sam bo‘ladi! Sho‘rlik Elizaning yolg‘iz o‘g‘li kichkina Garrini sotib yuborishingizga ham endi ishonaman! – dedi Shelbi xonim g‘azab va achinish bilan.

– Agar juda bilging kelsa, mayli aytib qo‘ya qolay: men ularning ikkisini – Tomni ham, Garrini ham sotishga rozilik berdim. Lekin shunga tushunmaymanki, boshqa odamlar har kun qilayotgan ishni men bir marta qilgan ekanman, nima uchun menga xuddi devga qaragandek qaraydilar?

– Xo‘sh, nega siz boshqa birovni emas, balki, albatta Tom bilan Garrini fido qiladigan bo‘ldingiz? – deb so‘radi Shelbi xonim. – Nega siz bizning shuncha negrlarimiz orasidan faqat shularni sotmoqchi bo‘ldingiz.

– Chunki boshqalardan ko‘ra bular uchun menga ko‘proq pul berishadi. Ana shuning uchun, agar xohlasang

boshqalarini ham sotaveraman. Savdogar, masalan, Eliza uchun katta pul taklif qilyapti. Lekin bilaman, bunday qil-sam sen xafa bo'lasan.

– Badbaxt, ablah! – deb g'azab bilan qichqirdi Shelbi xonim.

– Avval seni ko'ngling deb, uning so'ziga quloq so-lishni ham istamadim. Yolg'on desam, har narsa bo'lay, ishon!

– Do'stim, – dedi Shelbi xonim, o'zini bosib olib. – Meni afv et. Men picha qiziqqonlik qildim. Kutilmagan-da bu kulfat boshimga tushib qoldi. Men bunga mutlaqo hozirlanmagandim, shuning uchun bunchalik hayajonga tushdim. Lekin bu sho'rliklarni himoya qilish haqida men-ga so'z berasanmi? Tom qorabdan bo'lsa ham, oliyanob va sodiq kishi. Mening imonim komil, mister Shelbi, agar zarur bo'lib qolsa, u bizni deb jonini fido qiladi.

– Bunga men ham shubha qilmayman. Ammo vaqt o'tdi. Qo'limdan hech narsa kelmaydi.

– Puldan kechsak bo'lmaydimi? Men har qanday mashaqqatlarni tortishga tayyorman. Agar biz shu qurib ketgur daromadimizni deb halol va sodiq Tomni sotsak, men bu odamlarning yuziga qaysi yuz bilan qarayman? Men Eliza bilan uning bolasi to'g'risida, bolasiga nisbatan uning majburiyatlari va unì qanday tarbiyalash kerakligi to'g'risida so'zlashib, nasihatlar qilgandim. Agar uning bolasini tortib olib sotadigan bo'lsang, unga men nima deb aytaman? U bizning aldaganimizni va bolasini sotib yuborganimizni ko'rsa, bizga endi ishonadimi?

– Bu ishlarga sening shu qadar kuyunishing menga ham og'ir botadi, – dedi mister Shelbi. – Sening kechi-rayotgan hislaringga tamoman qo'shilmasam ham, ularga tan beraman. Ammo, senga yana aytay: naqadar kuyun-sang ham baribir foydasiz. Ne qilay, boshqa ilojim yo'q.

Senga bu haqda uzundan uzoq gapirmoqchi emasman, Emili. Lekin aslini surishtirganda, bu og'ir ahvoldan chiqish uchun faqat birgina yo'l bor: yo bizning butun qo'rg'onchamizni sotish kerak, yo bularning ikkisini. Yo bular sotiladi, yo hamma mulk ketadi. Geling qo'lida garov qog'ozi bor, agar unga qarzimizni darhol to'lmasam, bu qog'ozga muvofiq, bizning hamma mulkimizni oladi. Men pul jamg'ardim, tejadim, qarz oldim, faqat gadoylik qilmadim, xolos. Uchma-uch qilish uchun shuning ikkovini sotishga to'g'ri keldi. Geli bolani olgisi keldi va faqat shu shart bilan qo'rg'onchaga bo'lgan o'z huquqidan kechishga ko'nadigan bo'ldi. Men uning qo'lida edim, shuning uchun uning aytganiga ko'nishga majbur edim. Bularning ikkoviga juda rahming keladi, mayli, lekin butun mol-mulkingdan ajralganingda bundan ham yomon bo'lmasmidi?

Shelbi xonimning quti o'chdi. Keyin pardoj-javonchaga o'girilib, boshini qo'li bilan ushlab, oh torta boshladi.

– O'zingni tut, azizim! – dedi Shelbi. – Mening qarorimning zaruriyatdan ekanligini, mushkul ishni mumkin qadar jo'nlik bilan uddalashga harakat qilganimni tushungandirsan endi?

– Albatta, albatta! – dedi Shelbi xonim, garanglik bilan tilla soatini qo'lida aylantirarkan. – Menda qimmatbaho va nodir narsalar yo'q, – xayol surib davom etdi u. – Lekin bu soatni ham ancha pulga olar? Bir vaqtlari bu soatga katta pul to'langandi. Men Elizaning bolasini qutqazish uchun hamma narsamning bahridan kechardim.

– Emili, yuz berayotgan bu ishlar uchun shunchalik g'am chekayotganingga xafaman, juda xafaman. Lekin, nima qilay, hech ilojimiz yo'q. Ish bitgan, Emili. Sotilganligi haqidagi qog'ozlarga qo'l qo'yilib, Geliga topshirilgan. Ishning yanada xunukroq bo'lmagani uchun sen

minnatdor bo'lishing kerak. Bu odam bizni xonavayron qilishi mumkin edi, lekin endi biz qutuldik... Agar sen bu odamni men bilganimcha bilganingda edi, bizning halokat yoqasiga borib qolganimizni tushunarding.

– U shu qadar shafqatsizmi?

– Yo'q, shafqatsiz emas... ammo shunday odamki, faqat savdogarlikni va foyda qilishni biladi. U xuddi mo-zordek, xuddi ajalning o'zidek sovuq, gapidan qaytmaydigan berahm kishi. Men aminmanki, u onasiga hech bir yomonlik tilamaydi, ammo shunga qaramay, ko'p pul berilishini, yaxshi foyda qilishini bilsa, onasini ham sotib yuboradigan kishi...

– Shunday ablah endi xushko'ngil va sadoqatli Tom bilan Eliza bolasining xo'jayini bo'ldi degin?

– Rostini aytsam, buning uchun men ham juda diqqatman, azizim. Xususan, yana shunga achinyapmanki, Geli ularning ikkovini ham ertaga olib ketmoqchi. Sho'rlik Tomni ko'rmaslik uchun, barvaqt otga minib ketaman. Sen ham Elizani biror yoqqa olib ketsang bo'lardi. Ish usiz bitib qo'ya qolsin.

– Yo'q, yo'q, – dedi Shelbi xonim. – Men bu xunuk ishga ishtirokchi bo'lishni istamayman. Men borib bechora keksa Tomni ko'raman, qayg'usiga hamdamlashaman, Xudo uni panohida asrasin! Loaqal bekalarining ularga xayrixohligini va ular bilan birga qayg'urayotganini ko'radilar. Eliza haqida esa bir narsa deymayman ham. Nima gunoh qilgan ekanmizki, boshimizga bunday yomon kulfat tushdi?!

Mister Shelbi bilan Shelbi xonim o'rtasida bo'layotgan bu gaplarni yana bir kishi eshitayotganidan ularning mutlaqo xabarlari yo'q edi.

Ularning yotoqxonalariga katta ombor tutashar va uning eshigi dahlizga chiqardi, Shelbi xonim Elizani

chiqarib yuborganda, qoni qizib ketgan bu juvonning xayoliga darhol shu ombor tushgandi. U o'sha omborga kirib yashirindi-da, eshik yorig'iga qulog'ini qo'yib, bo'lgan gapning hammasini eshitdi. Ovoz tingandan keyin ohista turdi-da, chiqib ketdi.

Rangi o'chgan, titragan lablarini qimtib xo'mraygan bu juvon hozirgacha ko'rganimiz qo'rqoq va nozik ayolga mutlaqo o'xshamasdi. U ayvondan ehtiyotkorlik bilan o'tdi, Shelbi xonimning eshigi yonida bir dam to'xtadi. Keyin orqasiga qayrildi-da, qadamining ovozini chiqar-masdan o'z bo'lmachasiga kirib ketdi.

Uning bo'lmachasi shinam, ozoda bo'lib, bekaning bo'lmasi bilan bir qavatda edi. Mana qadrdon yorug' de-raza. Eliza shu derazaning oldida o'tirib chok tikish va qo'shiq aytishni yaxshi ko'rardi. Mana – kitob qo'yil-gan kichkina shkafcha. Uning taxtalariga uzunasiga har xil mayda-chuyda buyumlar – rojdestvo bayramida olgan sovg'alari terib qo'yilgan. Mana shkafda va komod quti-larida uning soddagina tikilgan kiyim-kechaklari taxlan-gan – xullas, bu yer uning istiqomat qiladigan joyi, bu yerda u baxtiyor yashardi! Xuddi shu yerda, karavotcha-da uning bolasi ham uxlab yotibdi. Uning uzun qo'ng'ir sochlari manglayi ustida to'zib yotar, kichkina og'zi salgina ochiq, momiqday yumshoq qo'lchalari ko'rpaga cho'zilgan, yuzida esa quyosh nuridek tabassum uning husniga husn qo'shardi.

– Bechora bola! – deb pichirladi Eliza. – Seni sotishib-di! Lekin onang halok bo'lishingga aslo yo'l qo'ymaydi!

Bolaning yostig'iga uning bir tomchi ham ko'zyoshi to'kilmadi. Eliza bir varaq qog'oz bilan qalam oldi-da, tez-tez yoza boshladi.

„Bekam, aziz bekam, meni noshukr deb hisoblamang, men haqimda yomon gap o'ylamang! Bugun kechqurun

xo'jayin bilan gaplashgan so'zlaringizning hammasini eshitdim. O'z bolamni qutqazishga urinib ko'raman – buning uchun meni qoralamang! Yaxshiliklaringiz uchun sizni Xudo yorlaqasin!"

Eliza shu so'zlarni yozib bo'lgandan keyin shkaf yoniga kelib, o'g'lining kiyim-boshini kichkina tugunchaga soldi-da, uni dastro'molcha bilan kamariga bog'ladi.

Onaning mehr-muhabbati shunday shirinki, hatto shu qadar dahshatli daqiqalar kechirayotgan chog'da ham u bolasining sevimli o'yinchoqlarini tugunchaga solib qo'yishni unutmadi. U bola uyg'onganda ovuntirish uchun rangorang bo'yoqlar surkalgan to'tiqush o'yinchog'ini alohida ajratib qo'ydi. Uni uyg'otish oson emasdi, lekin shunday bo'lsa-da, uyg'ondi va onasi qalpoqchani kiyib, ro'molini o'rarkan, karavotchada o'z qushini o'ynab o'tirdi.

– Oyi, qayerga borasan? – deb so'radi u, Eliza uning paltosini va shapkasini ushlab, karavot yoniga kelganda.

Ona o'g'lini ko'ksiga bosdi va uning bezovtalangan nazaridan, bola yomon bir voqea bo'lganini sezdi.

– Jim, Garri, – dedi u. – Qattiq so'zlama, tag'in eshitib qolishmasin. Yomon bir odam kelibdi: u kichkina Garrini oyisidan tortib olib, bir tomonga – qorong'i dunyoga olib ketarmish. Lekin oyisi Garrini bermaydi. Onasi o'zining kichkina Garrisiga paltosini, shapkachasini kiygizib, u bilan birga qochadi-ketadi. Yomon odam uni ushlayolmaydi.

Eliza bu so'zlarni aytarkan, bolani kiyintirib, tugmalarini solardi. Keyin uni ko'tardi-da, qulog'iga pichirlab, mumkin qadar jim bo'lish kerakligini tayinladi. So'ng-ra ayvonga chiqadigan bo'lmachasining eshigini ochib, shov-shuvsiz chiqdi.

Yulduzli sovuq tun edi. Ona bolasini ro'molga o'radi: bola uning bo'ynidan quchoqladi-da, allaqanday dahshatli voqea bo'lishini sezganday, jim bo'ldi.

Eshik tagida yotgan Nyufaundlend zotli katta ko'ppak – qari Bruno Elizaning yaqinlashishini sezib, bo'g'iq ovoz bilan hurdi-da, irg'ib o'midan turdi. Eliza uning nomini aytib muloyim chaqirgandi, bolalik chog'ida u bilan birga o'ynagan Bruno dumini qimirlatib, uning orqasidan jo'nashga hozirlandi. It yuz berayotgan voqeaning asl ma'nosini tushunarlik idroki bo'lmagani uchun, Elizaning ehtiyotsizlik bilan kechasi tomoshaga chiqishidan maqsad nima ekanligini sira bilolmasdi. U goh Elizaga, goh uyga qarab tez-tez to'xtar, keyin go'yo ish nima ekanligini payqagandek yana uning orqasidan ergashardi. Besh daqiqadan so'ng ular Tom tog'aning kulbasiga yetdilar. Eliza sekingina derazani qoqdi.

– Kim? – deb qichqirdi Xloya xola irg'ib turib, pardani tez ko'tararkan. – Agar bu Eliza bo'lmasa meni yer yutsin! Kiyin, chol, tezroq bo'! Uning orqasidan qari Bruno ham ergashib kelibdi. Nima hodisa yuz berdi ekan? Men hozir eshikni ochaman.

U turib eshikni darrov ochdi. Tom shoshilganча shamni yoqdi, shunda qochoqning azob chekkan yuziga va jovdiragan qora ko'ziga yorug' tushdi.

– Yo Rabbim! Nima bo'ldi, Eliza, afitangga qarab bo'lmaydi-a? Kasalmisan?

– Tom tog'a, Xloya xola, men bolamni olib qochib ketyapman. Xo'jayin bolamni sotibdi.

– Sotibdi?! – aks sadodek takrorlashdi har ikkisi, g'oyat qo'rqqanlaridan qo'llarini tepaga ko'tarib.

– Ha, bolamni sotibdi, – qat'iy dedi Eliza. – Bugun kechqurun men omborga kirib, beka bo'lmasining eshigi tagida turib eshitdim: xo'jayin bekamga mening Garriyimni... keyin... Tom tog'a, sizni... ikkovingizni qulfurushga sotganini aytdi. Xo'jayin saharlab otga minib ketar ekan, kunduz esa sizlarni olib ketgani u odam kelarkan.

Tom uning so'zlarini eshitarkan, go'yo bular hammasi tushida bo'layotgandek ko'rinardi. Ko'zlari katta ochilgandi. Qo'li tepaga ko'tarilganicha turardi. Nihoyat, bu yangi gap sekin-sekin uning ongiga yetib bordi. U xuddi hushidan ketgandek eski kursiga yiqildi-yu, boshi tizzasiga xam bo'lib qoldi.

– Bunday bo'lishi sira mumkin emas! – dedi Xloya xola. – Cholim nima yomonlik qilibdi ekan! Xo'jayin uni nima uchun sotmoqchi bo'ladi?

– Tom tog'a hech qanday yomonlik qilganmas, xo'jayin o'zi ham uni sotishni istamagan ekan. Beka ham... U juda xushko'ngil... Bekaning unga yalinib, bizni olib qolishni so'rganini o'zim eshitdim. Lekin xo'jayin: „Iloji yo'q“, dedi. Xo'jayin u odamdan qarzdor bo'lib, uning qo'liga qaram bo'lib qolibdi... Agar qarzini but qilib uzmasa, butun mol-mulkni, hamma odamlarni sotib jo'nashga to'g'ri kelarkan. Ha, u xuddi shunday dedi... O'zim eshitdim... Yo Tom bilan Garrini sotish kerak, yo qolgan hamma mol-mulkni, dedi... u odam xo'jayinni shu darajaga yetkazibdiki, xo'jayin: „Men ham juda xafaman“, deydi. Beka esa... agar uning aytgan gaplarini eshitsangiz edi!

– Hoy chol, – dedi Xloya xola, – nima uchun sen ham qochmaysan? Seni Janubga jo'natishlarini kutasanmi? U yerda negrlar ochlik va kaltak zarbidan o'larkan. Men o'limga rozi bo'lardim-u, ammo bunday azobga bormasdim. Paytdan foydalanib, Eliza bilan birga qoch. Darhol! Sustlik qilma! Hozir narsalaringni yig'ishtirib beraman.

Tom boshini ohista ko'tardi, g'amgin, ammo vazminlik bilan razm soldi-da, dedi:

– Men bormayman. Eliza qochsin, mayli – bu uning ishi! Uni men aynitmayman. Uning qolishi mumkinmas. Lekin uning gapini eshitdingmi? Agarda yo meni, yo

qolgan hammani sotish lozim bo'lsa, yaxshisi, meni sotishsin. Men boshqa har bir kimsa kabi, boshimga tushgan kulfatga bardosh beraman, – dedi u, ammo bu onda fig'on yoki ho'ngrash kabi bir narsa uning keng ko'ksini larzaga soldi. – Xo'jayin meni hamma vaqt o'z joyimdan topgan – endilikda ham o'z joyimdan topadi. Uni men hech aldamaganman, so'zini qaytarmaganman va hech qaytarmayman. Butun qo'rg'onchani talon-toroj qilib, hammani sotgandan ko'ra, bitta mening o'zimni sotganlari yaxshi. Bu ishda xo'jayinni ayblash mumkinmas, Xloya, u senga va bizning bechora... bolalarimizga g'amxo'rlik...

U, qo'pol va pastqam yig'ma karavotga nazar tashladi-da, unda yotgan bolalarining qo'ng'irsoch boshlarini ko'rib, madori ketdi. U kursining orqasiga bag'rini berib, keng kaftlari bilan yuzini yopdi. Uning xirillab og'ir va qattiq yig'lashidan kursi larzaga kelar va ko'zyoshlari barmoqlari orasidan marjon bo'lib oqardi – ser, sizning to'ng'ich o'g'lingiz tobutiga to'kadigan ko'zyoshingiz kabi, hamda xonim, sizning jon berayotgan bolangizning dodini eshitib to'kadigan ko'zyoshingiz kabi yosh oqardi. Chunki u ham xuddi siz kabi inson edi.

– Bugun tushdan keyin erimni ko'rib edim, – dedi Eliza, – bir dam eshik oldida to'xtab, u bilan ko'rishgan vaqtimda bunday hodisa bo'lishi xayolimga ham kelmagandi! Uni shunday yomon ahvolga yetkazibdilarki, u menga qochishga qaror berganligini aytdi. Agar ilojini topsangiz, men to'g'rimda unga xabar bering. Mening qanday ketganimni va nima uchun ketganimni unga ayting. Yana aytingki, men Kanadaga borib olishga urinib ko'raman. Unga aytingki, men uni sevaman va endi u bilan uchrashish menga hech qachon nasib bo'lmaydi! – dedi va bir lahza orqasini o'girdi. – Unga aytingki, shu choqqacha bo'lgan fe'l-atvorini bundan keyin ham aslo buzmasin...

Brunoni chaqiring, – dedi yana u. – Eshikni yopib, tashqari chiqarmang! Bechora it! U menga ergashib ketmasin!

Yana ko'zyoshi to'kildi, yana bir necha vidolashuv so'zlari aytildi-da, taajjublangan va cho'chigan bolani bag'riga bosib, Eliza kulbadan ohista chiqdi.

VI BOB

Ma'lum bo'lishi

Mister Shelbi bilan Shelbi xonim ertasiga odatdagidan kechroq turdilar, chunki kechasi ikki o'rtada ancha gap bo'lganidan, bir talay vaqt uzoq gaplashib, uxlamagandilar.

Shelbi xonim bir necha marta qo'ng'iroq chalsa ham hech kim kelmadi.

– Bu Elizaga nima bo'ldi ekan, tushunolmayman, – dedi u.

Mister Shelbi ko'zgu oldida o'tirib ustara qayrardi.

Shu chog' eshik ochildi va soqol qirish uchun suv ko'tarib qorabadan malay kirdi.

– Endi, – dedi unga beka, – Elizaning eshigini qoqib, uch marta qo'ng'iroq chalganimni unga ayt... Bechora! – deb pichirladi u xo'rsinib.

Xayal o'tmay, Endi, juda taajjublangan holda ko'zlarini baqraytirib yugurib keldi.

– Voy xonim! – Lizaning hamma qutilari ochiq, narsalari sochilgan! U xuddi shu tobda bir yoqqa jo'nab ketgandek...

Er va xotin nima voqea sodir bo'lganini darhol tushundilar.

– U hamma narsani payqagan-u, qochgan! – deb qichqirdi er.

– Xudoga shukr! – dedi Shelbi xonim. – Ilohim qochib qolgan bo'lsin!

– Xotin, sen aqli yo‘q kishidek gapirasani! – dedi mister Shelbi. – Agar u rostdan ham qochgan bo‘lsa, men juda chatoq ahvolga tushib qolaman. Geli mening ikkilanganimni, u bolani sotishni istamaganimni ko‘rgandi, shuning uchun uni mening roziligim bilan yashirishgan deb o‘ylaydi. Nomusga o‘laman-a! – Shu so‘zlarni aytib, mister Shelbi shoshilganicha bo‘lmadan chiqib ketdi..

Uyda chorak soat davomida qora, oq va qoracha yuzli kishilar har tomonga yugurishdi, dam-badam xitob ovozlari, eshik taraqlashlari eshitilib turdi. Bu hodisani faqat Xloya xola ochiq aytib bera olardi, ammo u churq etmadi.

Uning, odatda, quvnoq chehrasi qora bulut kabi xafaqon edi, lekin u atrofida bo‘layotgan to‘polonni eshitmagandek nonushtaga biskvit pishiraverdi. Tezda o‘ntacha negr bolalari ayvon panjarasiga qarg‘a kabi tizilishdi, ularning har qaysisi, qulfurushning omadi qo‘ldan ketganini eng avval unga xabar berishga toqatsizlik bilan hozirlanardi.

– Buni eshita, jinni bo‘lib qoladi, Xudo ursin, – dedi Endi.

– Rosa so‘kinadi-da! – dedi kichkina qora Jek.

– Bo‘lmasam-chi! U so‘kishga ustaku-ya! – dedi qo‘ng‘irsoch Mendi. – Men kecha ovqat yeganida gapirgan gapini eshitdim. Men bekamiz ko‘zalarni qo‘yadigan dahlizda turib gaplarini bitta qo‘ymay eshitdim.

Mendi eshitgan haqoratli so‘zlarning ma‘nosini qora mushukdan ortiq tushunmagan bo‘lsa ham, negr bolalar orasida kerilib yura boshladi, holbuki qulfurush mister Shelbi bilan so‘zlashayotganda, u dahlizda – ko‘zalar orasida yumaloq bo‘lib qattiq uxlamoqda edi va buni bolalarga aytishni unutgandi.

Mana, oyog‘ida shporli etik kiygan Geli ham paydo bo‘ldi. Hammalari unga ko‘ngilsiz xabarni shoshilib baravar aytishdi.

Shaytonchalarning aytganlari, darvoqe, to'g'ri chiqdi: Geli shunday so'kindiki, bolalar uning parishonligini ko'rib juda huzur qildilar. U, qamchisi bilan bolalarga hamla qilgandi, ularning hammasi chiyillashib va kulishib ayvon tagidagi o't ichiga tashlanishdi. Ularning qichqirishi, masxaralashi va pitirlashi davom etaverdi.

– Agar bu shaytonchalar meniki bo'lsa... – tishlari orasidan ovoz chiqarib vaysadi Geli.

– Senikimas-da, senikimas! – dedi kesatib Endi omadi kelmagan savdogar orqasidan yuzini masxaraomuz irjaytirib, – bunday ham rasvogarchilik bo'ladimi, Shelbi? – dedi Geli mehmonxonaga tuyqusdan kirib. – Padarqusur juvon bolasini olib qochibdi deb eshitdim.

– Mister Geli, bu yerda xotinim o'tiribdi, – dedi mister Shelbi.

– Kechirasiz, xonim, dedi Geli nazar-pisandsiz ta'zim qilarkan, hamon xo'mrayib. – Ammo boyagi so'zimni takrorlab aytamanki, men juda g'alati gap eshitib qoldim. Bu gap rostmi, ser?

– Ser, – dedi mister Shelbi. – Agar siz men bilan bir ish qilmoqchi bo'lsangiz, o'zingizni jentelmenlarcha tutishingiz lozim. Hay. Endi mister Geling shlapasi bilan qamchisini ol. O'tiring, ser. Shunday, ser, sizga zo'r achinish bilan aytishim lozimki, u juvon bizning o'rtamizdagi gapimizga biror joydan quloq solib turibdimi, yoki bizning muddaomiz haqida biror kishidan xabar eshitibdimi. Ishqilib, bugun kechasi bolasini olib noma'lum yoqqa qochibdi.

– Rostini aytsam, men halol savdoni kutgandim, – dedi Geli.

– Sizning so'zingizni qanday tushunish kerak, ser? – deb qat'iy so'radi mister Shelbi, unga yuzini o'girib. –

Mening vijdonli ekanimdan gumon qiladigan odamlarga bittagina javobim bor, xolos.

Bu soʻzlarni eshitib savdogarning eti uchdi va ancha bosiq ohang bilan: „Oʻzim halol ish tuta turib, ahmoq boʻlib qolganimga juda achinaman“, dedi.

– Mister Geli, – dedi mister Shelbi, – agar sizning koyish uchun sabablaringiz borligini bilmaganimda edi, mehmonxonamizga qoʻpollik bilan, odobga rioya qilmay, bostirib kirishingizga chidab turolmasdim. Takror ayta-man, garchi sharoit menga qarshi boʻlsa ham, „Sen bu aldovning ishtirokchisidan“, degan ginaning menga aytilishiga yoʻl qoʻymayman. Men sizga yordam qilishga oʻzimni majbur deb bilaman va sizning mulkingizni topish uchun otlar-u xizmatkorlar va boshqa zarur hamma narsalarni ixtiyoringizga beraman. Xullas, Geli, – dedi u, toʻsatdan oʻzining odatdagi xushmuomalaligiga qaytib, siz uchun eng yaxshisi vazmin boʻlish va biz bilan birga nonushta qilishdir. Undan keyin nima qilish kerakligi haqida oʻylashaylik, tuzukmi?

Shelbi xonim oʻrnidan turib: „Baʼzi bir ishlarim borligi sababli sizlar bilan nonushta qilolmayman“, dedi va uyda hamma juda hurmatlaydigan mulat ayolga nonushta vaqtida dastyorlik qilishni topshirib, boʻlmadan chiqib ketdi.

– Kampir xonimingiz kaminani uncha yoqtirmadilar, – dedi Geli, oʻzini mister Shelbiga yaqin olmoqchi boʻlib, ammo uning bu hazili qoʻpol chiqdi.

– Xotinim haqida oʻzga kishining bunday gap gapirishiga koʻnikmaganman, – dedi mister Shelbi sovuq ohangda.

– Afv soʻrayman, hazillashgandim, – dedi Geli, noilib kulib.

– Har qanday hazil ham oʻrinli boʻlavermaydi, – deb eʼtiroz bildirdi Shelbi.

„O'sha qog'ozlarga qo'l qo'yganimdan buyon bu odam haddidan oshib ketyapti, – deb do'ng'illadi Geli o'ziga. – Kechadan buyon burni ko'tarilib qoldi iblisning!“

Tomning qismati haqidagi xabar uning qora tanli o'rtoqlari orasida shunday hayajon qo'zg'adiki, buning oldida birinchi vazirning o'rnidan tushganligi haqidagi xabarni eshitganda saroy doiralarida qo'zg'aladigan hayajonlar hech nima edi. Dalada ham, uyda ham hech kim ishlamasdi, hamma bu ishning turli oqibatini muhokama qilish bilangina ovora edi. Elizaning qochishi Shelbi qo'rg'onchasida shu vaqtgacha sira yuz bermagan voqea bo'lib, bu narsa hammaning hayajonini yana-da oshirib yubordi.

Sem qora (hamma qorabadanlardan ham qoraroq bo'lgani uchun unga shunday laqab bergandilar) bu voqeani har tarafflama muhokama qilar va o'zining darajasi oshishi haqida shunday rejalar tuzardiki, uni ko'rib Vashingtondagi har bir oqbadan vatanparvar havas qilsa bo'lardi.

– Hech bir tomonga esmagan shamol – yomon shamol bo'ladi, – derdi Sem nasihatimiz, ishtonini yuqori tortib va podtyajkasining uzilgan tugmasi o'rniga abjirlik bilan uzun mixni tiqib. – Ha, hech bir tomonga esmagan shamol – bemaza shamol bo'ladi, – deb takrorladi u. – Mana, Tom ham o'rindan tushdi. Tabiiy, uning o'rnini boshqa bir negr bosishi kerak. Uning o'rniga nima uchun men o'tirmas ekanman? Tom yaltillagan etiklarni kiyib... cho'ntagiga propuskasini solib... xuddi mo'tabar odamdek otga minib, tevarak atrofda aylanib yurardi. Nima uchun Tom yurardi? Nega Sem emas? Ana shuni bilgim keladi!

– Allo, Sem, Sem.. Xo'jayin senga Bill bilan Jerri ni egarlasin dedi, – deb qichqirdi Endi Semning nutqini bo'lib.

– Nima uchun ekan, akasi?

– Bilmaysanmi, Liza bolasini olib qochibdi.

– Bu xabarni achangga ayt, – dedi Sem benihoya naf-rat bilan. – Sem bu xabarni sendan burunroq eshitgan! Sem sen o‘ylagan pandavoqilardan emas!

– Yaxshi! Lekin xo‘jayin Bill bilan Jerri tezroq egar-lansin, deb buyurdi. Sen bilan men mister Geli birgalikda Elizani axtargani borarkanmiz.

– Oh-ho! Ana bu soz! – dedi Sem. – Semga ana shun-day muhim ishni topshiribdilar. Otangga rahmat, Sem! Men uni albatta ushlayman, ko‘rasan! Semning qo‘lidan nimalar kelishini xo‘jayin bilib qo‘ysin!

– Lekin, Sem, – dedi Endi, – shuni ham bilib qo‘yki, Elizaning ushlanishini beka istamaydi. Agar sen uni ush-lasang, beka sochlaringni yulib oladi.

– Rosti bilan-a! – dedi Sem taajjublanganidan ko‘zini baqraytirib. – Buni qayerdan bilasan-a?

– O‘z qulog‘im bilan eshitdim. Bugun ertalab xo‘ja-yinga soqol olish uchun suv olib kirgandim, beka meni „Bor, Lizani qara, nega haligacha kiyinishimga yordam-lashgani chiqmaydi?“, deb yubordi. Men qaytib kelib: „Liza dom-daraksiz g‘oyib bo‘libdi“ desam, beka „Xudo-ga shukr!“ dedi. Xo‘jayin esa jinni bo‘lib qolayozdi va bekaga qarab: „Xotin, sen ahmoq odamga o‘xshab gapi-rasan“, dedi. Ammo, beka o‘z deganini qiladi. Men bila-man! Shuning uchun bekaning tarafida bo‘lish har vaqt xatarsizroq bo‘ladi, bilib qo‘y.

Sem qo‘ng‘irsoch boshini qashladi, uning boshi un-cha donishmand boshlardan emas, ammo barcha mam-lakatlarning siyosatdonlari kabi nonning qaysi tomoniga yog‘ surkalganini bilish payiga tushardi. Shuning uchun tafakkurga chulg‘anib, ishtonining lippasini yana tortib qo‘ydi: bu esa har doim uning aqli ravon ishlashiga yor-dam berardi.

– Beka, Lizani topish uchun butun dunyoni tintib chiqishga tayyor deb o'ylovdim, – dedi u xayol surgan holda.

– Ana xolos! – dedi Endi. – Bilmaysanmi, sen qora negr, axir, beka Elizaning bolasi anavi mister Gelinging qo'liga tushishini jon-jahdi bilan istamaydi.

– Aha, – dedi Sem negrlarga xos ohang bilan.

– Bilasanmi Sem, – dedi Endi, – menimcha, tezroq otlarni egarlagani jo'naganing yaxshiroq, chunki seni beka so'rayotganini eshituvdim. Bu yerda laqillayverishning foydasi yo'q.

Sem o'sha ondayoq topshiriqni bajargani yugurdi va hayal o'tmay pillapoya yoniga Bill bilan Jerrini tantanali suratda choptirib olib keldi. U yugurib kelayotib, ot ustiga minib oldi va Gelinging hurkak toyi bog'langan qoziq yoniga chopib keldi. Hurkak toy cho'chib, tizginini tortdi.

– Ha-ha, qo'rqdingmi? – dedi Sem, uning qora yuzida g'alati tabassum paydo bo'ldi. – Seni hozir tinchitib qo'yaman.

Bahaybat buk daraxti bu joyga keng ko'lankasini baralla enlab tashlagan, uning uch qirrali yong'oqlari yerdagi o'tlar orasida yotardi. Sem, Gelinging toyi yoniga kelib, uni tinchitmoqchi bo'lgandek bo'ynini silab-siypadi. Keyin toyning egarini tuzatmoqchi bo'lib, egar ostiga qirrali yong'oqchani tiqib qo'ydi. Qani endi birov uning egarini bosib ko'rsin – asov toy, orqasida yag'ir emas, hatto chaqa joy ham bo'lmagani holda, jinni bo'lib dingillaydi.

– Tayyor! – dedi Sem, o'zining bu ishidan mamnun bo'lganidan ko'zlarini jovdiratib va iljayib, – uni tinchitib qo'ydim!

Ayvonda Shelbi xonim ko'rindi va Semni chaqirdi.

– Nega bunday sustlashib qolibsan Sem? Men Endini sening oldingga „tezroq bo'lsin“ deb yuboruvdim. Sen mister Geli bilan birga borasan. Unga yo'lni ko'rsat, yor-

dam ber. Otlarni ehtiyot qil. Jerrining o'tgan haftadan buyon oqsoqlayotganini bilasan-ku. Uni qattiq choptirma.

Shelbi xonim so'nggi so'zlarni ovozini pasaytirib va juda uqtirib aytdi.

– Menga ishonavering, – dedi Sem, ko'zini ma'nodor jovdiratib. – Otlarni ehtiyot qilaman, beka, xotirjam bo'ling.

– Bilasanmi, Endi, – dedi Sem, daraxt ostidagi o'z joyiga qaytib, bu jentelmen otiga cho'chchanglay boshlashi ham ajab emas, otning minganda, oti cho'chchanglashini bilasan-ku. Endining biqiniga tez-tez turtib qo'ydi.

– Aha! – dedi Endi, u gapning tagi nimada ekanligini darrov tushunganligi ma'lum bo'ldi.

– Tushundingmi Endi, beka vaqtdan yutmoqchi bu har kinga ravshan, hatto ahmoq odamga ham. Bekani maqsadiga yetkazishga yordam beraman.

Endi irjaydi.

– Bilasanmi, Endi, agar mister Geling toyi gojlik qilsa, sen bilan men darhol otimizdan tushib unga yordam beramiz. Yordamni boshlaymiz, xotirjam bo'li!

Sem bilan Endi boshlarini orqaga tashlab qahqahlab kulganlaricha, barmoqlarini qarsillatib, zavq bilan oyoqlarini siltab o'ynay boshladilar.

Shu chog' ayvonda Geli ko'rindi. Bir necha piyola achchiq kofe biroz kayfini ochgandi, shuning uchun u kulimsiragan holda mister Shelbi bilan gaplasha turib, tashqariga chiqdi. Sem bilan Endi negrlar shlapa o'rni-ga kiyadigan va xurmo bargidan to'qilgan savatchalarni qo'llariga oldilar va xo'jayinga yordamga tayyor ekanliklarini bildirgansimon otlarning yoniga yugurdilar.

Semning boshidagi savatchaning xurmo barglari shal-payib, ayniqsa chetlari har tomonga osilib ketgan edi. Bu uning qiyofasini yovvoyi fidjlar qabilasining oqsoqoli kabi sarbast va qo'rqmas qilib ko'rsatardi. Endi kiygan shlapa-

ning ziylari mutlaqo yo'q edi, u shlapasini epchillik bilan boshining o'rtasiga tortdi, u go'yo: „Qani, boshimdagini birov shlapa demay ko'rsin-chi!“ demoqchi bo'lgandek, o'zdan g'oyat mamnun ko'rinardi.

– Qani, yigitlar, – dedi Geli, – tezroq bo'ling! Vaqtni boy bermasligimiz kerak.

– Aqalli bir daqiqani ham qo'ldan bermaymiz. Mister, – dedi Sem, ot tizginini Geliga uzatarkan, bu vaqt Endi boshqa ikki otni yechardi.

Geli egarga tegishi bilanoq, asov ot birdan cho'changlab, egasini bir necha qadam nariga otib yubordi. Savdogar yumshoq quruq o't ustiga yiqildi.

Sem qattiq qichqirib, tezroq tizginni ushlashga shoshildi. Bu chog' Semning boshidagi xurmo bargidan qilingan shlapaning o'tkir uchlari otning ko'ziga tegdiki, bu ham otning asovligini bosishga hech qancha yordam bermadi. Ot Semni shiddat bilan yiqitdi-da, uch-to'rt bor pishqirib, ikki oyog'ini osmonga ko'tardi. Shundan keyin u ariqning pastki tomoniga qarab qochdi, uning orqasidan Bill bilan Jerri ham chopdilar. Otlarning tizginlarini bo'shatib yuborgan Endi har xil ovoz chiqarib, qiyqirib, ularning yanayam jadal chopishlariga sabab bo'lardi. Juda yomon to's-to'polon boshlandi. Sem bilan Endi chopishib baqirishardi, o'ng va so'l tomondan itlar vovullashardi. Mayk, Moz, Mendi, Fenni va yana bir qancha o'g'il va qizlar poyga qilib yugurishar, chapak chalishar va zo'r berib chinqirishardi.

Gelining juda chopog'on oti bu poygaga astoydil qatnashayotgandek ko'rinardi. U keng maysazorga qarab chopib ketdi. Maysazor katta, uzuniga kamida yarim, eniga ham yarim milcha kelardi. Uning to'rt tomoni daraxtzor edi. Quvib kelayotgan kishilarni ot yaqiniga keltirar, lekin biror kishining qo'li sal tegishi bilan titrab, pishqirib, da-

raxtzor tomonga qochardi. Bundan u juda rohat olganday edi. Sem otni ushlash uchun haqiqatan qahramonlarcha ish qilgandek ko'rinso ham, aslida, otni ushlash uning xayoliga ham kelmasdi. Doim qattiq jang ichida ko'ringan Arslonyurak Richardning qilichi kabi, Semning boshidagi xurmo barglari ham otni ushlash xavfi mutlaqo yo'q joylarda parpirab qolardi. U, „Ushla! Ushla! Tut uni!“ deb baqirar va chopar, bu bilan, albatta, umumiy to'polonni yana-da kuchaytirib yuborardi.

Geli otni la'natlab, so'kinib va tepinib u yoqdan bu yokka chopardi. Mister Shelbi ham ayvonda turib, qichqirib, buyruqlar bermoqchi bo'lardi, lekin bular behuda edi. Shelbi xonim o'z bo'lmasining derazasidan bu manzaraga kulib qarab turardi. Bu to'polonning sababini dilida payqasa ham, bularning hammasi unga g'alati ko'rinardi.

Faqat peshin paytiga borib g'olibona qiyofada Sem ko'rindi: u Jerriga mingan va Gelingning otni yetaklab olgandi. Gelingning oti terga pishgan, chaqnab turgan ko'zlari va burnining kerilib va puchayib turishi undagi Ozodlik ruhining hali batamom yo'qolmaganini bildirib turardi.

– Ushladim! – deb tantanali suratda qichqirdi Sem. – Hech kimga tutqich bermadi, lekin men tutdim!

– Sen-a! – deb to'ng'illadi Geli. – Sen bo'lmaganingda, bunday hodisa bo'lmasdi ham.

– Xudo yorlaqasin, mister! – deb qichqirdi Sem, begunoh haqoratlangan kishidek. – Otingizning orqasidan shunday yugurdimki, terga pishib suv bo'lib ketdim!

– Xo'p, xo'p, – dedi Geli. – Sening la'nati kallavaramliging kasofatiga men uch soatcha vaqtni boy berdim! Ahmoqlik qilganing bo'ladi endi!

– Qo'ysangiz-chi, mister! – gina qilgandek dedi Sem. – Hammamizni sidirg'asiga o'ldirasiz shekilli, bizni ham, otlarni ham! Bizlar rosa holdan toyib, yiqilib qolayozdik,

otlar bo'lsa ko'piklab ketdi. Tushdan keyin jo'nasak yaxshi emasmi, mister? Otingizni tozalash kerak, mister, loy sach-raganini ko'ring. Jerri ham oqsoqlanyapti. Beka bizni dam oldirmasdan jo'natmas deyman. Lizini esa birpasda ushlab olamiz, xotirjam bo'ling. Lizi tez chopishni bilmaydi.

Ayvonda turgan Shelbi xonim bu gaplarni rohat qilib tinglarkan, gapga o'zi ham qatnashishga qaror qildi. U Geling yoniga keldi va ro'y bergan hodisa uchun mu-loyimlik bilan taassuf bildirib, obedga qolishni taklif etdi va ovqat tayyor ekanligini aytdi.

Geli butun ahvolni tushunganidan, bu safar o'zini juda odobli tutdi va bekaning samimiyligiga ishonmayotgan-ligini yashirib-netib turmay, ovqatxonaga jo'nadi. Sem esa uning orqasidan, ko'zini tasvirlab bo'lmaydigan dara-jada olaytirib, otlarni yetakladi-da, jiddiyat bilan otxonaga jo'nadi.

– Ko'rdingmi uni, Endi? Ko'rdingmi? – deb so'radi Sem, otlarni ustunga bog'lab, ombor orqasiga o'tarkan. – Yo Rabbim, uning tipirchilab yurishlarini, sen bilan meni so'kishini ko'rib juda maza qildim-da! So'kinaver, qari shayton, – dedim ichimda. – „Agar o'tim yana qaytib qo'limga kirsin desang, to ushlagunimcha sabr qil“. Xudo ursin, Endi, uni juda bopladim-da!

Sem bilan Endi devorga suyandilar-da, chin yurakdan qah-qahlab kula boshladilar.

– Otni olib kelganimda uning g'azablanganini ko'r-sayding! Agar qo'lidan kelsa meni o'ldirardi. Men esam uning oldida, begunoh kishidek itoat bilan unga qarab turaverdim.

– To'g'ri, to'g'ri, ko'rdim, – dedi Endi. – Sen eski mug'ombirсан, azbaroyi Xudo!

– Bo'lmasam-chi! – dedi Sem. – Bekaning yuqorida deraza yonida turib kulganini ko'rdingmi?

– Kulib turdimi? Ko‘rmabman, – dedi Endi.

– Tushunyapsanmi, – dedi Sem, ulug‘vorlik bilan Geling otini tozalagani borarkan, – nima desam ekan, ha, men ziyraklik bilan hamma narsani darrov payqab olishga odatlanganman. Bu juda yaxshi odat, Endi... Sen hali yoshsan, bu odatni o‘rgan. Otning orqa oyog‘ini ehtiyot bo‘lib ko‘tar, Endi, Bilasanmi, endi, negrlar bir-birlaridan ziyraklik bilan ajraladilar. Shamol qayoqdan kelayotganini bugun ertalab payqamadingmi? Beka menga hech nima demagan bo‘lsa ham, uning ra‘yini fahmlamadimmi? Buning hammasi ziyraklikdan, Endi! Iste‘dod degan narsa ana shunaqa bo‘ladi. Iste‘dod har kimda har xil bo‘ladi, agar uni avj oldirishni eplay olsang, juda baraka topib ketishing mumkin!

– Agar men erta bilan sening ziyrakligingga yordam bermaganimda, hozir burningni bunday ko‘tarmagan bo‘larding! – dedi Endi.

– Endi, – dedi Sem, – sen odam bo‘ladigan bolasan, bunga hech shak-shubha yo‘q. Sen haqingda yaxshi fikrdaman, Endi ahyon-ahyonda sendan ba‘zi narsalarni o‘rganishdan ham uyalmayman. Biz hech kimga nafrat ko‘zi bilan qaramasligimiz kerak, chunki eng abjirlarimiz ham goho yanglishib qolishimiz mumkin. Qani, endi uyga boraylik. Ishonamanki, beka bizni shirin-shirin narsalar bilan ziyofat qildirsa kerak.

VII BOB

Onaning kurashi

Eliza Tom tog‘aning kulbasidan chiqib ketgan kechasi o‘zini shunday yolg‘iz va baxtsiz his etdiki, inson bolasini bunday ahvolda tasavvur etish qiyin.

U o'zining butun yoshlik davrini o'tkazgan birdan bir uyni tashlab, sevikli va hurmatli do'stining himoyasidan mahrum bo'lib, o'zini xavf-xatarga chog'ladi; buning natijasida chekayotgan ruhiy azobi ustiga yana boshiga kulfat tushgan erining va xavf ostida qolgan bolasining g'ami qo'shildi. Eliza ko'nikib qolgan hamma narsasidan judo bo'ldi; unib-o'sgan qo'radan, ostida o'ynagan daraxtlardan, eng baxtli kunlarida kechqurunlari yosh eri bilan qo'lni-qo'lga berishib sayr qilgan daraxtzordan ayrildi. Osmonda yulduzlar charaqlab turgan musaffo sovuq tunda butun o'tmishi uni koyigandek „Bunday uydan nechuk ketding?“ deb so'rayotgandek bo'lardi.

Shunga qaramay, onalik muhabbatining hamma narsadan kuchli bo'lishi va dahshatli xavfning yaqinligi, uni aql bilan sira hisoblashmay, butun hisga berilib, shu chorani ko'rishga majbur etdi. Garri endi kichkina bola emas; u onasining yonida ketsa bo'laverar va, odatda, Eliza uni yetaklab yurardi. Biroq hozir esa: „Bolanmi quchog'imdan chiqarib yuborishim mumkin“, degan fikrning o'zi xayoliga kelganda cho'chib tushar va uni iztirob bilan ko'ksiga bosib, ilgari jadallardi.

Agar oyog'ining ostida muzlagan yer andakkina g'irchillab ketsa ham, uni qattiq qaltiroq bosardi. Qimir-lagan har bir soyani, shamol uchirib kelayotgan har bir bargni ko'rib, yuragi dukullab urar va u qadamini yana-da ildamroq bosardi. U, „Buncha kuch menga qayerdan kelyapti?“ deb taajjublanardi. Bola unga qushdek yengil ko'rinar va qo'rqqan sayin uning kuchiga-kuch qo'shilgandek tuyulardi? Hoy, onalar, agar sizning Garringizni yoki Villingizni ertaga sizdan tortib olib, zolim qulfurush qo'lga topshiradigan bo'lganlarida edi, agar siz bu qulfurushni o'z ko'zingiz bilan ko'rganingizda edi, agar siz bolangizning oldi-sotdisi bitganligini o'z qulog'ingiz

bilan eshitganingizda va ishonchli manzilga yetib olish uchun sizning ixtiyoringizda faqat o'n ikki soat qolganini bilganingizda edi – g'oyat abjirlik bilan yugurish uchun sizning ham kuchingiz yetardi, rost emasmi? Aying-chi, sevikli jigargo'shangizni bag'ringizga bosib, uning uxlayotgan boshi yelkangizda ekanligini va nafis qo'lchalari bo'yningizni ishonch bilan quchib olganini sezganingizda, siz o'zingiz ham shu qisqa fursat ichida qancha-qancha yo'l bosardingiz?

Bola uxlardi. Avval u, ahvolning o'zgarganidan va qo'rquvdan uxlayolmadi. Lekin ona: „Agar tovushingni chiqarmasang, seni albatta qutqaraman“, deb ishontirdi va unga qattiq nafas chiqargani ham qo'ymadi. Bola, uyqu yenga boshlagach, qo'lchalari bilan onasining bo'ynidan ohista quchoqladi-da, so'radi:

– Aya, men hech uxlamaymi?

– Yo'q, azizim, uyqung kelsa uxlayver.

– Agar uxlab qolsam, meni u odamga berib qo'y-maysizmi?

– Yo'q-yo'q! – deb javob berdi ona, rangi oqarib. Uning katta qora ko'zlari yanayam chaqnadi.

– Rostdan bermaysiz-a, oyi?

– Albatta, bermayman!

Eliza o'z ovozidan qo'rqib ketdi – bu ovoz unga boshqa kishining ovozidek tuyuldi. Charchagan bola boshchasini uning yelkasiga tashladi-da, tezda uxlab qoldi. Bo'y-niga issiq qo'lchalarning tegishi va shirin nafas hovurining urishi uni ruhlantirib, g'ayratiga g'ayrat qo'shgandek bo'lardi.

Qo'raning chegarasi xiyobon va kichkina chakalazor juda tez orqada qolib ketdi. Eliza esa tanish joylar yonidan birin-ketin o'tib, charchashni sezmay, to'xtamasdan hamon olg'a borardi. Pushti tong nurlari yoyila boshla-

gan paytda u qadrdon joylardan uzoqdagi katta yo'lga chiqib oldi.

U beka bilan birga bu yerga Ogayo daryosidan uzoqda bo'lmagan T... qishlog'iga tez-tez kelib turar va bu yo'lni yaxshi bilardi.

Eliza uchun Ogayo daryosining narigi tomoniga o'tib olish – qutulish demak edi.

Yo'lda ot va aravalar ko'rina boshlagach, Eliza xavf-xatar chog'ida ko'pincha insonga xos farosat bilan tushundiki, uning tez yurishi va parishon ahvoli o'tkinchilarda shubha tug'dirishi mumkin. Shunga ko'ra u, bolani yerga qo'ydi-da, kiyim-boshini tuzatib, qadamini sekinlashtirdi. Tugunchasida somsa va olma bor edi, shulardan foydalanib, bolani tez yurgizardi. U olmani yerga yumalatib yuborar, bola olma orqasidan chopardi. Shu ayyorlikni takrorlash natijasida, bolani tobora ovuntirib ilgari borardi.

Tezda Eliza qalin o'rmonga yetib oldi, o'rmonda jildirab zilol bir jilg'a oqardi. Bola ochlik va tashnalikdan shikoyat qilgani uchun u, bola bilan birga g'ovdan o'tdi-da, yo'ldan ularni pana qilib turgan katta tosh orqasiga o'tib, tugunidan ovqat oldi va bolani nonushta qildira boshladi. Bola onasining hech narsa yemaganini ko'rib, bunga avval taajjublandi, so'ngra xafa bo'ldi. U, onasining bo'ynidan quchoqlab, uning og'ziga somsa tiqmoqchi bo'lar, lekin onaning og'zidan ovqat o'tmasdi.

– Yo'q, yo'q, azizim Garri! To sen xatardan chiqmaguningcha onang ovqat yeyolmaydi. To daryoga yetib olgunimizcha yurishimiz kerak.

Keyin u yana yo'lga chiqdi-da, o'zini og'ir va bir tekisda olg'a qadam bosishga majbur etdi.

Eliza, odamlari uni yaxshi tanigan yaqin qishloqlardan o'tdi. U: „Mening xo'jayinlarimning yaxshiligi ham-

maga ma'lum, shu sababli meni ko'rgan kishi „qochibdi“ deb gumon qilmaydi“, deb o'ziga taskin berardi. Bundan tashqari, Eliza va uning bolasi shu qadar oq edilar-ki, faqat diqqat bilan qaragandagina negrligini payqash mumkin edi.

U peshindan keyin yaxshigina bir fermada to'xtab, dam olmoqchi va o'zi hamda bolasi uchun ovqat sotib olmoqchi bo'ldi. Xatardan uzoqlashgan sayin, undagi haddan oshiq asabiy hayajon pasayar, shu bilan birga u o'zining charchaganini va ochqaganini sezardi.

Ferma bekasi xushko'ngil va ezma xotin bo'lib, birov bilan laqillashib gap sotish imkoniyatiga muyassar bo'lganiga xursand edi. U Elizaning: qo'shni qishloqqa, do'stlarimnikiga bir hafta-yarim hafta mehmon bo'lgani ketyapman, degan so'ziga laqqa ishondi. Koshki bu so'z rost bo'lsaydi!

Quyosh botishga bir soat qolganda u, Ogayo bo'yidagi T... qishlog'iga kirdi. U, charchagan, oyoqlari og'rirdi, lekin bu hol uning qarorini bo'shashtirmadi. U, hammadan ilgari daryoga nazar tashladi, chunki daryoning narigi tomonida uni ozodlik kutmoqda edi!

Ilk bahor payti, daryo to'lgan va hayqirardi. Qaynab-toshib oqayotgan suvda katta-katta muz parchalari oqardi. Kentukki shtatiga qarashli narigi sohilning alohida shakli shundan iboratki, daryoning bu qirg'og'i suvning ichiga ancha yorib kirardi, shuning uchun daryoning bu yeri boshqa joylarga qaraganda tor bo'lib, muz parchalari bir-biriga jipslashib ketgandi. Bu muzlar xuddi suzib borayotganday katta bir solga o'xshab, butun daryoni enlagan va Kentukki sohillarigacha cho'zilgandi.

Eliza bir dam to'xtab daryoga nazar tashladi. U qayiqqa ishonish mumkin emasligini tushundi, chunki bu muz parchalarini hech qanday kema yorib o'tolmasligi

ravshan edi. Shu tufayli u narigi sohilga qanday qilib o'tishni so'rash uchun kichkina musofirxonaga jo'nadi.

Jizillayotgan plita yonida turib, kechki ovqat pishirayotgan musofirxona bekasining qulog'iga Elizaning mayin va qayg'uli ovozi eshitildi.

– Nima deysiz? – deb so'radi u.

– Bu yerda odamlarni narigi tomonga, B... ga olib o'tib qo'yadigan kema yoki qayiq yo'qmi? – deb so'radi Eliza.

– Albatta yo'q! – deb javob berdi musofirxona bekasi. – Qayiqlar yurmay qo'ygan.

Eliza qo'rqan va ruhi tushgan edi. Uning bu qiyofasidan hayratlangan beka so'radi:

– Narigi tomonga o'tmoqchimisiz? Biror kishingiz kasal bo'lib qoldimi? Siz juda tashvishlangan ko'rinasiz.

– Mening bolam xatarda qoldi, qutqarish kerak, – dedi Eliza. – Buni men shu kun kechasi bildim va „Meni daryodan qayiqda o'tkazib qo'yadilar“, degan umid bilan ko'p yo'l bosib keldim.

– Voy sho'rim! – dedi shu on onalik tuyg'usi uyg'ongan ayol. – Qanday qilib sizga yordam bersam ekan! Solomon! – deb qichqirdi u hovli o'rtasidagi kichkina kulbaga derazadan qarab.

Eshik yonida charm fartukli, qo'llari iflos bir erkak ko'rindi.

– Hoy Sol, – dedi ayol unga, – u odam bugun kechasi daryodan o'tarmikan?

– U agar muz kamaysa; o'tishga harakat qilib ko'raman, deyapti, – dedi Solomon.

– Bu yerda bir odam bor. U bugun kechqurun narigi tomonga mol olib o'tmoqchi. U odam bu yerga ovqatlanгани keladi. U kelguncha bu yerda kutib o'tiring. Bolangiz juda yaxshi ekan-a! – dedi ayol, Garriga somsa uzatib.

Yo'l mashaqqatidan qiynalgan bola esa somsaga qaramay, yig'lay berdi.

– Bechora bola! U yurib o'rganmagan, men esam tez yurgizib keldim, – dedi Eliza.

– Bolangizni manavi xonaga yotqizib qo'ying, – dedi ayol, ichida bejirimgina karavot turgan kichkina yotoqxonani ko'rsatib.

Eliza horigan bolani yotqizdi va to u uxlaguncha qo'lchalarini ushlab turdi. Eliza, ortidan quvib keluvchilarni o'ylar va bu o'y uni tinmay azoblardi. U, to'lqinlanib oqayotgan tund daryoga, o'ziga ozodlik baxsh etadigan narigi qirg'oqqa suqlanib boqardi.

Elizani hozircha shu yerda qoldirib, uni ta'qib etuvchilarning nima qilayotganligini gapirib beraylik.

Garchi Shelbi xonim: „Ovqat hozir stolga qo'yiladi“, deb va'da qilgan bo'lsa ham haqiqatda bunday emasligi juda tez ayon bo'ldi. Birin-ketin besh-oltita bola orqali ovqat darrov tayyorlansin, degan buyruq Gelingning huzurida Xloya xolaga yuborilgan bo'lishiga qaramay, muhtaram oshpaz oyim bunga javoban piqillab kulib, boshini silkidida, abjirlik bilan o'z ishini bemalol davom etdiraverdi.

Bunday qaraganda, bu hol juda g'alati ko'rinsa ham xizmatkorlar bekaning sustkashlikdan xafa bo'lmasligini sezib turardilar. Yana shunisi ajoyibki, vaqtni cho'zish uchun bu payt juda ko'p imkon tug'ilib qoldi! Ishi yurishmagan birov qovurmani ag'darib yubordi. Astoydil e'tibor va qoidasi bilan yangidan qovurma pishirishga to'g'ri keldi. Xloya xola arang qimirlar va tezroq bo'lish haqidagi hamma iltimoslarga: „Birov-birovni tezroq tutib olsin, deb dasturxonga xom qovurmani chiqarmayman“, deb javob berardi. Suvga yuborilgan bola paqirni ag'darib yubordi va yana quduqqa jo'nashga to'g'ri keldi. Boshqa birov yog'ni to'kib yubordi. Shuning uchun o'qtin-o'qtin:

„Mister Geling kayfiyati joyida emas, kursida o'tirolmay, bu burchakdan u burchakka ivirsib yurib turibdi“, degan ovozarlar kelardi.

– Mayli! – dedi Xloya xola g'azab bilan. – Agar tuzalmasa, ishi yomon bo'ladi. Uning orqasidan jon egasi azroilni yuborganda, ko'ramiz – u qanday sayrarkan!

– Uning to'ppa-to'g'ri do'zaxga tushishi turgan gap, – dedi kichkina Jek.

– U juda do'zaxbob, – dedi Xloya xola, – u juda ko'p kishilarning yuragini poralagan! – deb davom qildi u, qo'lidagi vilkani baland ko'tarib. – Mister Jorjning qiyoamat kuni Xudo oldida qasos so'rovchi jonlar to'g'risida o'qib bergan kitobi esingizdami? Xudoyi taolo axiyri ularning ovozinu eshitadi.

Oshxonada Xloya xolani hamma hurmat qilar, uning so'zlarini g'oyat e'tibor bilan tinglardilar; ovqat dasturxonga uzatilgandi, shuning uchun butun oshxonadagi xaloyiq u bilan laqillashib, so'zlarini quloqqa olish imkoniga muyassar edi.

– Unga o'xshaganlar do'zaxda abadiy yonsa kerak deyman-a? – deb so'radi Endi.

– Uning do'zaxda yonganini ko'rsam maza qilardimda, – dedi kichkina Jek.

– Hoy bolalar! – deb to'satdan ovoz chiqdi va hamma cho'chib tushdi.

Bu – Tom tog'a bo'lib, oshxonaga haligina kirgan va eshik yonida to'xtab, gaplarga quloq solardi.

– Bolalar, – dedi, – tillaringiz nima deb vaysayotganini o'zlaringiz tushunmaysiz. Abadiylik juda dahshatli so'z, bolalarim. U to'g'rida hatto o'ylash ham dahshatli bo'ladi. Hech bir kimsaga abadiy azob tilab bo'lmaydi.

– Biz, qulfurushlardan boshqa hech kimga abadiy azobni tilamaymiz, – dedi Endi. – Ularni esa hamma, umr-

bod do'zaxda yonsa ekan", deydi. Ularning o'zi shunday yovuz bo'lganidan keyin, siz bilan biz nima qilolardik.

– Tabiatning o'zi ularga qarshi faryod qilmayaptimi axir? – dedi Xloya xola. – Ular onalarining bag'ridan bolani tortib olib, sotmaydilar? Bolalar onalarining etagiga yopishib yig'laganlariga qaramay, ular shu bolalarni tortib olib sotadilar. Ular xotinni eridan judo qiladilar, – deb davom etarkan Xloya xola, yig'lab yubordi, – holbuki, xotin bilan er uchun ayriliq o'limdan ham yomon. Odamlarning boshiga qattiq qayg'u tushib zahar yutadilar, bular bo'lsa may ichib, tamaki chekib kayf suradilar. Yo Rabbim, agar bularni shayton o'z joyiga olib ketmasa, shaytonning nima keragi bor?

Xloya xola katak-katak etagi bilan yuzini yopib, qattiq ho'ngray boshladi.

– O'z dushmanlaringizning omonligi uchun ibodat qiling – Xudoyi taolo sizga mana shunday amr qilgan, – dedi Tom.

– Buni qarang; ularning omonligi uchun ibodat qiling emish! – deb xitob qildi Xloya xola. – Tavba qildim, sen haddan ziyodini talab qilasan! Men ularning omonligi uchun ibodat qilolmayman.

– Men shu narsaga juda xursand bo'ldimki, xo'jayin bugun ertalab hech qayoqqa ketmabdi, – dedi Tom. Agar u ketib qolganda juda xafa bo'lardim. Meni sotib yuborganidan ham ortiq xafa bo'lardim. Balki, uning uchun men bilan xayrlashmay bema'lol ketaverish hech nima bo'lmasa ham, menga og'ir bo'lardi: axir, men uni go'daklik chog'idan bilaman-a. Men xo'jayinni ko'rdim, endi hech narsa demay, Xudoning irodasiga bo'ysunaman. Xo'jayinning boshqa iloji bo'lmagan, u to'g'ri ish qilgan. Ammo shundan qo'rqa-manki, men ketgandan keyin bu yerda hamma narsa vayron bo'lmasa, xo'jayin har bir mayda-chuydaga men kabi

qarab, tekshirib turadi, deb bo'lmaydi. Yoshlarning niyatlari juda yaxshi bo'lsa ham, o'zlari o'taketgan beg'amlar. Meni tashvishlantiradigani – ana shu.

Bu vaqt qo'ng'iroq chalinib, Tomni ovqatxonaga chaqirdilar.

– Tom, – dedi unga xo'jayin muloyimlik bilan, – senga shuni aytib qo'ymoqchiman; agar sen zarur bo'lib qolganda o'z joyingda bo'lmasang, men mana bu jentelmen-ga ming dollar to'lashim kerak bo'ladi. Bu kishi hozir o'z ishi bilan ketyapti, qaytib kelguncha sen bo'shsan. Bir aylanib kel, do'stim.

– Rahmat, xo'jayin, – dedi Tom.

– Buni esingda tut, – dedi savdogar, – ayyorlik qila ko'rma. Sen negrlarning nayranglaringni bilaman. Ishqilib, xo'jayiningni aldama. Agar yo'qolib qolsang, undan bir sentigacha qo'ymay sug'urib olaman. Men unga: bularning hech biriga ishonmang, deb maslahat berardim – sizlar pitillab qo'ldan chiqib ketaverasizlar.

– Xo'jayin, – dedi Tom qaddini rostlab, – onangiz sizni mening qo'limga tutqizganda rosa sakkiz yoshda edim, siz bo'lsangiz bir yashar ham emasdingiz. „Tom, dedi onangiz, bu sening yosh xo'jayining bo'ladi. Uni yaxshilab asra“, dedi u kishi menga. Endi, xo'jayin, sizdan shuni so'raymanki, sizni hech aldadimmi? Sizning gapingizga kirmagan vaqtim hech bir bo'lganmi?

Mister Shelbi qattiq ta'sirlandi, uning ko'zlaridan yosh chiqib ketdi.

– Aytgan gaplaring hammasi rost, aziz do'stim, – dedi u. – Iloji bo'lganida edi, seni aslo sotmasdim.

– Imkon bo'lishi bilanoq seni qaytarib sotib olamiz, Tom, – dedi Shelbi xonim va Geliga murojaat qildi: – Ser, sotadigan odamingizning kimligini yaxshi bilib, darhol menga xabar qiling.

– Albatta, – dedi savdogar. – Buni men bir yildan keyin qayta olib kelib, o‘zingizga sotishim mumkin.

– Shunday qilsangiz, yaxshi pul ishlab olasiz, – dedi Shelbi xonim.

– Albatta, – dedi savdogar. – Uni kimga sotishning men uchun ahamiyati yo‘q, ishqilib, foyda qilsam bas. Menga foydadan bo‘lak hech narsa kerakmas, xonim. Hamma odamlar ham aslini so‘rasangiz, faqat foyda qilishni o‘ylaydilar.

Savdogarning behayo surbetligi mister Shelbi va Shelbi xonimning g‘ashiga tegar va ularni haqoratlagandek tuyulardi. Ammo, ularning har ikkisi ham o‘zlarini bosishga majbur edi. Savdogar o‘z muddaosini tobora ochiq aytib, qo‘polligini oshirgan sari, Shelbi xonim Eliza va uning bolasi uchun qattiqroq qo‘rqardi; „Agar ular bu odamning changaliga tushib qolsa holi nima kechadi?“ – deb o‘ylanar va uning mumkin qadar ko‘proq vaqtini olish uchun ayollarga xos har xil ayyorliklarni zo‘r berib ishga solardi. U xushtakalluf kulimsirar, erkin so‘zlashar, ishqilib vaqt bilinmay o‘tsin uchun hamma vositalarni ishlatardi.

Soat ikkida Sem bilan Endi otlarni olib kelishdi, otlar ertalabki poygaga qaramay, dam olgan va tetik ko‘rinardilar.

Yog‘lik ovqatga to‘ygan Sem zo‘r berib ishga tushishga har lahzada tayyordek ko‘rinardi. Geli yetib kelganida u, Endiga chiroyli so‘zlar aytib maqtana boshladi: „Ovimiz juda o‘ngidan keladi, bundan ko‘nglim to‘q“, derdi u.

– Xo‘jayiningiz it saqlasa kerak deb o‘ylayman? – deb tashvishlanib so‘radi Geli, otga minishga harakat qilarkan.

– Bir gala! – dedi Sem zavqlanib. – Brunoga qarang – odamni yeyman deydi-ya! Bundan tashqari, negrlarimizning deyarli hammasidayam it bor...

– Tfu! – dedi Geli va itlarga qarab shunday bir gap aytdiki, Sem:

– Nega ularni bunchalik so‘kasiz? – deb g‘o‘ldiradi.

– Negrlarni ushlaydigan it saqlamaydimi xo'jayiningiz? Ha, bunaqa itlar unda yo'qligini o'zim ham bilaman.

Sem uning muddaosini juda yaxshi tushunsa ham o'zini pandavaqilikka soldi.

– Itlarimizning sezgirligi chakki emas. Itlaramiz – xuddi sizga kerak itlardan: bunga ishonchim komil. Faqat ularning bunaqa ishlarda tajribasi kamroq. Bular asl it, qo'yib yuborsangiz ko'rasiz, – deb hushtak chalib itni chaqirdi: – Bruno, bu yoqqa kel!

Katta Nyufaundlend ko'ppagi unga o'zini tashladi.

– He, padarqusur! – dedi Geli. – Tez bo'! Ketdik.

Sem otga irg'ib minarkan. Endini bir qitiqlab qo'yishga ham ulgurdi. So'ngra qah-qahlab kulib yubordi. Bundan jahli chiqqan Geli unga bir qamchi tushirdi.

– Hayronman senga, Endi, – dedi Sem pinagini buzmasdan. – Ishimiz juda jiddiy, hazilning vaqti emas. Misterga yordam berish shunaqa bo'lmaydi.

– Tikka daryoga! – qat'iy dedi Geli, ular qo'rg'oncha chegarasiga yetganlarida, – Negrlarning hiylasini bilaman, – hammasi daryoning narigi tomoniga qochadi!

– Albatta, – dedi Sem, – bu gapingiz to'g'ri. Mister Geli to'g'ri nishonga uradi. Lekin daryoga ikkita yo'l boradi. Mister bulardan qaysi birini tanlaydilar?

Endi, yo'l haqidagi bu yangi gapni eshitib, taajjublangan holda Semga qaradi, lekin buning ma'nosini darrov tushunib, unga sham berdi.

– Liza eski yo'ldan yurgan bo'lsa kerak, – dedi Sem, – chunki bundan odam kam qatnaydi.

O'zini juda ish ko'rgan deb hisoblovchi va aldanmaslikka qattiq ishongan Geling o'zi ham shunday fikrda edi.

– Agar ikkovingiz ham bunday yolg'onchi bo'limganingizda edi... – biroz o'ylanib dedi Geli.

Bu soʻzlarning xayol surgan holda mujmallik bilan aytilishi Endiga juda kulgili tuyuldi va u oʻzini egarga chalqancha tashlab shunday qattiq kuldiki, otdan yiqilib ketayozdi. Semning afti-angori esa gʻoyat jiddiy edi.

– Albatta, – dedi Sem. – Mister oʻz bilganlaricha ish tutishlari mumkin. Agar mister: „Yangi yoʻldan borish yaxshi“, desalar yangi yoʻldan boraveramiz, bizga baribir. Mening nazarimda, endi yangi yoʻl yaxshiroq koʻrinyapti.

– U odam qatnamaydigan yoʻldan ketganku-ya, – deb ovozi chiqarib fikrladi Geli, Semning mulohazasiga eʼtibor bermay.

– Bunday deb boʻlmaydi! Xotin kishini tushunish qiyin. Siz uni ana bunday qiladi deb oʻylaysiz, u esa boshqacha ish tutadi. Koʻpincha teskarisicha ish tutadi. Ularning yaratilishi azaldan shunaqa: hamma vaqt aksincha ish qilishadi. Shuning uchun agar siz, u shu yoʻldan ketgan boʻlsa kerak, deb oʻylagan boʻlsangiz, bilingki, u aniq boshqa yoʻldan ketgan. Men Liza eski yoʻldan ketgan, deb oʻylayman, shuning uchun yangi yoʻldan borish kerak.

Xotinlar haqidagi bu chuqur maʼnoli mulohazalarni eshitgan Geli, oʻz fikrini yangi yoʻl foydasiga oʻzgartirmagandek koʻrindi. U choʻrt kesib: „Eski yoʻldan boramiz!“ – dedi va oʻsha eski yoʻlga qachon yetib olishlarini Semdan soʻradi.

– Tez yetamiz, – dedi Sem va Endiga qarab koʻzini qisib, jiddiy suratda davom etdi: – Lekin men har jihatdan oʻylab koʻrdim va men uchun bir narsa mutlaqo ravshan boʻlib qoldi: eski yoʻldan bormasligimiz kerak. Men u yoʻldan hech yurganmasman. U shunday beqatnovki, adashib qolishimiz mumkin. Xudo biladi, undan qanday qilib chiqib olarkanmiz!

– Qanday boʻlmasin, men eski yoʻldan boraman! – dedi Geli.

– Ha, men yana shuni ham o'ylayman: bu yo'lda soy juda ko'p deyishadi. Rostmi, Endi?

Endi bu haqda aniq hech narsa bilmasdi. U eski yo'l to'g'risidagi gaplarni eshitgan-u, o'zi unda hech yurmagandi.

– Xullas, bilmayman dedim – bilmayman, – dedi u. Yolg'ondakam gaplarga ko'nikib qolgan Geli: „Sem jo'rttaga eski yo'lni yomonlayotgan bo'lsa kerak, bu xumpar avval to'g'risini gapirib qo'ydi-yu, endi Elizani qo'lga tushirmaslik uchun qip-qizil yolg'onchilik qilyapti“, degan qarorga keldi.

Nihoyat, ular yo'lga chiqib olishdi, Sem va Endidan iborat navkarlari bilan Geli oldinga otildi.

Darhaqiqat, bu eski yo'l bo'lib, burun daryoga olib borardi, ammo bir necha yildan buyon qolib ketganlikdan, kishilar yangi yo'ldan qatnaydigan bo'lib qolgandilar. Eski yo'ldan bir soatcha bemalol yurish mumkin bo'lsa ham, undan keyin yurish g'oyat og'ir edi, chunki yo'l butunicha devor va fermalar bilan to'sib tashlangandi. Sem buni juda yaxshi bilardi, ammo Endi bo'lsa bu yo'l to'g'risida hatto eshitgan ham emasdi, chunki uning yopilib ketganiga juda ko'p vaqt bo'lgandi. Lekin bunga qaramay, Sem bo'ysunib ilgari borar va goh-goh: „Bunday o'nqir-cho'nqir yo'l Jerrining oyog'ini nobud qiladi“, deb g'udunglardi.

– Endi, men senlarning nayranglaringni batamom tushundim! – deb qichqirdi Geli. – Meni jo'rttaga bu yo'lga boshladinglar! Yaxshisiz damingizni chiqarmay qo'ya qoling!

– Yo'l tanlash, xo'jayin, sizning ixtiyoringizda! – g'amgin holda, bo'ysungan bo'lib dedi Sem, ammo shu on Endiga qarab ko'zini qisgandi, u kulgidan o'zini zo'rg'a bosib qoldi.

Sem o'zini juda tetik ko'rsatar, ko'zimni yo'lning ikki chetidan hech uzmayapman, deb Gelini ishontirar, ba'zida esa uzoq tepaliklar cho'qqisida „Xotin kishining qalpoqchasini ko'rdim“, deb qichqirar yoki Endidan:

– Ha, pastqam joydagi anov ko'ringan Lizaga o'xshaydimi? – deb so'rab qo'yardi.

U, bu gaplarni otni choptirib borish mumkin bo'lmaydigan o'nqir-cho'nqir yoki sertosh joylarda aytar va shu bilan Geling xayolini parokanda qilib qo'yardi.

Bir soat yo'l bosgandan so'ng uchala chavandoz shovqin-suron bilan katta bir ferma qo'rasiga kirib kelishdi. Hamma dalada ishda bo'lganidan, fermada hech kim yo'q edi. Fermaning o'zi bo'lsa, yo'lni to'sib turgani sababli, bu yog'iga yurish mumkin emasligi aniqlandi.

– Buni sizga aytmaganmidim axir, mister? – dedi Sem, begunoh dashnom yegan kishidek. – Begona kishi bu yerda tug'ilib katta bo'lgan odam kabi bu yerni bilarmidi?

– Ablah! – deb qichqirdi Geli. – Sen hammasini bilgansan!

– „Bilaman“ deb sizga aytmovidimmi? Siz esa menga ishonmadingiz. Yo'lning mana shunga o'xshagan to'siqligini aytgandim, bu yo'ldan yura olishimizga aqlim yetmagandi. Buni Endi ham tasdiqlashi mumkin!

Buning hammasi juda ravshan edi. Sho'ring qurg'ur savdogar o'z g'azabini bosishga majbur bo'ldi, pirovardida uchovlari ham ot boshini o'ng tomonga – yangi yo'lga qarab burishdi.

Mana shu to'xtalishlar soyasida, Elizaning bolasi to Geli va uning odamlari yetib kelguncha, qishloq mehmonxonasida bir soatcha uxlab oldi. Eliza deraza yonida narigi tomonga qarab turardi; ziyrak ko'zli Sem uni ko'rib

qoldi. Geli bilan Endi biroz orqaroqda edi. Sem boshidan qalpog'ini olib qattiq qichqirdi. Eliza bu ovozni eshitib cho'chib tushdi va o'zini orqaga tashladi. Otliqlar deraza tagida, ko'chaeshik yonida to'xtadilar.

Eliza bir lahzada ming-ming azob chekdi. Eliza turgan xonaning yon eshigi daryo tomonga chiqardi. U bolani ko'tardi-da, pillapoyalardan uzun-uzun sakrab tashqari chiqdi. U tepalik orqasida g'oyib bo'layotganda, Geli uni ko'rib qolishi bilanoq, otdan tushib Sem bilan Endini qattiq ovoz bilan chaqirdi-da, o'ljasi orqasidan quvgan itdek, Elizaning orqasidan yugurdi. Eliza kuchi boricha chopib, bir zumda suv bo'yiga yetdi. U orqasidan quvib kelayotgan savdogarni unga yetib olayotgandek sezardi. Keyin, g'ayritabiiy bir kuchdan ruhlanib, birdan qattiq qichqirdi-da, daryo yoqasida loyqalanib oqayotgan suvdan bir sakrab muz parchasi ustiga o'tdi. Bu – favqulodda sakrash bo'lib, aqldan ozgan yoki dunyodan umidini uzgan kishigina shunday qila olishi mumkin edi, Geli ham, Sem ham, Endi ham beixtiyor qichqirib, qo'llarini ko'targanlaricha qoldilar.

Eliza chiqib olgan katta ko'kimtir muz uning og'iriligiga bardosh berolmay qirsillab sindi, lekin u buning ustida bir soniyadan ortiq to'xtamadi. U qattiq dodlagani holda, tavakkal qilib bir muzdan ikkinchi muzga sakrab o'tar, qoqilar, tiyg'anib ketar, sakrar va bir daqiqa ham to'xtamay, tobora oldinga ilgarilardi. Uning oyog'idan kavushlari tushib ketdi, paypoqlari tilkalandi, tovonlari qonga bo'yaldi. Lekin uning ko'ziga hech nima ko'rinmas, u hech narsani sezmasdi. U Ogayo daryosining xud-di tushdagi kabi g'ira-shira sohilini va qirg'oqqa chiqib olish uchun unga yordam bergani shoshilgan bir odamni ko'rgandan keyingina o'ziga keldi.

– Kimligingni bilmayman-u, lekin balli senga! – dedi u odam. Eliza uni tanidi. Bu odamning fermasi Elizaning ilgari yashagan uyiga yaqin edi.

– Hoy, mister Simms, meni qutqaring, meni yashiring! – deb qichqirdi Eliza.

– Nima gap o‘zi? Tinchlikmi? – deb so‘radi mister Simms. – Voy, bu Shelbiga qarashli ayollardan-ku!

– U, mening o‘g‘limni... mana bu bolani sotdi! Buning yangi xo‘jayini, hu ana – turibdi, – dedi Eliza nari-gi qirg‘oqni ko‘rsatib. – Hoy mister Simms, sizning ham o‘g‘ilchangiz bor-ku!

– Ha, bor, – dedi bu odam, uni tikka qirg‘oqqa tortib chiqarkan qo‘polroq qilib, ammo muloyim ohang bilan. – Lekin senga qoyilman! Dovyuraklarni yaxshi ko‘raman, azbaroyi Xudo!

Qirg‘oqdagi tepalikka ko‘tarilgach, haligi odam to‘xtadi.

– Senga biror foyda yetkzamsam, o‘zim ham xursand bo‘lardim-u, – dedi u. – Ammo seni yashiradigan joyim yo‘q. Yaxshisi sen, hu ana u yerga bor, – deb katta ko‘chadagi haybatli oq uyni ko‘rsatdi. – O‘sha yerga bor. U yerda yaxshi odamlar yashaydi. Ular senga yordam beradi. Ular har bir hojatmandga chin ko‘ngildan yordam ko‘rsatishadi.

– Rahmat sizga, katta rahmat! – dedi Eliza, chin ko‘nglidan minnatdorchilik bildirib.

– Arzimaydi, arzimaydi! – dedi bu odam. – Hechqisi yo‘q! Nima qildimki rahmat deysan?

– Lekin, ser, hech kimga aytmassiz deb o‘ylayman?

– Bu nima deganing! Meni kim deb gumon qilyapsan? Albatta, aytmayman, – dedi bu odam. – Boraver. Sen aqlli, yaxshi juvon ekansan. Sen ozod bo‘lishga arziysan, ozodlikka albatta erishasan ham.

Eliza, bolasini ko‘ksiga bosib jo‘nadi. U odam ayolning orqasidan qarab qoldi.

– Shelbi, ehtimol, endi meni „Qo‘shnichilikka munosib bo‘lmagan ish qilibdi“, deb o‘ylar. Lekin nima ham qilardim? Negr ayollarimdan birontasi u tomonga qochib o‘tar ekan, mayli, u ham shunday qilaversin. Men, odamning orqasidan it olib quvganlariga qarab chidayolmasdim. Yana shunisi ham borki, birovning quli orqasidan quvib nima huzur ko‘raman?

Eliza narigi qirg‘oqda ko‘zdan yo‘qolgunga qadar, Geli garang bo‘lib turdi. Ko‘zdan g‘oyib bo‘lgach, Sem bilan Endiga, „Bu nima qilganlaring“, degandek tikilib qoldi.

– Toza bopladi-ya! – dedi Sem.

– Bu xotin balo ekan! – dedi Geli. – Muzlar ustidan, xuddi yovvoyi mushukdek sakrab o‘tdi-ya!

– Ishonamanki, – dedi Sem boshini qashib, – uning orqasidan quvlab o‘zimizni muzga tashlamaganimiz uchun mister bizdan xafa bo‘lmasalar kerak. O‘lay agar, men aslo betlayolmasdim! – Sem piqillab kuldi.

– Tag‘in kulasan-a! – deb bo‘kirdi savdogar unga.

– Oh mister, kulgim qistayapti, o‘zimni hech to‘xtatolmayapman, – dedi Sem, anchadan buyon bosib kelgan quvonchiga erk berib. – U juda qiziq chopti-da axir! Goh sapchiydi, goh irg‘iydi... muz qisirlaydi, suvning „pilq-pilq, shalop-shulup ovozi eshitiladi xolos! Yo Xudo, uning chopishini qarang!

Sem bilan Endi to ko‘zlaridan yosh chiqquncha kuldilar.

– To‘xtab tur, senlarni boshqachasiga kuldiraman hozir! – deb qichqirdi savdogar, ularga qamchisi bilan hamla qilib.

Ikkovlari ham qamchiga chap berdilar-da, qiyqirib qirg‘oqqa yugurdilar va Geli yetib kelguncha, otlariga mindilar.

– Yaxshi qoling, mister! – dedi Sem jiddiy ravishda. – Ehtimol, bekamiz Jerridan tashvishlanayotgandirlar. Siz

bizni ortiq tutib turmasangiz kerak. Biz Lizani ushlaymiz, deb otlarni shunday pand ko'prik ustiga solib yuborganimizda, bekaning bizdan xafa bo'lishi turgan gap.

U hazillashib Endining biqiniga turtdi va ikkovlari ot boshini qo'yvordilar. Shamol ularning qattiq kulgi ovozlari Geli qulog'iga g'ira-shira yetkazardi.

VIII BOB

Elizaning qochishi

So'nggi oqshom yorug'i so'nayotgan chog'da Eliza daryoning narigi qirg'og'iga o'tib oldi. U qirg'oqqa ko'tarilganda daryodan ohista ko'tarilayotgan kulrang kechki tuman uni chulg'ab ko'zdan yashirdi, qaynab oqayotgan suv va bir-biriga tutashgan muz parchalari uni ta'qibchilardan qutqardi.

Qayg'uga tushgan Geli, endi nima tadbir ko'rish kerakligini o'ylab, mehmonxonaga sekin qaytib keldi. Bir ayol eski gilam yozilgan kichkina mehmonxona eshigini unga ochdi. Mehmonxonada ustiga qora yarqiroq klyonka yopilgan stol va baland yog'och suyang'ichli har xil ingichka kursilar turardi: manqal pechkada – o'ti zo'rg'a yonib turgan o'choq ustida gipsdan ishlangan va yaltilatib bo'yalgan haykalchalar turardi. O'choq oldida, o'ltirish uchun noqulay, uzun va qattiq skameyka turardi; Geli shunga o'tirib oldi-da, kishidagi umid-orzuning va, umuman, odam iqbolining pandligi haqida xayol sura boshladi.

– Xo'sh, bu bola menga nima uchun kerak edi? – derdi u o'ziga. – Shuni deb men, eshakdek ahmoq bo'ldim-a!

Keyin Geli g'amini yengillatish uchun, o'zini shunday sara iboralar bilan so'ka boshladiki, bu so'zlar haqiqat-

ning o'zginasini ifodalab berishiga qaramay, kamtarlikka rioya qilib, ularni yozmay qo'ya qoldik.

Allakimning tashqaridan kelgan qattiq va keskin ovozi uni bu holatdan chiqardi, ovoz egasi, aftidan, musofirxona eshigi oldida otdan tushardi. Geli shoshilib deraza yoniga keldi.

– He sabil! Ana uni qarang! Xizrdek kelishini qarang-a! – deb qichqirdi Geli. – Bu Tom Loker-ku, azbaroyi Xudo!

Geli shunday dedi-yu, darrov shoshilib tashqariga chiqdi.

Xonaning burchagidagi peshtaxta yonida bo'yi olti fut keladigan, kifti keng, qoracha odam turardi.

Uning egnida qo'tos terisidan tikilgan, juni teskari kalta po'stincha bo'lib, uning qiyofasini vahimali qilib ko'rsatardi. Uning aft-angori ham xuddi shunday vahimali edi. Uning o'taketgan berahm odamligi va haddan ziyod badjahlligi yaqqol ko'rinib turardi. Agar o'quvchi bu odamning tashqi ko'rinishi haqida ma'lumot olmoqchi bo'lsa, po'stincha va qalpoq kiyib yurgan buldog itni ko'z oldiga keltirsa bas. Hamrohining ko'rinishi esa hamma jihatdan unga batamom qarama-qarshi bo'lib, u past bo'yli, badburush, epchil va mushukdek ayyorlik bilan harakat qiladigan kishi edi. Uning o'tkir qora ko'zlari go'yo sichqon poylayotgandek qarar va bu narsa uning butun yuz-qiyofasini xuddi ko'zlaridek o'tkir qilib ko'rsatardi.

Ulkan odam katta stakanga yarim qilib toza spirt quydi va churq etmay ichib yubordi. Pakana odam esa oyoq uchida ko'tarildi-da, boshini o'ng va chapga burib, har xil shishalarni hidladi va xotinchalish chiyillagan ovoz bilan gulob talab qildi. Stakanga gulob quyib bergandilar, u yanglishmaganini bilgan kishidak, stakanga diqqat va

mamnunlik bilan qaradi-da, gulobni ehtiyotlik bilan qultum-qultum yuta boshladi.

– Seni uchratgan baxtimdan o‘rgilay!.. Kimning xayoliga kelishi mumkin edi! Salom, Loker! – dedi Geli, ulkaniga qo‘lini uzatib.

– Iblis – degan „takallufnamo“ javob aytili. – Bu yerga seni qaysi shamol uchirib keldi, Geli?

Mushukka o‘xshagan odamcha – uning nomi Merks edi – gulob qullatishini darhol to‘xtatdi-da, tumshug‘ini cho‘chchaytirib, yangi oshnaga boshdan oyoq sinchiklab qaray boshladi. Odatda, qurigan barg qimirlaganda, mushuk unga xuddi ana shunday qaraydi.

– Senga duch kelishim juda soz bo‘ldi-da, Tom! Sabil qolsin, men juda mushkul ahvolga tushib turibman... Bundan chiqib olishda menga yordam bermasang bo‘lmaydi, og‘ayni...

– Turgan gap! – deb g‘udungladi uning xushmuomala oshnasi. – Agar sen kimgaki: „Seni ko‘rib juda xursand bo‘ldim“ desang, u odam o‘zining senga kerak bo‘lib qolganini darhol payqab oladi-ya. Xo‘sh, nima gap o‘zi?

– Bu sening og‘ayningmi? – deb so‘radi Geli, Merks-ga savol alomati bilan qarab: – Yo sherigingmi?

– Ha, og‘aynim. Bu yoqqa kel, Merks! Men mana shu olifta bilan Natchezda birga ishlagandim.

– Bu kishi bilan tanishganim uchun xursandman, – dedi Merks, qarg‘aning panjasi kabi uzun va ingichka qo‘lini uzatib. – Agar yanglishmasam, mister Geli bo‘lsalar kerak?

– O‘shaning o‘zi, ser! – dedi Geli. – Endi, jentelmenlar, modomiki bunday yaxshi uchrashganimizdan keyin, men sizlarni shu yemakxonada jindakkina mehmon qilishim kerak: Qani chol, – dedi peshtaxta yonida turgan odamga qarab, – bizga qaynoq suv, qand, sigara hamda obi hayotdan ko‘proq bering, yaxshilab bir kayf-safo qilaylik.

Shunday qilib, shamlar yoqildi, o'choqda o't ham alanganib yonib turibdi; ichkilik hamda noz-ne'mat bilan to'lgan va kishini do'stona suhbatga chorlaydigan stol atrofida uch ulfat o'tirishibdi.

Geli o'z sarguzashtlari haqida ta'sirli qilib, bir boshdan gapirib ketdi. Loker indamasdan xo'mrayib, uning gapini tinglardi. O'z didiga moslab punsh tayyorlash bilan ovora Merks, goho o'z mashg'ulotini tashlar va nashtardek burni bilan iyagini Geling yuziga tekkizayozib, uning so'ziga zo'r e'tibor bilan quloq solardi. Hikoyaning so'nggi qismi uni cheksiz suyuntirdi shekilli, yelkasi va biqinlari tovushsiz titradi va ingichka labi tabassumdan qiyshaydi.

– Demak, qo'lga tushibsiz-da? – dedi u. – Hi-hi-hi! Boplashibdi!

– Yosh bolalar bilan ovora bo'lish ishimizga ko'p xalal beradi-da, – deb hasrat qildi Geli.

– Mabodo biz, bolalarini sevmaydigan xotinlar zotini chiqarolganimizda, bu narsa hozirgi zamon fanining juda katta muvaffaqiyati bo'lardi-ya, – dedi Merks va o'z hazilini quvvatlash uchun hiqillab kuldi.

– To'g'ri, to'g'ri! – dedi Geli. – Men: „Xotinlar nima uchun o'z bolalariga bunchalik chirmashib olisharkin?“ deb hech tushunolmasdim. Ular uchun chaqaloq ortiqcha tashvish bo'lishi va bu dardisardan qutulganlariga sevinishlari kerak edi axir. Yo'q, unday qilmaydilar! Bola qanchaki tashvishni ko'p ortirsa, unga shu qadar qattiqroq yopishadilar.

– Shunday, mister Geli, – dedi Merks. – Menga qaynoq suvni uzatib yuboring. Shunday, ser, siz xuddi mening ko'nglimdagi gapni aytdingiz. Men savdogarlik qilib yurganimda, bir xotin sotib oldim. O'zi baquvat, afti-basharasi ham tuppa-ƣuzuk edi. O'sha xotinning dardchil bukri bolasi bor edi. Men bu bolani bir odamga

sovg'a qildim, u odam: „Tekin kelgan bolani sotsam, biror narsa ishlab olaman-ku“, – deb umid qilgandi. Ammo bolani tortib olgandan keyin, xotinning ne holga tushganini bilsangiz hayron bo'lardingiz! Uning ahvolini ko'rsangiz edi! Bolasining bukriligi, injiqligi va unga tinchlik bermagani uchun yana-da ko'proq rahmi kelyapti, deb o'ylash mumkin edi, azbaroyi Xudo! U, jo'rttaga qilgan, deb ham o'ylamang. U tinmay yig'lar, bolasini chaqirar, u burchakdan bu burchakka borar, xuddi o'zining eng qadr don do'stlarini yo'qotgandek izlardi. Esimga tushsa kulgim keladi. Xotinlarda bo'lgan ajoyib va g'aroyib xulqlarning nihoyasi yo'q!

– Men bilan ham shunday bir voqea bo'lgandi, – dedi Geli. – O'tgan yoz Qizil daryoning etagida bir xotinni chiroyligina bolasi bilan sotib oldim. Bolaning ko'zi xuddi siz bilan bizning ko'zimizdek chaq nab turardi. Lekin zehn solib qarasam, ko'r ekan. Rostdan, mutlaqo ko'r maydi! Ana shundan keyin men, onasiga hech nima demay, bolani biror yoqqa sotib yuborsam juda soz ish qilgan bo'laman, degan fikrga keldim-da, sekingina bir bochka vinoga ayirbosh qildim. Lekin uni onasidan ajratib olish uchun kelganlarida, ona xuddi yo'lbars kabi hurpayib oldi. Biz yo'lga chiqqanimizcha yo'q va mening negrlarim kishanlanmagandi. Nima qildi u qurg'ur deng? Mushukdek, bir lahzada toy paxta ustiga sakrab chiqib, bir matrosning pichog'ini tortib oldi va u, azbaroyi Xudo, bir daqiqada hammamizni tumtaraqay quvdi! Ammo bu ishi yordam bermasligini ko'rgach, orqaga qayrildi-yu, bolasi bilan birga o'zini daryoga tashlab, bir zumda cho'kib ketdi.

– Eh! – dedi bu hikoyani ijirg'anib tinglayotgan Tom Loker. – Hammalaring ho'kizsizlar! Boshqacha emas. Mening ayollarim bunaqa nag'malarni qilmaydi.

– Rosti bilan-a? Ularni qanday qilib epaqaga solyapsiz? – deb darrov so‘radi Merks.

– Qanday epaqaga solyapman? Mana bunday qilib. Mabodo ayol sotib olsam-u, uning sotadigan bolasi bo‘lsa, oldiga kelib, tumshug‘iga mushtimni o‘qtalib shunday deyman: „Buni ko‘rdingmi? Agar churq etsang, tumshug‘ingni pachoqlayman! Ovozingni chiqara ko‘rma. Bola seniki emas, meniki. Bola bilan endi ishing bo‘lmasin. Qulay payt kelishi bilan uni sotaman. Shovqin sola ko‘rma, yo‘qsa shunday kaltak yeysanki, dunyoga kelganingga pushaymon qilasan“. Azbaroyi Xudo, ular bu gaplarimning hazil emasligini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, xuddi baliqday indamay qoladilar. Bordi-yu birortasi dodlay boshlasa, u vaqtda... – deb mister Loker stolga chunonam musht urdiki, hammalari uni so‘zsiz ham tushundilar.

– Odamga gap uqtirish mana bunday bo‘ladi! – dedi Merks, Gelinging biqiniga turtib, hiqillab kulib. – Buning uchun Tomga „balli!“ deyish kerakmasmi? Hi-hi-hi! Tom, agar siz iblisning o‘zi bo‘lmasangiz ham, uning ukasi bo‘lasiz, azbaroyi Xudo!

Tom bu maqtozni munosib kamtarlik bilan qabul qildi.

– Qani, ishga o‘taylik. Xo‘sh, mister Geli, nima bo‘ldi endi? – deb so‘radi Merks. – Siz bizga: „Ayolimni tutishga yordam bering“, demoqchimisiz?

– Ayol meniki emas, u Shelbining moli. Faqat bolasini, xolos. Bu maymunni sotib olgan men – ahmoq!

– Sen umuman ahmoqsan-ku, – dedi Tom qo‘pol ravishda.

– Qo‘ying, Loker, qo‘pollik qilmang, – dedi Merks, labini yalab. – Mister Geli bizga ahvolni gapirib berdi. Damingizni chiqarmang, hammasini to‘g‘rilayman. Bunaqa ishlarni to‘g‘rilash – mening kasbim, u xotinning aft-angori qanday, mister Geli?

– Oq, chiroyli... Yaxshi tarbiya ko‘rgan. Men Shelbiga bu ayol uchun sakkiz yuz yoki ming dollar taklif qilib edim. Shunda ham yaxshi foyda qilardim.

– Oq, chiroyli... Yaxshi tarbiya ko‘rgan, – dedi Merks va uning cho‘chchaygan qiyofasiga jon kirdi. – Menga qarang, Loker, ishning boshi yomonmas. Ziyon qilmaymiz. Ularni tutamiz: bolani, albatta, mister Geli oladi, ayolni esa o‘zimiz. Yangi Orleanga olib borib, yaxshilab pul qilamiz. Ajoyib ish bo‘lmaydimi bu.

Katta og‘zini nim ochib, gapga quloq solib o‘tirgan Tom og‘zini go‘sht parchasini tishlab olgan it kabi birdan yopdi va Merks izhor etgan fikrni hazm qilayotgandek ko‘rindi.

– Bilasizmi, – dedi Merks, o‘z punshini aralashtirarkan, Geliga murojaat qilib, – daryo bo‘yidagi hamma shaharlarda bizga juda yaxshi yordam beradigan bopta sudlar bor. Ma‘lumki, Tom mushtlashishni juda yaxshi ko‘radi. Men bo‘lsam, basharti qasam ichish kerak bo‘lib qolgani-da, u yerga yasanib, yaltillagan botinkamni kiyib boraman, egnimdagi hamma libosim birinchi navli bo‘ladi. Bunday ishlarni qanday qilib to‘g‘rilashimni ko‘rsangiz edi, – dedi Merks, o‘z kasbidan g‘ururlanib, qizarib. – Chunonchi, bugun men yangi Orleanlik mister Tuikeman. Ertaga – Marvaryad daryosidagi plantatsiyamdan kelgan plantatorman; u yerda mening yetti yuzta negrim ishlab yotibdi. Ertadan keyin men mister Genri Klayning yoki kentukkilik yana birorta eshakning uzoq qarindoshi-man. Bilasizmi, iste‘dod deganingiz har xil bo‘ladi. Mana, Tomni olsangiz, u, mushtlash va janjalning piri hisoblana-di. Ammo Tomning yolg‘on gapirishga hech qanday iste‘dodi yo‘q. Albatta, men o‘zimni Tom bilan sira tenglashtirmayman, lekin, agar bu mamlakatda har narsaga va har kimga mendan ham ustaroq qasam icha oladigan,

har bir ishning tafsilotini va nayranglarini xuddi men kabi sinchiklab surishtira oladigan odam topilsa, uni bir tomosha qilardim! Imonim komilki, hatto sudlarimiz gapga yuradigan bo'lmaganlarida ham, men har qanday joydan ilondek sirg'anib yoki o'rmalab o'tolardim. Ba'zi vaqt men o'zimga, sudlar qattiqroq tekshirsalar ekan, ularni boplab aldardim, huzur qilardim, deyman...

Yuqorida aytilganicha, fikri ham, o'zi ham og'ir qimirlovchi Tom, qo'qqisdan Merksning so'zini bo'lib, mush-ti bilan stolni chunonam urdiki, hamma narsa jaranglab ketdi.

– Shunday qilganimiz bo'lsin! – deb baqirdi u.

– Xudo yorlaqasin, Tom, stakanlar sinmasin ishqilib, – dedi Merks, – mushtingizni ehtiyot qiling, hali kerak bo'ladi.

– Lekin, jentelmenlar, foydadan menga ham hissa tegadimi? – deb so'radi Geli...

– Senga bolangni ushlab berganimizning o'zi kifoya qilmaydimi? – deb so'radi Loker. – Yana nima kerak senga?

– Lekin, – dedi Geli, – agar sizga foydali bir ishni taklif qilgan ekanman, bu axir, biror narsaga arzir. Menga o'n foiz berasizlar. Chiqimlarini o'zingiz to'laysiz.

– Nima? – dedi Loker qattiq so'kinib va stolga mush-tini urib. – Seni bilmaymanmi, Den Geli? Meni aldayman degan fikringni miyangdan chiqar. Biz, Merks bilan ikkovimiz faqat „Sen singari jentelmenlarga yordam qilamiz-u, o'zimiz quruq qolaveramiz“, deb bu ishga kirishamizmi? Shunday deb o'ylovdingmi? Yo'q, og'ayni, bu nomering o'tmaydi! Xotinni biz olamiz, sen damingni chiqarmaysan, yo'qsa bolani ham olib qo'yamiz. Bizga kim xalal beradi? O'ljani bizga ko'rsatib qo'yding. Endi u bizniki ham, seniki ham. Agar sen yoki Shelbi bizning

orqamizdan quvadigan bo'lsangiz, sizni shunday qarshi olamizki, keyin hech qachon esingizdan chiqarmaysiz.

– Xo'p, sizning aytganingiz bo'lsin, – dedi Geli qo'rqib. – Faqat menga bolani ushlab bersalaring bas... Sen, Tom, men bilan doim halol ish qilgansan, har vaqt so'zingning ustidan chiqib kelgansan.

– Hech qachon sen kabi anqov bo'lganmasman, lekin pul hisobiga kelganda, shaytonga ham yolg'on so'zlamayman. Buni yaxshi bilasan. Bir ishni qilaman desam, qilaman, buni ham bilasan, Den Geli.

– To'g'ri, to'g'ri, Tom, – dedi Geli, – „Bir haftadan keyin falon joyda bolani qo'lingga topshiraman“, deb va'da bersang bo'ladi. Menga boshqa hech nima kerakmas.

– Ammo men bo'lsam, yana bir nimalarni istayman, – deb e'tiroz qildi Tom. – Natchezda, sen uchun hech bir ishni tekinga qilmaganim esingda bo'lsa kerak? Bilib qo'y, mening qo'linga kirgan narsa qaytib chiqmaydi. Sen hamyoningni qoqib, shu onning o'zidayoq bizga ellik dollar naqd berishing kerak, yo'qsa bolani ham ko'rmasan! Seni bilaman!

– Qo'llaringda bir ming, hatto bir ming olti yuz dollar foyda keltiradigan ish turibdi-ku! Bunaqa chaqa pullardan nima naf ko'rasan, Tom? – dedi Geli.

– Bu ish biz uchun kamida besh haftalik ishmasmi axir? Faraz qildik, biz hamma ishimizni yig'ishtirib qo'yib, chakalakzorlarda sening bolangni axtardik, bordi-yu, pirovardi bu xotinni topolmadik, keyin-chi? Axir xotin kishini tutish nima-yu, ajinani tutish nima, babbaravar! Keyin nima bo'ladi? Bizga bir sent ham haq to'lamaysanmi? To'laysan! Ko'raman o'shanda qancha to'larkansan? Yo'q, yo'q! Chiqar bu yoqqa ellikni! Agar biz ishni yutib chiqsag-u, bizga daromad bersa, pulingni

qaytarib beraman. Agar natija chiqmasa, mehnatimizga serna-ser bo'ladi. Gapim to'g'rimi, Merks?

– Albatta, albatta, – dedi Merks, murosasozlik qilib. – Bu faqat zakalat! Hi-hi-hi! Axir, bilsangiz, biz zakonchimiz. Biz hamma ishni yaxshilikcha, tinch bitirishimiz kerak. Tom, bolangizni istagan joyingizga yetkazib beradi. To'g'rimi, Tom?

– Agar bolani topsam, Sinsinnatiga olib kelib, pristan-dagi Grenni Belcherga qo'yib ketaman, – dedi Loker.

Merks cho'ntagidan yog' bosgan hamyonini chiqarib, undan bir varaq qog'oz olgach, o'tirib oldi-da, qog'ozga o'tkir qora ko'zini tikib, go'ldiray boshladi.

– „Barnes, Shelbi okrugi, negr Jim – tirigi yoki o'ligi uchun uch yuz dollar... Edvars, Dik va Lyusi, er-xotin – olti yuz dollar... Polli ikki bolasi bilan – o'zi yoki kallasi uchun olti yuz dollar“. Sizning ishingizga kirish uchun imkonimiz bormikan, deb qo'limizdagi ishlarni ko'ryapman... Loker, – dedi u biroz o'ylanib, – biz Adams bilan Springerni mana bu negrlar orqasidan yuborishimiz kerak.

– Adams bilan Springer juda qimmat olishadi, – dedi Tom.

– Hammasini o'zim to'g'rileyman. Ular bu ishda yangi, shuning uchun arzonroq olishlari kerak, – dedi Merks, o'qishda davom etib. – Uchtasi yengil ish, chunki biz negrlarni yo otib tashlashimiz, yoki „otdik“ deb qasam ichishimiz kerak. Ular bunday arzimaydigan ish uchun qimmat olishmaydi. Qolgan ishlarni, – dedi u, qog'ozni taxlab, – keyinchalik qilish mumkin. Endi ishning tafsilotiga o'taylik. Mister Geli; juvonning narigi qirg'oqqa o'tganini ko'rdingizmi?

– Sizni shu tobda qanday aniq ko'rib tursam, uning o'tganini ham shunday aniq ko'rdim.

– Daryodan chiqishga yordam bergan odamni ham ko'rdingizmi? – dedi Loker.

– So'zsiz, ko'rdim.

– Eng anig'i shuki, – dedi Merks – uni birorta uyga yashirib qo'yishgan. Lekin qaysi uyga? Buni bilish qiyin. Siz nima deysiz, Tom?

– Biz daryodan shu bugun kechasi o'tishimiz kerak, – dedi Tom.

– Lekin bu yerda birorta ham qayiq yo'q, – deb e'tiroz bildirdi Merks. – Muz bo'lsa quturib oqqani-oqqan. Xavfli emasmi, Tom?

– Xavfni o'ylab nima qilasan? Daryodan o'tish kerak, vassalom, – qat'iy dedi Tom.

– Yo Rabbim! – tashvishlanib xitob qildi Merks! – Keraklikka-kerakku-ya, – deb u deraza yoniga keldi. – Go'rday qop-qorong'i, keyin, Tom...

– Sen qo'rqyapsan, Merks, aniq qo'rqyapsan. Ammo boshqa chorang yo'q, senga yo'lga chiqishga to'g'ri keladi. Yo bo'lmasa, xotin – Sandaskiyga yetib olguncha bu yerda kutib o'tirmoqchimisan?

– Yo'g'-ey, hech qo'rqqanim yo'q, – dedi Merks, – lekin...

– Nima lekin? – dedi Tom.

– Qayiqni qayerdan topamiz? Bu yerda qayiq yo'g'-u.

– Musofirxonaning bekasi: „Bugun Oqshom bu yerda bir qayiq bo'ladi“, deganini eshitdim. Narigi tomonga birov o'tmoqchi ekan, – dedi Tom. – Biz albatta shu qayiqqa tushishimiz kerak.

– Yaxshi itlar ham topgandirsiz? – dedi Geli.

– Juda o'tkirlarini topganmiz! – deb maqtanib qo'ydi Merks. – Lekin undan nima foyda? Itlarga iskatish uchun sizda uning hech bir narsasi bo'lmasa kerak.

– O'sha narsasidan bor-da! – tantanali suratda qich-

qirdi Geli. – Mana uning ro‘moli. Shoshilib bu yerdagi karavotda qoldirib ketibdi. Bundan tashqari, qalpoqchasi ham qolibdi.

– Juda yaxshi – dedi Loker.

– Lekin itlar unga qo‘qqisidan tashlanib, uni g‘ajib qo‘yishlari mumkin-ku, – dedi Geli.

– Gapingiz to‘g‘ri – dedi. Merks, – Bu yerga yaqin bo‘lgan Mobil degan joyda itlar bir negrni burda-burda qilib tashlagan. Itlarni haydayolmasdan qolaverganmiz.

– Ko‘rdingizmi, – dedi Geli. – U esa shunday molki, butun qiymati – go‘zalligida. Husniga ziyon yetkazish hech mumkinmas!

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, – dedi Merks. – Bundan tashqari agar u, u tomonga o‘tib olgan bo‘lsa, hech nima qilib bo‘lmaydi. Bu jonivorlar qochib o‘tadigan shtatlarda itlar ish bermaydi. Uning izlari boshqa izlar bilan bosilib ketib, hech narsani topib bo‘lmaydi. Itlar bu yerda, plantatsiyalarda ish beradi: bu yerda negr yakka o‘zi qochadi va unga hech kim yordam bermaydi.

– Ana, – dedi mayxona peshtaxtasi yoniga ma‘lumot olish uchun borgan Loker, – hozir qayiqning egasi shu yerga kelarkan. Shunday qilib Merks...

Merks, hozir chiqib ketishi kerak bo‘lgan shinam xonaga afsuslanib qaradi, lekin bo‘ysungan holda, kursidan sekin qo‘zg‘aldi.

Geli boshlanayotgan ish haqida Tom bilan yana biroz gaplashgandan keyin, istar-istamas unga ellik dollarni cho‘zdi, keyin uch jentelmen bir-biridan ajralishdi.

Musofirxonada bu voqea davom etarkan, Sem bilan Endi o‘zida yo‘q xursand bo‘lib, uylariga jo‘nadilar.

Semning qayfi chog‘, u, xursandchiligini turli-tuman qichqirish, qiyqirish, g‘alati sakrash va buralishlar bilan ifoda etardi. Goho u otga teskari minib olar, otning

dumiga qarab borar, keyin qichqirib o‘mbaloq oshib, yana egarga o‘ng o‘tirar va Endiga qarab, jiddiy ravishda: „Nega kulib ahmoqlik qilasan?“ – deb tanbeh berardi. Keyin tizzalariga shapaloq urib, jon-jahdi bilan kula boshlar va ular yonidan o‘tib ketayotgan qalin o‘rmon bu kulgi ovozidan jaranglardi. Bu nag‘malarga qaramay, ular ot boshini baralla qo‘yib borishardi; shuning uchun otlar ayvon yonidagi toshlarga yaqin qadam bosganda soat o‘n bir ham bo‘lmagandi. Shelbi xonim panjara yoniga yugurib keldi.

– Senmisan, Sem? Xo‘sh, nima bo‘ldi?

– Mister Geli musofirxonada dam olyapti. U juda yomon charchadi, xonim.

– Eliza-chi?

– Eliza, shak-shubhasiz, Dajladan o‘tib oldi. U hozir Xanaan yurtida desak bo‘ladi.

– Nima deding, Sem? Nima demoqchisan? – deb so‘radi Shelbi xonim.

U, Sem aytgan so‘zlarning ma‘nosini fahmlab olgach, nafasi to‘xtab, hushidan ketib qolayozdi!

– Liza Ogayodaga daryodan o‘tib oldi, xonim. Uni Xudoning o‘zi ikki ot qo‘shilgan aravasida olib o‘tib qo‘ydi, shekilli.

– Bu yoqqa kel, Sem, – dedi xotinining orqasidan ayvonga chiqqan mister Shelbi, – bekangga hamma voqeani aytib ber. Yur, Emili, – dedi u xotinini quchoqlab. – Sovqotibsan, qaltirab ketyapsan. Nega buncha tashvishlanasan?

– Nega tashvishlanmayman? Men ham ayolman? Men ham onaman axir?

– Bu yoqqa kel, Endi! Hoy negr, tezroq bo‘lsang-chi! – deb qichqirdi Sem ayvon yonida turib. – Otlarni omborga bog‘la. Eshitmayapsanmi – meni xo‘jayin chaqiryapti.

Xayal o'tmay mehmonxona eshigida qo'liga xurmo bargli shapkasini ushlagan Sem ko'rindi.

– Endi, Sem, bo'lgan voqealarning hammasini mufassal aytib ber, – dedi mister Shelbi, – sen bilasanmi, Eliza qayerda?

– Gap shunday xo'jayin: uning oqar muz ustidan chopib daryodan o'tib ketganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bu haqiqatan ham mu'jiza bo'ldi. Bitta odam uni qirg'oqqa chiqarib qo'yganini ham ko'rdim, keyin tumanda g'oyib bo'ldi.

– Darhaqiqat, buning hammasi aql bovar qilmaydigan mu'jiza! – dedi mister Shelbi. – Oqar muz ustidan yugurib daryodan o'tish osonmi?

Rangi o'chgan va hayajonlangan Shelbi xonim, Semning hikoyasini nafasini chiqarmay tinglab turardi.

– Xudoga shukr, tirik ekan! – yengil nafas olib dedi Shelbi xonim... – Hozir u bechora qayerda ekan endi?

– Uning g'amini Xudoning o'zi yeydi! – dedi Sem, taqvodorlarcha ko'zini osmonga qaratib. – Uni shak-shubhasiz, bekamiz bizlarga aytgan Xudoning irodasi qutqazdi. Bizning hammamiz faqat Xudo irodasining qurolimiz. Agar men bugun Xudo irodasining quroli bo'lmaganimda edi, Elizani o'n marta ushlagan bo'lardim. Erta bilan otlarni qo'yvorib, tushki ovqat mahaligacha tutolmagan men emasmi? Agar men bugun oqshom mister Gelini yo'ldan besh mil nariga olib ketmaganimda, it yenotni qanday oson tutib olsa, u ham Lizani xuddi shunday tutib olmasmidi? Xudoning irodasi ana shunaqa bo'ladi.

– Bu shunday Xudo irodasiki, keyin buning uchun pushaymon qilmasang deb qo'rqaman, mister Sem. Mening qo'ramda jentelmenlarga bunday muomala qilishga yo'l qo'ymayman, – dedi mister Shelbi, hozirgi sharoitda qo'lidan kelgan qadar qattiqqo'llik qilib.

Yosh bolani po'pisa bilan aldash qiyin bo'lgani kabi, negrni ham aldash qiyin, har ikkisidan ham hech qanday yasamachilik bilan haqiqatni yashirib bo'lmaydi. Shuning uchun bu hayfsan Semga zarracha ta'sir qilmaydi, ammo shunday bo'lsa-da, u juda qayg'urgansimon labini osiltirdi.

– Xo'jayin to'g'ri aytadilar, juda to'g'ri: men juda yomon ish qildim. Aniq gap, xo'jayin bilan beka bunday qilg'iliklarimizga „hay barakalla“ deyolmaydilar. Men bechora negrman-u, ammo mister Geliga o'xshagan odamlarni ko'rsam, ularni taftidan tushadigan bir g'alati ish ko'rsatgim kelaveradi. Uni jentelmen demang. Men singari tarbiya olgan har bir kishi jentelmen nima-yu, boshqa nima ekanligini sal-pal tushunadi.

– Modomiki sen o'z gunohingga iqror bo'lding. Sem, – dedi Shelbi xonim, endi Xloya xolaning oldiga borib, tushki ovqatdan qolgan cho'chqa go'shtini so'rab olishing mumkin. Endi bilan ikkovingiz toza och qolgandirsiz?

– Beka bizga juda saxovatlilar, – dedi Sem, shoshilib ta'zim qilib chiqarkan.

Shuni aytish kerakki, mister Semning tabiiy iste'dodi bo'lib, agar siyosat bilan shug'ullanganida, bu iste'dod unga juda katta foyda yetkazgan bo'lardi: bu iste'dod shundan iborat ediki, u har qanday sharoitdan o'zi uchun shuhrat va hurmat orttirib chiqardi. U mehmonxonadagi xo'jayinlarini xudojo'ylik va yuvoshlik bilan ovutgandan keyin eng sodda va yengil tabiatli qiyofada xurmo bargidan to'qilgan qalpog'ini chakkasiga tortdi va oshxonada boplab maqtanish maqsadida Xloya xola tomonga jo'nadi.

– Bu negrlarni bir hayron qoldiray! – derdi Sem o'ziga. – Ko'zlarini kosasidan chiqarib yuboray!

Shuni ham aytish zarurki, Sem o'z xo'jayinini har qanday siyosiy yig'ilishlarga kuzatib borishni hamma

narsadan yaxshi ko'rardi: u yerda chetan devor orqasiga yashirilib yoki daraxtga chiqib olib, notiqlarga quloq solar va ularning so'zlarini huzur qilib tinglar, keyin esa qorabandan og'aynilarini to'plab, ularni o'zining ajoyib gapdonligi bilan taajjublantirar va zavqlantirardi. Uning aytgan bu gaplari, garchi birovlardan eshitib olingan bo'lsa ham, hashamatli va tantanali chiqardi. Ko'pincha, qorabandanlilar bilan birga, uning gaplarini tinglagani oqlar ham kelishar va Semning so'zini tinglasharkan, bir-birlariga qarab kulishib, ko'z qisishar, Sem esa bundan g'oyat zo'r orom olardi. Xullas, Sem notiqlik san'atini o'ziga xos kasb hisoblar va payti kelganda gapdonlik qilishdan aslo qaytmasdi.

Xloya xola bilan Sem orasida azaldan adovat, yoki to'g'rirog'i – o'ta darajada sovuqlik davom etib kelardi. Ammo hozir Semga ovqat zarur bo'lgani uchun, bu safar mumkin qadar ko'proq sulhparvarlik qilmoqchi bo'ldi, chunki u bekaning buyrug'i aniq bajarilsa ham, bu buyruq ko'ngil qo'yib bajarilganda ancha ko'p foyda qilishini yaxshi bilardi. Shuning uchun u Xloya xola oldida, kishini ta'sirlantiradigan darajada yuvosh bo'lib va go'yo o'zining xo'rlangan birodarlarini himoya qilib, hozirgina juda ko'p jaf o chekkan kishidek, ayanchli qiyofada hozir bo'ldi. U Xloya xolaga: „Beka mening zaiflashgan vujudimga darmon berish uchun to'ppa-to'g'ri sizning huzuringizga yubordi“, dedi va bu so'z bilan Xloyaning oshxona diyoriga oliy hukmron ekanligiga iqror bo'ldi.

Mo'ljal to'g'ri chiqdi. Saylovlarda siyosiy fitnakorning zo'r epchillik bilan qilgan nayrangiga uchgan bechora, sodda va xush fazilatli fuqaro ham, Xloya xola Semning takallufiga uchgandek, hech qachon uchmagandir. Sem, basharti uyidan qochib ketgan o'g'il bo'lganida ham, o'z uyiga qaytib kelib bunchalik yaxshi kutib olinma-

gan bo'lardi. Hayal o'tmay u stol yonida o'zini mag'rur va baxtiyor his etib o'tirardi. Uning oldiga katta tunuka tog'ora qo'yilgan, ichi ikki kundan buyon qilingan hamma laziz taomlarning qoldiqlariga to'la edi. Selavalik cho'chqa go'shtining burdalari, oltinrang makka kulcha burdalari, sanoqsiz pirog parchalari, jo'ja qanotlari, qorin va oyoqlari aralashib chiroyli manzara hosil qilardi. Sem ko'z oldidagi shu narsalarning hammasi o'ziga qarashli deb, qiroldak, stol yonida kekkayib o'tirardi. U xurmo bargidan to'qilgan qalpog'ini chakkasiga tortdi va o'ng qo'lida o'tirgan Endiga uncha-muncha parchalarni marhamatan uzatib turdi.

Oshxona uning yor-birodarlariga to'la, ular bu kunning mojarolari nima bilan tugaganini eshitish uchun o'z kulbalaridan kelishgandi. Sem uchun shon-sharaf payti yetib keldi. Bu kungi voqea yangidan hikoya qilindi. Unga ta'sirni kuchaytirish uchun zarur bo'lgan ko'pgina mubolag'alar qo'shildi. Hikoyani eshitayotgan hamma qah-qahlab kulardi, polda o'rimalab yurgan yoki burchakda g'irmayib o'tirgan kichkintoy bolalargacha – hamma kulardi. Hamma kulsa ham, Sem o'zini g'oyat jiddiy tutar va goho ko'zini jalanglatib, gapini to'xtatmagan holda, tinglovchilarga juda qiziq nazar tashlab qo'yardi.

– Endi ko'rib turibsiz, fuqarolarim, – dedi Sem, kurka oyog'ini havoda dangal siltab, – endi ko'rib turibsizki, sizning hammangizni himoya qila oladigan odamingiz bor. Chunki sizning bittangizni qutqazgan odam, qolgan hammangizni ham qutqaza oladi, bu masalada prinsip bitta. Bu yerda hamma yoqni iskab yurgan savdogarning har qaysisi o'z yo'lida menga duch keladi, u men bilan muomala qilishi kerak. Mening oldimga kelaveringlar, birodarlarim, sizlarni himoya qila olaman... So'nggi nafasim qolguncha sizlarning huquqingizni himoya qilaman!

– Sem, nega sen menga: „Lizani ushlarida mister Geliga yordam bermoqchiman“, deding? Menimcha, gaping gapingga zid tushyapti, – dedi Endi.

– Bunday narsalarda sen kaltafahmlik qilyapsan, uka, – dedi Sem, o‘zini juda bilarmondek ko‘rsatishga urinib, – shuning uchun bu ishlarga aralashmasligingni maslahat beraman. Senga o‘xshagan bolalar, Endi, ehtimol, uncha yomon ham emasdirlar-u, ammo ulardan buyuk g‘oyalarni tushunishni talab qilish qiyin.

Endining afti xuddi hayfsan olgandagidek bo‘zraydi, xususan, „tushunishni“ degan so‘z uni xijolat qildi, chunki bu so‘z shu yerda o‘tirgan hamma yoshlarga juda asoslidek ko‘rindi. Sem esa so‘zini davom ettiraverdi:

– Mening vijdonim bunga majbur qildi, Endi. Men Lizaning orqasidan quvmuqchi bo‘lganimda, „xo‘jayin chindan ham uning ushlanishini xohlarkan“ deb o‘ylovdim. Beka buning teskarisini xohlashini bilganimdan keyin, vijdonim ilgarigidan kuchliroq, lekin boshqachasiga harakat qilishga majbur etdi, chunki xo‘jayin tomonda bo‘lgandan ko‘ra, beka tomonda bo‘lgan har vaqt foydaliroq. Ko‘rdingizmi, men vijdonimning talabini bajaraman-u, shu bilan birga o‘z prinsipimda ham qattiq turaman. Ha, prinsipimda qattiq turaman! – deb xitob qildi Sem, jo‘janing halqumini zavq bilan yuqori otib. – Agar prinsipingizda barqaror bo‘lmasangiz, undan nima foyda bor? Endi, mana bu suyakni tozalab qo‘y, uni men chala yedim.

Negrlar Semning gaplariga anqayib quloq solishardi, shuning uchun ham u gapini bemalol davom etdiraverdi.

– Barqarorlikning ma‘nisi ana shunday bo‘ladi, negr og‘aynilarim, – dedi Sem, juda umumiy ma‘noni ifodalaydigan narsalar haqida so‘zlayotgan ohang bilan – Barqarorlik nimaligini har kim tushunavermaydi. Basharti birov bugun bir narsani xohlab, ertasiga boshqa narsani xohlar

ekan, unday odamni beqaror deydilar va mutlaqo to'g'ri aytadilar. Menga ana u pirog parchasini olvor, Endi. Biroq bu ishga chuqurroq qaraylik. Ishonamanki, bunday sodda taqqoslashim uchun jentelmenlar va go'zal xonimlar meni afu etsalar kerak. Faraz qildik, men pichan g'arami ustiga chiqmoqchiman. Men o'z narvonimni g'aramning bir tomoniga qo'ydim-u, lekin bu yerdan chiqolmadim. Xo'sh, mayli, bu yerdan chiqishga ortiq harakat qilmayman-u, narvonimni boshqa tomondan qo'yaman. Aytingchi, bu mening barqarorligim emasmi? Mening uchun narvonimning qaysi tomonda turishi ahamiyatlimas, balki g'aramning ustiga chiqish ahamiyatli va bu masalada men barqarorman.

– Sening faqat shu masaladagina barqarorliging Xudoga ham ayon, – deb g'udulladi Xloya xola toqati toq bo'lib, hammaning anchadan buyon o'zlarini quvnoq his qilib o'tirishiga u juda diqqat bo'lib ketgandi.

– Ana shundoq! – dedi Sem so'z oxirida, shuhrat qozonib va qomini to'ydirib bo'lgach, – bundoq, muhtaram jentelmenlar va muhtaram xonimlar, menda prinsip bor. Men o'sha prinsipning borligi uchun faxrlanaman. Bu prinsip hozirgi davrimizda ham, boshqa hamma davrlarda ham kerak bo'ladi. Mening prinsipim bor va men unga hamisha sodiqman. Prinsip deb hisoblagan narsamdan qaytmayman. O'zimni tiriklay kabob qildirishga roziman-ki, ammo hech bir prinsipimga zid ish qilmayman! Men, qo'rqmasdan dor tagiga borib: „Mana men o'z hayotimni azbaroyi prinsiplarim uchun, vatanim uchun, jamiyatning rivoji uchun bergani keldim!“ – deyman.

– Yana bir prinsip ushlang, – dedi Xloya xola: – barvaqt yotsang-u, odamlarni tong otguncha ushlab o'tir-
masang. Hoy kichkintoylar, bittadan shapaloq yeyishni istamasalaring, keting endi bu yerdan!

– Negrlar! – dedi Sem, xurmo bargidan to‘qilgan qalpog‘ini ulug‘vor aylantirib. – Umlraringga Xudo baraka bersin! Uyingizga borib uxlang, o‘zingizni yaxshi tutib yuring. Ana shunday tantanali duodan so‘ng, xaloyiq uy-uy-lariga tarqalishdi.

LX BOB

Bundan ma‘lum bo‘ladiki, senator ham bir odam ekan

Senator Berd etigini yechib, yangi, chiroyli tuflisini kiyayotganda (bu tuflini u senat sessiyasiga ketgan vaqtida xotini tikib qo‘ygandi) o‘choqdagi alanga shinam mehmonxonaning katta va kichik gilamlariga shu‘la tashlar, u, piyolalarda, yaxshi tozalangan choynakda yaltillab aks etardi. Baxtiyorligi ko‘zga tashlanib turgan Berd xonim stolga dasturxon tortilishini nazorat qilar va sho‘xlik qilib o‘ynashayotgan bolalarni o‘qtin-o‘qtin tartibga chaqirardi.

– Tom, eshikning dastasiga tegaverma! Ha, ana shunday. Meri! Meri! Mushukning dumidan tortma!.. Bechora mushukcha! Jim, stolga chiqma! Yo‘q, yo‘q... Bugun uyda bo‘lganingga naqadar xursandligimni bilasanmi, azizim? – deb xitob qildi u, nihoyat, eri bilan so‘zlashish uchun imkon bo‘lgach.

– Uyda sizlar bilan birlikda biroz bo‘lsa ham istirohat qilaman deb, kechasi bilan uxlamay, mumkin qadar tez yetib kelishga qaror qildim. O‘lgudek charchaganman, boshim og‘riyapti.

Berd xonim nim ochiq shkafda turgan kamforali shishachaga nazar tashladi va uni „olaymi, olmaymi?“ deb o‘ylanib turganda, uning o‘yini eri buzdi:

– Yo‘q, yo‘q, Meri, dori kerakmas! Biroz uyning rohati bilan bir piyola yaxshi qaynoq choying bo‘lsa – menga kifoya. Obbo, qonun chiqarish oson ishmas ekan-da!

Keyin senator kulimsirab qo‘ydi: „O‘zimni vatan uchun qurbon qilyapman“, deb o‘ylarkan, bu fikr o‘ziga ma‘qul ko‘ringandek bo‘ldi.

– Xo‘sh, – dedi uning xotini, choy stoli atrofini sukunat bosgach, – senatlaringda nima gap?

Ko‘rkam va kichkina Berd xonimning senat ishlari ustida bosh qotirishga sira tobi yo‘q edi. U o‘z tashvishim ham o‘zimga yetib-ortadi“, deb boshqa ishlarga hech aralashmasdi. Shuning uchun mister Berd uning bu savoliga juda taajjublandi, lekin shunday bo‘lsa ham javob berdi:

– Aytguday muhim bir gap yo‘q.

– Uylarimizning oldidan o‘tadigan bechora qochoq negrlarga hech kim ovqat bermasin, degan qonun chiqaribsizlar, shu rostmi? Allaqanday qonun to‘g‘risida gapirganlarini eshitdim, lekin uni tasdiqlamagan bo‘lsalaring kerak deyman?

– Meri, senga nima bo‘ldi? Siyosat bilan shug‘ullanmoqchimisani?

– Bo‘lmagan gap! Sizlarning siyosatlaringni qora chaqaga ham olmayman, lekin bunday qonun haddan ziyod adolatsizlik va shafqatsizlik bo‘ladi deb hisoblayman. Bu qonun o‘tmagan bo‘lsa kerak, azizim.

– Yo‘q, jonim, o‘tdi. Bu qonun Kentukkidan qochuvchi qullarga aholining yordam ko‘rsatishini taqiqlaydi!..

– Lekin yangi qonun bu bechoralarga bir kecha-yarim kecha boshpana, oz-moz ovqat va eski kiyim-kechaklarimizdan berishimizni taqiqlamasa kerak?

– Albatta taqiqlaydi, azizim! Axir, qochoq negrlarga yordam qilish shundan iborat bo‘lar edi.

Berd xonim bo'yi to'rt futdan oshmaydigan, xushko'ngilligini bildirib turadigan shahlo ko'zli, shaftoli rangli, mayin yuzli, muloyim ovozli, quyoshyurak, kichkina ayol edi. Uning yuzi tez-tez qizarib, yashnab turardi.

Jasurlik masalasiga kelganda, ko'pdan buyon ma'lum ediki, eng oddiy kurka birinchi marta qulqillashi bilanoq uni qochirib yuborardi, hovli saqlaydigan barvasta, lekin yuvosh it esa tishini ko'rsatishi bilanoq, Berd xonimdan g'olib chiqardi. Uning uchun butun olam – eri bilan bolalaridan iborat bo'lib, Berd xonim bu olamni, buyruq va dalillardan ko'ra ko'proq iltimos bilan ish ko'rib idora qilardi. Uni yolg'iz bir narsa betoqat qilishi mumkin ediki, u ham bo'lsa – shafqatsizlik edi. Har qanday shafqatsizlik uning hamisha muloyim fe'liga mos kelmagan g'azabini qo'zg'ardi.

U yumshoq ko'ngilli onalardan edi, ammo uning o'g'illari bir voqeani aslo yodlaridan chiqarmasdilar. Uning o'g'illari bir kuni qo'shnilarning yomon bolalari bilan birga, himoyasiz bir mushukchani toshparron qilayotgandilar. Berd xonim buni ko'rib qolib, ularning shunday qattiq adabini berdiki, ikkinchi bunday qilmaslik uchun so'z berdilar.

Berd xonim erining qonun haqidagi so'zini eshitgach qizarib ketdi va bundan u, yana-da ko'rkam bo'lib ko'rindi. U, qat'iyat bilan erining yoniga kelib, dadil so'radi:

– Shuni bilmoqchiman, Djon: buni... sen ham adolatli qonun deb hisoblaysanmi?

– Agar „ha“ desam meni o'ldirmassan, Meri?

– Xayolimga ham kelgan emas, Djon! Sen u qonunga ovoz bermagandirsan?

– Albatta, ovoz berdim, jonon siyosatchim!

– Uyalmasanmi, Djon! Ular boshpanasiz ko'chada qolgan bechora kishilar bo'lsa! Sharmandali, shafqatsiz

juda rasvo qonun bu. Qulay payt kelishi bilanoq, uni birinchi bo'lib o'zim buzganim bo'lsin. Aminmanki, bunday payt keladi! Qanday kunlarga qoldikki, xotin kishi baxtsiz va och odamga boshpana berib, uning qornini to'yg'azolmasa! Bu sho'rlikning gunohi shuki, uni umr bo'yi ezib, haqorat qilib kelganlar!

– Meri, gapimga quloq sol! Sening bu e'tirozlaring juda asoslidir, azizim. Bu fikrlaring sen uchun sharafdir, shuning uchun seni juda sevaman ham. Lekin biz o'z hissiyotimizni aql-idrokka bo'ysundirishimiz kerakmi axir. Shuni bilki, bu yerda bizning shaxsiy orzularimizga o'rin yo'q, bu yerda keng ijtimoiy manfaatlar ustida gap boradi. Jamiyat shunday hayajonga kelganki, biz o'z shaxsiy hissiyotlarimizni yig'ishtirib qo'yishimiz kerak.

– Behuda gap! Sen tong otguncha gap sotsang ham hech narsani isbot qilolmaysan... Xo'sh, Djon, menga to'g'ri javob ber-chi: bir och-yalang'och, bechora negr tit-rab-qaltirab eshigingga kelsa, uni faqat „qochoq“ bo'lgani uchun haydab yuborarmiding?

Berd xonim erining qiyin ahvolga tushib qolganini payqab, hujum qilishni davom ettirdi.

– Sening bunday toshyuraklikka qanday qo'l urganingni bir ko'rgim keladi. Qahraton, qor bo'ronli qish kunida, chunonchi, bir mushtipar ayolni eshigingdan quvib yuborish... Bu qanday gap, axir... quvib yuborishgina emas, balki uni tutib, turmaga berib yuborish... Shunday qilish senga yarashadimi?

– Albatta, bu menga g'oyat og'ir burch bo'lardi... – dedi mister Berd murosasozlik yo'liga tushib.

– Burch emish, Djon! Quysang-chi bunday gaplaringni. Bu – burchmas, burch bunday bo'lmaydi. „Negrlarim mendan qochmasin“, degan odam ular bilan tuzukroq

muomala qilsin. Agar vaqti kelib, mening eshigimda ham qullar bo'lib qolsa (ishonamanki, eshigimda hech qachon qullar bo'lmaydi), ularni butun erkin qo'yib beraman: istasa, mendan yoki sendan qochaversin. Odamlar o'zlarini baxtiyor his etsalar qochmaydilar axir. Qochganlarida esa u bechoralar yo'lning o'zida ham toza ochlikka, sovuqqa giriftor bo'ladilar, kechirgan har bir daqiqalari qo'rquv bilan o'tadi; bas, shunday ekan, ularga qarshi hamma-ni olqishlatishning nima keragi bor? Yo'q, men bunday qonunlarga bo'ysunmayman.

Shu nozik paytda eshik qiya ochildi-da, ularning qorabandan xizmatkori keksa Qudjo ko'rindi; u bekani: „oshxonaga bir chiqsalar“, deb iltimos qildi. Senator xarxashadan qutulgan uchun o'zini yengil his etdi. U kichkina xotiniining orqasidan qaradi va uning yuzida bir onda ham huzurlanish, ham afsuslanish alomatlari paydo bo'ldi. U kursiga o'tirib, gazetxonlikka kirishdi.

Ammo xiyol o'tmay eshikdan xotiniining hayajonlangan ovozi keldi:

– Djon! Djon! Bir daqiqada bu yoqqa chiq!

U gazetalarni bir chetga qo'yib, oshxonaga chiqdi: Mister Berd, oshxonadagi manzarani ko'rib juda hayratda qoldi. Ko'ylagi muzlab yirtilgan, basavlat bir juvon ikki kursi ustida behush yotardi. Bir oyog'ida kavushi yo'q, paypoqlari uzilgan, tilingan oyoqlaridan qon oqardi. Yuzida xo'rlanganlik belgisi bo'lishiga qaramay, uning jo'shqin va g'amgin go'zalligi barq urib turardi. Senator juvonning toshdek qotib qolgan yuzini, murdanamo beharakat va sovuq nazarini ko'rib, bir cho'chib tushdi.

Senator tez-tez nafas olib, indamay turardi. Uning xotini va bu uydagi yagona qorabandan oqsochi Dina xola juvonning atrofida aylanib, uni hushiga keltirishga urinar-

dilar, kekxa Qudjo esa bolani tizzasiga o'tirg'izib, uning paypoqlari bilan kavushini yexar va sovqotgan oyoqchalarini isitishga urinardi.

– Buni qarang, o'jamol emasmi bu? – dedi Dina kampir rahmdillik bilan. – Buni issiq elitdi shekilli. Bu yerga kirib: „Biroz isinib olay“, deb ruxsat so'raganda, tetik edi. Ammo: „Qayerdan keldingiz? – deb so'ray boshlashim bilanoq, gup etib yerga yiqildi... Qo'llarini ko'ring: sira qora ish qilmaganga o'xshaydi.

Juvon kattakon shahlo ko'zlarini ohista ochib, Berd xonimga beparvo qaragan edi, Berd xonim: „Bechora!“ – dedi.

Juvonning yuzida qo'qqisdan zo'r qo'rquv alomati paydo bo'ldi. U o'midan irg'ib turib, qichqirdi:

– Garri, qo'zichog'im Garri! Uni olib ketishdimi?

Buni eshitgan bola Qudjoning tizzasidan tushdi-da, juvonning oldiga chopib kelib, qo'lhalarini uzatdi.

– Shu yerda ekan! Shu yerda ekan, xayriyat! – deb xitob qildi juvon va g'oyat qizg'in hayajon bilan Berd xonimga murojaat qildi:

– Hoy xonim, bizni himoya qiling! Buni olib ketishlariga yo'l qo'ymang!

– Bu yerda hech kim sizga tegmaydi, bechora, – juvonning ko'ngliga dalda berib dedi Berd xonim. – Qo'rq-mang, xavf-xatardan xotirjam bo'ling.

Juvon yuzini qo'li bilan yopib, yig'lay boshladi. Bola buni ko'rib, tizzasiga chiqishga urindi.

Xonimning mehribonligi soyasida juvon asta-sekin tinchlana boshladi. Unga vaqtincha o'choq yonidagi kushetka (kat)ga joy solib berdilar, u, o'zidan ko'ra ko'proq charchagan bolasini quchoqlab, qattiq uxlab qoldi. „Bolangiz boshqa joyda yotsin“, deyilgan erka so'zlar aytilsa ham,

unamadi, hayajonlanib, bu taklifni rad qildi. Hatto uyqusi-da ham uni quchog'idan chiqarmadi: quchog'idan chiqishi bilan, uni o'g'irlab ketishlaridan qo'rqqandek ko'rinardi.

Mister Berd va uning xotini mehmonxonaga qaytib kelganlaridan keyin, nechukdir boyagi suhbatlarini davom ettirmadilar. Berd xonim to'r to'qish bilan shug'ullandi, mister Berd esa qo'liga gazeta olib, uni o'qiyotgandek ko'rinardi. Oxiri u, gazetalarni qo'ydi-da:

– Qiziq, bu xotin kim ekan-a, – dedi.

– Uyg'onsin, biroz dam olsin, keyin bilamiz, – dedi Berd xonim.

– Hoy xotin! – dedi mister Berd, indamay uzoq o'y-lagandan keyin.

– Nima deysan, azizim?

– Agarda biror ko'yilagingni cho'zib kengaytirsan, unga to'g'ri kelmasmikan? U senga qaraganda ancha to'la shekilli. Berd xonim sezilar-sezilmas, miyig'ida kulimsirab: – Ko'ramiz, – dedi.

Yana sukunat cho'kdi, uni yana mister Berd buzdi.

– Azizim...

– Nima deysan tag'in?

– Men tushki ovqatdan keyin uxlaganimda ustimga yopadigan eski bumazeya plash bor-ku... O'shani bema-lol beraver, unga kerak.

Shu chog' xonaga Dina kirib keldi:

– U xotin uyg'ondi, „Bekani ko'rsam“ deyapti.

Mister Berd va uning xotini, orqalaridan ikki katta o'g'illarini ergashtirib oshxonaga chiqishdi. Bolalarning kichkinalari bu vaqt bema-lol uxlamogda edi.

Juvon o'choq yonida o'tga tikilib o'tirardi. U g'amgin va bosiq ko'rinardi. Uning ilgari yovvoyi hayajonidan asar ham qolmagandi.

– Siz meni ko‘rmoqchi bo‘ldingizmi? – deb muloyimgina so‘radi Berd xonim. – Endi o‘zingizni ancha durust his qilayotgan bo‘lsangiz kerak?

Og‘ir va chuqur xo‘rsinish bu savolga yagona javob bo‘ldi. Juvon Berd xonimga yolvorib va umidsizlik nazari bilan termilib qaragan edi, Berd xonimning ko‘zidan yosh chiqib ketdi.

– Siz hech narsadan qo‘rqmang. Bu yerda hammamiz sizning do‘stlaringiz bo‘lamiz. Qayerdan keldingiz va shu tobda sizga nima zarur? Shuni menga aytib bersangiz, – dedi Berd xonim.

– Kentukkidan keldim, – deb javob berdi juvon.

– Qachon? – deb so‘radi mister Berd.

– Bugun kechasi.

– Qanday qilib keloldingiz?

– Muzdan o‘tib kelibdi-ya? – deb hammalari baravar qichqirishdi.

– Ha, – dedi ohista juvon, – muzdan o‘tib keldim, chunki ular orqamdan quvishgandi... juda yaqin kelib qolishgandi... boshqa ilojim yo‘q edi!

– Oh, beka, – dedi Qudjo, – daryo hali muzlaganmas, daryoda muzlar har tomonga gir aylanib oqyapti.

– Hozir muz oqar vaqt ekanligini bilgandim, – kulimsirab dedi juvon, – shunday bo‘lsa ham, o‘zimni daryoga tashladim! Bu tomonga o‘tib olishga umid qilmagandim, lekin men uchun bundan boshqa qutulish yo‘li yo‘q edi! Menga faqat shu – yo o‘lish, yoki oqar muzlarga tashlash qolgandi, – dedi juvon ko‘zini yashnatib.

– Siz cho‘rimidingiz? – deb so‘radi mister Berd.

– Ha, ser. Mening xo‘jayinim Kentukkida.

– U sizga yomon muomala qilarmidi?

– Yo‘q, ser. U yaxshi xo‘jayin edi.

– Demak, bekangiz yomon ekan-da?

– Yo'g'-e, ser! Bekam ham menga juda yaxshi muomala qilardi.

– Bo'lmasa, yaxshi uyni tashlab, bunday xavf-xatarga qaramasdan qochishga sizni nima majbur etdi?

Juvon Berd xonimga bir bor ko'z tashlashi bilanoq, uning motamda ekanini payqab oldi.

– Xonim, – dedi u, – siz hech qachon bolangizdan judo bo'lganmisiz?

Qo'qqisdan berilgan bu savol Berd xonimning yangigina bitgan jarohatini ochib yubordi. Bundan atigi bir oy avval Berdlarning bitta bolasi vafot etgan edi.

Mister Berd yuzini o'girib, deraza yoniga ketdi, Berd xonim esa birdan yig'lab yubordi. Shunga qaramay, u birpasda o'zini tutib olib, dedi:

– Nega siz bunday savol beryapsiz? To'g'ri, men kenja bolamdan ajralganman.

– Unday bo'lsa siz mening musibatimni tushunasiz. Men birin-ketin ikkita bolamdan ajralganman. Ularning qabrini tashlab keldim. Mening bittagina shu bolam qoldi. Mening bor-yo'g'im shu edi. Yupanchig'im va iftixorim shu edi. Lekin xonim, shu bolamni ham mendan tortib olmoqchi bo'ldilar... Janubga sotmoqchi bo'ldilar... U yerga yolg'iz o'zini jo'natmoqchi bo'ldilar, xonim! Bir umr onasidan ajralmagan bolani-ya! Bunga men chidayolmadim, xonim! Uni sotsalar, halok bo'lishimni bilardim. Qog'ozlarga qo'l qo'yilib, uning sotilganini bilganimdan keyin, qochdim. Bolamni sotib olgan odam bilan xo'jayinimning odamlaridan ba'zi birlari orqamdan quvishdi: ular menga yetib olay deganlarida, ularning ovozlari ham eshitdim. Shuning uchun to'g'ri oqar muzga qarab sakradim. Undan qanday o'tganimni bilmayman. Dastavval ko'rganim – qirg'oqqa chiqib olishda menga yordam qilgan kishi edi.

Juvon yig'lamasdi, u ko'zda yosh quriydigan darajaga yetgandi, lekin uning atrofidagi har bir kishi unga o'zicha xayrixohligini izhor etardi.

Ikki o'g'il cho'ntaklarini kovlab dastro'molcha axtarib, topolmadilar – bolalarning cho'ntagida dastro'molcha turmasligi onalarga ma'lum – keyin onalarining ko'ylagiga boshlarini qo'yib, ho'ngray boshladilar, ko'zyoshlari va burunlarini esa ko'ylakka artardilar. Berd xonim ham yuzini dastro'molcha bilan yopib yig'lardi. Dina xolaning ma'sum qora yuzidan yosh oqardi. Keksa Qudjo zo'r berib mushti bilan ko'zini ishqar va yuzini qattiq burishtirdi. Senatorimiz esa davlat arbobi bo'lgani sababli, uni bo'lak oddiy kishilar singari yig'laydi deb o'ylash mumkin emasdi, albatta, shuning uchun u, derazaga qarab, oshxonadagilarga orqasini o'girdi-da, yaxshilab kekirtagini tozalash va ko'zoynagini artish bilan shug'ullandi; u, goho shunday chimrildiki, buni ko'rgan ziyrak odam, uning nima qilishi haqida bir muncha gumonsirab ham qolishi mumkin edi.

– Siz menga: „Xo'jayinim yaxshi odam“, deb aytdingiz-ku? – dedi birdan mister Berd, tomog'iga kelib qolgan bir narsani shiddat bilan yutib juvonga yuzini o'girib.

– U chindan ham yaxshi xo'jayin, buni men hamma vaqt aytaman. Beka ham yaxshi. Lekin ular hech narsa qilolmadilar. Ularning qarzlari bor ekan, buni men tushunolmayman-u, ammo ular bironing qo'liga tushib qolib, uning talabiga bo'ysunishga majbur bo'libdilar. Bu to'g'rida xo'jayinning bekaga aytgan gaplarini, meni o'g'limdan ajratmasligini so'rab, bekaning unga yalinganlarini eshitdim. Xo'jayin endi hech narsa qilolmasligini, qog'ozlarga qo'l qo'yilganini aytdi. Bu gaplarni eshitganimdan keyin bolamni olib, uydan qochdim. Agar uni sotishsa, ortiq yashayolmasligimni bilardim. Bu boladan boshqa mening hech kimim yo'q.

– Eringiz yo'qmi hali?

– Bor-u, lekin u boshqa xo'jayinning qo'lida. Erimning xo'jayini undan juda xafa, shuning uchun men bilan ko'rishgani ruxsat bermaydi. Juda badjahl odam, bizni borgan sari yomon ko'ryapti va erimni Janubga sotib yuboraman, deb qo'rqityapti. Ehtimol, endi men erimni hech ko'rmasam kerak.

U, bu so'zlarni shunday xotirjamlik bilan aytdiki, bunday qaraganda bu xotin eri bilan judolikka mutlaqo beparvo ekan, deb o'ylash mumkin edi. Lekin uning kattakon shahlo ko'zlarida nopisandlik, ruhan azoblanish belgilari ko'rinib turardi.

– Endi qayerga bormoqchisiz, jonim? – deb so'radi Berd xonim.

– Agar qayerdaligni bilsam, Kanadaga borardim, Kanada juda olismi? – deb so'rali u, Berd xonimning yuziga ishonch bilan qarab.

– Bechora! – dedi Berd xonim beixtiyor.

– Juda ham olismi? – deb jiddiy ravishda qaytardi juvon.

– Siz o'ylaganingizdan ham ancha olis, bechora bo'talog'im, – dedi Berd xonim, – Lekin biz, har holda siz uchun biron ilojini qilib ko'ramiz, Dina, sen oshxona yonidagi o'z xonangdan bu juvonga joy tayyorla, unga qanday yordam ko'rsatish haqida ertalab o'ylab ko'ramiz. Ungacha siz hech nimadan qo'rqmang, jonim.

Berd xonim va uning eri mehmonxonaga qaytishdi. Berd xonim o't oldida turgan chayqalma kursiga o'tirdi-da, xayol surib tebrana boshladi. Mister Berd esa katta-katta odimlab yurarkan: „Hm, chigal, chatoq ish ekan, deb g'udunglardi. Nihoyat u, xotini yoniga kelib, dedi:

– Menga qara, xotin: u, shu kun kechasiyoq bu yerdan ketishi kerak. Qulfurush uning izidan jo'nagan bo'lsa, er-

talab bu yerda bo'ladi, albatta. Agar o'zi yolg'iz bo'lganida qulfurush ketguncha yashirib qo'ysa ham bo'lardi-yu, lekin bolani „Ovozingni chiqarmasdan qimirlamay o'tir“, deb majbur qilib bo'lmaydi. U derazadan yoki eshikdan qaraydi-yu, butun ishni rasvo qiladi. Mabodo ular bilan birga ushlanib qolsam, o'zingga ma'lum, sha'nimga yaxshi bo'lmaydi! Yo'q, bo'lmaydi, ularni shu kechasiyoq jo'natish kerak!

– Kechasi? Kechasi jo'natib bo'ladimi? Qayerga?

– Qayerga jo'natishni o'zim bilaman, – dedi senator, xayol surgan holda etigini kiyarkan.

U etikning bir poyini yarmigacha kiydi-da, ikki qo'li bilan tizzasini quchoqlaganicha qoldi va chuqur xayolga cho'mib ketgandek ko'rindi.

– Savil qolsin, yomon rasvo ish bo'ldi-da! – dedi u yana etigini kiya boshlab.

Senator etikning bir poyini kiygach, qo'liga ikkinchi poyini ushlab o'tirdi va gilamning gullarini diqqat bilan qaray boshladi.

– Jo'nash kerak, – dedi u gilamdan ko'zini uzib. – Qurib ketsin bu ishlarning hammasi!

U tashvishlanib etikning ikkinchi poyini ham kiydi-da, borib derazaga qaradi.

Berd xonim boodob xotin edi. U hech qachon birovgaga: „Senga aytmovdimmi? – deb gina qilgan kishi emas. Shu tobda ham, erining qanday o'yga chulg'anganini juda yaxshi bilib turgan bo'lsa ham, kursida jim o'tirar va uning xayolini buzmasdi.

– Van-Tromp degan bir eski mijozim, – dedi u xotiniga, – Kentukkidan ko'chib, o'zining hamma qullarini ozod qilib yuborgan. U daryo yoqasida yetti mil yuqoridan qo'ra sotib olgan; qo'rasi qalin o'rmonda, juda zarur ishi tushib qolmasa, u yerga hech kim bormaydi. Qo'ra-

sining o'zini topish ham oson emas. U yerda bu xotin xavf-xatarlardan mutlaqo tinch bo'lardi. Ammo shuni-si chatoqki, kechasi u yerga mendan bo'lak hech kim borolmaydi.

– Nega? Qudjo kucherlikni yaxshi biladi-ku.

– To'g'ri-yu, lekin ikki joyda daryo irmog'idan o'tish kerak. Ikkinchi irmoq, xuddi mendek bilag'on odam bo'l-masa, o'tish uchun juda xavfli. Men u yerdan yuz marta-cha otliq o'tganman va qayerda burilish kerakligini juda yaxshi bilaman. Xullas, boshqa chora yo'q. Qudjoga ayt, soat o'n ikkilarga borib, sekin otlarni qo'shsin, uni o'zim oborib qo'yaman. Ishqilib, buni hech kim bilmasin. Meni Qudjo yaqin o'rtadagi taverna (oshxona)ga oboradi, u yerda men kechasi soat uch bilan to'rtning orasida Kolumbusga ketadigan dilijansni olaman; ko'rgan kishi meni shuning uchun kelgan ekan, deb o'ylaydi. Ertalab esa to'ppa-to'g'ri majlisga yetib boraman. Shuni ham aytayinki, bu yerda bo'lgan voqea va gaplardan keyin, majlisda o'zimni uncha yaxshi sezmasam kerak... Hay, boshqa chora yo'q.

– Sening qalbing boshingdan yaxshi, Djon, – dedi Berdxonim, kichkina oq qo'lchasini uning qo'lga qo'yib. – Seni men o'zingdan ko'ra yaxshiroq bilmaganimda, yaxshi ko'rarmidim?

Uning ko'zida yosh tomchilari durlanardi. Shu daqiqada bu kichkina xotin shunday soz ediki, senator: „Bunday go'zal malikani shunchalik eritib yubordim, demak, Chindan ham aqlli odam ekanman“, deb o'yladi.

Shunday xulosaga kelgandan keyin mister Berdga: otlarining aravaga qo'shilayotganini ko'rib kelish uchun tashqariga chiqishdan bo'lak ish qolmadi. Biroq, u eshik yonida to'xtadi, keyin orqasiga qaytib, ikkilangansimon dedi:

– Meri, bilmayman, bunga qanday qararkansan... U yerda, komod g'aladonida rahmatli Garrichamizning narsalari bor edi...

Ortiq bir so'z aytolmadi-da, orqasini o'girib shoshilganча chiqdi va eshikni yopdi. Berd xonim o'z bo'lmasiga tutashgan yotoqchaga kirib, stol ustiga shamni qo'ydi. Keyin kalitni olib, komod qulfiga soldi-da, birdan o'ylanib qoldi. Onalari orqasidan indamay yurgan ikki bola ham to'xtab, uning yuziga ma'nodor tikilib qolishdi.

Berd xonim g'aladonni ohistagina ochdi. G'aladonga turli fashonda tikilgan kamzulchalar, ko'pgina fartukcha va paypoqchalar taxlab qo'yilgan edi. Hatto kiyilib, tumshug'i qirilib qolgan bir juft kavushcha ham qog'oz orasidan ko'rinib turardi. O'yinchoq-toychoq, aravacha, pildiroq va koptok ham shu yerda bo'lib, bu narsalar uning egasini yodga solib yurakni yaralar va ko'zdan yosh oqizardi! U g'aladon oldiga o'tirib, yuzini qo'li bilan yopdi-da, to ko'zyoshlari barmoq orasidan g'aladonga toma boshlaguncha yig'ladi. Keyin birdan boshini ko'tardi-da, eng butun va mahkam buyumlarni ajratib, ularni bir tunga bog'ladi.

So'ngra Berd xonim shkafni ochib, undan bir juft oddiy, lekin pishiq ko'ylagini oldi va erining maslahatiga amal qilib, ish stolchasiga o'tirdi-da, qo'lga qaychi bilan igna olib, shoshilganча ularni bo'y va Eniga yoza boshladi. U, devorga osig'liq ko'hna soat yarim kechaga zang urib, eshik yonida g'ildirak ovozi kelguncha tikdi.

– Meri, – dedi uning eri qo'lida paltosi bilan kirarkan, – endi uni chiqib uyg'ot. Jo'nash kerak.

Berd xonim terib olingan narsalarni shoshilinch ravishda bir sandiqchaga solib qulfladi-da, eridan buni ekipajga chiqarib qo'yishni iltimos qilib, juvonni uyg'otgani chiqib ketdi. Xiyol o'tmay eshik yonida Eliza ko'rindi; u muruv-

vatli Berd xonim bergan palto ham qalpoqchani kiygan va bolasini ko'tarib olgandi. Mister Berd uni darrov ekipajga o'tirgizdi. Berd xonim ekipajning ostonasi yoniga keldi. Eliza ekipajdan boshini chiqarib, qo'lini cho'zdi: bu qo'l ham Berd xonimning unga tomon cho'zilgan qo'li kabi nozik va go'zal edi. U bir narsa demoqchi bo'lgandek Berd xonimga qaradi. Lablari qimirladi, bir-ikki marta al-lanimalar demoqchi bo'ldi-yu, lekin hech ovoz chiqmadi. Shundan keyin o'tirg'ichga yiqildi-da, yuzini qo'li bilan yopdi.

Ekipaj eshigi berkildi, otlar jo'nadi.

Anchadan beri yomg'ir yog'ardi; yomg'ir vaqtida esa Ogayo shtatidagi bo'liq yerlarning qadam bosib bo'lmaydigan darajada loy bo'lib ketishi azaldan ma'lum.

G'arbning ana shu barakali viloyatlarida loygarchilik vaqtda ko'p joylar keng va chuqur ko'lga aylanadi, shuning uchun yo'llarda yumaloq katta xodalarni qator yotqizib, ustiga tuproq, chim va shunga o'xshagan har xil narsalarni to'kadilar. Xaloyiq quvonib bu inshootni yo'l deb ataydi va uning ustidan mardonavor o'tib olishga harakat qiladi. Keyinchalik yomg'ir tuproq bilan chimni yuvib, xodalarni har tomonga surib yuboradi va ularning orasida odam o'tib bo'lmaydigan qop-qora botqoqlik hosil bo'ladi.

Senatorimiz xuddi mana shunday yo'ldan silkinib-qoqinib borardi. U yo'lda borarkan, hozirgacha ro'y bergan va yana albatta ro'y beradigan voqealar haqida xayol surib ketdi. Ekipaj zo'rg'a ilgari bosadi, bomp! Bomp! Bomp! Keyin shalop etib loyga tushib ketadi. Senator, juvon va bola qo'qqisdan ekipajning yon derazasi tomonga yiqiladilar. Ekipaj loyga cho'ka boshlaydi, otlarni chu deytotgan Qudjoning ovozi eshitaladi. Ekipajni loydan chiqarish uchun ko'p urinadilar, ammo natija chiqmaydi. Senator-

ning toqati toq bo'lib ekipajdan chiqib ketishga chog'langan onda, ekipaj otilib loydan chiqadi va endi o'ng'arilishi bilan oldingi ikki g'ildiragi yana loyga tushib ketadi. Senator, juvon va bola bukchayib oldingi o'tirg'ichga yiqiladilar. Senatorning shlapasi surilib, uning ko'zlarini va burnini yopadi va u: „Endi tamom bo'ldim shekilli“ deb o'ylaydi; bola yig'lagani-yig'lagan. Qudjo bo'lsa otlarga xitoban qizg'in nutq so'zlamogda. Otlar pitirildilar, to'xtovsiz qamchi zarbi ostida loydan chiqishga harakat qilib, ekipajni siltab tortadilar. Ekipaj sapchib tushadi; orqa g'ildirakka yangidan zarba tegadi, natijada, senator juvon va bola orqa g'ildirakka – o'tirg'ich tomonga ag'naydi. Senatorning tirsagi juvonning qalpoqchasiga tegadi. Juvonning ikki oyog'i senatorning yerda yotgan shlapasiga tushadi. Nihoyat, botqoqlikdan chiqadilar, otlar og'ir hansirab to'xtaydi. Senator shlapasini topib oladi, juvon qalpoqchasini tuzatadi, bolasini allalaydi; shunday qilib, ular yangi zarbalarga tayyorlanib, bir-birlariga yaqin o'tirishadi.

Birmuncha vaqt faqat „shalop, shalop“ etgan ovozlari eshitilib boradi; sust zarbalar, sho'ng'ish va silkinish sezilib turadi. Musofirlar: „Xayriyat, tuzuk yo'lga chiqib oldik-a“, deb o'zlariga taskin bera boshlaydilar. Shu chog' yana dahshatli zarba yuz beradi – hammalari sapchib o'rinlaridan turadilar-da, keyin yana o'rindiqqa yiqiladilar. Ekipaj to'xtaydi va birpas to'polondan keyin tashqarida – eshik oldida Qudjo ko'rinadi.

– Afv eting, ser, lekin bu yer judayam yomon joy ekan. Bu yerdan qanday chiqishimizni bilmay qoldim. G'ildirak tagiga xoda qo'ysammikin deyman.

Senator nima qilishini bilmay, ekipajdan chiqdi-da, qattiqroq yer axtarib, paypaslab qadam bosmoqchi bo'ldi, lekin oyog'i chuqurga tushib ketdi. U oyog'ini tortib olmoqchi bo'lganida, muvozanatni yo'qotib loyga yiqildi;

loydan uni Qudjo tortib oldi. Shu chog' senatorning butun qiyofasi parishon holda edi.

Loyga botgan ekipaj, nihoyat, bu botqoqliklardan chiqib, katta ferma darvozasi oldida to'xtaganda, yarim kechadan ancha o'tgandi.

Fermadagilarni uyg'otishga ham ancha vaqt ketdi. Nihoyat, uning muhtaram egasi chiqib, eshikni ochdi. Bu odam – ayiqqa o'xshagan, bo'yi olti futdan uzunroq va egniga qizil bomazey ov ko'ylak kiygan, novcha va yo'g'on kishi edi. Boshidagi to'ziq va qalin qizg'ish sochi hamda ancha vaqtdan buyon qirilmagan soqoli bu mo'tabar kishining qiyofasini xunuk qilib ko'rsatardi. U, qo'lida sham tutgan holda, musofirlarga bir necha daqiqa baqrayib qarab turdiki, bu juda qiziq ko'rinardi. Senator unga voqeani zo'rg'a tushuntira oldi.

Keksa Djon Van-Tromp bir zamonlar Kentukkida katta pomeschik va quldorlardan sanalardi. U azaldan oliyjanob tabiatli va adolatparvar bo'lib, uning bu fazilati kattalik jihatidan ulkan bastiga tamoman mos tushardi. U qullarning doimiy jabrlanishini bir necha yil davomida yaqindan ko'rdi. Nihoyat, uning saxovatli yuragi bardosh bermadi. U, daryodan o'tib, Ogayo shtatiga keldi va serhosil, yaxshi yer uchastkasi sotib oldi, o'z qullari – erkag-u, xotin-u bolalarning hammasiga erkinnoma berib, ularni pravalarga o'tirg'izdi-da, o'zining yangi uchastkasi-ga olib kelib joylashtirdi. Sofdil Djon ana shu xayrli ishni qilgandan keyin, o'zi soyning yuqori tomoniga jo'nadi va yolg'iz o'zi fermada istiqomat qila boshladi.

– Mana bu bolali bechora xotinga boshpana berolaysizmi? Uni qul Ovchilari ta'qib qilyapti, – deb to'ppa-to'g'ri gapga o'tdi senator.

– Berolsam kerak, – deb ma'nodor javob berdi sofdil Djon.

– Zotan, bunga shak-shubham yo‘q edi, – dedi senator.

– Shuni ham aytib qo‘yayki, agar bu yerga uning orqasidan biror kishi kelib qolguday bo‘lsa, – dedi Djon jiddiy qiyofaga kirib, paydor qaddini rostlab, – uni yaxshilab kutib olishga hamisha tayyorman. Mening oltita o‘g‘lim bor, har birining bo‘yi olti futdan, ular ham tayyor turibdi... Binobarin, bu ovchilarga bizning ta‘zimimizni bildiring va aytingki, biz ular bilan suhbatlashishga hamma vaqt hozirmiz.

Shu so‘zlarni aytib bo‘lgach, Djon sochiga barmoqlarini tiqib, qattiq kula boshladi.

Charchagan, chala o‘lik bo‘lib holsizlangan Eliza qotib uxlayotgan bolani ko‘tarib, eshik tomonga arang odimladi. To‘zg‘insoch odam shamni uning yuziga yaqin keltirib qaradi-da, muloyim ohang bilan bir nima dedi, keyin keng oshxonaga tutashgan kichkina yotoqxonaga eshigini ochib, Elizani kirishga taklif qildi. U yana bir sham yoqib, uni stol ustiga qo‘ydi.

– Hech narsadan qo‘rqma, azizim. Kim kelsa kelaversin. Ular uchun mening ziyofatim tayyor! – dedi u, manqal tepasida osig‘liq multiqlarni ko‘rsatib. – Men bilan tanish odamlar uyimdagi mehmonni mening xohishimga qarshi olib ketmoqchi bo‘lganlarning omon qolmasliklarini yaxshi biladilar. Endi yot, xuddi onangning beshigida yotgandek uxla, – deb Djon eshikni berkitib chiqdi.

– Juda chiroyli ekan! – dedi u senatorga. – Eh, ana shunday chiroyli xotinlar, agar axloqli bo‘lsalar, ko‘pincha qochib jon saqlaydilar-da. Bilaman buni!

Senator Elizaning qissasini qisqacha aytib berdi.

– Hay, hay! – deya xayrixoh xitob qildi saxovatdor. – Uning orqasidan xuddi kiyik Ovlagandek quvisharkan-da! Uning orqasidan shuning uchun quvishadiki, u har bir ona kabi ish tutibdi! Xudo ursin, bunday voqealarni eshitsam,

qattiq so'kingim keladi, – dedi qalbi pok Djon, sepkilli, katta, sariq qo'li bilan ko'zini artib. – Poplar injil qullikni taqozo qiladi, deganlari uchun, men bir necha yildan buyon butxonaga bormay qo'yganman. Axir, poplar bilan men masala talashmayman: ular yahudiy va yunon tillarini biladilar-da...

Shunday deb, Djon ichida ko'pikli ichimligi bor bir shishani ocha boshladi.

– Tong otguncha bu yerda qoling, – dedi u quvonch bilan, – kampirni chaqiraman, birpasda joy solib beradi,

– Rahmat, yaxshi do'stim, – dedi senator. – Kolumbusga boradigan tungi dilijonga ulgurish uchun hozir jo'nashim kerak.

– Xayr, modomiki jo'nashingiz zarur ekan, sizni ayirilishgacha kuzatib, yaxshi yo'lni ko'rsatib qo'yay. Siz bu yerga juda yomon yo'ldan kelibsiz.

Djon kiyindi va qo'liga fonus olib, senator ekipayajini uy ortidagi jarlik ichidan o'tadigan yo'lga olib chiqdi. Xayrlasharkan, senator uning qo'liga o'n dollar berdi.

– Unga berib qo'yasiz, – dedi u.

– Xo'p, – deb javob berdi Djon.

Ular bir-birlarining qo'llarini siqishib, ajralishdi.

X BOB

Mol jo'natish

Yomg'irli fevral tongi Tom tog'a kulbasining derazasidan boqdi va zo'r dard aks etib turgan g'amgin yuzlarni yoritdi.

Ustiga dazmol dasturxon yopilgan kichkina stol o't oldida turardi. Dag'al matodan tikilgan, dazmollangan ikki-uchta ko'ylak o't yoniq kursiga osig'liq edi, stol

ustida – Xloya xola oldida esa yana bittasi yozilgandi. Xloya xola uning har bir burishgan joyini va qatini zo‘r hafsala bilan yozar va qo‘lini goh-goh ko‘tarib, yuzidan oqayotgan yoshni artardi.

Uning yonida boshini ushlagancha o‘yga botib Tom o‘tirardi. Ikkovlari ham indamasdilar. Vaqt hali erta. Bolalar o‘zlarining qo‘pol yig‘ma karavotlarida uxlashardi.

Boshqa juda ko‘p sho‘rlik negrlar kabi, butun vujudi bilan oilaga berilgan Tom o‘rnidan turdi-da, ohista bolalarning yoniga kelib, ularga tikildi.

– Oxirgi marta! – dedi u.

Xloya xola javob bermay, qattiq ko‘ylakka dazmol bosishni davom etdirardi, Holbuki u allaqachon dazmollangandi. Birdaniga u juda noumid qiyofada dazmolni qo‘ydi-da, stol yoniga o‘tirib, ho‘ngrab yig‘layverdi.

– Aytadilarki, biz bo‘ysunishimiz lozim emish. Yo Rabbim, qanday qilib bo‘ysuna olaman? Koshki seni qayerga olib ketishlarini va sen bilan qanday muomala qilishlarini bilsam! Beka aytadiki, seni bir-ikki yildan keyin qaytarib sotib olisharmish. Azbaroyi Xudo, u yerdan hali hech kim qaytib kelganmas! Negrlarni u yerda qiynab o‘ldirisharkan! U yerlardagi Plantatsiyalarda ishlataverib o‘ldirarkan, deb eshitdim.

– Xloya, – dedi Tom, – seni yoki bolalarimni emas, balki meni sotishdi. Shuning uchun Xudoga shukr qilishim kerak. Bolalar ketmaydi yoki sen ketmaysan, men ketaman. Bu yerda sizlarga hech kim ozor bermaydi. Bordi-yu bir hodisa bo‘la qolsa, menga bo‘ladi. Meni Xudo panohida asrar... Bilaman, Xudo asraydi.

Tom dard chekib, bo‘lib-bo‘lib so‘zlardi, uning ovozi-da ishonch va mardlik ohangi jaranglab turardi.

– Xo‘jayin o‘z qarzi uchun sening sotilishingga yo‘l qo‘ymasligi kerak edi! – dedi Xloya. – Sen o‘z mehna-

ting bilan unga, hozir u sen uchun olgan puliga qaraganda ikki hissa ortiq daromad bergansan. U seni ozod qilib yuborishi, bir necha yil ilgari qo'yib yuborishi kerak edi. Balki, hozir uning ahvoli juda tangdir-u, lekin men uning xunuk ish qilganini sezyapman. Hech kim meni boshqacha o'ylashga majbur etolmaydi. Sendek sodiq odamni sotsa-ya! Sen uning ishlariga o'z ishingdan ham ziyod g'amxo'rlik qilarding, sen unga xotining va bolalarindan ko'ra ko'proq jonbozlik qilarding! Tashvishdan qutulaman, deb sodiq va mehribon do'stni sotsa-ya! Buning uchun Xudo jazosini bermasmikan?.. Lekin gapirishdan nima foyda!.. Hozir men makka pirog pishirib, seni to'ydiraman. Endi bunday shirin taomlarni, kim biladi qachon ko'rasan!

Janub plantatsiyalariga sotiladigan negrlarning naqadar azob chekishlarini yaxshi tushunib olish uchun shuni unutmash kerakki, negrlar g'oyat nozik hissiyotli bo'ladilar. Ular yashab kelgan joylariga juda bog'lanib qoladilar. Ular uchun jasurlik va korchalonlik emas, balki o'z uy-joylariga muhabbat qo'yish va dilso'zlik xususiyat hisoblanadi. Har bir negrni bolalik chog'idan „Janubga sotilasan“, deb qo'rqitishadi. Bu daryolar negrlar o'zlarini, tahdid har bir negr ustida uning yoshlik chog'idan boshlab eng dahshatli jazo bo'lib osilib turadi va bu tahdiddan u, darralanishdan va eng qattiq azoblardan ko'ra ortiqroq qo'rqadi. Negrlar o'zlarining bu hissiyotlarini qanday ifoda etishlarini o'zimiz eshitgaymiz; ular bir-birlari bilan suhbatlashgan chog'larida „daryoning quyi tomoni“ haqidagi qissalarni yuraklari yorilgudek bo'lib hikoya qiladilar. Ular nazarida, „daryoning quyi tomoni“ chindan ham borsakelmas mamlakat hisoblanadi.

Tuzukkina dasturxon yozilgan, ovqat ustidan bug' ko'tarilardi. Shelbi xonim bugun ertalab Xloya xolani kat-

ta uydagi ishidan ozod qilgandi. Bu vidolashuv ziyofatini tayyorlash uchun Xloya bechora o'zining bor kuchini to'pladi; eng yaxshi jo'jalarini so'yib qovurdi, eriga juda ma'qul bo'ladigan qilib mays pirog pishirdi va manqal pechka tokchasiga bir nechta ko'za qo'ydi. Bu ko'zalar juda muhim hodisalar yuz bergan mahaldagina paydo bo'lardi.

– Hoy Pit, – dedi Moz, – bugun nonushtamiz ajoyib bo'ladiganga o'xshaydi-ku.

Shunday dedi-yu, jo'janing bir bo'lagini ko'tardi.

Xloya xola uning qulog'idan cho'zib qo'ydi.

– Ey Xudo, bu nima gap! Bechora otasi uyda so'nggi bor yeydigan ovqatga o'zini tashlaydi-ya!

– Hoy Xloya! – deb qo'ydi Tom yuvoshgina.

– Buning yomonligini o'zim ham bilaman, lekin na-chora, – dedi Xloya xola yuzini fartugiga yashirib. – Bugun boshim charxdek aylanyapti.

Bolalar dam otalariga, dam onalariga qarab indamay turardilar, qizaloq esa Xloyaning ko'ylagiga chirmashib, qattiq dodlay boshladi.

– Bas! – dedi Xloya xola, ko'zini artib va qizchasini ko'tarib. – Endi yig'lamayman! Ovqatga o'tiringlar. Mana mening eng yaxshi tovuqlarim. Bolalar, oling, yeyavering. Bechoralar, bugun sizni ko'p xafa qildim.

Bolalar ikkinchi taklifni kutmasdan, o'sha ondayoq bir-birlarini quvlashib, stol yoniga kelishdi.

Nonushtadan keyin Xloya xola stol ustini yig'ishtirarkan, dedi:

– Endi men sening kiyim-kechagingni joylashim kerak. Mana, qarab qo'y, bod kasalingning davosi – boma-zey bu burchakda. Uni ehtiyot qil: senga yangisini hech kim qilib bermaydi. Bu yerda eski ko'ylaklaring, bu yerda yangilari; paypoqni o'tgan kechasi to'qib qo'ydim,

ichiga yamoq uchun yumaloq ip solganman. Xudoyim, endi sening yirtiq-yamog'ingni kim qiladi? – Xloya xola o'z qayg'usini yengolmay, boshini sandiqchaga qo'yib yig'layverdi. O'ylab ko'r axir! Sog'misan, kasalmisan, bu to'g'rida g'am yeydigan, xabar oladigan kishing yo'q-ku endi! Sensiz men nimaga ham yarayman!

Bolalar stoldagi hamma taomni yeb bo'lgach, ro'y bermish voqealar haqida o'ylay boshladilar. Onalarining yig'layotganini, otalarining ma'yusligini ko'rib, ular ham ko'zlarini ishqab ming'illay boshladilar. Tom tog'a qizchasini tizzasiga o'tirg'izib, sho'xlik qildira boshladi: u otasining yuzini tatalab, sochidan tortib, sevinganidan kulardi.

– Sevin, sevin, bechora! – dedi Xloya xola. – Sening boshingga ham shu kulfatlar tushadi. Katta bo'lganingda ko'rasan – eringni sotadilar, balki, o'zingni ham soti-shar. Bu bolalar ham qo'lidan ish keladigan bo'lishi bilan hoynahoy sotilib ketadi. Bunga imonim komil.

Shu chog' bolalardan biri qichqirdi:

– Beka kelyaptilar.

– U bizga hech qanday yordam berolmaydi. Kelishi-ning nima keragi bor? – dedi Xloya xola.

Shelbi xonim xonaga kirib keldi. Xloya xola g'ashlanib, xo'mraygancha uni kursiga taklif qildi. Shelbi xonim uning qovog'i solinganiga e'tibor bermadi. Uning rangi o'chgan va hayajonlangandi.

– Tom, – dedi u, – men sening oldingga... – deb birdan to'xtalib qoldi, keyin jim bo'lib qolgan oilaga qarab kursiga o'tirdi-da, yuziga dastro'molcha yopib, yig'layverdi.

– Hoy, beka, yig'lamang, qo'ying, yig'lash kerak emas, – dedi Xloya xola va o'zi ham yig'lay boshladi. Bir necha daqiqadan keyin hammalari baravar yig'lay boshlashdi.

– Jon do‘stim, – dedi Shelbi xonim, sen uchun hech narsa qilolmayman! Pul beray desam, sendan baribir tortib olishadi. Lekin, qat‘iy so‘z beramanki, sening izingni aslo yo‘qotmayman va qo‘limga pul tushishi bilan seni qaytarib sotib olaman!

Bu chog‘ bolalar: „Mister Geli kelyapti!“ – deb qichqirishdi. Eshik betakalluf itarildi, Ostonada Geli paydo bo‘ldi. Bu kecha ot ustida ko‘p chopgani uchun kayfi juda buzuq va qulini tutolmaganidan jahli chiqqan edi.

– Yur! – deb qichqirdi u. – Tayyormisan, negr?..

Sizning sodiq xizmatkoringizman, xonim, – dedi u Shelbi xonimni ko‘rgach, boshidan shlapasini olib.

Xloya xola sandiqchani qulflab, ustidan chilvir tortib bog‘larkan, qulfurushga chaqchayib qaradi, uning ko‘z-yoshlari o‘t uchquniga aylanib ketgandek bo‘ldi.

Tom itoat bilan o‘rnidan turdi-da, yelkasiga og‘ir sandiqchani ko‘tarib, yangi xo‘jayini orqasidan yura boshladi. Xloya xola qizchasini ko‘tarib, Tomni aravagacha kuzatgani bordi, bolalar esa yig‘lashib, ularning orqasidan jo‘nadilar.

Shelbi xonim savdogarning yoniga kelib, u bilan bir nima to‘g‘risida qizg‘in so‘zlasha boshladi. Bu uni ikki-uch daqiqa ushlab qoldi. Bu vaqt Tom tog‘aning xotini va bolalari eshik yonida turgan arava oldiga kelishdi. Yosh-u qari negrlar o‘zlarining eski o‘rtoqlariga oq yo‘l tilab qolish uchun aravani o‘rab olishgandi. Tomni qo‘rada bosh xizmatkor va xristian voizi sifatida sevib hurmatlashardi. Uning ketishi, xususan, xotinlarni ko‘p qayg‘uga soldi.

– E, Xloya, sen judolikka yengilroq bardosh berar ekansan, – dedi ho‘ngrayotgan xotinlardan biri, Xloya xolaning arava yonida g‘amgin xotirjamlik bilan turganini ko‘rib.

– Men ko'zyoshimning hammasini to'kib bo'ldim, endi chirog'im, – dedi Xloya xola, savdogarga xo'mrayib qarab. – Men bu ablah oldida yig'lamayman, yig'lashni istamayman ham!

– Chiq! – dedi Geli Tomga, xo'mrayib unga qarab turgan qullar orasidan o'tib kelib.

Tom aravaga chiqdi. Geli esa o'tirg'ich ostidan og'ir kishan olib, uning oyog'iga soldi.

Olomon orasidan g'azab shov-shuvi ko'tarildi: ayvondan Shelbi xonimning ovozi eshitildi.

– Mister Geli, bu ehtiyotgarchiligingiz ortiqcha.

– Bilmayman, xonim. Bu yerda men endi bir marta besh yuz dollardan ajradim, yana ajrashga qurbim yetmaydi.

– Beka undan nima ham kutishi mumkin edi? – G'azab bilan dedi Xloya xola.

Ikki bola o'z otalarining boshiga nima tushishini nihoyat tushundilar-da, onalarining ko'ylagini ushlab, to'xtovsiz yig'lay boshladilar.

– Attang, mister Jorj bir yoqqa ketgan ekan! – dedi Tom.

Jorj o'rtoqlari bilan bir necha kunga qo'shni qo'rg'onchaga ketgandi. Mister Jorj u yerga barvaqt ketganidan, Tomning boshiga tushgan musibatdan xabarsiz edi.

– Mister Jorjga mendan salom ayting, – dedi samimiy ravishda Tom.

Geli otlarga qamchi urdi. Tom tanish va qadrdon joylarga so'nggi marta ma'yus termilib, uzoq qaradi. Arava jo'nab, tezda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Bu vaqtda mister Shelbi uyda yo'q edi. U, Tomning oila bilan ajralish chog'ida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan og'ir manzaralarni ko'rgisi kelmay, „Qaytib kelgunimcha hamma ish tamom bo'ladi“ deb o'ylab, ahamiyatsiz bir ishni bahona qilib, ertalab ketgandi.

Tom bilan Geli chang yo'lda aravani gumburlatib, jadal borardilar. Tezda ularga yaydoq tepalar ko'rindi. Bir mil yo'l bosgach, Geli temirchi do'koni oldida birdan to'xtadi-da, aravadan bir juft qo'lkishan oldi va uni temirchiga tuzatgani berdi.

– Uning qo'liga biroz kichiklik qilyapti, – dedi Geli, Tomni ko'rsatib.

– Tavba qildim! Ha, bu Tom-ku! Shelbi uni sotdimi-a? – deb hayron bo'ldi temirchi.

– Ha, sotdi, – dedi Geli.

– Aqlim ishonmaydi! Hech kimning xayoliga kelmaydigan ish! – dedi temirchi. – Bilasizmi, bu odamga kishan kerakmas. U juda vijdonli, oliyjanob odam...

– Balli, balli, – dedi Geli. – Lekin hamma oliyjanob odamlar qochishning payida bo'ladi. Faqat ahmoq odam qochmaydi, chunki u qayerga borsa – baribir, keyin piyanista qochmaydi, chunki hech narsa uning parvoyiga kelmaydi. Ammo oliyjanob odamlar esa qullikni ofatdan ham yomon ko'radilar, shuning uchun ularni kishanlashga to'g'ri keladi. Oyog'ini bo'shatib qo'ydingmi, darhol uni ishga soladilar. Ha, bunga amin bo'ling!

– Butun balo shundaki, – dedi temirchi, asboblarini olib, – bizning kentukilik negrlarimiz daryoning pastidagi plantatsiyalardan nihoyatda qo'rqadilar. U yerda bu bechoralar juda tez o'lisharkan.

– Bu gapingiz to'g'ri, u joylarda negrlar – ob-havo sharoiti juda og'irligidan pashshadek qirilaveradi. Lekin ana shunday ko'plab o'lganliklari uchun ham ularning bozori chaqqon, shu tufayli qul savdosi gullaydi.

– Lekin, har holda, Tom kabi yaxshi va yuvosh odamning u yerdagi qand plantatsiyalaridan birida nobud bo'lib ketishiga juda qattiq afsuslanasan, qo'shni.

– Yo‘q, u nobud bo‘lmaydi! „U bilan yaxshi muomala qilaman“, deb Shelbiga va‘da berganman. Uni yaxshi bir mo‘tabar oilaga xizmatkorlikka joylashtirib qo‘yaman; agar havosiga o‘rganib, isitmaga bardosh bera olsa, negr-ga nasib bo‘lganidan ham yaxshi turmush kechiraveradi.

– Qo‘rada xotin va bolalarini qoldirgandir?

– Ha, qoldirdi, lekin u yerda boshqa xotin topib oladi. Xotinlar hamma joyda serob, – dedi Geli.

Bu suhbat vaqtida Tom ustaxona oldida to‘xtatib qo‘yilgan aravada ma‘yus o‘tirardi. Birdan uning orqasidan ot tuyoqlarining ovozi eshitildi. Tom, bu nima bo‘lsa ekan, deb o‘ylab ham ulgurmasdan, qo‘qqisdan yosh mister Jorj aravaga irg‘ib minib, uning bo‘yniga tashlandi va yig‘lab-siqtab, ota-onalarini qattiq koyib ketdi.

– Men ularga: „Vijdonsizlik qilibsizlar!“ deb aytdim. Ular nima demasinlar – menga baribir. Bu qabih – rasvo, judayam uyat ish bo‘libdi! Agar katta bo‘lganimda edi, ular seni sotgani botinolmasdilar! O‘lay agar, botinolmasdilar! – dedi Jorj, yig‘isini bosib.

– Qandingni ur, mister Jorj! Juda sevindim! – dedi Tom. – Siz bilan ko‘rishmasdan ketayotganim uchun qattiq achingandim! Nechog‘lik baxtli ekanligimni ayta olmayman ham.

Tom oyog‘ini sekin qimirlatgandi, Jorjning ko‘zi uning kishaniga tushdi.

– Bu qanaqa sharmandagarchilik! – deb xitob qildi u, qo‘lini ko‘tarib. – Bu ablahni o‘ldiraman!... Ha, o‘ldiraman!

– Kerakmas, mister Jorj, bunday qattiq gapirmang ham. Bu bilan menga yordam bera olmaysiz. Faqat uning yana battarroq achchig‘ini chiqarib qo‘yasiz.

– Xo‘p, azbaroyi sening haqing uchun unga tegmayman. Ammo o‘ylab ko‘r, bu sharmandalik emasmi axir!

Ular menga hech kimni yubormadilar, bir og'iz xat ham yozmabdilar; azbaroyi shifo, agar Tom Linkoln bo'lmasa, hech nima bilmay qolaverardim. Senga rost aytaman: uyda hammasini boplab so'kdim!

– Chakki qilibsiz, mister Jorj.

– So'kmasam bo'lmasdi axir! Bu qadar uyat ish bo'ladimi! Buni ko'r, Tom tog'a, – dedi u, temirchilik do'koniga yashirincha orqasini o'girib, – senga men o'z dollarimni keltirdim!

– Voy-voy! Uningizni olishni xayolingga ham keltirishim mumkinmas! Aslo olmayman! – dedi g'oyat ta'sirlangan Tom.

– Yo'q, olasan! – dedi Jorj. – Men Xloya xolaga: „Tom tog'aga o'z dollarimni bermoqchiman“, deb aytgandim, u: „Unday bo'lsa, teshib ip o'tkazib qo'ying“, dedi. Aytganini qildim: mana, bo'yningga osib olsang ham bo'ladi, hech kim ko'rmaydi. Yo'qsa, bu ablah ko'rib qolib, sendan tortib oladi. Senga rost aytaman, Tom: uni bir boplagim kelyapti! Juda maza qilardim-da!

– Yo'q, kerakmas, mister Jorj, Bundan menga hech foyda bo'lmaydi.

– Xayr, mayli, sen uchun uni omon qoldiraman, – dedi Jorj Tomning bo'yniga abjirlik bilan dollarning ipini bog'larkan. – Endi kamzulingning tugmasini yaxshilab sol va dollarimni ehtiyot qil: unga har safar qaraganingda shu narsa yodingda tursinki, men albatta sening orqangdan bir kuni borib, qaytarib olib kelaman. Biz bu to'g'rida Xloya xola bilan so'zlashdik. Unga: „Bu to'g'rida tashvishlanmang“, deb aytdim. Men bu ishga o'zim bosh qo'shaman va otamni to seni qaytarib sotib olmaguncha tinch qo'ymayman.

Temirchi do'konidan qo'lida kishanni ushlab Geli chiqdi.

– Hoy, mister, – dedi Jorj, – sizning Tom tog'aga qanday muomala qilganingizni ota-onamga aytaman.

– Bosh ustiga, – dedi savdogar.

– Butun umringiz odam sotish va ularni hayvondek kishanlash bilan o'tgani uchun o'zingiz ham uyalsangiz kerak. Sizning o'ringizda bo'lsam, o'zimni ablah deb bilardim.

– Siz aslzodalar ularni sotib olaverarkansiz, men ham sotaveraman, vassalom! – dedi Geli. – Sizlardan mening nimam yomon? Modomiki olish mumkin ekan, demak sotish ham mumkin.

– Katta bo'lganimda men hech kimni hech qachon olmayman ham, sotmayman ham, – dedi Jorj. – Endi men kentukkilik bo'lganim uchun nomus qilaman, ilgari esa faxrlanardim.

Jorj egar ustida qomatini rostladi va bu so'zlari Kentukki shtatiga qanday ta'sir qilganligini bilmoqchi bo'lgandek atrofga nazar tashladi.

– Ko'rishguncha xayr, Tom tog'a! Umiding uzilmasin. Mahkam bo'!

– Ko'rishguncha xayr, mister Jorj! – dedi Tom, unga mehribonlik va zavq bilan qarab. – Attang, Kentukkida sizga o'xshaganlar kam-da! – deb xitob qildi u chin yurakdan, soddadil bolaning yuzi ko'zdan g'oyib bo'lgach.

Jorj otini choptirib ketdi. Tom esa ot tuyog'ining ovozi tinguncha, uning orqasidan qaradi. Qadrdon uyning so'nggi sadosi! Ammo bo'yniga bola qo'li taqib qo'ygan qimmatbaho dollar uning yuragini isitgandek tuyuldi. Tom qo'lini kamzul ostiga tiqib, dollarni bag'riga bosdi.

– Endi Tom, senga aytadigan so'zim shu, – dedi Geli aravaga chiqarkan, unga qo'lkishanni tashlab. – Men o'z negrlarim bilan qanday yaxshi muomala qilsam, sen bilan ham shunday yaxshi muomala qilaman, ammo sen-

ga uzil-kesil aytib qo'yayin – meni xafa qilmasang, seni ham xafa qilmayman, Men o'z negrlarimni hech xafa qilmayman. Ular uchun qo'limdan kelgan narsani qilaman. O'ng'ayroq o'tirib ol va menga nayrangbozlik qila ko'rma, chunki men negrlarning hamma nayranglarini bilaman, meni aldayolmaysan. Agar negr mening qo'limda o'zini yuvosh tutib, qochishga harakat qilmas ekan, unga yaxshi qarayman. Bordi-yu qochishni orzu qilsa, keyin o'zidan ko'rsin...

Tom: „Menda zarracha qochish niyati yo'q“, deb Geline ishontirardi. Chindan ham oyoqlariga og'ir temir kishan solib qo'yilgan odam qanday qilib qocha olsin! Mister Geling odati shu edi: yangi mol bilan har doim ana shunday nasihat aytib ish boshlardi. U bunday nasihatlar bilan yangi molda tetik va quvnoq hissiyot tug'dirib, ko'ngilsiz hodisalar ro'y berishiga yo'l qo'ymaslikni mo'ljallardi.

Bu yerda biz Tom bilan vaqtincha xayrlashib, hikoyamizdagi boshqa qahramonlarning ahvollarini ko'zdan o'tkazamiz.

XI BOB

Tirik mulkda qobon fikrlar paydo bo'lyapti

Vaqt kech, yomg'ir maydalab yog'ardi; shu vaqtda Kentukki shtatining A. qishlog'idagi kichkina oshxonaning eshigi yoniga bir sayyoh kelib to'xtadi. Oshxonada xilma-xil xaloyiq to'planishgan. Bu kishilar yomg'irdan qochib, bu joyga kirgandilar. Ovchilik ko'ylaklarini kiygan novcha va barvasta kentukkiliklar, o'zlarining eski odatlaricha, kursilarda betakalluf, chalqanchasiga cho'zilib o'ti-

rardilar. Ularning multiplari burchakka to'plab qo'yilgandi; o'qdonlar, xaltalar, tozi itlar va negr bolalar to'planib, hamma burchaklarni egallagandilar.

O'choqning ikki tomonida ikki jentelmen – biri o'ng tomonda va ikkinchisi – chap tomonda o'tirardi. Ikkovlari ham uzunoyoq, ikkovlari ham kursilarini orqaga surib olishgan, etiklari loy va boshlaridan shlapalarini olmay o'tirardilar. Ularning oyoqlari o'choq taxtasi ustida ulug'vorona cho'zilib yotardi. Biz o'quvchilarimizga shuni bildirishimiz lozimki, g'arbdagi oshxonalarning hamma mijozlari mana shunday o'tirishni sevadilar, chunki bu hol ularning aqlari yaxshi ishlashiga va fikrlarining balandparvoz bo'lishiga yordam beradi.

Peshtaxta orqasida turgan traktirchi, ko'pchilik vatan-doshlari kabi barvasta va xushfe'l odam bo'lib, boshidagi qalin sochlarini baland shlapa qoplab turardi.

Bu xonada hamma boshidagi shlapasini olmay o'tirardi. Kim qanday shlapa kiygan bo'lmasin – fetr shlapami, palmettomi yoki kir kastor shlapami, yoki olifta fransuzcha shlapami – har kim o'z ta'biga moslab boshqaning kiyishiga sira o'xshatmasdan kiygandi. Go'yo har kim o'z xulqiga mos keladigan shlapani tanlab olgandek ko'rinar-di. Ba'zilar shlapani chakkaga qo'yib kiygandilar – bular xushchaqchaq va sho'x, tetik odamlar edi. Boshqa birovlar to'g'ri burunlariga bostirib olgandilar – bular gapidan qaytmas o'jar odamlar edi. Ba'zilar bor ediki, shlapalarini ensalariga surib olgandilar. Bular har bir narsani ignasi-dan ipigacha tekshiradigan hushyor odamlar edi. Boshiga shlapaning qanday kiyilgani bilan ishi yo'q odamlar esa shlapalarini u yoqdan bu yoqqa surib o'tirardilar.

Keng ishton va tor polotno ko'ylak kiygan negrlar bu o'tirganlar orasidan yugurib yurardilar. Ular xo'jayin bilan uning mehmonlariga dastyorlik qilishga doim

tayyor bo'lsalar ham, hech qanday foyda keltirmasdilar. Bu manzaraga, ichida charsillab o't yonib turgan katta o'choqni, lang ochiq eshik va derazalarni, bulardan kirayotgan qattiq va muzdek shamolning kalenkor pardalarni ko'tarib uchirib turishini qo'shsangiz, Kentukki shtatidagi g'am-g'ussasiz oshxonaga tasavvuriga ega bo'lasiz. Hozirgi kentukkiliklarning bobolari ovchi bo'lganlar. Ular o'rmonlarda kun kechirganlar, kechalari ochiq havoda yotganlar va qorong'i kechalari ularga sham o'rniga yulduzlar yorug'lik berib turgan. Bu ovchilarning hozirgi zamon avlodi shu kungacha o'z uyiga bivuak (vaqtincha dam oladigan manzil) deb qaraydi – uyga kirganda hech qachon boshidan shlapasini olmaydi; bobolari ko'k maysa ustida oyoqlarini daraxtga yoki to'ngakka tirab yotgandek, oyog'ini kursining orqasiga yoki o'choq supasiga qo'yib, cho'zilib yotadi, keng o'lkasi ko'proq havo emsin uchun kentukkilik kishi qish va yoz na eshikni va na derazani yopadi. Pisandsiz takalluf bilan hamma musofirni „begona yurtlik“ deb aytadi; umuman aytganda, kentukkilik – dunyoda eng soddadil, quvnoq va yuragi keng odam.

Yuqorida aytilgan sayyohimizning oshxonaga kirib ko'rgan beg'am ulfatlari – mana shulardan iborat edi. Sayyoh hovliqmaroq harakatli, yumaloq va xushfe'l yuzli, past bo'yli, yaxshi kiyingan semiz odam edi. Uning o'zi chamadon va zontigini g'oyat ehtiyot qilayotganligi ko'rinib turardi. Ko'pgina xizmatkorlarning yordam berish haqidagi takliflarini o'jarlik bilan rad qilib, chamadon bilan zontikni xonaga o'zi ko'tarib kirdi. U hadiksirab birpas alanglagandan keyin, o'z yuklari bilan o'tga yaqinroq kelib, yuklarni kursi ostiga qo'ydi; kursiga o'tirgach, yonidagi odamga xavfsirab qaradi: bu beodob, johil odamning oyoqlari o'choq taxtasini „bezatib“ turar va

o'zi o'ng-u chapga shunday zo'r berib tupurardiki, bu xil qiliqlari yaxshi xulqli, ammo nozik tabiatli har bir jentelmenni sal cho'chitishi tabiiy edi.

– Qalaysiz, begona yurtlik? – deb so'radi uzunoyoq og'zidagi tamaki suvini u tomonga tupurib va shu tariqa uni tabriklagandek.

– Rahmat, yaxshi, – deb javob berdi u, oz-moz cho'chib, tupurikka chap berib.

– Nima yangilik? – deb so'radi uzunoyoq, cho'ntagidan qatlangan tamaki va ov pichoqni chiqararkan.

– Bilishimcha hech qanday yangilik yo'q, – dedi musofir.

– Tamaki tortasizmi? – deb so'radi uzunoyoq, jentelmenga bir chekim tamakini do'stona uzatib.

– Yo'q, rahmat... menga ziyoni bor, – dedi kichkina odam, o'zini sal nariga tortib.

– E, tortmaysizmi? – deb so'radi uzunoyoq, atrofda gi xaloyiqning ehtiyoji uchun yangi tamaki suvi zahirasini tayyorlash maqsadida, o'z og'ziga to'ldirib tamaki tiqarkan.

Keksa jentelmen, novcha qo'shnisi uning tomoniga har safar tupurik otganda cho'chib tushardi. Uzunoyoq eng oxir buni sezdi-da, xushko'ngillik bilan o'z artilleriyasing boshqa tomonga burib, o'choq supasini o'qqa tuta boshladi va bu sohada shunday harbiy iste'dod ko'rsatdiki, bu iste'dod unga bir butun shaharni fath qilgani yetardi.

– U yerda nima gap? – deb so'radi keksa jentelmen, oshxonadagi ba'zi kishilar katta afishani o'rab olganlarini ko'rib.

– Bir negr to'g'risida bildirish, – deb olomon ichidan bittasi lo'ndagina javob qaytardi.

Mister Vilson – keksa jentelmenni shunday deb atardilar – o'rnidan turib, chamadon va zontigini yaxshilab

tuzatdi, so'ngra shoshilmasdan ko'zoynagini olib, burni ustiga mahkam joylashtirdi. Bu taraddudni tamomlagach, quyidagi so'zlarni o'qidi:

Quyida qo'l qo'ygan kishining qo'lidan Jorj nomli yosh mulat qochdi. Bo'yi olti fut, badani oq, sochlari qo'ng'ir-qizg'ish, juda zehqli, chechan so'zlaydi, o'qish-yozishni biladi. Ehtimol, o'zini oq deb ko'rsatsa kerak. Orqasida va yelkalarida chuqur yara izlari bor. O'ng qo'luga „harfi“ tamg'alangan.

Tirik ushlaganga to'rt yuz dollar beraman, o'ldirilgani haqida yetarli darajada – inobatan dalil ko'rsatganga ham to'rt yuz dollar beraman.

Keksa jentelmen xuddi bildirishni yodlab olmoqchi bo'lgandek ovozini chiqarib boshidan oxirigacha o'qidi.

O'choq panjarasining uzunoyoq bombardimonchisi ulkan qomatini ko'tarib o'rnidan turdi-da, bildirish yoniga keldi va og'zidagi tamaki suvini shoshilmasdan bildirishga tupurdi.

– Bu to'g'rida men ana bunday o'ylayman, – dedi u qisqacha qilib, keyin yana joyiga borib o'tirdi.

– Bu nima qilganingiz endi? – deb so'radi oshxona egasi.

– Bu bildirishni yozgan odam shu yerda bo'lsa, uning yuziga ham shunday tupurardim, – dedi uzunoyoq, tamakisini bamaylixotir qirqarkan. Bunday soz qulga ega bo'la turib, u bilan muomala qilishni bilmagan odam qulini qochirib yuborgan ekan, o'zi aybli. Bunday bildirishlar – Kentukkiga haqorat! Kimki mening fikrimni bilmoqchi bo'lsa – fikrim mana shu.

– Nima ham derdik, siz haqlisiz, – dedi xo'jayin, hisob daftariga bir nimani yozarkan.

– Mening bir gala negrim bor, ser, – dedi uzunoyoq, o'choq panjarasiga yangidan hujum boshlab. – Ularga

men doim: „Yigitlar, qani qochaveringlar! Tezroq qochinglar! Men orqalaringdan qaramaygan ham!“ deyman. Ularni ana shunday qilib tutib turaman. Mayli, ular istagan vaqtda qochib keta olishlarini bilsinlar: buni bilganlaridan keyin qochmaydilar. Bundan tashqari, ularga erkinnoma ham tayyorlab qo‘yganman, o‘lishim oldidan bu hujjatni har qaysisining qo‘liga beraman; ular buni ham biladilar. Hoy, begona yurtlik, sizga shuni aytayki, butun okrugda negrlardan hech kim hali mendek daromad olgan emas. Mana, mening negrlarim har biri besh yuz dollar turadigan otlarni olib Sinsinnatiga borishdi va otlarni sotib, pulini rosa vaqtda keltirib berishdi. O‘zi ravshan. Ularni itga o‘xshatib boqsangiz, ular ham itchasiga ishlaydilar va itchasiga harakat qiladilar. Ular bilan insoniy muomala qiling, ko‘rasizki, ular ham inson kabi ishlaydilar.

Qizib ketgan halol molfurush o‘z hissiyatini mustahkamlamoqchi bo‘lib o‘choq panjarasiga boplab tupurdi.

– Juda to‘g‘ri gapiryapsiz, og‘ayni, – dedi mister Vilson. – Bu bildirishda yozilgan qul, shubhasiz, aqlli odam. U mening fabrikamda olti yilcha ishlagan, mening fabrikam qop-qanor ishlab chiqaradi, u, eng yaxshi usta edi, ser. Bundan tashqari u kanop tozalaydigan bir mashina ixtiro qildi – juda daromadli kashfiyot edi. Uning xo‘jayini bu ixtiro uchun shahodatnomani o‘z nomiga yozdirib oldi.

– Shubha qilmaymanki, – dedi molfurush, – u shahodatnomani ham o‘z nomiga yozdirgan, pulni ham olgan, keyin bu bechoraning sharmandasini chiqargan. Agar baxtimdan bo‘lib qulay payt kelsa, uni shunday boplab adabini berayki, meni umrbod yodidan chiqarmasin!

– Har vaqt bunday qobiliyatli va ilimli negrlarning tashvishi ko‘p bo‘ladi, – dedi xonaning boshqa burchagidagi dag‘alroq qiyofali bir odam. – Shuning uchun xo‘jayinlari ularni urib, sharmanda qiladilar. Agar bu

negrar o'zlarini yaxshi tutsalar, ularga ham yaxshilikcha muomala qilardilar.

– Siz ularni hayvonga aylantirishning eng yaxshi usulini taklif qilyapsiz, – dedi molfurush.

– Qobiliyatli negrlar o'z xo'jayinlariga hech qanday foyda yetkazmaydilar, – dedi u o'z suhbatdoshining nafratomuz so'zlarini payqamay. – Agar qobiliyatidan o'zingiz uchun manfaat topolmasangiz, uning nima keragi bor? Ular o'z qobiliyatlarini sizni aldash uchun ishlatadilar. Menda shunday negr yigitlar bor edi, ularni darhol „daryoning quyi tomoniga“ sotib yubordim. Basharti ularni sotmasam, bir kunmas bir kun qochib ketishlarini juda yaxshi bilardim.

Oshxonaga yaqinlashib kelayotgan kichkina, bir kishilik ekipajga hamma tikilib qoldi, shu on suhbat uzildi. Ekipaj juda chiroyli bo'lib, xizmatkor negr kucherlik qilgan, ekipajning to'rida esa yaxshi kiyingan bir jentelmen o'tirardi.

Oshxonada o'tirganlarning bari bu jentelmenga g'oyat qiziqib qaradi, odatda, yomg'ir kunida hamma bekorchilar har bir yangi kelgan kishiga shunday qiziqib qaraydilar.

Novchadan kelgan, qoracha yuzli bu kishi ispanga o'xshardi. Ko'zlari va yaltillagan qo'ng'ir sochlari qop-qora edi. Uning go'zal qarchig'ay burni, to'g'ri va yupqa labi va chiroyli qaddi-qomati oshxonada to'planganlarning hammasida juda yaxshi taassurot qoldirdi. U odamlar orasidan ohista o'tdi, xizmatkorga ishora qilib narsalarini qo'yadigan joyni ko'rsatdi, o'tirganlarga ta'zim qildi, shlapasini qo'lida ushlaganicha shoshilmasdan peshtaxta yoniga keldi-da, o'zini Shelbi okrugi, Oklend shaharidan kelgan Genri Betler deb yozib qo'yishni buyurdi. Keyin orqasini o'girib, bamaylixotir bildirishni o'qib chiqdi.

– Jim, – dedi u o'z xizmatkoriga, – biz Berner yaqinida shunaqa bir yigitni uchratuvdik shekilli, esingizdami?

– Shunday, xo'jayin, – dedi Jim. – Faqat qo'lidagi tamg'asi to'g'risida gumonim bor.

– Uning qo'lini men ham ko'rganim yo'q, – dedi notanish kishi beparvo esnayotib. U oshxona egasining oldiga kelib, o'ziga alohida bo'lma berilishini talab qildi va bunga sabab qilib darhol bir xat yozmoqchi ekanini bildirdi.

Oshxona egasi qullarcha ta'zim qilib, topshiriqni bajargani yugurdi, shunda yettita qari va yosh negrlar erkak va xotinlar shoshilib, bir-birlariga turtinib va oyoqlarini bosishib, to'raga bo'lma tayyorlagani chopdilar. Bu vaqt notanish odam kursiga bazo'r o'tirib, yonidagi kishi bilan so'zlasha boshladi.

Notanish odam kirib kelgandan buyon mister Vilson unga xavfsiragan holda qiziqib qarardi. U, bu odam bilan qayerdadir tanishganman deb o'ylar, ammo qayerda tanishganligini hech eslolmasdi. Bu odam so'zlaganda, qimirlaganda yoki kulganda mister Vilson bir necha marta irg'ib turib, unga diqqat bilan qaragisi keldi, ammo har safar katta qora ko'zli notanish odamning sovuq nazari uni to'xtatardi. Birdan uning yodiga bir narsa tushdi va notanish odamga shunday hayrat bilan xavfsirab tikilib qoldiki, notanish odam uning yoniga kelishga majbur bo'ldi.

– Yanglishmasam, mister Vilson bo'lsangiz kerak, – dedi notanish odam, go'yo uni endigina tanigandek qo'lini uzatib. – Afv etasiz, sizni avval tanimadim. Qarasam, yodingizda bor ekanman, – mister Betler, Shelbi okrugi, Oklend shahridan.

– Ha... ha... ha... ser, – deb g'udulladi mister Vilson, xuddi tushidagi kabi.

Bu vaqt bir negr bola kirib, to'raga alohida xona tayyorligini bildirdi.

– Jim, boxabar bo'l, chamadonlarni olib kirsinar, – pisand qilmay gapirdi notanish odam va mister Vilsonga qarab dedi: – Men bir ish to'g'risida siz bilan so'zlashishni istardim... agar vaqtingiz bo'lsa bo'lmamda gaplashsak.

Mister Vilson xuddi tushidagi kabi uning orqasidan ergashdi. Ular tepadagi katta bo'lmaga kirdilar: bu yerda hozirgina yoqilgan o't chirsillab yonar, anchagina xizmatkorlar bo'lma tuzashni tamomlash bilan ovora edilar.

Xizmatkorlar chiqib ketgach, notanish odam eshikni shoshilmasdan qulflab, kalitini cho'ntagiga soldi-da, yuzini o'girdi va qo'lini ko'ksiga qo'yib, mister Vilsonga diqqat bilan tikildi.

– Jorj, senmisan – deb qichqirdi Vilson.

– Balli, Jorjman, – dedi yigit.

– Yetti uxlab tushimga kirmagan hodisa!

– Menimcha, qiyofamni boplab o'zgartirgan bo'lsam kerak, – dedi yigit tabassum bilan, – yong'oq po'stlog'i mening sariq badanimni kiborlarga xos bug'doyrang qilib qo'ydi, sochimni esa qora rangga bo'yadim. Ko'rdingizmi endi, men bildirishda yozilgan odamga sira o'xshamayman shekilli.

– Hoy, Jorj, sen xavfli o'yin boshlabsan! Ehtiyot bo'l! Men senga buni maslahat bermasdim...

– O'zimga o'zim javobgarman! – dedi Jorj yana boyagiday mag'rurona iljayib.

Gap orasida shuni aytib o'taylikki, Jorjning otasi oqbadan, onasi esa haddan ziyod chiroyli bo'lganidan o'z hokimining nafsoniy his qurboni va otasini bilmas bolalarning onasi bo'lib qoladigan baxtsiz negr ayollardan biri edi. Jorjga go'zal va nozik yevropacha tashqi qiyofa

hamda jo'shqinlik, hech nimaga bo'ysunmas xulq Kentukidagi eng atoqli oilalarning biridan meros bo'lib tekkan-di. Onadan unga qoracha badan rangi va ajoyib qora ko'z o'tgandi. U, badan va sochining rangini salgina o'zgartish soyasida chin ispanning o'zi bo'lib qoldi. Uning azaldan o'ziga xos bo'lgan ko'rkam fe'l-atvori, o'z xizmatkori bilan sayohat qilayotgan jentelmen rolini osongina o'ynashga imkon berdi, bu esa, shubhasiz, xatarli rol edi.

Xushko'ngil, lekin ehtiyotchan kekxa jentelmen mister Vilson bo'lmaning u boshidan bu boshiga yurar va „Jorjga yordam beraymi yoki qonun va tartibga rioya qilaymi?“ degan masalani hal etolmay ikkilanardi.

– Xo'p, yaxshi, Jorj. Faraz qildik – qochibsan... O'z qonuniy xo'jayiningni tashlabsan... Bunga taajjublanmayman. Lekin shu bilan birga men xafaman, Jorj. Shuni senga aytishim kerakki, Jorj... Buni senga aytish mening burchim.

– Nimadan xafasiz, ser? – deb xotirjam so'radi Jorj.

– Shuning uchun xafamanki, sen o'z vataningning qonuniga qarshi ish qilyapsan.

– Vatanimning emish! – afsuslanib dedi Jorj. – Qabrdan bo'lak mening vatanim yo'q. Koshki edi tezroq o'sha qabrga kirsam!

– Nima bo'ldi senga, Jorj! Yo'q, yo'q, bunday dema! Sening xo'jayining berahm odam, bu to'g'ri... Uni himoya qilolmayman. Lekin...

– O'z ozodligim uchun kurashsam yomon ish qilgan bo'lamanmi? – deb so'radi Jorj.

– Bular hammasi mutlaqo tabiiy, Jorj, – dedi xushko'ngil Vilson, zo'r berib mishirib. – Ha, mutlaqo tabiiy, ammo sening bunday faktlaringni quvvatlamaslik mening burchim bo'ladi. Shunday, bolam, senga juda rahmim keladi... Juda ko'ngilsiz voqea, juda ko'ngilsiz! Lekin ham-

mamiz Xudoning irodasiga bo'ysunishimiz kerak, Jorj...
Shunday emasmi?

Jorj boshini orqaga tashlab, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, ma'yusona kulimsirab turardi.

– Mister Vilson, men shuni bilmoqchiman, chunonchi, aytaylik hindlar kelib sizning xotin va bolalaringizdan ajratib olib ketsalar-u, umr bo'yi o'zlarining yerlarini chopishga majbur qilsalar, „Mening burchim – bo'ysunish“, deb yuraverarmidingiz? Aksincha, men o'ylaymanki, birinchi uchragan otni minib qochardingiz va buni – Xudoning irodasi shu“, deb hisoblardingiz, shunday emasmi?

Past bo'yli jentelmen bu gapni eshitgach, ko'zlari olaydi. Garchi u dono mutafakkir bo'lmasa ham, bunday vaqtda har bir mutafakkir kabi ish tutish uchun aqli yetar edi: dalil asosli bo'lgandan keyin unga qarshi e'tiroz bildirmaslik lozim. U zontigini yaxshilab silab-siypab, hamma qatlarini yozib, nasihatini davom ettirdi:

– Jorj, sen juda yaxshi bilasan – men hamisha senga do'st bo'lib keldim, Senga nimaki degan bo'lsam, sening foydang uchun deganman. Lekin, meningcha, sen juda xatarli ish boshlabsan. Bilamanki, rejangning ro'yobga chiqishiga o'zingning ham ko'zing yetmaydi. Agar seni ushlab olsalar, ahvol ilgarigidan ham battarroq bo'ladi. Sharmandangni chiqaradilar, chala o'lik qilib kaltaklaydilar, keyin Janubga sotadilar.

– Mister Vilson, men bularning hammasini tushun-yapman. Men juda mudhish tavakkal yo'liga tushdim, ammo... – deb u ko'kragini ochgandi Mister Vilson ikkita to'pponcha bilan yig'ma pichoqni ko'rdi. – Mana! – dedi u. – Men hamma narsaga tayyorman. Hech qachon Janubga bormayman. Agar ish shunga borib qolsa, o'zimga qabr uchun olti fut yerni urishib ola bilaman – Kentukkida birinchi bor va oxirgi marta yer egasi bo'laman.

– Bilasanmi, Jorj, sening fikrlaring juda yomon. Bu fikrlaring ensamni qotirmoqda, Jorj. Men xafaman. O'z vataningning qonunlarini buzishi. Bu nima degan gap axir...

– Yana o'z vataning deysiz! Mister Vilson, sizning vataningiz bor, lekin men kabi cho'ri onalardan tug'ilgan uvol odamlarning qanday vatani bo'lishi mumkin axir? Qonunlarni biz o'ylab chiqarganmasmiz, bu qonunlar uchun bizning roziligimizni so'ramaganlar va biz bu qonunlar bilan hisoblashmaymiz. Bu qonunlar bizni faqat ezadi va xo'rlaydi.

Jorjga mister Vilsonning chin ko'ngildan rahmi kelar va uni hayajonlantirayotgan hissiyotlarni mujmal tasavvur etardi. Lekin u, „Mening burchim – qattiq turib – zo'r berib uni haqiqat yo'liga solish“, deb o'ylardi.

– Jorj, bu ishing yaxshimas! Men sening do'sting bo'lganimdan shuni aytishim lozimki, sen bunday fikrlarga amal qilib chakki qilyapsan. Yaxshimas, sen kabi odamga yaxshimas... juda, juda...

Shu so'zlarni aytib bo'lgach, mister Vilson stol yoniga o'tirdi-da, zontigining dastasini asabiylashganidan chaynay boshladi.

– Menga qarang, mister Vilson, – dedi Jorj, uning ro'parasiga jiddiy qiyofada o'tirib olib – razm soling menga. Mana, sizning oldingizda o'tiribman – men ham siz kabi odammasmi? Yuzimga, qo'limga, tanamga qarang, – deb yigit qaddini mag'rurona rosladi. – Nima uchun men ham boshqalar kabi inson deb sanalmayman? Quloq soling, mister Vilson, sizga bir hikoyani aytib beray. Mening otam Kentukkinging eng atoqli kishilaridan biri bo'lgan. U: „Men o'lganimdan keyin, kreditorlarimni rozi qilmoq uchun Jorjni itlarim va otlarim bilan birga sotib yubormasinlar“, deb o'ylamagan ham, Auksion zaliga onam bilan uning yettita bolasini keltirishdi. Bolalarni

turli xo'jayinlarga onamning ko'z o'ngida birin-ketin sotishdi. Men eng kichkinasi edim. Onam meni sotib olayotgan odamga „Meni bola bilan birga qo'shib oling, hech bo'lmasa bittagina go'dagim yonimda bo'lsin“, deb tiz cho'kib yolvordi. Lekin u odam onamni etigi bilan tepib yubordi. Buni o'z ko'zim bilan ko'rganman. Xo'jayin meni qo'rasiga olib ketmoqchi bo'lib otining bo'yniga bog'layotganda onamning dodlab qichqirgan ovozini so'nggi marta eshitdim.

– Keyin-chi?

– O'sa boshladim. Uzoq-uzoq yillar otasiz, onasiz kun kechirdim, menga g'amxo'rlik qiladigan birorta insjins bo'lmadi. Haqorat, kaltak va ochlikdan boshqa hech narsa ko'rmadim, Ha, ser, shu qadar och qolardimki, xo'jayinlar itlarning oldiga tashlagan suyaklarni chaynasam o'zimni baxtiyor deb bilardim. Lekin kichkina bolalik chog'imda kechalari uxlamay yig'lab yotganimda, ochlikdan yoki kaltakdan yig'lamasdim. Yo'q, ser. Men onamni sog'inib, singillarimni sog'inib yig'lardim, chunki dunyoda mening hech kimim yo'q edi, hech kim meni sevmasdi. Men, osoyishtalik nima, issiq uy nima bilmay o'tdim. To sizning fabrikangizga kirguncha hech bir shirin so'z eshitmadim. Mister Vilson, siz menga yaxshi muomala qilardingiz. Siz menda ishlamoq, o'qimoq va madaniy odam bo'lib yetishmoq uchun bo'lgan orzu-havasni qo'llardingiz. Buning uchun sizdan naqadar minnatdor ekanligim Xudoga ayon. Keyin, ser, men o'z xotinimni uchratdim. Uni ko'rgansiz, uning go'zalligini bilasiz. Uning meni yaxshi ko'rishini bilganimdan hamda unga uylanganimdan keyin, shunday baxtiyor bo'ldimki, o'zimga jon kirdi deb his qildim. Uning dili ham, qiyo-fasi ham chiroyli ekan. Keyin nima bo'ldi? Keyin xo'ja-

Yinim kelib meni o'z ishimdan, yor-do'stlarimdan, ishlab qo'ygan butun ishimdan ajratib, loyga tiqdi. Xo'sh, nima uchun? Chunki o'zimning kim ekanligimni unutganmishman! Meni faqatgina negr ekanligimni eslashga majbur qilarmish! Pirovardida u men bilan xotinimning oramizga g'ov bo'lib ko'tarildi va menga: „Buni tashlab, boshqa xotin olasan“, dedi. Bilib qo'ying, sizning qonunlaringiz insongarchilikka batamom xilof bo'lgan ana shunday ishlarni qilish uchun unga huquq beradi! Mister Vilson, qarang axir! Bu yerda gap – onamning, singillarimning, xotinimning va o'zimning yuragimni yaralagan shafqatsizlikdagina emas, bu yerda gap – bunday shafqatsizlikka yo'l qo'yib, Kentukkida shunday ishni qilish uchun har kimga huquq beradigan sizning qonunlaringizda. Zolimga bir og'iz hay deyishga hech kimning haddi yo'q! Tag'in bu boshvoqsizlikni siz „sening vataningning qonunlari“ deb ataysiz-a? Ser, mening otam bo'lmaganidek, vatanim ham yo'q. Ammo vatanga ega bo'laman! Sizning vatanningizdan hech narsa istamayman, kerakmas, faqat menga undan tinch chiqib ketishga imkon bersalar bas, qonunlari meni qo'riqlaydigan Kanadaga borganimdan keyin, u yer mening vatanim bo'ladi, ana shunda uning qonunlariga bo'ysunaman. Lekin birov meni bu yerda to'xtatishga urinarkan – yomon qilaman, chunki pichoq suyagimga yetdi. Men o'z ozodligim uchun bir tomchi qonim qolguncha olishaman!

Jorj goh stol yoniga o'tirib, goh bo'lmaning u boshidan bu boshiga yurib, ko'zidan yoshlar to'kib, jonidan to'ygan kishi kabi imolar qilib, ko'zlari yashnab so'zlaridi. Bu yurakdan chiqqan so'zlar xushko'ngil cholni hayajonga soldi. U katta sariq shoyi dastro'molchasini olib, yuz-ko'zlarini zo'r berib arta boshladi.

– Ularning hammasiga la’natlar bo’lsin! – deb tuyqusdan qichqirdi u. – „Ular ablah“, deb senga aytmovdimmi? Olg’a, Jorj, olg’a! Ammo ehtiyot bo’l, bolam.

Hech kimni o’ldirma... Juda bo’lmay qolsa, bilmayman... Xotining qayerda, Jorj? – deb so’radi u, hayajonlangancha irg’ib turib, bo’lmada nari-beri yura boshlab.

– Ketibdi, ser, qo’liga bolasini olib ketibdi. Qayerga ketganini Xudo biladi. Shimolga ketibdi. Endi u bilan uchrasharmikanmiz?

– Bo’lmagan gap! Rosti bilan-a? Shunday yaxshi xo’jayinlarni tashlab ketibdimi.

– Yaxshi xo’jayinlar qarzdor bo’lib qoladilar. Vatanimizning qonunlari esa kreditorlarning pulini to’lash uchun ularga onasidan bolasini tortib olib sotishga ijozat beradi, – achinib dedi Jorj.

– Mana, Jorj, – dedi keksa saxovatkor, cho’ntagini kovlab, ko’pgina qog’oz pul chiqarib. – Balki, men o’z maslagimga zid ish qilayotgandirman, ammo maslagimning yo’liga yurolmayman axir...

– Yo’q, kerakmas, saxovatli va yaxshi serim! – deb xitob qildi Jorj. – Siz menga busiz ham ko’p yaxshilik qildingiz. Buning tufaylidan sizga ta’bixiraliklar bo’lishi mumkin. Mo’ljallagan joyimga borib olish uchun pulim yetsa kerak deb o’ylayman.

– Yo’q, albatta olasan, Jorj. Pul hamma vaqt madad beradi. Pul, agar halollik bilan topilgan bo’lsa, har qanchasi ham ortiqcha bo’lmaydi. Ol buni, hozir ol. Olishing kerak, bolam.

– Keyinchalik qaytarib berish sharti bilan, ser, – dedi Jorj pulni olarkan.

– Endi menga shuni ayt, Jorj: shunday qiyofada sen yana qancha vaqt sayohat qilmoqchisan? Sayohating

uzoqqa bormasa kerak deb o'ylayman. Bu hiylang yomonmas-ku, ammo bunga juda dovyuraklik kerak. U qora bolang kim?

– U ishonchli bola. U bir yil muqaddam Kanadaga qochib ketgandi, ammo unga: „Qochganing uchun xo'jayining juda achchig'lanib, kampir onangni savaladi“, deb yetkazibdilar. Shuning uchun u onasiga yordam berish ilojini topsa, o'zi bilan birga olib ketish uchun Kanadadan qaytib kelgan.

– Xo'sh, olib ketibdilarmi?

– Yo'q hali, U xo'jayinining qo'rasi atrofida kezibdi, ammo qulay payt bo'lmabdi, hali u men bilan Ogayogacha boradi. U yerda unga yordam beradigan do'stlari bor... U meni o'z do'stlariga tanishtirib, keyin opasini olib ketgani qaytmoqchi.

– Xavfli ish, juda xavfli! – dedi chol.

Jorj qaddini rostlab, nafratomuz kuldi.

Mister Vilson soddadillik bilan zavqlanib unga boshdan oyoq qarab chiqdi.

– Jorj, senda allaqanday favqulodda bir hodisa ro'y beribdi. O'zingni shunday tutib gaplashasanki, xuddi boshqa odam bo'lib qolganga o'xshaysan.

– Chunki men ozod insonman, – deb mag'rur javob berdi Jorj. – Shunday, ser, endi men hech kimni „xo'jayinim“ deb aytmayman. Men ozodman!

– Ehtiyot bo'! Hali seni ushlab olishlari mumkin!

– Qabrda hamma odam ozod va teng, mister Vilson, – dedi Jorj.

– Sening dovyurakligingga qoyilman, – dedi mister Vilson. – Qo'rqmasdan eng yaqin oshxonaga kelibsana!

– Mister Vilson, bunday qilish uchun chindan dovyuraklik kerak; keyin oshxona, haqiqatan, shu qadar yaqinki,

bu yerdan meni qidirish hech kimning xayoliga ham kelmaydi. Meni uzoqroq joylardan izlaydilar, hamma voqeani yolg'iz siz bilarsiz. Jimning xo'jayini bu yerda yashamaydi va bu tomonlarda uni hech kim tanimaydiyam.

– Qo'lingdagi tamg'a-chi?

Jorj qo'lqopini yechib, yangi izni ko'rsatdi.

– Bu mister Garrisning xayrlashuv oldidan qilgan iltifoti, – nafratomuz dedi u. – Ikki hafta burun u meni tamg'alash payiga tushdi, chunki meni „Bir kunmas-bir kun qochib ketadi“, deb gumon qilgan bo'lsa kerak. Qiziq-a, nima dedingiz? – dedi u, yana qo'lqopini kiyib.

– Sening ahvolingni va boshingga tushgan xatarni o'ylasam, qo'rqishimdan sochim tikka turib, tomirimdagi qonim muzlab qolganday bo'ladi-ya! – dedi mister Vilson.

– Mening qonim bir necha yildan buyon muzlagandi, lekin hozir qaynash darajasiga yetdi, – deb javob berdi Jorj. – Aziz serim, – deb davom etdi Jorj, – bir necha daqiqa sukut qilgach, meni darrov tanib qolganingizni ko'rib, hamma gapni sizga aytishga darhol qaror qildim, chunki sizning menga taajjublanib qarashlaringiz sirimni ochib qo'yishi mumkin edi. Men ertaga ertalab, tong yorishganda jo'nab ketaman. Ertaga kechasi Ogayoda tinch uxlarman deb umid qilaman. Men kunduzi sayohat qilaman, eng yaxshi musofirxonalarga tushaman, kiborlar bilan bir stolda ovqatlanaman.

Shu bilan, yaxshi qoling, ser! Agar meni ushlabdilar, deb eshitsangiz, bilingki, men tirikmasman!

Jorj tog'dek mahkam turardi, u shohona harakat bilan mister Vilsonga qo'l uzatdi. Chol uning qo'lini as-toydil qisdi va hadiksirab orqasiga qaragancha zontigini olib chiqdi. Jorj yopilayotgan eshikka xayol surgan holda qaradi. Uning miyasida yangi fikr lip etib o'tdi. U eshik yoniga jadal keldi-da, uni ochib:

– Mister Vilson, yana bir so‘z qolibdi! – dedi.

Keksa jentelmen qaytdi. Jorj ilgarigidek eshikni qulf-ladi va polga sustlanib qarab, bir necha daqiqa indamay turdi. Nihoyat, boshini arang ko‘tarib, dedi:

– Mister Vilson, sizga bir iltimosim bor: yana bir sa-xovatli ish qilsangiz.

– Xo‘p, Jorj.

– Aytgan gaplaringiz hammasi to‘g‘ri: men xavfli o‘yin boshladim. Agar men nobud bo‘lsam, hech kim af-suslanmaydi. Meni o‘ldirib, bir itdek ko‘mib yuboradilar.

Bir kundan keyin hech kim meni yodiga ham olmaydi, bechora xotinimdan boshqa hech kim yodlamaydi! Becho-ra! Yolg‘iz o‘sha meni eslab yig‘laydi, sog‘inadi. Mister Vilson, agar siz unga mana shu to‘g‘nag‘ichni yuborishga rozi bo‘lsangiz edi! Unga mana shu to‘g‘nag‘ichni berib aytasangizki, men oxirgi daqiqagacha uni sevdim... Mening iltimosimni bajarasizmi! Bajarasizmi? – deb qattiq turib so‘radi u.

– Albatta... bechora do‘stim! Albatta! – ko‘zidan yosh to‘kib dedi kekxa jentelmen va Jorjdan to‘g‘nag‘ichni oldi.

– Unga aytingki, – deb davom etdi Jorj, – agar eplayolsa tezroq Kanadaga borsin. Bu mening so‘nggi tilagim. O‘z qadrdon uyini qanday yaxshi ko‘rmasin, beka unga naqa-dar xushmuomala bo‘lmasin, lekin har holda uyga qaytib bormasin. „Uyga qaytma“, deb iltimos qiling, chunki qul-lik doim falokat bilan tugaydi. Unga aytingki, bolamizni ozod inson qilib tarbiyalasin, shundagina u, men kabi jafu tortmaydi. Shu so‘zlarning hammasini ayting, mister Vil-son. Mening iltimosimni bajo keltirasizmi?

– Ha, Jorj, unga hamma so‘zlaringni aytaman. Lekin, ishonamanki, sen o‘lmaysan. Ruhing tushmasin... Sening mard va jasur yuraging bor!

XII BOB

Qonuniy savdo natijasida yuz bergan sarguzasht

Mister Geli bilan Tom aravada silkinishib borar va har qaysisi o'z xayoliga sho'ng'igandi. Ular bir o'tirg'ichda yonma-yon o'tirishar va ularning ko'z o'ngidan bir xilda manzaralar o'tib borar, ammo miyalaridagi fikrlar har xil edi.

Masalan, mister Geli, Tomning quvvati, bo'y-bashti to'g'risida o'ylar va to sotilguncha uni yaxshi saqlab, etidan tushirilmasa, qanchaga pul qilish mumkinligini chamalardi. U, bozorga olib chiqilgan bir to'da negrlari to'g'risida o'ylardi. U hali o'zi ko'rmagan erkak, xotin va bolalardan to'p qilib bozorga olib chiqadigan negrlarni qanchaga pul qilish va shu kabi o'z kasbiga aloqador narsalar to'g'risida xayol surardi. Keyin u o'zi to'g'risida o'ylana boshladi: „Qanday saxovatli va insonparvar odamman-a, – derdi u o'z-o'ziga. – Boshqa savdogarlar o'z negrlarining ham qo'l, ham oyoqlariga kishan soladilar, men bo'lsam Tomning faqat oyog'iga kishan soldim. Tom o'zini jo'n tutarkan, qo'lini kishanlamayman“. Keyin uf tortib yana o'yladi: „Odamlar noshukr bo'ladi. Mana, masalan, Tom mening yaxshiligimni, shubhasiz, qadrlamayotgandir. O'zlariga nisbatan yaxshi muomala qilgan negrlarim bu yaxshiliklarimni hech qadrlaganmaslar. Tag'in ham shu choqqacha mehr-u shafqatliligimni yo'qotmay yuribman-da!“ – deb hayron bo'lardi u.

Geli cho'ntagidan gazeta oldi va bildirishlarni qarab, ularni qiziqib o'qiy boshladi. U o'qishga no'noqroq edi va o'qirkan, ko'zidan o'tayotgan so'zlarni o'z qulog'i bilan eshitib tekshirmoqchi bo'lgandek, nim ovoz chiqarib

g'udunglardi. U quyidagi bildirishni zo'r-ba'zo'r o'qib chiqdi:

Kimoshdi savdosi! Negrlar sotiladi!.. Sud qaroriga muvofiq 20-fevral payshanba kuni Kentukkidan Vashington shahrining sud binosida quyidagi negrlar sotiladi: Agar – 60 yashar; Jon – 30 yashar; Ben – 21 yashar; Saud – 26 yashar; Albert – 14 yashar.

Bu negrlar mister Jess Blekfordning kreditorlari va merosxo'rlarining haqini qondirish uchun sotiladilar.

Tashkilotchilar:

Semyuel Morris, Tomas Flikt.

– Bularni bir ko'rishim kerak ekan, – dedi Geli, Tomga xitoban, chunki u shu tobda kim bo'lmasin, birov bilan so'zlashishi kerak edi. – Bilasanmi, Tom, men bozor uchun negrlarni yaxshi bir to'p qilib sen bilan birga yubormoqchiman. Yaxshi ulfatlar ichida kayfing chog' bo'ladi. Dastavval biz Vashingtonga boramiz, u yerda to ishlarimni bitirgunimcha seni turmaga o'tqazib qo'yaman.

Tom bu „xushxabarni“ indamay, tavoze bilan tinglab turdi. „Bu sho'ring qurg'urlarning ham, – deb o'ylardi Tom, – ko'plarida xotin va bolalar bordir va ular ham ajali vaqtida achchiq-achchiq qayg'u cheksalar kerak“. Geling Tomni turmaga o'tirg'izib qo'yish haqida soddadillik bilan aytgan xabari uni hech quvontirolmasdi: axir Tom har doim o'z sha'niga dog' tushirmaganligi uchun faxrlanardi. Ha, shuni aytish kerakki, Tom darhaqiqat, o'zining ana shu halolligi, oliyjanoblighi uchun faxrlanardi, chunki uning bundan boshqa faxrlanadigan narsasi yo'q edi.

Shunday qilib, kun o'tdi, oqshom Vashingtonga keldilar va qulay joylashdilar: biri musofirxonaga joylashdi, yana biri turmaga.

Ertasi kun ertalab soat o'n birda, sud zaliga kiradigan pillapoya oldida xilma-xil odamlar to'planishdi. Birov chekkan, birov tamaki shimigan, birov tupurib so'kingan, har kim o'z didi va mayliga qarab so'zlardi. Hamma savdo boshlanishiga muntazir edi. Sotuvga qo'yilgan erkak va ayollar alohida to'p bo'lib o'tirib, nim ovozda bir-birlari bilan so'zlashardilar.

Bildirishda nomi Agar deb aytilgan xotin asli afrikalik edi. Ehtimol, u oltmish yoshdadir-u, ammo dard va haddan ziyod og'ir mehnat uni erta qaritgandir. Uning ko'zi deyarli ko'rmas va bod kasali qaddini bukchaytirib qo'ygandi. Uning yonida o'g'li Albert – o'n to'rt yashar tetik bola turardi. Agarning, bir vaqtlar g'oyat katta oilasidan yolg'iz shu bola tirik qolgandi. Boshqalari Janubdagi qul bozorlarida birin-ketin sotilib ketgandi. Onasi uni qo'llari qaltiragan holda ushlab turar va uni ko'rgani kelgan har bir kishiga titrab boqardi.

– Qo'rqma, Agar xola, – dedi negrlarning eng qarisi, – men Tomas xo'jayin bilan so'zlashdim, u: „Agarni bolasi bilan qo'shib sotib yuborolsam kerak“, deydi.

– Ular meni endi hech narsaga yaramay qolibdi, deb aytmasinlar, – dedi Agar, qaltiragan qo'llarini ko'tarib. – Men hali ovqat pishirishga, supur-sidirga, qozon-tovoq yuvishga yarayman. Meni olsa arziydi, albatta, arzon bahoga. Bu gapimni ularga ayt! – deb qizg'in iltimos qilardi u.

– Geli olomon orasidan o'tib, qari negrining oldiga keldi-da, uning og'zini yirib ochib, ichiga qaradi, tishlarini ushlab ko'rди, o'midan turg'izib, qaddini rostlashga, egilishga va muskullarini ko'rish uchun har xil mashqlar qilishga majbur etdi.

Keyin boshqasining oldiga kelib, uni ham xuddi shu xilda ko'rib chiqdi. Nihoyat u, bolaning oldiga keldi. Bolaning qo'llarini ushlab ko'rib, keyin cho'zdirdi, barmoq-

larini ko'zdan kechirdi va uning epchilligini bilish uchun sakratib ko'rdi.

– Bola mensiz sotilmaydi, – dedi kampir ehtiros va hayajon bilan. – Men hali juda baquvvatman, xo'jayin, ancha ish qila olaman.

– Plantatsiyalarda-ya? – dedi Geli unga nafratomuz qarab. Ishonsa bo'ladi!

U, ko'rikdan qanoat hosil qilgach, o'zini bir chetga oldi-da, qo'lini cho'ntagiga tiqib, shlapasini chakkasiga qo'yib, og'zida sigarani tutgancha savdo boshlanishini kutdi.

– Ular to'g'risida fikringiz qalay, – dedi Geliga birov; bu odam Geling negrlarni ko'zdan kechirayotganligini ko'rgandi. U: „Qaysi birini olsam ekan“, deb o'ylanayotgandek ko'rinardi.

– Men ana u yoshroqlari bilan bolani olib qo'ya qolsam deyman, – dedi Geli va tupurdi.

– Bola bilan kampirni birga qo'shib sotmoqchilar. – dedi haligi odam.

– Sotolmaydilar! Eski suyaklardan yasalgan bu ilgak kimga kerak deysiz? U hech narsaga arzimaydi-ku!

– Demak, siz uni olmaysizmi? – dedi u odam.

– Uni ahmoq odam oladi. Ko'r, bod kasalidan bukchayib ketgan va buning ustiga to'ngakdek beaql.

– Ba'zilar esa xuddi shunaqa kampirlarni oladilar va buni foydali deb hisoblaydilar, – xayol surib dedi u odam.

– To'g'ri kelmaydi, – dedi Geli. – Tekinga ham olmayman! O'lay agar!

– Uni o'g'lidan ajratgani aslo ko'ngling tortmaydi-da. U o'g'liga juda ovunib qolibdi! Uni arzonga sotsalar kerak.

– Uni bekorchi puli ko'p odam olsin. Bolani men plantatsiya uchun olaman. Kampirni tekinga bersalar ham olmayman: dardisarga toqatim yo'q, – dedi Geli.

– Kampirning ensasi qotib qoladi-da, – dedi u odam.

– Bo'lmasam-chi! – deb javob qaytardi savdogar.

Birdan g'ovur-g'urur boshlanib ketib, suhbat uzildi. Pakana hovliqma auksionchi olomon orasini tirsagi bilan turtib o'ziga yo'l ochib borardi. Kampir nafasini olar-olmas o'g'lini mahkam ushlab oldi.

– Menga yopish, Albert; mahkamroq yopishib olsang, bizni birga sotadilar, – dedi kampir.

– Buvi, qo'rqaman, birga sotishmaydi...

– Ular bizni birga sotishlari kerak, bolaginam. Bordi-yu ajratib sotishsa, o'lib ketaman-ku, – kuyunib dedi ayol.

Auksionchi yo'lni ochib qo'yishni iltimos qildi, keyin gumburlagan ovoz bilan savdo boshlanganini e'lon qildi. Joyni tozaladilar, shundan keyin narx aytish boshlandi. Negrlarning bozori chaqqon edi. Ular yaxshi narx bilan birpasda sotilib bo'ldi. Ikki negrni Geli oldi.

– Qani, bu yoqqa kel, bola, – dedi auksionchi, bolani bolg'achasi bilan turtib. Yaqin kelib, epchillingingni ko'rsat-chi!

– Bizni birga qo'ying, birga... o'tinib so'rayman, mister, – dedi kampir, o'g'liga mahkam yopishib.

– Yo'qol! – deb baqirdi auksionchi, boladan uning qo'lini uzib. – Sen eng pirovardida ketasan, qani qoravoy, irg'i!

Shu so'zni aytib, u bolani so'ri ustiga itarib yubordi. Orqadan qattiq „oh“ ovozi chiqdi. Bola orqasiga qaradi. Ammo to'xtashga vaqt yo'q edi, shuning uchun u katta qora ko'zlaridan oqayotgan yoshni artib, so'riga chiqdi.

Uning qayishdek mahkam va suluv qaddi-qomati, tezbosar oyoqlari va aqlli yuzi darhol raqobat tug'dirdi va o'ndan ortiq xaridor uni qo'lga kiritish uchun bir-birlari bilan talasha boshladilar. Bola atrofda ko'tarilgan shovqindan cho'chib alanglardi, goh unda, goh bunda yangi baho

aytishib qichqirishardi. Nihoyat, bolacha pastga tushdi. Bolani Geli oldi.

Uni so'ridan yangi xo'jayinga tomon itarib tushirdilar. U bir dam to'xtab orqasiga qaradi, kampir ona esa bor vujudi bilan titrab, qaltiroq qo'llarini unga cho'zardi.

– Xudo haqqi, meni ham oling, xo'jayin! Oling meni, Yo'qsa o'laman!

– Agar seni olsam chindan ham o'lasan, – dedi Geli. – Yo'q, olmayman.

Shunday dedi-yu, orqasini o'girdi.

Bechora kampirning savdosi tez tamom bo'ldi. Boya Geli bilan so'zlashgan va mehribonligini yo'qotmagan-dek ko'rinuvchi odam uni juda arzon bahoga oldi. Tomoshabinlar tarqala boshladilar.

Savdoning baxtsiz qurbonlari, ya'ni bir necha yillab birga yashagan kishilar bechora onani o'rab olishdi. Uning ayanchli holiga qarash juda og'ir edi.

– Nahotki, loaqal bittagina bolamni qoldirmasa-ya? Xo'jayin: „Bolangni o'zingda qoldiramiz“, degan edi-ku, deb takrorlardi u.

– Buvi, buvi, qayg'urmang, – derdi bola – Siz yaxshi xo'jayinga tushibsiz.

– Menga baribir, menga baribir! Eh, Albert, o'g'lim! Sen mening oxirgi bolamsan-ku! Yo Rabbim, bu judolikka qanday chidab turaman!

– Olsalaring-chi buni bu yerdan – dedi sovuq qilib Geli. Bunday dodlagani bilan og'iri yengil bo'lib qolmaydi!

Bir kekxa negr, qisman aldab, qisman zo'rlab, bechora kampirni o'g'lining quchog'idan tortib oldi-da, yangi xo'jayinning aravasiga o'tirg'izib, qo'lidan kelgancha yu-patishga harakat qilib ko'rdi.

– Qani, – dedi Geli, o'z mollarini oldinga itarib, bir o'ram qo'l kishanlarni olib, negrlarning qo'llariga soldi.

– Bo‘lmasa bunga quloq soling, – qat‘iylik bilan dedi Geli va yana tupurdi, – Qolganini ikkovimiz qoq yarim bo‘lishamiz – sizga qirq besh dollarga beraman. Qo‘limdan keladigani shu.

– Xo‘p, ko‘ndim! – dedi xaridor, biroz o‘ylanib.

– Ish bitdi! – dedi Geli. – Qayerda tushasiz?

– Luizvillda, – dedi xaridor.

– Luizvillda, – deb uning gapini takrorladi Geli, – Juda soz. U yerga biz qorong‘i tushganda kelamiz. Bola uxlagan bo‘ladi, siz dod-voysiz uni sekin ko‘tarasiz. Men har bir ishni ortiqcha, shovqinsiz imi-jimida qilishni yaxshi ko‘raman. Shovqin-to‘polonga sira hushim yo‘q.

Bir necha qog‘oz aqchalar xaridorning hamyonidan sotuvchining cho‘ntagiga o‘tganidan keyin, Geli yana cheka boshladi.

Paroxod Luizvillda to‘xtaganda go‘zal va tinch oqshom edi. Ayol bolasini ko‘tarib o‘tirardi. Bola qattiq uxlardi. Ona „Luizvill“ degan so‘zni eshitgach, bolasini shoshilgan-cha yashiklar orasidagi ochiq yerga qo‘yib, uning ostiga ust kiyimini soldi. Keyin u paroxodning yon chekkasiga yugurib keldi. U, mahalliy musofirxonaning shu mahalla pristan-da to‘planishadigan ofitsiantlari orasida o‘z erini ko‘rishni umid qilgandi. U paroxod zinasining naq qanoti yoniga keldi va bor bo‘yi bilan engashib, sohilda qimirlayotgan kallalarni birin-ketin sinchiklab ko‘zdan kechira boshladi. Biroq shu tobda olomon uni bola yonidan surib qo‘ydi.

– Rosa payti keldi! – dedi Geli, uxlayotgan bolani ko‘tarib xaridorga uzatarkan. – Uyg‘otib qo‘ymang, qichqirib yuborsa, keyin bu xotinning ovoragarchiligini ko‘rasiz.

Xaridor o‘rovni avaylab ko‘tardi-da, bir zumda pristan-ga chiqayotgan olomon orasida g‘oyib bo‘ldi.

Paroxod inqillab, bo‘kirib va hushtak chalib pristan-

dan qo'zgalgach, o'z yo'liga qarab sekin suza boshlaganda ayol joyiga qaytib keldi. U yerda savdogar o'tirar, ammo bola yo'q edi.

– Nima?.. Nima?.. Qani u? – dedi u kutilmagan hodsadan esini yo'qotib.

– Lyusi, – dedi savdogar, – bolangni men olganman, shundaymi? Axir, uni sen baribir Janubga oborolmaysan, bu yerda esa qulay payt kelib qoldi: juda yaxshi bir oilaga sotdim, u yerda bolangni sendan ko'ra ancha yaxshiroq tarbiya qiladilar.

Dilning dardli va cheksiz umidsizlik bilan to'lgan ko'z qarashi, kamroq ish ko'rgan har bir kishini beixtiyor yerga qarab qo'yadi. Ammo Geli bunaqangi narsalarga allaqachon ko'nikib qolgan. U bunday qarashlarni yuz martalab ko'rgan. U, bu qorabandan kishilarga g'oyat qattiq azob chektirishni, nima qilishlarini bilmasdan o'z badanlarini chimchib-chimchib olishlarini o'z kasbining ajralmas qismi deb hisoblardi. Shuning uchun u: „Bu xumlar dodlab paroxodda janjal ko'tararmikan?“, deb og'irlik bilan o'ylana boshladi, chunki hamma savdogarlar kabi uning ham ortiqcha shovqinga aslo toqati yo'q edi.

Ayol dodlamadi. Zarba haddan ziyod kuchli bo'lgandi. U qattiq garang holda, o'likday qotib qolgan qo'llarini osiltirib o'tirdi. Ko'zi oldinga tikilgan-u, ammo hech nimani ko'rmasdi. Paroxodning shovqini, mashinaning bo'kirishi uning qulog'iga xuddi tushdagidek arang eshiltirdi. Yig'lab majaqlangan yurakning dardini bo'shatib olish uchun ko'zida yosh ham qurigan edi. Bunday qaraganda u mutlaqo xotirjam o'tirganday ko'rinardi.

O'z foydasinigina ko'zda tutgani holda, zohiran odamgarchilik qilishga urinayotgan savdogar, uni yupatmoqchi bo'lardi.

– Bilaman, Lyusi, bu avval juda og‘ir bo‘ladi, – derdi u. – lekin aqlli xotinsan, uzoq qayg‘urmassan deb o‘ylayman. Bu ish zarur ekanligini va boshqa iloj yo‘qligini bilasan.

– Kerakmas, xo‘jayin, kerakmas! – hansirab dedi u.

– Sen aqlli xotinsan, Lyusi, – deb davom etdi Geli. – Men senga yaxshilik istayman va Janubdan yaxshi joy topib beraman. Tez orada yangi er ham topasan. Senday chiroyli...

– Hoy xo‘jayin, yolvorib so‘rayman sizdan: qo‘ying, men bilan gaplashmang! – dedi ayol va uning ovozi qattiq qayg‘u-hasrat, achchiq musibat ohangi eshitildi, hatto qulfurush ham xijolat bo‘ldi: u yuz bergan bu voqeaning batamom boshqacha ekanligini va uning sinalgan usullari bu yerda mutlaqo ish bermay qo‘yganini fahmladi.

U ayol yonidan ketdi, ayol esa orqasini o‘girib, boshini plashiga o‘rab oldi.

Savdogar aylanib yurar, ahyon-ahyonda to‘xtab, unga qarab qo‘yardi, „Judayam qattiq qayg‘uryapti, zang‘ar, – deya o‘ylanib qoldi u, lekin janjal qilmay, tinch o‘tiribdi, shu ham yaxshi. Mayli, azoblanib olsin: asta-sekin bosilib qoladi“.

Tom nima voqea bo‘lganini ko‘rgan va hamma gapni anglagandi, u, ayolga yaqinroq kelib o‘tirdi va bir iloj qilib uni yupatishga urindi. Lekin ayol bunga javoban oh tortardi, xolos.

Son-sanoqsiz go‘zal yulduzlar yashnagan tip-tinch ulug‘vor tun ham keldi. Uzoqda eshitalayotgan quvnoq ovozlari birin-ketin so‘ndi. Hamma uxladi. Faqat paroxod tumshug‘i yonida to‘lqinning shildirashigina eshitalardi. Tom yashikka o‘tirdi. Sho‘rlik ayolning: „Endi nima qilay? Yo Rabbim! O‘zing yordam ber!“ degan pichir-pichir ovozlari o‘qtin-o‘qtin eshitalardi.

Keyin bu pichirlashlar ham tinib qoldi.

Yarim kechasi Tom birdan uyg'onib ketdi. Birovning qorasi uning oldidan tez o'tib, paroxodning yon chekkasiga yugurib ketdi. Shundan keyin Tom suvning chayqalgan ovozi eshitdi. Hech kim bir narsa ko'rmadi. U boshini ko'tardi – ayol o'tirgan joy bo'sh edi. O'rnidan irg'ib turib, uni izlab ko'rdi, ammo topolmadi!

Savdogar ertalab barvaqt uyg'ondi va kayfi chog' holda o'zining jonli moliga qaragani chiqdi. Endi hayratlanish navbati unga keldi.

– Savil qolgur, bu xotin qani? – deb so'radi u Tomdan.

Hamma narsani ichda saqlash afzalroq ekanligini tajribadan bilgan Tom, o'z gumonini izhor etmaslikka qaror qildi va „Hech nima bilmayman“, deb javob berdi.

– Kechasi biror joyda sohilga tushib qolishi mumkinmas, Paroxod to'xtaganda uxlamay poylab o'tirganman. Bunday ishlarni men hech kimga ishonmayman.

Bu so'zlarning hammasini u Tomga qarab aytdi. Chunki u Tomming to'liq xayrixohligiga ishonardi. Tom esa indamay, jim turaverdi.

Savdogar paroxodni u boshidan bu boshigacha axtarib chiqdi. Yashiklar, toypaxtalar, bochkalar orasini, mashinalar atrofini, quvurlar yonini, xullas, hamma joyni ko'zdan kechirdi, ammo topolmadi.

– Qani, Tom, ayt, – dedi uzoq va natijasiz izlashlardan keyin Tomning oldiga kelib, – bu to'g'rida biror nima bilasanmi? Yashirma, aminmanki, sen bilasan. Bu yerda yotganini soat o'nda, keyin o'n ikkida, keyin bir bilan ikkining orasida ko'rgandim. Soat to'rtida g'oyib bo'libdi. Sen esa shu yerda uxladang. Yo'q, bilasan sen, tonma.

– Mening bilganim shu, xo'jayin, – dedi Tom, – saharga yaqin bir narsa mening yonimdan yugurib

o'tgandek bo'ldi, men uyg'ondim. Keyin suvning qattiq chayqalganini eshitdim, qarasam, xotin yo'q! Mening bilganim shu.

Savdogar cho'chib ham tushmadi, taajjublanmadi ham. U har qanday kutilmagan hodisalarga o'rganib qolgandi, hatto dahshatli o'lim voqeasining ro'y berishi ham uni qo'rqitib, etini uchirolmasdi. U o'limni ko'p marta ko'rgan. O'zining kasbi soyasida u o'lim bilan yaqindan tanishib olgan, u, o'limga o'zining pul ishlariga juda beso'naqaylik qilib bosh suquvchi yovuz dushman deb qarardi. U avval so'kindi, so'ngra, „Mening omadim yurishmayapti! Bu safarda bir chaqa ham foyda qilmayman!“ degan xulosaga keldi. Lekin bu bilan u o'z ishini aslo tuzatolmadi, chunki ayol, qochoqlarni sira qaytib bermaydigan shtatga qochgandi.

G'ashlangan savdogar qo'liga yozuv daftarchasini olib o'tirdi-da, bedarak yo'qolgan tana va jonni „ziyonlar“ xonasiga yozib qo'ydi.

XIII BOB

Kvakerlar qishlog'i

Oldimizda keng va katta, pokiza bo'yalgan oshxonana. Sariq pol yog' tomsa yalagudek yaltiraydi. Top-toza oshxonana pechi, xayolga har xil laziz taomlarni soladigan yarqirab turgan mis idish-tovoq. Laklangan eski va mustahkam zangor yog'och kursilar, kichkina chayqalma kreslo, uning ustida – jun mato laxtaklaridan pevarlik bilan tikilgan yostiqlar. Uning yonida katta eski kreslo, uning keng dastalari kishini go'yo yumshoq yostiqlar ustiga o'tirib dam olishga chorlaganday bo'ladi.

Bu kreslodan tebranib, nozik chokdan ko'zini uzmas-

dan, bizning eski onamiz Eliza o'tiribdi. Balli, bu xotin o'sha, Eliza, o'zini oldirib qo'ygan va yuzida qoni qolmagan, uzun kipriklari ostida va chiroyli og'zining qatlari orasida yashirinib olgan sokin g'amginlik izlari ko'rinib turgan Eliza. Uning muloyim yuragi og'ir musibat zulmi ostida endi chiniqqandek ko'rinar edi. Shuning uchun tropik kapalagi kabi har tomonga pirpirab yurgan Garri-ga u goh-goh qarab, qo'y ko'zlarida allaqanday qat'iyat chaq nab ketardiki, bugungi baxtli kunlarda bunday xususiyatdan unda asar ham yo'q edi.

Uning yonida bir xotin o'tiribdi: u xotinning tizzasida katta mis jom, unga u diqqat bilan shaftoliqoqi solyapti. Bunday qaraganda u, ehtimol, ellik besh yoki oltmish yoshlardadir. Lekin uning yuzi shunday yuzlardanki, yoshi ulg'aygan sari unga husn kiraveradi: yumaloq, pushti, pishgan shaftoli kabi yuzining ba'zi joylarini mayingina tuk bosgan. Yoshi anchaga borgani tufayli biroz oq tushgan sochlar, keng hamda vazmin peshonadan orqaga taralgan. Katta ko'zlaridan rostgo'ylik va saxovat nur beradi. Bu ko'zlarga qaragan hamon, bu xotinning ko'ksida yaxshi va ehsonparvar yurak urayotganligini darhol payqab olasan kishi. Yosh qizlarning jamolini ko'p kuylaganlar, bas, shunday ekan, qari xotinlarning jamolini nega kuy-lamaslik kerak? Agar birov bu mavzudan orom olmoqchi bo'lsa, biz uni dilso'z do'stimiz Raxil Gollidey huzuriga yuboramiz. U o'tirgan kreslo, balki, yoshligida shamol-laganidan, balki, asabiy kasal bo'lganidanmi, ishqilib, qi-sirlar edi, u orqa-oldiga bir meyorda lapanglab shunday bir sado chiqarardiki, boshqa kreslo bunday sado chiqarsa chidab bo'lmas edi. Ammo kekxa Simson Gollidey „Bu sadolar menga musiqaday eshitiladi“, deb o'qtin-o'qtin aytib qo'yar, bolalar esa – onamiz o'tiradigan kresloning

g'ijir-g'ijiri biz uchun dunyoda hamma narsadan aziz“, deb e'tirof qilishar edi.

– Sen haliyam Kanadaga ketaman deb yuribsanmi, Eliza? – deb so'radi Raxil, shaftoliqoqilarni bamaylaxotir ko'zdan o'tkazarkan.

– Ha, xonim, – qat'iy dedi Eliza. – Men ketishim kerak. Bu yerda qololmayman.

– U yerda nima qilasan? O'ylab ko'r, qizim. Raxil Gol-lideyning „qizim“ degan bu xitobining tabiiy va samimiy-ligiga sabab shu bo'ldiki, uning o'ziga „ona“ so'zi quyib qo'yganday yarashib turardi. Elizaning qo'llarini qaltiroq bosdi va bir necha dona yosh tomchisi uning nozik choki-ga tom-di. Lekin u qat'iylik bilan javob berdi:

– Ro'para kelgan ishni qilaveraman, imonim komilki, menga loyiq biror ish topilib qolar.

– Axir, bu yerda istaganingcha turaversang bo'lishini bilasan-ku, – dedi Raxil.

– Tashakkur sizga! – dedi Eliza, – lekin, – deb u Gar-rini ko'rsatdi, – kechalari uxlamay chiqaman. Bu yerda qololmayman. O'tgan kecha tushimda o'sha odam bu hovliga kirib kelgan emish.

– Bechora bo'tam! – dedi Raxil. – Bunday tashvishla-naverma. Bizning qishlog'imizdan haligacha birorta qo-choqni ushlab ketishgan emas. Ishonamanki, seni ham ushlasholmaydi.

Eshik ochilib, ostonada yumaloq, kichkina xotin to'x-tadi. Uning yuzi pishgan olmadek qip-qizil edi. U Raxil singari soddagina kulrang ko'ylak kiygan, baland ko'ksi ustida doka durra yoziqlik edi.

– Ruf-Stedmen! – dedi Raxil, quvonib uni qarshilar va samimiy ravishda ikki qo'lini siqar ekan. – Qalaysan, Ruf?

– Juda yaxshi! – dedi Ruf, kichkina qora shlapasini boshidan olib, dastro‘molcha bilan uning changini qoqar ekan.

Momiqdek yumshoq qo‘llari yumaloq boshiga kiygan shlapachasini hadeb tuzatib turishiga qaramasdan, shlapacha to‘g‘ri turmas, g‘ayir kokillari esa to‘zib turardi. Ruf sochlarini yana joyiga yotqizish uchun kichkina ko‘zguna tomon o‘girildi va o‘zidan mamnun bo‘lganday bo‘ldi. Zotan, shu tobda har bir kimsa ham unga qarab mamnun bo‘lar edi. U yigirma besh yashar, sog‘lom, xushko‘ngil, kishi diliga quvonch baxsh etadigan qaqajon juvon edi.

– Ruf, bu bizning do‘stimiz Eliza Garris. Bu esa senga aytib bergan o‘sha bola bo‘ladi.

– Seni ko‘rganimdan xursandman, Eliza, juda xursandman! – dedi Ruf, go‘yo Eliza uning eski va ko‘p kundan buyon kutgan do‘sti bo‘lganidek qo‘lini siqib. – Bu sening bolangmi? Unga men pryanik olib keldim...

U bolaga yurak shaklida ishlangan pryanik uzatdi, Garris unga qo‘ng‘ir sochlari ostidan qaradi-da, qo‘rqib-pisib oldi.

– Sening kichkinang qani? – deb so‘radi Raxil.

– Hozir uni ko‘rasan. Eshikdan kirishim bilan Meri ko‘tardi-da, „Bolalarga ko‘rsataman“ deb omborga olib kirib ketdi.

Shu chog‘ eshik ochildi va onasi kabi shahloko‘z, qizilyuz qiz Meri, bo‘lmaga bolani olib kirdi.

– Ana! – dedi Raxil, bora solib kattakon va semiz oq chaqaloqni qo‘liga olarkan. – Muncha ham yaxshi bo‘lmasa! Juda katta bo‘lib qolibdi-ku!

– Bo‘lmasam-chi, – dedi kichkina, tek turmas Ruf. U, bolani qo‘liga oldi-da, boshidagi havorang shoyi tumoqni va ustidagi qavat-qavat liboslarni yecha boshladi.

Keyin u yoq-bu yog'ini qoqib, siltab tuzatdi-da, o'pib polga o'tirg'izdi. Bola, bunday muomalaga o'rganib qol-gandek ko'rinardi, chunki u barmog'ini og'ziga tiqdi-da, tezda o'z xayoliga sho'ng'ib ketdi. Ona o'tirdi, oq va ko'k yo'lli uzun paypoqni olib, ildam to'qiy boshladi.

– Meri, suv keltirsang juda soz bo'lardi, – dedi mayin ovoz bilan onasi.

Meri paqirchani olib quduqqa ketdi, tezda qaytdi-da, paqirchani o'tga qo'ydi. Hayal o'tmay paqirdagi suv biqirlab qaynay boshladi. Raxil sekin pichirlab qizga al-lanimani buyurgandi, Meri shaftoliquqi solingan jomni ham o't ustiga qo'ydi.

Bu vaqt ichida Raxil oppoq taxtani oldi va oldiga far-tuk tutib, biskvit qilishga kirishdi. Bu ish oldidan u yana Meriga qarab:

– Meri, agar sen Jonga „Tovuqni tezroq qovurar ekan-san“ deb aytasang, juda yaxshi bo'lar edi, deb qo'ydi.

Buni eshitishi bilanoq Meri ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Xo'sh, Abigayl Piters qalay? – deb so'radi Raxil, oshxamir hozirlar ekan.

– Picha durust, – dedi Ruf. – Bugun erta bilan men unikiga kirib, uyini supur-sidir qildim. Liya Xillas unikiga tushdan keyin borib, bir necha kunlik pirog bilan non qilib beradi, oqshom men borganimdan keyin Liya jo'naydi.

– Men esa ertaga borib, kirini yuvib, yirtiq-yamog'ini qilib beraman, – dedi Raxil.

– Juda yaxshi bo'ladi, – dedi Ruf. – Anna Stepuvd betob bo'lib qolibdi, deb eshitdim. O'tgan kecha u yerda Jon bo'lgan edi, men ertaga borishim kerak.

– Agar u yerda kuni bilan qolib ketishing lozim bo'lib qolsa, Jon bu yerga kelib ovqat qilishi mumkin, – dedi Raxil.

– Rahmat, Raxil. Ertaga ko'ramiz. Ana, Simeon ham keldi.

Qora kurtka va qora shim kiygan novcha Simeon Gollidey oshxonaga kirib keldi. U boshiga jiyagi enlik shlapa kiygan edi.

– Qalay, yaxshimisan? – deb muloyim so'radi u. Rufning momiqdek yumshoq, kichkina qo'lini katta qo'li bilan siqar ekan. – Jon qalay?

– Hammamizdek, Jon ham salomat, – tetik javob berdi u.

– Yangilik yo'qmi, ota? – deb so'radi Raxil, pechga biskvitni qo'ya turib.

– Menga Piter Stebbins: „Kechasi senikiga do'stlarim bilan boramiz“, dedi, – toza obtobada qo'lini yuvarkan, ma'nodor qilib dedi Simeon...

– Shunaqami! – dedi Raxil va xayolsirab Elizaga qarab qo'ydi.

– Sen menga „famiyam – Garris“ deganmiding? – deb so'radi Simeon Elizadan.

Eliza titrab-qaqshab „Ha“ deb javob berganda, Raxil tez eriga qarab qo'ydi, Eliza yuragi yorilgudek bo'lib: „Men to'g'rimda bildirish chiqarilgan shekilli“, deb o'yladi.

– Ona, bu yoqqa qara! – dedi Simeon, Raxilni orqadagi bo'lmaga chaqirib.

– Nima deysan, ota? – dedi Raxil, bo'lmaga kirgach, un yuqi qo'lini artarkan.

– Uning eri qishlog'imizda va bugun kechasi biznikida bo'ladi, – dedi Simeon.

– Rosti bilan-a, ota? – dedi Raxil va sevinganidan yuzi yorishib ketdi.

– Rost. Piter kecha furgonda, avvaldan kelishilib qo'yilgan joyga borib bir kampir bilan ikki erkakni ko'ribdi.

Ulardan biri „Mening ismim Jorj Garris bo‘ladi“, debdi. O‘zi haqida aytgan gaplariga qaraganda ham, bu odam uning eri bo‘lsa kerak, degan qarorga keldim. Xushchaqchaq va chiroyli yigit ekan. Elizaga buni ayt sakmi-kan? – deb so‘radi Simeon.

– Ruf nima desa o‘shanga qarab ish tutaylik, – deb taklif qildi Raxil, – Ruf, bu yoqqa kel.

Ruf chokini qo‘yib, ular oldiga kirdi.

– Ruf, mana bu narsa to‘g‘risida sen nima deb o‘ylaysan? – dedi Raxil. – Ota „Shu bugun kechasi bu yerga Elizaning eri keladi“, deyapti.

Kichkina kvaker ayolning behad quvonchi Raxilning so‘zini to‘xtatib qo‘ydi. Ruf sevinganidan sakrab chapak chala boshladiki, uning g‘ayir kokillaridan ikki tolasi shlapachasi ostidan chiqib, oq durra ustiga tushdi.

– Sekinroq, azizim, – dedi muloyimlik bilan Raxil. – Sekinroq, Ruf. Qanday o‘ylaysan, unga hozir bu to‘g‘rida aytaylikmi?

– Albatta, hozir aytish kerak! O‘ylab ko‘ring axir: agar bu odam o‘rnida mening erim bo‘lganda, o‘zimni qanday his etar edim? Albatta, unga aytingiz, – deb u, qo‘lini Raxilning yelkasiga qo‘ydi. Uni yotoqxonaga olib kirib, u yerda ayting, to siz unga aytguningizcha men tovuqni pishirib qo‘yaman.

Raxil, Eliza chok tikib o‘tirgan oshxonaga kirdi va kichkina yotoqxonaga eshigini ochib, muloyimlik bilan dedi:

– Bu yoqqa, oldimga kel-chi, qizim. Senga aytadigan ba‘zi bir yangi xabarlarim bor.

Elizaning bo‘zraygan yuzlariga qon yugurdi. U asabiy-
lashgan holda titrab o‘rnidan turdi-da, bolaga qarab qo‘ydi.

– Yo‘q, yo‘q, – dedi kichkina Ruf, uning yoniga kelib qo‘lidan ushlar ekan, – qo‘rqma. Xushxabar aytmoqchi-
man, Eliza. Kiraver.

Shunday deb, Elizani ohista itardi-da, ichkariga olib kirib, eshikni yopdi. Keyin yoniga qayrilib, kichkina Gar-richani ko'tardi-da, o'pa boshladi.

– Tezda otangni ko'rasan, qo'zichog'im! Otangni bila-sanmi? Otang shu yerda, – deb qayta-qayta takrorlar, bola esa hayron bo'lib unga boqar edi.

Bu vaqt esa eshik orqasida boshqa bir hodisa yuz be-rayotgan edi. Raxil Gollidey Elizani yoniga tortib, dedi:

– Qizim, ering qullikdan qutulibdi.

Elizaning yuragiga to'satdan qon quyildi. U rangi bo'zraygan va madorsizlangan holda kursiga cho'kdi.

– Tetik bo'l, bolam! – dedi Raxil qo'lini uning boshiga qo'yib, – ering do'st-yoronlar orasida va ular uni bugun kechasi bu yerga olib kelishadi.

– Bugun kechasi-ya! Shu bugun kechasi-ya! – deb takrorladi Eliza.

Uning uchun so'zlar asl ma'nosini yo'qotgandi. Bosh-ni chigal o'ylar bosgan, hamma narsa tumanga o'ralgandi.

Hushiga kelgach Eliza shu ahvolni ko'rdi: u odeyalga o'ralib, karavotda yotar, kichkina Ruf esa uning qo'lini kamfora bilan ishqar edi. U allaqanday lazzat, mador-sizlik his etib ko'zini ochdi. Qochgan daqiqadan bosh-lab unda hech bir bo'shshmagan asabiy hayajon endi bosilgan va qiziq bir osoyishtalik va xavfsizlik hissiyoti chulg'ab olgandi. U katta qora ko'zlarini ochib, mudrab yotar va atrofdagilarning qimirlashini tomosha qilardi. Qo'shni bo'lmaning eshigi ochiq. Ovqat stoli ustiga oppoq dasturxon solib qo'yilgan, qaynayotgan choynakning sharaqlashi eshilib turibdi, pirog hamda murabbo solin-gan tovoqchalarni ko'tarib u yoqdan bu yoqqa yugurib yurgan Ruf sal narsaga to'xtab, Garrining qo'liga pirog tutqazar yoki boshini silar, yoki uning kokiliga o'zining oppoq barmog'ini o'rar edi. U goh-goh choyshab yoki

odeyalni tuzatish uchun uning karavoti yoniga kelib turgan Raxilning yirik gavdasini ko'rardi. U Rufning eri kelgani-ni, Ruf uning yoniga yugurib kelib, qo'llarini qattiq-qattiq qimirlatib va Eliza yotgan xonani barmog'i bilan ko'rsa-tib, jiddiy yo'sinda allanimalar deb pichirlay boshlaganini ko'rdi. Rufning qo'lidagi bolasi bilan choy stoli yoniga kelib o'tirgani ham uning ko'ziga chalindi. U hammaning stol yoniga o'tirganini va kichkina Garrining Raxil qanoti ostida baland kursichada o'tirganini ham ko'rdi. Sekin-gina bo'layotgan suhbat ovozi choyqoshiqlarning mayin jaranglagani, piyola va likopchalarning musiqa singari jin-gillashi, xullas, ularning hammasi go'zal uyquga aralashib ketdi. Eliza shunday uxladiki, u bolasini bag'riga bosib, yulduzlar charaqlagan sovuq kechasi qochgan dahshatli daqiqadan buyon bunchalik shirin uxlamagan edi.

Uning tushiga ajoyib bir yurt – istirohat va osoyishtalik mamlakati kirdi. Yashil sohillar, go'zal orollar, yarqiragan suv va maysazor o'rtasida bir uy turibdi. Do'stona ovozl-ar: „Bu uy – seniki“ deyishar va u, bolasining – ozod va baxtli bolasining o'ynayotganini tomosha qilardi; u, eri-ning oyoq sharpasini eshitdi va uning yaqinlashib kelayot-ganini sezdi. Erining qo'li uning bo'ynidan quchoqlar, ko'zyoshlari uning ustiga tomar ekan, uyg'onib ketdi.

Bu – tush edi.

Kun yorug'i allaqachon so'ngan edi. Bola uning yoni-da tinch uxlar, tokchada sham xira nur berar, karavot to'ri-da esa yostiqaqa boshini tiqib eri ho'ngrab yig'lardi.

Kvakerlar uyida baxt sabohi boshlandi. Ona o'rmi-dan barvaqt turdi, uning „Yaxshisi sen bunday qilsang...“ yoki „Bunday qilsang yaxshi bo'lar edi...“ degan mulo-yim buyruqlarini bajaradigan o'g'il va qiz bolalari bilan o'ralishib, nonushta tayyorlash bilan vaqti o'tmoqda edi.

Negaki Indiana vodiysining bu ajoyib joylarida nonushta tayyorlash og'ir va murakkab ish bo'lib, u anchagina vaqt ham mehnat talab qiladi. Jon, buloqqa suvga borib kelguncha, kichik Simeon mans pirog uchun un elab bo'lguncha, Meri esa qahva tuyib olguncha, Raxil bamaylixotir biskvit hozirlar, jo'ja tozalar, atrofiga esa quyosh nur sochar edi. Yosh dastyorlarning haddan ziyod g'ayratlaridan biror ishga ziyon yetishini ko'rib qolganda esa muloyimlik bilan „Sekin-sekin!“ yoki „Men bunday bo'lishni istamasdim...“ derdi, ularning to'lib-toshgan g'ayratlarini bosish uchun esa shu kifoya qilardi.

Bu hozirgarliklar borarkan, katta Simeon burchakda kichkina ko'zgu oldida o'tirib soqol olardi. Katta oshxonada hamma ish g'oyat ahillik bilan, bir-biriga qovushgan holda olib borilardi. Hamma shunday hafsala bilan ishlar va hamma yerda do'stona muhabbat hukm surardi, hatto sanchqi bilan pichoqlarni stolga qo'yganda, ular ham salomlashgandek jiringlab sado berishardi. Jo'jalar va cho'chqa go'shti tovada shunday jizillardiki, go'yo o'zlarini qovurishayotgani uchun sevinayotgandek edi.

Jorj, Eliza va Garri o'z xonalaridan chiqishganda, ular xursandlik bilan samimiy qarshi olindi, bu ularga xuddi tushdek ko'rindi.

Nihoyat, hammalari stol tevaragiga o'tirishdi. Bu chog' Meri plita oldida pirojka qovurar, ularning beti til-larang bo'lib qizarganda stolga uzatib turardi.

Raxil o'zini hech qachon bunday baxtli his etmagan-di. Hatto tovoqlarga pirog solib taratganda va piyolalarga qahva quyganda ham undan onalarga xos mehribonlik va samimiyat zohir bo'lib turardi.

Jorj umrida birinchi marta oqbadan kishilar bilan teng huquqli odam sifatida bir stol atrofida o'tirardi. U avval

uyalinqiradi va o'zini o'ng'aysiz his etdi. Lekin asta-sekin bu hissiyot uy egalarning samimiyati ostida tumandek tarqalib ketdi.

– Ota, mabodo yana qo'lga tushib qolsangiz nima bo'ladi? – deb so'radi kichik Simeon, pirogga yog' surtarkan.

– Shtrafini to'layman qo'yaman-da, – deb bamayli-xotir javob berdi Simeon.

– Agar turmaga o'tirg'izib qo'ysalar-chi?

– Bordi-yu meni turmaga o'tirg'izib qo'ysalar, sizlar fermani onalaring bilan sarishta qilib turolmaysizlarmi? – deb kulimsirab so'radi Simeon.

– Onamiz deyarli hamma ishni qilaveradiku-ya, – deb javob berdi bola.

– Azizim ser, bizni deb sizning joningiz xavf-xatar ostiga tushib qolmaydimi? – deya tashvishlanib so'radi Jorj.

– Hech qo'rqma, Jorj, dunyoda yashashdan maqsadimiz haq ish uchun jonimizni fido qilishdir. Aks holda biz o'z nomimizga munosib bo'lmasdik.

– Ammo meni deb joningizni xavfda qoldirishingiz – chin! Men bunga chidab turolmayman, – dedi Jorj.

– Qo'rqma, do'stim Jorj. Biz bu ishni sen uchun qilganimiz yo'q, biz buni Xudo va inson uchun qilamiz, – dedi Simeon, – Sen kunduzi bu yerda bamayli-xotir tura olasan, kechasi soat o'nlarda Filevs Fletcher seni hamrohlaring bilan birga nariroqqa eltib qo'yadi. Ta'qibchilar uzoqda emas, ular seni tinch qo'yishmaydi. Vaqtni behuda o'tkazmaslik kerak.

– Unday bo'lsa kechgacha kutishning nima keragi bor? – deb so'radi Jorj.

– Bu yerda sen kunduzi xavf-xatardan xolisan, chunki atrofingda do'stlar bor va ular uyg'oq. Safar uchun xatarsiz payt esa kechasidir.

XIV BOB

Yevangelina

Juda ko'p yuk ortilgan paroxod daryoning quyi tomoniga suzib borardi. Palubalarga ko'pgina plantatsiyalarning hosili bo'lmish toypaxtalar shu qadar ko'p ortilgan ediki, paroxod uzoqdan katta kulrang xarsangtoshga o'xshab ko'rinardi. Agar biz yuvosh do'stimiz Tomni topmoqchi bo'lsak, paroxodning tiqilib ketgan palubalarida ancha vaqt aylanib yurishga to'g'ri kelardi. U baland joyda, yuqori palubada, toypaxtalar orasida bir burchakda o'tirardi.

Qisman mister Shelbining maqtovi, qisman Tomning beozor va yuvosh fe'lini pirovardida sezganligi tufayli, ashaddiy qulfurush bo'lishiga qaramay, Gelinging o'zi ham Tomga to'la ishonch bilan qaray boshladi.

U avval Tomni ertadan kechgacha ko'z o'ngidan nari-latmas, kechalari esa kishanni yechtirmasdi. Ammo Tomning haddan ziyod chidamliligini ko'rib, unga nisbatan asta-sekin tuzukroq muomala qila boshladi va birmuncha vaqtdan keyin, uning labziga ishonib, paroxodda erkin yurishga imkon berdi.

Har vaqt yuvosh, mo'min va xizmatga tayyor Tom, do'ppi tor kelib qolgan mahallardagina hammollarga ham ko'maklashardi. Hammollar uni hurmatlardilar, chunki u burun Kentukkida fermada qanday jonbozlik ko'rsatib ishlagan bo'lsa, ularga ham shunday g'ayrat bilan yordam berardi. Qiladigan ish qolmagach, yuqori palubaga, paxta toylari orasidagi burchakka chiqib olib, o'z injilini mutolaa qilishga kirishardi.

Yangi Orleandan yuz milcha narida, daryo suvi tabiiy qirg'oqlardan ancha baland ko'tarilganidan, daryo yigir-

ma fut balandlikdagi yasama sohillar orasidan oqib o'tadi. Xuddi suvda suzayotgani qasrdek paroxodning yuqori palubasida turgan sayyoh atrofdagi bir necha mil joyni bemalol tomosha qilolardi. Tomning ko'z o'ngida plantatsiyalar dasturxon kabi yoyilib yotar, u o'zini kutib turgan yangi hayotni ravshan tasavvur eta olardi.

Tom palubadan turib qullarning ishlashini, ularning ko'pgina plantatsiyalardagi qator-qator bostirmachalarini yiroqdan ko'rardi. Bu bostirmalar plantatsiya egalari-ning hashamatli parklari va dang'illama uylaridan ancha narida edi. Bu manzaralar ko'z o'ngidan o'tarkan, uning aqlga bo'ysunmaydigan bechora yuragi orqaga – Kentukkiga, qari chinorlar ko'lanka solmish fermaga, begoniyaga o'ralmish o'z kulbasiga tomon undardi. Uning ko'ziga yoshligidan birga o'sgan do'stlari ko'rinardi: u shu tobda kechki ovqat pishirish bilan band bo'lgan xotini – Xloya xolani ko'rardi. Bolalarining quvnoq kulgisini, tizzadan tushmas qizchasining chug'urlashini eshitgandek bo'lardi...

Keyin to'satdan bularning hammasi ko'zdan g'oyib bo'lar va u yana atakarpovalarni, sarv daraxtlarini, plantatsiyalarni ko'rar, yana paroxod mashinalarining pishqirishini eshitar va bular hammasi hayotidagi haligi davrning abadiy o'tib ketganligidan darak berib turardi.

Agar siz mana shunday ahvolga tushsangiz, xotiningizga xat yozardingiz, bolalaringizga xabar yuborardingiz, ammo Tom xat yozishni bilmas, pochta bilan mullaqo ishi yo'q va judolik jarligi ustidan hech qanday ko'prik solib o'tolmasdi.

Tom toypaxta ustida yotib, injilni hijjalab o'qirkan, uning sahifalari ustiga ozmuncha ko'zyoshi to'kmadi. Kitobni sekin o'qishiga taajjublanmasa bo'ladi: u o'qishni

yoshi anchaga borganda o'rgangan, shuning uchun tez o'qiyolmas va oyatdan oyatga sekin o'tardi.

Paroxoddagi musofirlar orasida Sen-Kler degan badavlat va atoqli jentelmen bo'lib, u yangi Orleanda yashardi. Sen-Kler bilan birga qizchasi ham borardi: besh yoki olti yashar bu qizcha bir xonimning nazoratida bo'lib, u xonim esa Sen-Klarga qarindosh ko'rinardi.

Qizcha Tom oldida tez-tez paydo bo'lardi. U yozgi shabada yoki quyosh nuri kabi bir joyda turmas, besaranjom edi. Uni bir marta ko'rgan odam hech unutmadi.

Qizcha g'oyatda chiroyli bo'lib, ko'pincha bolalarga xos bo'lgan semizlik va beso'naqaylikdan unda asar ham yo'q edi. Uning bejirim, kelishgan qaddi-qomati har kimning zavqini oshirardi. Uning yuz go'zalligidan ko'ra ham, chuqur xayol suruvchanligi kishini ko'proq hayratda qoldirardi. Uning jonon boshchasini xuddi bulutdek o'rab turgan oltinrang – qizg'ish uzun sochlari, uzun kipriklar ostidagi firuza ko'zlarining chuqur va ma'nodor jiddiy boqishi – bu fazilatlar uni boshqa bolalardan ajratib turar va paroxodda pirpirab yurganda har bir kishini qayrilib qarashga majbur etardi.

Uning otasi va unga murabbiyalik qilayotgan xotin doim uning orqasidan yugurish bilan ovora edilar: U esa yozgi bulutcha kabi ularga tutqich bermadi. U nimaki qilmasin, otasidan va murabbiyasidan hech qanday gap eshitmasligini yaxshi bilganidan, paroxodning u boshidan bu boshiga chopgani-chopgan edi. U hamma vaqt oq ko'ylak kiyar va farishtadek har yerda yugurib yurardi; unga chang-g'ubor hech yuqmasdi. Na yuqorida va na pastda bu chiroyli qizchanning oyoqchasi tegmagan va go'zal orzu kabi oltinrang boshchasi ko'rinmagan joy qolmadi.

U goho paroxodning o'txonasidagi katta o'choq yoniga kelib, unda mavj urib yonayotgan olovga qarab va o'zining og'ir mehnati bilan mashg'ul go'laxning ko'zi uning taajjublangan ko'ziga tushib qolardi. U go'yo go'laxni dahshatli xavf ostida qolgandek fahmlab, unga yuragi yorilgudek termilib turardi. Ba'zida paroxod rulchisi g'ildirakni to'xtatib, o'z xonachasining derazasida qizchaning aks etib turgan go'zal yuziga kulimsirab qarardi. U o'tib borarkan, g'oyat badqovoq kishilar ham irjayib, qovoqlarini ko'tarardilar. U, xatarliroq joylarga qo'rqmasdan chopib kelganda esa qorakuya tekkan qattiq qo'llar uni saqlash uchun ixtiyorsiz cho'zilardi.

Tom negrlarga xos halim tabiatli, ta'sirga beriluvchan kishi edi. U qizchaga zavqlanib qarar va bu zavq kundan kun kuchayardi.

Qizcha Gelingning kishanlangan er va ayol qullari o'tirgan joydan o'ksinib tez-tez o'tib turardi. Qizcha ularning yoniga borar va bu odamlarning nima uchun kishanlanganini tushunmasdan, g'am-g'ussaga to'lib-toshgan ko'zlari bilan ularga termilib qarardi: goho nozik qo'lchalari bilan ularning kishanlarini ko'tarardi-da, ma'yusona xo'rsinib, qayoqqadir yugurib ketardi. Birmuncha vaqtdan keyin ikki qo'li to'la shirinlik, yong'oq va apelsin ko'targan holda tuyqusdan ularning orasida paydo bo'lib qolar va qo'lidagi narsalarni negrlarga ulashib, yana qochib ketardi.

Tom bu qizcha bilan tanishishga jur'at etishdan ilgari, uning harakatlariga ancha vaqtgacha qarab bordi. U bolalarni qanday qilib o'ziga jalb etishni bilganligi tufayli, bu ishga ustalik bilan kirishdi. U olcha novdasidan o'rib, juda boplab mayda savatcha ishlar, yong'oqdan og'zi irjayib turgan kallachalar yasar, qandolat mag'zidan sapchimalar qilar, turli-tuman hushtaklar yasashda esa juda usta

edi. Uning cho'ntagi yosh bolalarni qiziqtiradigan har xil narsalarga to'la bo'lib, ilgari bunday narsalarni u, xo'jayinining bolalari uchun saqlardi. Ana shunday o'yinchoqlar vositasi bilan u endi bu qizcha bilan ehtiyot bo'lib, asta-sekin oshnachilik boshlamoqchi bo'ldi.

Qizcha begonalik qilganligi sababli uni o'rgatish oson bo'lmadi. Boshda u xuddi sa'vadek yaqin-o'rtadagi yashiklarning birortasiga o'tirar va Tomning qo'lidan shu yerining o'zidayoq tayyorlangan narsalarni uyalinqirab olardi. Mana shunday qilib ular, pirovardi, do'st bo'lishdi.

– Kichkina qizning ismi nima? – deb so'radi Tom.

– Yevangelina Sen-Kler, – dedi qizcha. – Lekin dadam va boshqalar meni Yeva deb chaqirishadi. Sening isming nima?

– Mening ismim Tom. U yoqda – Kentukkida kichkina bolalar meni Tom tog'a deb chaqirishardi.

– Unday bo'lsa men ham seni Tom tog'a deb chaqiraman, seni yaxshi ko'rib qoldim, – dedi Yeva. – Qayerga ketyapsan, Tom tog'a?

– Bilmayman, Yevaxon.

– Bilmaysanmi? – deb hayron bo'ldi Yeva.

– Bilmayman. Meni birorta odamga sotishadi. Kim olishini bilmayman.

– Mening dadam seni oladi, – shoshilib dedi Yeva. – Agar dadam olsa senga yaxshi bo'ladi. Men bugunoq dadamga aytib seni oldiraman.

– Tashakkur sizga, kichkina bekacham, – dedi Tom.

Paroxod o'tin olmoq uchun kichkina pristanda to'xtadi. Yeva otasining tovushini eshitib, shoshilganча yugurib ketdi. Tom o'rnidan turdi-da, hammollarga qarashgani jo'nadi va darhol ishga kirishdi.

Yeva otasi bilan panjara yonida turib, paroxodning pristandan uzoqlashayotganini tomosha qilardi. G'ildirak

suvda endi ikki-uch marta aylangandi. Qattiq silkinish natijasida qizcha mezonni yo'qotib, bir zumda suvga tushib ketdi. Otasi qilayotgan ishini chandon anglamasdan, uning orqasidan o'zini tashlamoqchi edi, orqada turgan kishilar uni ushlab qolishdi, chunki bolaga yaxshiroq yordam ko'rsatilajakligi o'sha ondayoq hammaga ravshan bo'lib qoldi.

Qizcha paroxoddan tushib ketganda, Tom quyi palubada bort yonida turardi. U qizchani suvga tushib ko'zdan yo'qolganini ko'rgan hamon o'zini suvga tashladi. Barvasta va baquvvat Tom uchun qizcha suv betiga chiqquncha suvda suzib turish hech gap emasdi. U qizchani ushlab, paroxod yoniga suzib keldi. Shu zahotiy oq qizchani ko'tarib olish uchun yuzlarcha qo'llar cho'zildi. Bir soniyadan keyin otasi suvga pishilgan va o'zidan ketib qolgan qizchasini qo'lga ko'tarib oldi-da, xotinlar kayutasiga olib kirib ketdi. Bunday hodisa ro'y berganda, odatda, xotinlar atayin tartibsizlik yuzaga keltirish uchun zo'r berib ivirsiy boshlaydilar, ular bu safar ham shunday ivirsib, qizchani hushiga kelishiga xalal berardilar.

Ertasi kuni paroxod Yangi Orleanga yaqinlasha boshladi. Quyosh g'oyat qizigan, havo dim edi. Paroxodda odatdagicha besaranjomlik hukm surardi. Musofirlar kayutalarda narsalarini yig'ishtirishib, sohilga chiqishga tayyorlanishardi. Malaylar va xodima qiz-juvonlar kemani tozalashar, qirishar, supurishar, katta shaharga kelishga hozirlik ko'rishib, kemaga ko'rkam tus berishardi.

Quyi palubada qo'lini qovushtirib do'stimiz Tom o'tirar va paroxodning narigi burchida to'planib turgan odamlarga o'qtin-o'qtin tashvishlanib qarab qo'yardi.

U yerda go'zal Yevangelina turardi. Uning yuzi kechagiga qaraganda sal oqargandek ko'rimsa ham, kechagi hodisadan uning yuzida bundan boshqa hech asar qolmagan-

di. Juda olifto bir yigit uning yonida toypaxtaga suyanib turardi. Uning oldida ochiq hamyoni yotardi. Birinchi qarashdayoq bu kishi Yevaning otasi ekanligi bilinib turardi: o'sha oliyjanob shaklli bosh, o'sha katta firuza ko'z-u, o'sha oltinrang-qizg'ish soch. Ammo chehrasi mutlaqo boshqacha edi. Yevaning ko'z qarashidagi chuqur xayol surish alomatlarining aksicha, u, kishiga ravshan, tetik va quvnoq boqardi. Uning kelishgan, chiroyli og'zi bir narsani mazaxlagandek g'ururli kulimsirar, nozik qomatining erkin harakatlarida boshqalardan o'zining afzalligini anglaganlik tushunchasi bilinib turardi. U o'z molining fazilatlarini haqida mahmadanalik qilayotgan Gelinging so'zlarini iltifotsizgina, yarim hazil-yarim nafratli kayfiyatda tinglab turardi.

– Xullas, xristian dinining nimaiki fazilatlarini bo'lsa, bari shu qora teri ostiga joylangan deng! – dedi Yevaning otasi, Geli o'z so'zini tamomlagach. – Xo'p, og'ayni. Xo'sh, Kentukkida, aytishlaricha, mendan qancha shilib olmoqchisiz endi? Xullas, uni qanchaga pul qilmoqchisiz? Meni qanchaga tushirmoqchisiz? Bu ishni tezroq bitiraylik.

– Nima bo'lardi, – dedi Geli, – agar uning uchun men bir ming uch yuz dollar so'rasam, hech qanaqa foyda qilmagan bo'laman. O'lay agar, bir chaqa ham foyda qilmayman.

– Bechora, – dedi yigit. Geliga ziyarak firuza ko'zlarini tikib, mazax bilan boshdan oyog'iga qararkan. – Demak, siz meni ayrim hurmat qilganingiz uchun, uni o'zingiz olgan bahoga menga bermoqchisiz, shundaymi?

– Albatta. Buning ustiga yosh bekach ham Tomdan juda xursand ekanlar.

– Sizni beg'araz bo'lishga majbur etayotgan narsa shumi, do'stim? Xo'sh, agar siz shunday saxovatli bo'lsa-

ngiz, Tomdan g'oyat xursand bo'lmish yosh bekachning ko'nglini olish uchun qancha tushasiz?

– O'zingiz o'ylab ko'ring axir, – dedi savdogar. – Unga bir qarang: barvasta, otdak baquvvat. Kallasiga qarang: uning qobiliyatli va farosatli negr ekanligini do'ng peshonasi ravshan ko'rsatib turibdi. Bunday barvasta negrni, mabodo tentak bo'lgan chog'ida ham so'zsiz shu narxga oladilar. Ammo yana bir marta aytamanki, u juda qobiliyatli, aqlli yigit. Axir, qobiliyat bilan aqlning ham qiymati bordir. O'zingiz o'ylang: u fermada xo'jayinining hamma ishini yolg'iz o'zi yurgizardi. U shunaqa ishlarga juda uddaburro, qobiliyatli kishi.

– Ana shunisi yomon, shunisi juda yomon-da! – dedi yigit, hamon boyagicha mazaxlab kulimsirab. – Mana shundan yomoni yo'q. Aqlli negrlar doim qochadi, ot o'g'ir-laydi, bemazagarchilik qilishadi. Menimcha, siz uning aqli uchun ikki yuz dollar kamaytirishingiz kerak.

– Agar u bunday axloqli va xushfe'l bo'lmaganda, narxini sal-pal kamaytirsang bo'lardi-yu, shoshmang, men hozir sizga uning xo'jayini bilan boshqa kishilar tomonidan berilgan tavsiyanomalarni ko'rsataman, keyin siz uning naqadar taqvodor, yuvosh va sodiq ekanligini bilasiz. U joylarda Tomni „maddoh“ deyishardi.

– Demak, u buning ustiga xonaki domlalikka ham yaraydi deng! – deb qo'ydi yigit. – Xayr, bunisi yomonmas: bizning uyimizda din juda kamchil mol... Qani, qog'ozlaringizni ko'rsating!

Agar savdogar yigitning katta firuza ko'zlarining quvnoq yashnashiga qarab, boshlangan bu ishning naqd pul bilan tugashini bilmaganda edi, allaqachon toqatini yo'qotgan bo'lardi. U o'zining kir hamyonini oldi-da, sinchiklab tita boshladi: yigit esa beparvolik va mazax bilan unga qarab turardi.

– Dada! Uni olasiz! Bahosi qancha bo'lmasin, bari-birmasmi? – deb muloyim pichirladi Yeva, toypaxtaga o'rmlab chiqqach, otasining bo'ynidan quchoqlab. – Pulingiz yetadi, bilaman. U menga juda kerak, juda.

– Nimaga kerak, jonginam? Uni qo'lingga olib shaqildoq qilib o'ynaysanmi? Yoki yog'och ot qilib minasanmi?

– Men uning baxtiyor bo'lishini istayman.

– G'alati sabab, azbaroyi Xudo!

Bu chog' savdogar unga mister Shelbi qo'l qo'ygan qog'ozni uzatdi. Yigit uzun barmoqlarining uchi bilan qog'ozni olib, e'tiborsizgina o'qib chiqdi.

– Jentelmen qo'li bilan yozilgani ko'rinib turibdi, – dedi u, – birorta ham imlo xatosi yo'q. Mana, pulingizni sanab oling, chol, – dedi u, savdogarga bir to'p qog'oz pul uzatarkan.

– To'g'ri, – dedi Geli va sevinganidan basharasi yashnab ketdi.

U eski davotni oldi-da, oldi-sotdi hujjatini rasmiylashtirib, yigitga uzatdi.

– Qiziq, – dedi Sen-Kler, hujjatga ko'z yugurtirib chiqib, – menga qancha narx qo'yadingiz? Kallamning shakliga, do'ng peshonamga, qo'l va oyog'imga, ma'lumotim, layoqatim va taqvodorligim uchun necha pul berardigiz?.. Lekin, yur, ketdik, Yeva.

U qizning qo'lidan ushlab Tomning yoniga keldi va barmoqlarining uchi bilan uning iyagini e'tiborsiz ko'tardi-da, mazax bilan dedi:

– Menga qara, Tom, yangi xo'jayining senga ma'qulmi?

Tom boshini ko'tardi: yigitning go'zal, shavqli va quvnoq yuziga qarab kishi rohat qilardi. Tomning ko'zidan jiq-jiq yosh oqa boshladi. U ta'sirlanib, dedi:

– Xudo yorlaqasin sizni, xo'jayin!

– Ishonamanki, Xudo meni yorlaqar. Isming nima? Tommi? Aravaga ot qo‘shish va haydashni bilasanmi?

– Ot tagida katta bo‘lganman, – dedi Tom. – Mister Shelbining otlari juda ko‘p edi.

– Yaxshi, bo‘lmasa seni kucherlikka qo‘yaman, lekin bir shart bilan: haftada bir martadan ortiq ichmaysan.

Xo‘jayinning bu gapi Tomga qattiq ta‘sir qildi va taajublantirdi.

– Men hech ichmayman, xo‘jayin, – dedi u.

– Bunaqa ertaklarni ko‘p eshitganman, Tom! Lekin ko‘ramiz. Agar gaping rost bo‘lsa, bu katta omad bo‘ladi. Xafa bo‘lma, – dedi u xushko‘ngillik bilan, Tomning ma‘yusligini ko‘rib. – Sen o‘zingni chindan ham yaxshi tutarsan, deb o‘ylayman.

– Shunday, xo‘jayin. – dedi Tom.

– Biznikida turmushing yaxshi bo‘ladi, – dedi Yeva. – Dadam hamma vaqt har narsaga kulaversa ham, lekin o‘zi juda yaxshi.

– Bunday tavsiyang uchun dadang sendan juda minnatdor, – dedi Sen-Kler va orqasiga qayrilib jo‘nadi.

XV BOB

Tomning yangi xo‘jayini va boshqa turli narsalar haqida

...Ogyusten Sen-Kler Luizianadagi badavlat plantatorning o‘g‘li edi. Asli kanadalik. Akasi Vermontdagi obod fermalardan biriga joylashdi, fe‘l-atvori jihatidan akasiga g‘oyat o‘xshagan ukasiga esa Luizianadagi boy plantatsiya tegdi. Ogyustenning onasi gugenot mazhabidagi fransuz ayollardan bo‘lib, uning ota-bobolari Luizianaga hijrat qilishgandi. Ogyusten va uning akasi ota-onaning

yolg'iz farzandlari edi. Ogyustenga onasidan nozik va zaif qad-qomat meros bo'lib tekkan, shuning uchun „Qattiq ob-havo sharoiti salomatligimni mustahkamlasa kerak“, degan umid bilan vrachlarning maslahatiga muvofiq Vermontdagi tog'asinikida ko'p yillar yashagandi.

U shimoliy shtatlardan birida oqila va go'zal bir qizni uchratib, uni yaxshi ko'rib qoldi va shu yerdayoq ularni fотиha qilishdi. U, nikoh oldidan o'z ishlarini saranjomlash uchun Janubga kelgandi. Shu kunlarda qayliqqa yozgan xatlari qaytib keldi va uning vasiyidan bu xatlar yoniga kichkina xat ilova qilingan. Ilova qog'ozda: „*Bu xat sizga yetib bormasdan, qaylig'ingiz boshqa erga tekkan bo'ladi*“, deyilgandi. Qattiq zarba yegan Ogyusten avval: „Zo'r berib, bu bevafo xotinni butunlay unutib yuboraman“, deb o'yladi. Yolvorish va sababini bilishga bo'yin egmaydigan, haddan ziyod takabbur bo'lganidan, yuqori tabaqa oilalari hayoti girdobiga o'zini tashladi va ularning eshigidan kelmay qo'ya qoldi. Dahshatli xat kelganidan ikki hafta o'tar-o'tmas u o'sha mavsumda ballarning piri bo'lmish bir jamilaning yagona xushtori bo'lib tanildi. Tez orada Ogyusten bu jamilaga uylandi va nozik qomat, bir juft shahlo ko'z va yuz ming dollar sepning qonuniy egasi bo'lib qoldi. Albatta, uni hamma: „Toleyi baland yigit ekan“, deb aytardi.

Kuyov va qayliq nikohdan keyingi birinchi farog'at oyni o'zlarining yaqin do'stlari orasida, Ponshartren ko'li bo'yidagi hashamatli qarshalarida o'tkaza boshladilar. Biroq shu kunlarda kuyov bir xat oldi. Xat, unutilmas o'sha qo'l bilan yozilgandi! Unga bu xatni mehmonga to'la xonada, xushchaqchaq va tagdor suhbat qizib turgan chog'da berishdi. U, tanish yozuvni ko'rib, oppoq oqarib ketdi, lekin shu ondayoq o'zini qo'lga oldi va qarshisi-

da o'tirgan bir xonim bilan hazilkashligini davom ettirdi. Bir necha daqiqadan keyin u mehmonlar yonidan turib, o'z bo'lmasiga kirib ketdi. U yerda tanho o'zi xatni ochib o'qidi: bu xat endi mutlaqo kerak emasdi. Bu xat ilgarigi qayliqdan bo'lib, qayliq o'z xatida vasiy uni o'z o'g'liga olib bermoqchi bo'lganini, shuning uchun uni qattiq ta'qib etganligini, ancha vaqtgacha Sen-Klarning xatlarini unga berishmaganini, u esa qayta-qayta xat yozaverib, undan javob olmay, qattiq azob chekkanini va pirovardi uning muhabbatiga shubha qila boshlaganini, g'am-g'ussa yuta berib kasal bo'lib qolganini va nihoyat firibgarlikning qanday ochilganini mufassal yozgandi. Xat Sen-Klarning unga sodiq ekanligiga ishonch, o'zining ham uni sevishiga iqrar bo'lish va bu – sevgining abadiy ekanligiga qasam ichish bilan tugagan ediki, bu esa yosh yigit uchun o'limdan ham qattiq edi. Sen-Kler darhol unga quyidagicha javob yozdi:

„Xatingizni... nihoyatda kechikib oldim. Men eshitganlarimga ishonib edim. Nima qilishimni bilmay, gangib qoldim. Uylandim, endi ikkimizning oramizdagi aloqa uzildi. Bir-birimizni unutishdan boshqa choramiz yo'q“.

Ogyusten Sen-Klarning muhabbat voqeasi shu bilan tugadi va hayot ideali barbod bo'ldi. Yarqiroq ko'k to'lqinlar bosilib, suv betida quvnoq suzib yurgan oppoq qordek yelkanli kemalar va qayiqalar ketganda, chayil-kuraklar va mayin kuylovchi suvlarning nag'masi tinganda quyun olib keladigan g'amgin yaydoq va shilimshiq ko'pik kabi chin voqelikning o'zginasi qoldi; boshqalari yo'qoldi, bitdi.

Odatda, romanlar shu bilan tugaydiki, yuragi poralangan kishi o'ladi. Roman uchun o'ng'ayi ham shu. Lekin turmushda esa, o'sha turmushimizni bezatib turgan hamma narsa yo'qolib ketgan bo'lsa ham, biz o'lmay-

miz. Yeymiz, ichamiz, kiyinamiz, o'ynaymiz, mehmonga boramiz, olamiz, sotamiz, so'zlashamiz, o'qiymiz va bularning hammasida, odatda, turmush degan narsa kelib chiqadi. Ogyusten uchun endi faqat ana shuning o'zi qoldi. Agar uning xotini chinakam xotin bo'lganda edi, uzilgan hayot ipini ulay olar va undan juda yaxshi yangi mato to'qigan bo'lardi. Lekin Mari Sen-Kler hatto bu iplarning uzilganini ham payqamadi. Uning tik qomati, ikki Shahlo ko'zi va yuz ming dollar sepidan bo'lak hech nimasi yo'q edi. Bu bilan esa xasta dilga dalda berib bo'lmaydi.

Kishilar Ogyusten qoshiga kirib, uni oppoq, rangi o'chgan holda ko'rishgach, yosh qalliq unga nashatirli spirt hidlatishni tavsiya qildi. Uning yuzidagi qonsizlik va boshog'riq kasali bir necha haftalab davom etaverganidan keyin, qayliq: „Men, mister Sen-Klerni bunchalik nimjon deb sira o'ylamagandim“, dedi. Bu odam tez-tez boshog'riq bo'lib turadiganga o'xshaydi, bu esa qayliq uchun juda o'ng'aysiz, chunki bunaqa dardchil odam yosh xotin bilan o'yin-kulgi qilolmaydi. Agar qayliq to'ydan keyin darhol yolg'iz o'zi mehmonga bora boshlasa, juda g'alati bo'ladi. Ogyusten bunday kaltabin xotinga uylanganligi uchun hatto dilida xursand edi. Ammo u o'yin-kulgi va farog'at oyining noz-karashmalari tugagandan keyin, bir narsaga qattiq iqror bo'ldiki, tug'ilgan kunidan boshlab erkalatib o'stirilgan bu go'zal yosh xotin g'oyat shafqatsiz va bag'ritosh bo'lib chiqishi mumkin ekan. Mari hech qachon bironvi sevish layoqatiga ega bo'lmagan edi, undagi oz-moz hissiyot esa keyinchalik kuchli va ko'r-ko'rona xudbinlikka aylanib ketdi va bu xudbinlik o'z huquqidan, o'z manfaatlaridan tashqari hech kimning huquq va manfaatlarini pisand qilmasdi. Bqlalik chog'idanoq unga qa-

rashib kelgan ko'pgina xizmatkorlar faqatgina uning injiqliklarini qondirish bilan ovora edilar.

Bu xizmatkorlarda ham shaxsiy hissiyot va huquq bo'lishi mumkin, degan fikr uning yetti uxlab tunshiga ham kirmagandi.

Mari ota-onasining yagona qizi bo'lib, otasi uning hech bir mayl va istagini qaytarmagan, ishqilib, uning istagini bajarish inson qo'lidan kelsa, bo'ldi. Boy meros egasi, g'oyat yaxshi tarbiya berilgan Mari odamlar orasiga chiqa boshlagach, hamma erkaklar – uning muhabbatiga sazovor bo'lish umidida yurganlar ham, bunga zarracha umidi yo'q kishilar ham tez kunda uning oyog'iga yiqiladilar. Shuning uchun u Ogyustenga tegib, uni baxtiyor qilganiga shubha qilmasdi. Bag'ritosh xotinning boshqalarning unga qanday qarashi bilan ishi yo'q, deb o'ylash xato bo'lardi. Dunyoda hech kim xudbin xotin qadar shafqatsizlik bilan o'ziga muhabbat talab qilmaydi. Bunday xotin o'zi qancha oz sevsa, rashki shuncha ko'p bo'ladi va talablari bachkanalashib ketadi. Sen-Kler Marini silab-siy-pashni tamomlab, qosh-qovog'iga qarashni to'xtatgach, ko'rdiki, uning hokimasi o'z qulini ozodlikka chiqarishni zarracha istamaydi. Ko'zyoshi, piching, mayda janjallar, norozilik va gina-kudurat boshlandi. Sen-Kler xushtabiat va qo'liochiq kishi edi, shuning uchun u hadya-padyalar berish va xushomad qilish bilan qutulmoqchi bo'ldi. Mari shiringina qiz tug'ib bergandan keyin esa Ogyustenda hatto xotiniga nisbatan xushmuomalasimonroq bir his ham paydo bo'ldi.

Sen-Klerning onasi g'oyat ulug' va oliyjanob tabiatli xotin edi, shuning uchun Sen-Kler: „Qizim onamga o'xshasin“, degan umid bilan bolaga o'z onasining nomini qo'ydi. Bu arazchi va rashkchi xotining jig'iga tegdi.

Sen-Kler bolaga g'oyat ovunib qolganidan, Mari bu holga chandon rozi bo'lmasdan kuzatib borardi. U: „Erim o'z muhabbatini mendan tortib olib, bolaga beryapti“, deb o'ylardi. Bola tug'ilgan kundan boshlab, Marining salomatligi asta-sekin zaiflashib bordi.

Aqlni ishlatmaslik va mehnat qilmay doim bekorchilik bilan hayot kechirish, diqqinafaslik va har narsadan xafa bo'laverish – onalikning hamrohi bo'lmish odatdagi zaiflik bilan qo'shilishib, pirovardida yashnab turgan yosh jamlani bir necha yil ichida – o'z vaqtini son-sanoqsiz xayoliy azoblar bilan to'ldiruvchi va o'zini dunyoda eng jafokash, sho'rpehona xotin deb hisoblovchi dardchil va kuzgi yaproqdek so'lg'in xotinga aylantirib qo'ydi.

Uning turli-tuman hasratlarining nihoyasi yo'q edi. Ammo u ko'pincha boshog'riqdan shikoyat qilar va shuni bahona qilib, uch-to'rt kunlab o'z xonasidan chiqmasdi.

Ro'zg'or yuritish xizmati xotin qo'liga batamom o'tgani uchun, Sen-Klarning ko'ziga uy juda sovuq ko'rinadigan bo'lib qoldi.

Uning yolg'iz qizi jismoniy jihatdan juda zaif bo'lganidan, u, „Onasining beg'amligi kasofatiga qizimning salomatligi va hayoti xavf ostida qolmasa edi“, deb qo'rqardi. U Vermontga jo'narkan, qizini ham yoniga oldi va amnavachchasi Ofeliya Sen-Kler xonimni Janubga borib o'z uyida turishga ko'ndirdi. Mana hozir ular paroxodda uylariga qaytyaptilar va biz ular bilan o'quvchilarimizni tanishtirmoqdamiz.

Yangi Orleanning cherkovlari va minoralari ko'z o'ngimizdan o'tib turguncha, sizlarga Ofeliya xonimni tanishtirish uchun ham fursatimiz yetadi.

Yangi Angliya shtatlarida sayohat qilgan kishi shabboda g'ir-g'ir esib turgan salqin qishloqlarni, hovlilari ozoda

supurilgan va azamat zarang daraxtlari soya tashlab turgan fermer uylarini eslasa kerak. Bu joylarda hukm surgan tartib va sukunatni, abadiy va buzilmas osoyishtalikni u odam eslasa kerak: bu joylarning devorlaridan birorta yog'och dikkayib chiqib turmaydi, derazalarning osti sirenzor, hovli yuzida birorta xas-cho'p ko'rinmaydi. Uyda esa keng va ozoda xonalar kishini hayratda qoldiradi va bularga kirgan kishi: „Bu xonalarda hech qachon biron voqea yuz bermas ekan, uy egalari hech ish qilishmas ekan, buyumlar o'z joyidan hech qo'zg'atilmas ekan“, deb o'ylashi mumkin. Bu joylarda uy-ro'zg'or ishlari burchakda turadigan eski soat mexanizmidek to'g'ri olib boriladi. Mehmonxonada, oynak eshikli eski kitob shkafida Rollinning „Tarix“, Miltonning „Yo'qolgan jannat“, Benyaning „Pilligrim sayohati“ degan asarlari, boshqa shu kabi tantanali va mo'tabar kitoblar yonida oilaviy injil ham tartib bilan qator taxlab qo'yilgan. Uyda xizmatkor xotin yo'q, holbuki xonim tushki ovqatdan keyin oppoq durrani o'rab, ko'zoynagini taqib, qizlari bilan birga o'tirib oladi-da, xuddi uyda boshqa hech bir ish yo'qdek, xuddi bu yerda hech ish qilinmagandek, bamaylixotir chok tikadi. Uning hamma ishi ertalab qilinadi va kunduzi, qachon kirmang – uyda hamma narsa tayyor. Eski oshxona polida qatra dog' ko'rmaysiz; kursilar stollar va oshxonaning har xil asboblari shunday saranjom turadiki, go'yo u hech kim hech qachon nari-beri qilmaydigandek ko'rinadi: Holbuki bu yerda har kuni uch-to'rt marta ovqatlanadilar, kir yuvadilar, dazmol uradilar va sir tutgansimon sekingina yog' va pishloq tayyorlaydilar.

Ogyusten Ofeliyani Janubdagi uyiga taklif qilgunga qadar, u shunday fermada, shunday uy va oilada o'z umrining qirq besh yilini osoyishtalik bilan o'tkazdi. U

oilaning to'ng'ich qizi edi, ammo uning ota-onasi hanuz uni yosh bola deb hisoblashardi: shuning uchun yangi Orleanga borish haqidagi taklif ularga juda muhim voqea bo'lib ko'rindi. Ofeliyaning mo'ysafid otasi kitob shkafidan Morzning atlasini olib, yangi Orleanning geografik kengligini va uzoqligini qaradi hamda Flintning „Janubga va G'arbgga sayohat“ degan kitobini yana bir marta o'qib chiqdi. Xushko'ngil ona esa tashvishlanib: „Yangi Orleani juda yomon joy deyishyapti, rostmi?“, „Yangi Orleanga borish – Sandvich orollariga, yovvoyi odamlar va majusiylarning oldiga borish kabi – xavfli emish, to'g'rimi?“ deb so'rardi.

„Ofeliyani qarindoshi Sen-Kler Orleanga olib ketar-mish“ degan xabar tez orada doktorga, domlaga, Miss Pi-bodining bozori chaqqon do'koniga ham borib yetdi. Butun qishloq aholisining og'zida faqatgina shu haqda gap borardi.

Ofeliyaning Orleanga borishga rozi bo'lganini hamma bilgandan keyin, yor-do'stlari, qo'ni-qo'shnilarni ikki haftagacha uni choyga chaqirishdi, uning rejalari va maqsadlarini har tomonlama muhokama qilishdi.

Derdilarki, Yekvayr Sinkler (bu yerdagilar Sen-Klerni shunday deb atardilar) ellik dollar sanab Ofeliyaga bergan-mish va eng yaxshi usti-bosh olishni buyurgan-mish, yana derdilarki, unga Bostondan ikkita ajoyib shoyi ko'ylak bilan bitta shlapacha yuborilgan-mish. Hamma unga Nyu-Yorkdan yuborilgan go'zal soyabonni bu tomonlarda hali hech kim ko'rgan ham emas, deb aytardi. „Uning bir shoyi ko'ylagi bor, polda o'zi tikka turadi“, derdilar. Ofeliyaning guldor dastro'molchasi borligi haqida ham ovozarlar tarqaldi: „Ofeliyaning to'rt tomoniga to'rt tikilgan ro'moli bor ekan“, „Ro'molning burchagidagi

to'ri ichidan tepchib tikilganmish“, deb ham lof qildilar. Ammo so'nggi xabarning qanchalik rostligi yetarli darajada tekshirilmaganligidan, haliyam noma'lum.

O'sha novcha, beso'naqay Ofeliyaxon chiroyli jigarrang safar libosini kiyib, bo'yini cho'zgancha oldingizda turibdi. Uning yuzi tirishqoq, labi, hamma narsa haqida ma'lum fikri bor kishining labi kabi – qisiq. O'tkir qora ko'zlari go'yo ehtiyot bo'lish lozim bo'lgan narsani axtarayotgandek, atrofdagi narsalarni sinchiklab qarardi.

Uning hamma harakatlari keskin va qat'iy. O'zi kamgap: bevosita ishga daxli bor so'zningina aytadi. U tartib, bir maqomda ishlash – harakat qilish va aniqlikning timsoli. U soat kabi aniq ishlaydi, parovoz kabi o'z yo'lidan to'g'ri boradi. O'ziga o'xshamaganlarni u juda yomon ko'radi.

U, epashanglikni eng katta gunoh deb biladi va „epashang“ so'zini juda ko'p ishlatadi. U hech narsa qilmaydigan yo nima qilishini aniq bilmaydigan, yoki boshlagan ishini qanday qilib oxiriga yetkazishni bilmay ikkilanib turadigan kishilarni „epashang“ derdi. Bunday odamlarga u chuqur nafrat bilan qarar va bu nafratini dangal izhor qilaverardi.

O'zi aqlli, rostgo'y va ishchan edi. U tarixni va eski ingliz klassiklarni yaxshi bilardi, u o'zining aql doirasidagi uncha ko'p bo'lmagan masalalar ustida tuzuk fikrlar bera olardi. Uning diniy tasavvurlari aniq, ijobiy va ravshan edi. Bu tasavvurlar – oshiq ham emas, kam ham emas, ma'lum bir miqdorda edi, uy-ro'zg'or ishlarini yurgizishda va yor-do'stlari bilan munosabatda ham u, ana shu yo'lni tutardi. Turmushdagi o'zi amal qilgan eng muhim va asosiy qonuni esa – sof vijdonlilik edi.

Ofeliya o'z burchining asl quli edi. U o'z burchining nimadan iborat ekanligini bir marta bilib olgandan keyin,

shu yo'ldan hech og'ishmay borar va o't ham, suv ham unga xalal bera olmasdi. Agar u „Burchim shuni talab qilayotir“, degan qat'iy fikrga kelsa, buni amalga oshirish uchun o'zini quduqqa tashlashga yoki zambarakning og'ziga qo'yishga doim tayyor edi. Uning burch idealini g'oyat yuksak pog'onaga ko'tarardi, bu ideal uning nazari-da, juda keng bo'lgani va g'oyat ko'p mayda masalalarni o'z ichiga olgani uchun insoniy zaifliklarga kam e'tibor berardi. Shunday bo'lsa ham, o'zining zo'r g'ayratiga qaramay, bu idealning poyoniga hech yetolmas va shuning uchun doimo o'zini qanoatlanmagan his etardi.

Endi Ofeliya Ogyusten Sen-Kler bilan ketishga qanday qilib ko'ndi degan masalaga kelaylik.

Axir, Sen-Kler sho'x, sarbas, ishning ko'zini bilmas, shakkok va o'zining beboshliklari bilan Ofeliyaning eng qimmatli odat va maslaklarini mudom poymol qiladigan kishi-ku!

Rostini aytganda, Ofeliya uni sevardi. Ogyusten bolalik chog'ida Ofeliya uning kiyimini yamar, sochlarini tarar va tarbiyalardi. Sirtidan qaraganda berahmddek ko'ringan aft-angorini e'tiborga olmaganda, uning yuragida issiq his saqlanardi va Ogyusten o'z odaticha, bu hisni butunicha o'ziniki qilib olgandi. Shuning uchun, Ofeliyaga: „Sizning burchingiz men bilan birga Orleanga borib, Yevani tarbiyalash va xotininimning doimo kasalligi tufayli tahdid qilayotgan xonavayronlikdan meni qutqazib qolish“, deb aytib, uni osongina ko'ndira oldi. Qarovsiz qolgan uy haqida aytilgan so'z Ofeliyaga ta'sir qildi. Bundan tashqari u, go'zal qizchani ham yaxshi ko'rib qolgandi.

Kitobxon, Ofeliya to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarni u bilan shaxsan tanishganda bilib oladi. Mana u, atrofiga ko'pgina katta va kichik safar sumkalarini, sandiqlari

va savatlarni qo'yib, o'z kayutasida o'tiribdi va ularni mahkam qilib yopyapti, bog'layapti, uryapti, tugmalarini qadayapti.

– Xo'sh, Yeva, narsalaring nechta, esingdami? Esingda bo'lmasa kerak – bunaqa narsalar bolalarning esida turmaydi! Mana, safar sumkasi – bir, mana, kichkina zangori quti – ichida saragina shlapachang bor – ikki, rezinka sumka – uch, mening ish qutim bor – to'rt, shlapa qutim – besh, yoqachalar solingan qutim – olti, charm chamadoncha – yetti. Soyaboningni nima qilding? Menga ber, qog'ozga o'rab, soyabonimga qo'shib bog'lab qo'ya-man. Ana, bo'ldi!

– Nega, xolajon? Biz uyga ketyapmiz-ku. Bog'lashning nima keragi bor?

– Hamma narsani batartib saqlash kerak, bo'tam. Agar narsa tursin desang, uni ehtiyot qilish kerak. Yeva, angishvonangni joyiga solib qo'ydingmi?

– Rostini aytsam, bilmayman, xolajon.

– Xayr, tashvishlanma, qani, yashigingni ochib qaraychi, nimalar bor ekan: mum, ikkita g'altak, qaychi, pichoqcha, igna, angishvona. Juda soz. Bu yerda ekan. Otangiz bilan ikkingiz mensiz qanday yurgansizlar, tasavvur etolmayman! Bor narsalarning hammasini yo'qotgan bo'lsalaring kerak.

– Ha, xolajon, men ancha narsamni yo'qotdim. To'xtagan joyimizda dadam hammasini yana sotib olib berardi.

– Yo Rabbim, bu qanday odat?

– Juda o'ng'ay bu, xolajon.

– Axir bu juda yomon epashanglik-ku!

– Hoy xola, endi nima qilasiz, ko'pligidan chamadon yopilmayapti.

– Yopilishi kerak, – dedi xolasi, sarkardalar singari qiyofaga kirib va irg'ib chamadon qopqog'i ustiga o'tirdi.

Shunday bo'lsa ham, qopqoq jips yopilmay, biroz ochilib qoldi.

– Sen ham chiq, Yeva, – shiddat bilan dedi Ofeliya. – Chamadonni so'zsiz yopish kerak – gap shu!

Ehtimol, bunday qat'iyatlikdan qo'rqan bo'lsa kerak, chamadon yopildi. Qulf solindi, Ofeliya kalitni aylantirib uni qulfladi, keyin kalitni kerilib cho'ntagiga soldi.

– Endi tayyormiz. Dadang qani? Bagajni olib chiqaversa bo'lardi. Bor, qara, Yeva, dadang qayerda ekan.

– Hov ana, narigi tomonda, erkaklar kayutasida. Apelsin yeyapti.

– Yetib qolganimizni u bilmasa kerak, – dedi xolasi. – Borib aytsang yaxshi bo'lardi.

– Dadam hech shoshilmaydi. – dedi Yeva. – Hali yetganimiz ham yo'q-ku. Panjaraga keling, xola, bu yoqqa bir qarang. Bizning uyimiz huv narigi ko'chada!

Bu chog' paroxod boshqa kemalar yonidan chetlab o'tib, charchagan dev singari og'ir bo'kirib pristan-ga yaqinlashardi. Yeva tom gumbazlarini, ular ustidagi nayzalarni, qadrdon shaharning ko'chalarini sevinib-sevinib xolasiga ko'rsatardi.

– To'g'ri, to'g'ri, azizim, juda chiroyli! – derdi Ofeliyaxon. – Voy sho'rim! Paroxod to'xtadi! Dadang qani?

Paroxod to'xtashi bilan odatdagicha to'polon boshlandi. Hammollar u yoqdan bu yoqqa yugurishar, erkaklar chamadon, sandiq va savatlarini ko'tarib borishar, xotinlar tashvishlanib bolalarini chaqirardilar.

Ofeliya hozirgina o'zi bekitgan chamadoni ustiga o'tirib, narsalarni harbiychasiga batartib qator qilib qo'ydi, u narsalarni oxirigacha qo'riqlashga qaror etgandek ko'rinardi.

Uning atrofida hadeb „Chamadoningizni ko'tarish mumkinmi, xonim?“, „Bagajingizni olishga ruxsat eting!“,

„Keling, men narsangizga qarab turay!“ degan soʻzlar eshitilardi. U xoʻmraygan holda qatʻiyat bilan qovuq igna singari gʻoʻdayib, oʻrab olgan soyabonlarini mahkam ushlab oʻtirar va shunday keskin javob berardiki, bundan hammollar ham choʻchib ketardi. Goho taajjublanib, u Yevadan soʻrardi:

– Nima boʻldi bu dadangga? Paroxoddan yiqilib ketmagandir axir? Ehtimol, biror hodisa roʻy bergan boʻlsa!

U xavotir boʻla boshlagan edi ham, Sen-Kler odatcha begʻam qadam tashlab keldi-da, Yevaga chorakta apelsin uzatib, dedi:

– Xoʻsh, Ofeliyaxon, tayyor boʻlib turgandirsiz?

– Tayyor boʻlganimga bir soatcha boʻldi, kutib oʻtiribman, – dedi Ofeliya. – Rostini aytsam, tashvishlana boshlagandim ham.

– Mana bu ishonchli odam chamadonlarimizni koʻtarib boradi, – dedi Sen-Kler. – Bizning ekipajimiz pristan-da, odamlar oʻtib boʻldi. Endi bamaylixotir tushsak boʻlaveradi. Qani, – dedi u orqasida turgan hammolga, – bu narsalarni koʻtar-chi.

– Men borib narsalarni qanday joylashiga qarab turlaman, – dedi Ofeliya.

– Be, egachi, nima keragi bor?

– Mayli boʻlmasa, ammo ehtiyotdan mana bu... mana bu narsalarni oʻzim olib tushaman... – dedi Ofeliya bir-necha yukni ajratib.

– Azizim Vermont, oʻz odatlaringizni bizga singdirolmaysiz. Endi bizning janubdagi baʻzi urf-odatlarimizni bilib olishingiz va hamma yuklaringizni oʻzingiz koʻtarib tushmasligingiz lozim, aks holda sizni oqsoch xotin deb oʻylab qolishlari mumkin. Hammasini ana bu odamga bering: u chamadonni tuxumni koʻtargandek ehtiyot qilib olib tushadi.

Ofeliya hamma buyumlarni tortib olgan qarindoshiga joni chiqqudek qaradi va aravaga o'tirgandan keyingina taskin topdi: narsalarning hammasi but edi.

– Tom qani? – deb so'radi Yeva.

– U oldinda, kucher yonida o'tiribdi, jonginam. Uni onangga sovg'a qilaman. Tom, aravamizni to'ntarib yuborgan aroqxo'r kucherning o'rnida ishlasin.

– Tom juda yaxshi kucher bo'ladi, bilaman, – dedi Yeva, – u hech piyanistalik qilmaydi!

Arava uy oldiga kelib to'xtadi. Uy qadimgi zamon uy-laridan edi, qisman ispan, qisman fransuz me'morchilik usuli tatbiq qilingan bunday g'alati imoratning namun-lari hali ham yangi Orleanning ba'zi joylarida saqla-nib qolgan. Darvoza ustida baland ravoq bor edi. Hov-ling ichi juda ko'rkam. Hovlining to'rt tomonini keng yo'llar o'rab olgan, ularning toqilari, chorqirra ustunlari va guldor naqshlari bir zamonlar arablarning Ispaniyada hukmronlik qilganini sal-pal esga solardi. Hovli o'rtasida fontan bor. Undan baland otilib chiqayotgan suv kumush chang singari, atrofga qalin qilib muattar binafshalar ekil-gan marmar hovuzga chozilib turadi. Billurdek toza, zilol suvda jonli marvariddek yarqirab son-sanoqsiz oltin va kumushrang baliqchalar o'ynashadi. Fontan atrofiga sayr qilmoq uchun yo'lka solingan, yo'lka betiga naqshnamo shag'al bosilgan: yo'lka atrofida zangor baxmaldek mayin maysa o'sib yotadi. Bularning hammasini arava qatnay-digan katta yo'l doira shaklida o'rab olgan. Yashnab-gul-lagan ikki apelsin daraxti rohatbaxsh ko'lanka solgan, be-tiga har xil rasmlar tushirilgan marmar vazalar maysalar tepasida ko'tarilib turadi, vazalar tepasida nodir tropik o'simliklar bor. Yaproqlari yaltillagan, qip-qizil gulli katta anor daraxtlari, gullari kumush yulduzga o'xshash qoram-tir bargli arab yasmini, geranlar, gullarining vazminligidan

shoxlari egilib ketgan hashamatli atirgullar, sariq yasmin, limon hidini beruvchi verbenalar – barchasi to‘la gul-lab, muattar bo‘y beradi. Unda bunda uchragan vazmin va ajoyib yaproqli aloelar esa go‘zal gullar va muattarlik olamida mo‘ysafid sehgarga o‘xshaydi.

Hovli atrofidagi yo‘llarga gullarni oftob qovjiratishi-dan asrash uchun allaqanday arab matosidan tikilgan par-dalar osilgan. Umuman aytganda, bu yerning manzarasi xayoliy va hashamatli edi.

Ekipaj hovliga kirganda Yeva juda sevindi. U qafasdan uchishga tayyor turgan qushchaga o‘xshardi.

– Jonajon, aziz uyim, go‘zal, ajoyib va chiroyli emas-mi axir? – dedi u Ofeliyaga. – Qani ayting-chi, go‘zal emasmi?

– Ha, menga eski va yovvoyi joyga o‘xshab ko‘rinsa ham, chiroyli joy ekan, – dedi Ofeliya, ekipajdan chiqarkan.

Tom pastga tushgach, atrofiga zavq bilan ohista razm soldi.

Dilda esa shoir bo‘lgan Sen-Kler, Ofeliyaning uy haqidagi mulohazasiga javoban kulimsiradi-da, zavqidan qora qiyofasi yashnab turgan Tomga qarab, dedi:

– Xo‘sh, Tom, bu yer senga ma‘qul shekilli, og‘ayni?

– Ha, xo‘jayin, bu yer yomon emas ekan, – deb javob berdi Tom.

Chamadonlar ekipajdan olindi va hammolga haq to‘la-nar ekan, turli yoshdagi erkak, xotin va bolalardan iborat xizmatkorlar safardan qaytgan xo‘jayinini kutgani chi-qishdi. Hamma kutuvchilar oldida juda muhim amaldorga o‘xshab ko‘ringan yosh bir mulat turardi. So‘nggi modada kiyingan bu mulat atir sepilgan dastro‘molchasini tez-tez yelpirdi. U kuchining boricha negrlarni orqaga surmoqchi bo‘lardi.

– Qayt orqaga! Hammang orqaga suril! Meni nomusga o'ldirasizlar-ku? – deb baqira boshladi u. – Xo'jayin ostonaga endi qadam qo'ydi-yu, sizlar bo'lsangiz uning osoyishtaligini buzasizlar!

Mulatning bu nazokatli gaplari hammani uyaltirib qo'ydi shekilli, ular tisarilib, ancha nari borib to'planishdi. Faqat ikki baquvvat hammolgina ekipaj yoniga kelib, narsalarni tashiy boshladi.

Mulatni Adolf deb atardilar. U negrlarni shiddat bilan orqaga surdi, Sen-Kler kucherni jo'natib, orqasiga qaraganda, uning yaqinida Adolfdan bo'lak hech kim yo'q edi. Atlas jeletka, oq shim kiyib, ko'ksiga oltin zanjircha taqib olgan Adolf nazokat va hurmat bilan ta'zim qildi.

– Ha, Adolf, senmisan? – dedi uning xo'jayini, qo'lini uzatib. – Ahvoling qanday, og'ayni?

Adolf ikki haftadan buyon tayyorlab, pishitgan nutqini yodakay aytib berdi.

– Yaxshi, yaxshi, – dedi Sen-Kler, odaticha pisand etmasdan, mazax qilib uning yonidan o'tarkan. – Juda yaxshi hozirlanibsan, Adolf. Bagajlarga qarab tur, men bir daqiqadan keyin odamlar oldiga chiqaman.

U Ofeliyani eshigi ayvonga chiqadigan katta mehmonxonaga kuzatib qo'ydi.

Bir vaqt Yeva qush singari chaqqonlik bilan mehmonxonadan kichkina pardozonaga chopib o'tdi, pardozxona eshigi ham ayvonga chiqardi.

Novcha, qorako'z va yuzi qonsiz ayol kushetkadan andak ko'tarildi.

– Oyi! – deb sevinib qichqirdi Yeva, bo'yniga tashlanib uni quchoqlarkan.

– Sekinroq, jonginam, qo'y, tag'in boshim og'rib qoladi, – dedi onasi, uni o'parkan.

Sen-Kler ham kirib xotini quchoqladi, keyin unga Ofeliyani tanishtirdi. Mari, qiziqsingan bo'lib, katta ko'zlarini Ofeliyaga birpas tikkandan keyin, ehtirom bilan so'rashdi va eson-omon kelganiga xursandlik bildirdi. Bu vaqt eshik yonida xizmatkorlar to'planishdi. Oldinda o'rta yashar, qiyofasi juda bama'nili bir mulat ayol sevinchini ichiga sig'dirolmay, mahtal bo'lib turardi.

– Ana, Memmi – deb qichqirdi Yeva, birpasda u yoqqa uchib o'tib.

Yeva uning quchog'iga tashlanib, o'pa boshladi.

Bu xotin: „Boshim og'rib qoladi“, demadi, aksincha, Yevani jon-dili bilan bag'riga bosdi va sevinganidan dam kulib, dam yig'ladi, Yeva uning quchog'idan chiqqach, kutib turgan xizmatkorlarning oldiga birin-ketin ularni o'pdi va qo'llarini ushlab so'rashdi.

Sen-Kler kulib dahlizga chiqdi.

– Hoy, Memmi, Jimmi, Polli. Eski xo'jayinlaringni ko'rib xursand bo'ldingizmi? – dedi, ularning qo'llarini qisib ko'risharkan. Bolalaringizga qaranglar! – dedi u, polda o'rmalab yurgan qorabadan chaqaloqqa qoqilib. – Agar birortani bosib olsam, darhol xabar qilsin.

Hammalari quvonib kulishar, Sen-Kler esa ularga mayda chaqa ulashardi.

– Endi jo'nanglar, to'polon qilmanglar – dedi u.

Hammalari – qoralar ham, oqlar ham – eshikdan chiqib g'oyib bo'ldilar. Ular orqasidan katta sumkasini sudrab Yeva jo'nadi: sumkaning ichi olma, yong'oq, novvot, lenta, tasma va turli xil o'yinchoqlarga to'la, – bularning hammasini u sayohat vaqtida to'plagandi.

Sen-Kler orqasiga qayrilib qarab Tomni ko'rdi: u goh u oyog'ini, goh bu oyog'ini ko'tarib, o'ng'aysiz holda turardi. Adolf esa bemalol panjaraga suyangan holda, ko'zi-

ga lornet (oynak) qo'yib, Tomga jiddiy qiyofa bilan qarardi, uni ko'rgan har bir oliftaning havasi kelardi.

– Voy itvachcha-yey! – dedi xo'jayin. Adolfning qo'lidan lornetni tortib olib. – Kishi o'rtog'i bilan hali shunday muomala qiladimi? Nazarimda, Dolf, – deb davom etdi u, Adolf kiyib olgani bashang guldor atlas jiletkani qo'li bilan turtib, – bu jiletka menikiga o'xshaydi.

– Hoy mister, jiletkalarigizga butunlay vino to'kilgan. Bas, endi sizdaqa jentelmen bu jiletkani kiymaydi. Uni endi men kiyishim kerak, degan fikrga keldim. Bu jiletka menga o'xshagan kambag'al negrga bop.

Adolf boshini qimirlatib va atir sepilgan sochini oliftagarchilik qilib qo'li bilan siladi.

– E, hali shundaymi? – dedi Sen-Kler e'tiborsiz yo'sinda. – Bo'pti, Tomni bekasiga ko'rsatay, keyin uni oshxonaga olib borasan. Lekin esingdan chiqmasin, uning oldida kattalik qilma: u sendaqa itvachchalarning ikkitasidan qimmatroq turadi.

– Xo'jayin doim hazillashadilar, – dedi Adolf kulib. – Xo'jayinni bunday dimog'lari chog' holda ko'rganim uchun baxtiyorman.

– Bu yoqqa yur, Tom, – dedi Sen-Kler, boshi bilan imo qilib.

Tom bo'lmaga kirdi. Baxmal gilamlar, ko'zgular, rasmlar, haykalchalar, chiroyli pardalar bilan bezatilgan xonani zavq bilan ko'zdan kechirdi. Bunday jihoz va ziyonatlarni u ilgari tasavvur ham etmaganidan, boshi gangib qoldi. Bu yerga hatto oyog'ini qo'ygani ham botinmadi.

– Mana, Mari, – dedi Sen-Kler xotiniga, – oxiri topshirig'ingni bajarib, kucher sotib oldim. U qora va tobut aravadek jo'n, istasang, qabristonga olib ketayotgandek

seni tinch olib yura oladi. Qani, ko'zingni ochib unga qara. Tag'in: „Erim safarga chiqqanda meni hech esiga keltirmaydi“, deb o'pkalama.

Mari ko'zini ochib Tomga qaradi.

– Bilaman, bu ham piyanista, – dedi u.

– Yo'g'-e, uni xudojo'y va „ichmaydigan mol“ deb kafolat berishdi.

– Undan ko'p narsa kutmayman-u, – dedi xonim, – lekin bizga munosib chiqib qolar, deb ishonaman.

– Dolf, – dedi Sen-Kler, – Tomni olib bor, lekin kattalik qilma. Aytgan so'zim yodingdan chiqmasin.

Adolf ulug'vor qadam tashlab oldinda, Tom esa dukulab uning ortida borardi.

– Begemotning o'ziginasi – dedi Mari.

– Menga qara, Mari, – dedi Sen-Kler, uning kushetkasi yonidagi kursiga o'tirib, – jonginam, menga biror og'iz shirin gap aytsang-chi.

– Muhlatdan ikki hafta ortiq qolib ketding, – dedi xonim arazlab.

– Nima uchun to'xtalib qolganimni yozdim-ku.

– Bunday ham qisqa va sovuq xat bo'larmi – dedi xonim.

– Azizam, Pochta ketayotgan edi, shoshilib yozdim.

– Sening ishing doim shunday, – dedi xonim. – Sayohating uzoq, xatlaring qisqa.

– Endi bu yoqqa qara, – dedi u, cho'ntagidan chiroyli baxmal qutili futlyarni olib ochib. – Mana senga Nyu-Yorkdan olib kelgan hadyam.

Qutichada eskicha usulda ishlangan fotorasm bo'lib, unda Yeva bilan otasining surati aniq qilib tushirilgan edi.

Mari ma'qul ko'rmagandek qaradi.

– Nega bunaqa beso'naqay o'tirib tushibsang? – dedi u.

– Mayli, o'tirishim haqida har xil fikr bo'lishi mumkin-u, sen ayt – o'xshaymizmi?

– Agar mening bir masala to'g'risidagi fikrim seni qiziqtirmas ekan, ikkinchi masala to'g'risidagi fikrim ham qiziqtirmasa kerak deb o'ylayman, – dedi xonim, qutini yopib.

„Jinurgur xotin-da, bu o'zi!“ – dedi Sen-Kler dilida.

– Nima deysan, Mari, – dedi u yana, – o'xshaymanmi yo'qmi? Bemaza gaplarni qo'y!

– Har xil narsalarni ko'rishga, gapirishga va ko'zimni toliqtirishga majbur etib meni qiynama, Sen-Kler, – dedi xonim. – Butun kun boshim og'rib yotganini bilasan. Sizlar kelganlaringizdan buyon esa bu yerda shovqin-suron bo'lib ketdi, men chala o'lik bo'lib qoldim.

– Boshog'riq dardingiz bormi, xonim? – deb so'radi Ofeliya, katta kreslodan birdan ko'tarilib: u kresloda tinch o'tirib, ichida anjomlarning narxini hisoblardi.

– Ha, men qattiq boshog'riq azobiga tushganman, – dedi xonim.

– Qora archaning mevasidan damlangan choy boshog'riqqa eng yaxshi davo, – dedi Ofeliya. – Sufi Abragem Perrining kasallar davolashga juda usta xotini Ogyusta shunday derdi.

– Bog'imizdagi ko'lning yonida qora archa bor. Shu meva qilishi bilan, uni maxsus shuning uchun terdiraman, – dedi Sen-Kler va qo'ng'iroqning ipini tortdi. – Endi, egachi, bo'lmangizga chiqib, safardan keyin, birpas dam oling... Dolf, Memmini chaqir.

Tez orada boya Yeva o'pgan mo'tabar mulat ayol kirdi. U ozoda kiyingan, boshida qizg'ish-sariq chalmas qo'nqayib turardi – chalmani unga Yeva sovg'a qilgan va o'z qo'li bilan o'rab qo'ygandi.

– Memmi, – dedi Sen-Kler, – bu xonimni senga topshiraman. U charchagan va hozir dam olmoqchi. Xonimni xonasiga kuzatib qo‘y va yaxshilab joy qilib ber.

Ofeliya Memmining orqasidan chiqdi.

XVI BOB

Tomning bekasi va uning fikrlari

– Xo‘sh, Mari, – dedi Sen-Kler, – endi yashaydigan kunlaring kelyapti. Yangi Angliyadan kelgan tajribali va ishchan qarindoshimiz seni ro‘zg‘or tashvishidan qutqazadi, o‘zingni parvarish qilib, yosh, baquvvat va go‘zal bo‘lishingga imkon beradi. Yaxshisi, tezroq kalit topshirish marosimini o‘tkazish kerak.

Bu so‘zlar Ofeliya kelganiga bir necha kun bo‘lganda, nonushta vaqtida aytili.

– Uning kelganiga juda xursandman – dedi Mari nozlangansimon boshini qo‘liga sekin qo‘yib. – Men o‘ylayman, biz bekalarning asl cho‘ri ekanligimizni u tezda payqaydi.

– Hech shubhasiz, u bu haqiqatan ham, bundan boshqa ko‘pgina foydali narsalarni ham fahmlab oladi, – dedi Sen-Kler.

– Aytishlariga qaraganda, biz qullarni rohatimiz uchun saqlar emishmiz, – dedi Mari. – Bu chindan ham shunday bo‘ladigan bo‘lsa, bularning hammasini birvarakayiga bo‘shatib yuborish kerak.

Yevangelina ma‘nodor kattakon ko‘zlarini onasiga tikib so‘radi:

– Unday bo‘lsa, ularni nega tutib turibsiz, oyi?

– Bilmayman. Menimcha, ular bizni bezdirsin deb tutib turibmiz. Ular – baxtsizligimning sababchisi, doim

kasal bo'lishimning tub sababi o'shalar. Bizning negrlarimiz – negrlarning eng yomoni.

– Ey, Mari, bugun ta'bing xira, – dedi Sen-Kler – Bunday emasligini o'zing ham bilasan. Mana, misol uchun Memmini olaylik, dunyoda unaqa yaxshi xotin yo'q. U bo'lmasa nima qilar eding?

– Memmi boshqalardan sal tuzug-u, – dedi Mari, – lekin u ham xudbin, juda xudbin. Bu hamma negrlarning kamchiligi.

– Xudbinlik odamning eng yomon kamchiligiku-ya, – jiddiy suratda dedi Sen-Kler.

– Mana, masalan, Memmining qanaqaligini ko'ring, – dedi Mari. – U kechasi juda qattiq uxlaydi. Men buni o'taketgan xudbinlik deb hisoblayman. Mening qiynalib azob chekishimni va har soat mendan xabar olib turish kerakligini u bilmaydi emas, biladi, albatta, lekin uni uyg'otguncha o'lib bo'lasan! Uni bugun kechasi uyg'otaman deb tinkam quridi... Mana endi hozir holdan ketib o'tiribman.

– Oyi, u yaqindagina bir necha kun kechalari bilan tinmay yoningizda o'tirib chiqmadimi? – dedi Yeva.

– Buni sen qayerdan bilding? – deb qat'iy so'radi Mari. – U arz qildimi?

– Memmi arz qilgani yo'q. U faqat ahvolingizning bir necha kungacha kechalari yomon bo'lganini aytdi.

– Uning o'rniga Jen yoki Roza bir-ikki kecha tursa-yu, u dam olsa bo'lasmidi, aytmabsiz-da? – dedi Sen-Kler.

– Qiziq gap gapirasan-a, Sen-Kler! – dedi Mari. – Hech o'ylamasdan gapirasan! Men shu qadar asabiy-manki, sal shabada tegsa – bas, o'laman-qolaman. Begona qo'l tegsa jinim qo'ziydi. Agar Memmi menga astoydil qaramoqchi bo'lsa, bunday qattiq uxlamas edi. Men sodiq xizmatkorlar bo'ladi, deb eshitganman, ammo

bunday baxt menga muyassar bo'lgani yo'q, – deb afsuslandi Mari.

Ofeliya bu so'zlarga diqqat qilib, jiddiy tinglar edi. U lablarini qattiq qimtigan, o'zini sinamaguncha, qanday vaziyat ishg'ol etishga jur'at qilmagandek ko'rinardi.

– Memmi o'ziga yarasha yaxshi, – dedi Mari, – yuvosh, odobli, lekin dilida xudbin. U hamisha erini o'ylaydi va jon kuydiradi. Bilasizmi, men erga tegib, bu yerga ko'chib kelganimdan keyin, albatta, Memmini birga olib keldim, otam uni eridan ajratgisi kelmadi. Uning eri temirchi, shuning uchun u, xo'jalikka zarur edi. Men Memmiga: „Endi ering bilan birga yashashni hech umid qilma“, deb aytdim. Albatta, men o'z so'zimdagi qattiq turib, Memmini boshqa birovga berishim kerak edi, lekin rahmdilligimdan, bu ishni qilmadim. Men o'shanda Memmiga: „Bundan buyon eringni bir yoki ikki martadan ortiq ko'rishga umid qilmasang ham bo'ladi, chunki otam qo'rg'onchasining ob-havosi menga yoqmaydi, shuning uchun men u yerga borolmayman“, deb aytdim. Unga: „Boshqa bi-rortasiga tegib qo'ya qol“, deb maslahat berdim. Lekin u xohlamadi. Memmi o'jar, lekin buni mendan bo'lak hech kim bilmaydi.

– Uning bolasi bormi? – deb so'radi Ofeliya.

– Bor. Ikkita.

– Ehtimol, uni bolalardan ajralish azoblar?!

– Balki, Lekin, men ularni qanday qilib o'zim bilan birga olaman! Ular juda irkit bolalar edi, yaqinimda yurishiga chidab turolmas edim. Bundan tashqari, ular Memmining juda ko'p vaqtini olishar edi. Memmining achchig'i chiqqan va xafa bo'lgan bo'lsa kerak, u hech kimga tegishni istamaydi. Imonim komilki, u menga qanchalik zarurligini va mening salomatligim yomonligini

bilsa ham, ixtiyori o'zida bo'lganda edi – darhol erining oldiga qaytib ketardi. Bunga imonim komil, – dedi Mari. – Ular shunaqa xudbin, ularning eng yaxshisi ham shundaqa xudbin bo'ladi.

– Darhaqiqat, achinarli, – dedi Sen-Kler jiddiy yo'sinda.

Ofeliya hamma narsani fahmlaganday Sen-Klerga razm soldi va uning zaharxanda qilib kulimsiraganini, mazax bilan burishgan labida yashiringan g'ashlikni ko'rdi.

– Memmi doim mening erka kanizim bo'lib keldi, – dedi Mari. – Sizlarning shimoldagi xizmatkorlaringiz uning kiyim-kechak javonini bir ko'rsalar edi. Uning javonida, shoyi va muslin ko'ylaklari bor, bitta ko'ylagi asl zig'ir poyadan to'qilgan, batisdan tikilgan. Men ba'zan kun bo'yi urinib, uning shlapasini tuzatib, mehmonga borishga yasataman. U hali bizdan yomonlik ko'rgan emas. Uni faqat bir yoki ikki marta urdik, xolos, har kuni qand bilan achchiq qahva yoki choy ichadi. Rostini aytsam, bu menga yoqmaydi-yu, lekin Sen-Kler hamma xizmatkorlarning to'ralarday yashashini istaydi, shuning uchun hammasi rohatda yashaydi. Albatta, bizning negrlarimiz no'xtasiz. Albatta, ularning bunday xudbin va o'zlarini erka bolalardek tutishlari uchun biz o'zimiz ayblimiz. Men bu to'g'rida Sen-Klerga aytaverib charchadim.

– Men ham charchadim, – dedi-da, Sen-Kler, ertalabki gazetani o'qiy boshladi.

Yeva, go'zal Yeva, onasining so'zlarini o'ziga xos chuqur va mubham jiddiyat bilan tinglar edi. U stulning yonidan ohistagina onasining orqasiga o'tdi-da, uning bo'ynidan quchoqlab oldi.

– Xo'sh, nima deysan, Yeva, – dedi Mari.

– Oyi, bir kecha yoningizda o'tirib, sizga qarab chiqsam maylimi? Bir kecha, xolos! G'ashingizni keltir-

masligimni bilaman, uxlab ham qolmayman. Ko'pincha kechasi uyqum kelmaydi, o'ylab chiqaman.

– Behuda gap, bolam, behuda gap, – dedi Mari. G'alati tabiatlaring bor-da!

– Maylimi, oyi? – dedi u hadixsirab, – menimcha, Memmi betob bo'lsa kerak. U: „Doyim boshim og'riydi“ deb aytadi.

– Ana, tag'in yangi gap. Memmi boshqalardan hech yaxshi emas. Negrlar arzimaydigan narsa uchun shovqin ko'tarisha beradi, sal boshi og'risa ham, barmog'i og'risa ham baqira berishadi. Ularga hech qachon sham bermaslik kerak, hech qachon! Sham berishga, asosan, qarshiman, – dedi u. Ofeliyaga qarab, – sham berish ziyonligini o'zingiz ham ko'rasiz. Agar siz xizmatkorga sham bera boshlasangiz, agar siz uning har qanday mayda kasalligiga qo'yib bersangiz va har qanday ahamiyatsiz og'riqdan shikoyat qilishga yo'l bersangiz, hamma ish o'z bo'yingizga tushadi. Men o'zim hech shikoyat qilmayman – mening qanchalik azob chekishimni hech kim bilmaydi, lekin damimni chiqarmayman, azob chekaman, lekin birovga bildirmayman.

Gap kutilmagan yo'sinda tugaganidan Ofeliyaning yumaloq ko'zlarida hayrat zohir bo'ldi, buni ko'rib Sen-Kler qahqahlab kulib yubordi.

– Men o'zimning azob chekishim to'g'risida og'iz ochdimmi – bas, Sen-Kler kuladi, – dedi Mari azob yeganday yuzini bujmaytirib, – ishonaman, u keyin pushaymon ham qilmaydi. – Shunday deb Mari ko'ziga dastro'molchasini tutdi.

Og'ir sukunat cho'kdi. Nihoyat, Sen-Kler o'rmdan turdi-da, soatiga qarab, ba'zi bir ishlari borligini aytdi. Yeva uning orqasidan yugurib ketdi. Ofeliya bilan Mari yolg'iz qolishdi.

– Sen-Kler doim mana shunday, – dedi Mari, dastrumolcha ta'sir qilishi lozim bo'lgan aybdor g'oyib bo'lishi bilan, uni darhol yashirar ekan. – Bir necha yildan buyon azob chekayotganimni u tasavvur etmaydi, tasavvur etolmaydi va buni istamaydi ham. Men betobligim to'g'risida hasrat qilsam yoki shovqin ko'tarsam, boshqa gap edi – oh-vohchi va yig'loqi xotinlar erkaklarni zeriktirib yuboradi. Lekin men damimni chiqarmay o'tyapman, sabr qilyapman, chidayapman, shuning uchun Sen-Kler meni hamma narsaga bardosh beraveradi, deb o'ylaydi.

Bu so'zlarga Ofeliya nima deb javob berishni bilmas edi. U to javob o'ylab topguncha, Mari ko'zining yoshini artdi va yomg'irdan keyin patlarini tuzatayotgan kaptar kabi kiyimini tekislay boshladi. Keyin ular xo'jalik ishlari haqida, bufetlar, omborlar, shkaflar va boshqa har xil narsalar to'g'risida so'zlasha boshladilar. Mari unga juda ko'p kengash va ko'rsatmalar berdi, agar Ofeliyaning har narsani tartiblashga va aniqlashga odatlangan ishchan aqli bo'lmaganda, u allaqachon gangib qolgan bo'lardi.

– Endi, – deb tamomladi so'zini Mari, – sizga hamma gapni aytib bo'ldim shekilli. Shuning uchun, meni dard tuta boshlashi bilan ko'rsatuvimsiz ham ishni eplayversiz. Lekin mana bu Yeva... undan ko'proq xabardor bo'lib turish kerak.

– U juda ajoyib qiz ekan, – dedi Ofeliya. – Men unaqa yaxshi qizni hech uchratganim yo'q.

– Yeva g'alati qiz, – dedi onasi, – juda g'alati. Uning shuncha g'alati qiliqlari borki, asti qo'yavering. U menga o'xshamaydi, yo'q, sira o'xshamaydi...

Bu hol yomon narsadek, Mari uf tortdi. Ofeliya ichida: „O'xshamagani yaxshiroq“, dedi, lekin juda ehtiyotchanligidan bu so'z uning dilidagina qoldi.

– Yeva doim xizmatkorlar orasida bo‘lishni yaxshi ko‘radi. Menimcha, ba‘zi bolalar uchun bu foydali ham. O‘zim ham doim otamning kichkina negrchalari bilan o‘ynardim, bu narsa menga hech bir ziyon keltirgan emas. Lekin Yeva hamma bilan o‘zini teng tutadi. Yosh bolada tenglikka bunday muhabbat bo‘lishi – qiziq. Qancha urinsam ham uni qaytara olmadim. Menimcha, Sen-Kler uning bu odatini quvvatlaydi. Umuman, Sen-Kler hammaga rahmdillik qiladi-yu, faqat o‘z xotiniga rahmdillik qilmaydi.

Ofeliya indamay o‘tirar edi.

– Yo‘q, xizmatkorlar bilan faqat mana bunday muomala qilish kerak: ularni haddidan oshirmang va mahkam ushlang. Men yosh chog‘imdanoq buni yaxshi tushunardim, Yevaning esa uyimizdagi hamma negrlarni buzish qo‘lidan keladi. U katta bo‘lib, xo‘jalikka o‘zi qaray boshlagandan keyin nima qilar ekan, buni aslo tasavvur etolmayman. Xizmatkorlar bilan xushmuomala bo‘lish kerak, men ham ularga xushmuomalaman, lekin ular o‘z joylarini bilishlari kerak. Yeva esa buni hech tushunmaydi. Boya, Memmi uxlab olsin, deb „Kechasi sizga o‘zim qarab chiqay“, deganini eshitgandirsiz? Agar jilovidan tortib turmasangiz, uning qo‘lidan mana bunday hunarlar ham keladi.

– Ammo, – dedi Ofeliya qat‘iy suratda, – har holda xizmatkorlaringizni, charchab qolganda dam olishga haqli tirik maxluqlar deb hisoblarsiz deb o‘ylayman.

– Bo‘lmasam-chi, albatta! Ularga kerakli hamma narsa bo‘lsin, men buni, ayniqsa, diqqat bilan kuzatib turaman. Memmi bu kecha uxlamasa, yanagi kecha uxlar, unga baribir-ku. U juda yomon uyquchi. Men bunday uyquchini sira ko‘rgan emasman. O‘tirgan joyida ham, ishlab turgan joyida ham, tikka turgan yerida ham uxlab qolavera-

di, hamma vaqt va hamma joyda uxlaydi. Shuning uchun, Memmi uyquga to'yamaydi, deb qo'rqishi kerak emas. Lekin, xizmatkorlarga nafis gul yoki xitoy chinnisini ehtiyot qilganday muomala qilish juda kulgili! – dedi Mari, o'zining katta kushetkasidagi yostiqlarga botgani holda, ichiga atirli uksus solingan chiroyli shishani oldiga olar ekan.

– Ko'rdingizmi, – deb davom etdi u, zaif ovoz bilan, – ko'rdingizmi, egachi Ofeliya, o'zim to'g'rimda ko'p so'zlashni yaxshi ko'rmayman. Bunday odat menda yo'q: buni yoqtirmayman. Rostini aytsam, buning uchun menda mador ham yetmaydi. Lekin iqror bo'lishim kerakki, ba'zi narsalarda Sen-Kler bilan bizning murosamiz kelishmaydi. Sen-Kler meni sira tushungan va qadrimga yetgan emas. Betobligimning tub sababi xuddi mana shu deb o'ylayman. Aminmanki, Sen-Kler yaxshi niyatli, tuzuk kishi, lekin erkaklar manman va xotinlarga juda beparvo bo'ladilar! Mendagi taassurot mana shunday.

Hamma yangi angliyaliklar singari, birovning oilaviy ishiga aralashishdan g'oyat qo'rqadigan Ofeliya shu tobda, Marining ichki bir sirini ochishga shaylanganini sezdi. Shuning uchun yuziga qayg'uli va beparvo tus berib, chok qutisidan uzunligi bir metr keladigan paypoqni oldi-da, zo'r berib to'qiy boshladi. Uning miyasiga, odamlarning qo'li bo'sh paytida shayton ularni o'z domiga ilintiradi, degan tushuncha azaldan singdirilgan edi, shuning uchun ham bu paypoq unda doim tayyor turar edi. U go'yo: „Meni so'zlashga majbur eta ko'rmang, men sizning ishingizga aralashishni sira istamayman“, degandek labini mahkam qimtib oldi. Chindan ham u toshdan yasalgan arslon kabi beparvo ko'rinardi. Ammo Mari bunga e'tibor bermasdi. U hasratini aytish mumkin bo'lgan kishi qo'lga kirgan va unga so'zlashni o'z burchim deb hisoblar edi.

Shuning uchun u, atirli uksus iskab darmonga kirib, so'zida davom etdi:

– Bilasizmi, Sen-Klerga tekkanimdan keyin, uyiga o'z sarmoyam va negrlarim bilan kelganman, shuning uchun o'z qullarimni nima xohlasam qilaveraman, bunga haqqim bor. Sen-Klarning o'z mulki va xizmatkorlari bor, u ham ularni nima qilsa qilaversin, buning uchun o'zimni baxtiyor deb bilaman. Lekin Sen-Kler hadeb xo'jalik ishlarimga suqilaveradi. Lekin uning aql bovar qilmaydigan allaqanday yovvoyi jinni nazarlari bor. U, xususan, xizmatkorlar bilan muomala qilish masalasiga g'alati qaraydi. U xizmatkorlar bilan shunday muomala qiladiki, go'yo ularni mendan ham, o'zidan ham yuqori qo'yadi degan xulosaga keladi kishi. Xizmatkorlar unga juda ko'p tashvish orttirishadi, u esa ularni pisht ham demaydi. Ba'zi masalalarda Sen-Kler juda yomon... Umuman, u xushko'ngil ko'rinsa ham, rostini aytsam, undan qo'rqaman. U bu yerda ishni shunday qilib qo'yganki, birovni bir shapaloq urishga hech kimning haqqi yo'q. Keyin u bu tartibni shunday kuzatib boradiki, uning bu qiliqlariga qarshi biron narsa deyishga tilim ham bormaydi. Buning oqibati nima bilan tugashini tezda o'zingiz ham ko'rasiz. Ularning birontasi Sen-Klerni oyoq ostiga olib tepmoqchi bo'lgan chog'da ham u indamaydi, men bo'lsam... o'zingiz ko'rib turibsiz, mendan hech nima talab qilib bo'lmaydi. Bu negrlarni o'zingiz ham bilsangiz kerak. Aslida, ular keksa bolalar axir.

– Xudoga shukr, bundan xabarim yo'q, – deb sovuqqina javob berib qo'ya qoldi Ofeliya.

– Bo'lmasa bu to'g'rida ba'zi narsalarni bilib ham olarsiz, agar bizning joylarimizda turib qolsangiz, o'z boshingizga ham tushar! Bularning iflos, miyasiz, go'dak-

tabiat, ahmoq, beg'am, noshukr maxluq ekanliklarini hali bilmaysiz!

Negrlarning noshukrligi va ahmoqligi haqida so'z yuritilgan chog'da har safar Mari o'ziga ajoyib yangi kuch kirganini his etar edi. Hozir ham u ko'zlarini katta ochdi va o'zining bedarmonligini butunlay unutgandek bo'ldi.

– Sen-Kler esa menga juda jiddiy qilib, Memmini eridan ajratib olib ketish, seni mendan ajratib olib ketish bilan bab-baravar, dedi. Ular bilan bizni baravar qilib bo'ladimi axir?

Memmida mendagidek hissiyot bor deysizmi, unda bu qobiliyat ham yo'q. Shunday bo'lsa ham Sen-Kler buni sezmaydi, uningcha, men Yevani qanday sevsam, Memmi ham qora ifloslarini shunday sevarmish... Tom o'zining hozirgi turmushidan shikoyat qilolmas edi. Kichkina Yeva otasidan:

„Men tomoshaga chiqqanimda va otliq sayohat qilganimda Tom doim meni kuzatib yursin“, deb so'rab oldi. Bu Yevaning muhabbatbaxsh, oliyjanob dilidagi tabiiy minnatdorlik hislarining bir ifodasi edi. Shunga ko'ra Tomga, Yeva chaqirganda hamma ishni tashlab uning xizmatiga borish haqida buyruq berildi. Bu xizmat Tom uchun o'ng emas edi, deb aytib bo'lmasdi. Endi Tom juda yaxshi kiyingan, chunki Sen-Kler o'z xizmatkorlarining libosiga ayricha e'tibor berardi. Otxonadagi ishni, aslida, ish demasa ham bo'lardi. Tomga maxsus yordamchi berildi. Tom unga yo'l-yo'riq ko'rsatib turishi lozim edi. Uning o'zi otga qarashmas, chunki Mari shunday deb talab qildi: „Tom mening yonimga kelganda undan otxona hidi kelmasin, chunki asablarim hech qanday hidni ko'tara olmaydi; jafokash hayotim umrbod so'nishi uchun zarracha yoqimsiz hid kifoyadir“, dedi.

Yaxshi tozalangan kastum, yumshoq shlapa, sara etik, gardsiz yoqa, manjet – bular hammasi Tomga jiddiy va salobatli tus berar edi.

Tom uchun yana shu ham yoqimli ediki, u endi juda chiroyli qo‘rg‘onchada yashar edi, negrlar esa go‘zallikka juda e‘tiborchan bo‘ladilar. U qushlarga, gullarga, fontanlarga, yorug‘ va chiroyli hovliga, shoyi pardalarga, kartinalarga, qandillarga, haykalchalarga qarab ohista zavqlanar edi (bu narsalar tufayli mehmonxonalar uning ko‘ziga Olovuddinning sehrli saroyi bo‘lib ko‘rinar edi).

Yakshanba kunlarining biri erta bilan juda yasangan Mari Sen-Kler ayvonda turib, nozik qo‘liga brilyantlar bilan bezalgan bilaguzugini taqar edi. U brilliant ipak va to‘rlarga o‘ralib, o‘ziga mukammal oro berib, o‘z xudожo‘yiligini ko‘rsatmoq uchun kiborlar to‘planadigan butxonaga borishga shaylanardi. Mari yakshanba kunlari juda taqvodor bo‘lishga odatlangandi. Mana, sarvqomat, latif va nozik bo‘lib beka butxonada turibdi, uning harakatlari ham shunga monand go‘zal! To‘r sharf oq bulutdek uni chulg‘ab olgan. U g‘oyat jilvali ko‘rinar va o‘zini juda saxovatli his etar edi. Uning yonida turgan Ofeliya esa bus-butun boshqacha taassurot qoldirardi. Bunga sabab – uning haligiday ziynatlar, shoyi ro‘moli va nafis dastro‘molchasi yo‘qligidan emasdi, balki sherigiga jilva naqadar xos bo‘lsa, qattiqlik va beso‘naqaylik bunga shu qadar xos edi.

– Yeva qani? – deb so‘radi Mari.

– U pillapoyada to‘xtab, Memmi bilan bir narsa to‘g‘risida so‘zlashyapti.

Yeva pillapoyada Memmi bilan nimalar to‘g‘risida gaplashardi?

– Memmijon, bilaman – sening boshing juda qattiq og‘riyapti.

– Xudo yorlaqasin sizni, Yevaxon, keyingi vaqtda bo-

shim doim og'riydigan bo'lib qoldi. Lekin siz bu to'g'rida tashvishlanmang!

– Sen hozir tomoshaga borayotganing uchun xursandman. Yozilasan. Mana bu senga, Memmi, – deb qiz uni quchoqladi, – atirli uksus solgan shishamni ol.

– Sizga nima bo'ldi, Yevaxon! Tilla-yu olmosdan qilingan shunday yaxshi narsani-ya? Ey Xudoyim, hech bo'lmaydi! Hech qanaqasiga olmayman!

– Nega? Senga uksus kerak, shunday emasmi? Menga u kerakmas. Oyimning boshi og'risa doim shuni hidlaydi, sen ham hidlasang yaxshi bo'ladi. Meni xursand bo'lsin desang, olasan!

– Bu muborak zotning og'zidan chiqayotgan so'zlarini eshiting – dedi Memmi. Xuddi shu payt Yeva uning qo'yniga shishani suqib qo'ydi-da, uni o'pib, pillapoyadan yugurib tushib ketdi.

– U yerda nima qilayotgan eding? – deb so'radi Mari.

– Memmiga uksus solgan shishamni berdim.

– Yeva! – dedi Mari chidamsizlik bilan yer tepinib. – Oltin shishangni Memmiga berdingmi! Nima qilish mumkin-u nimani qilish mumkin emasligini qachon tushunasan? Borib hozir qaytarib ol!

Yeva g'amgin va qayg'urib, orqasiga qaytdi.

– Mari, qo'y, bolaga ozor berma. Mayli, istaganini qilsin, – dedi Sen-Kler.

– Sen-Kler, axir bu fe'li bilan u dunyoda qanday qilib yashaydi? – deb e'tiroz bildirdi Mari.

– Kuzen, siz butxonaga borasizmi? – deb so'radi Ofeliya, Sen-Kler tomon birdan burilib.

– Yo'q, rahmat, bormayman.

– Men doim „Sen-Kler butxonaga borsa ekan“, deb orzu qilaman, – dedi Mari, lekin unda hech qanday diniy hissiyot yo'q. Bu yaxshi emas!..

– Mana, ko‘rdingmi, Yevangelina, – der edi yo‘lda ke-
ta turib Mari, – xizmatkorlar bilan har doim yaxshi muo-
malada bo‘lish kerak, lekin aslo ularga o‘zing bilan teng
deb muomala qilib bo‘lmaydi. Mabodo Memmi kasal bo‘-
lib qolganida uni sen o‘z karavotingga yotqizarmading?

– Albatta, oyi, – dedi Yeva, – chunki u vaqtda unga
qarash o‘ng‘ayroq bo‘lardi, bundan tashqari, mening ka-
ravotim unikidan ancha yaxshi.

Bu javobdan Mari g‘azabga keldi.

– Nima qilsam bu bola meni tushunar ekan? – deb
xitob qildi u.

– Hech narsa qilolmaysiz! – Ma‘nodor qilib dedi
Ofeliya.

Yeva bir necha vaqtgacha g‘amgin va xijolat bo‘lgan-
dek ko‘rinadi. Lekin bolalar bir kayfiyatda uzoq qolmay-
dilar, bu bir baxt. Darhaqiqat, u bir necha daqiqadan so‘ng
guldurab ilgari ketayotgan ekipajning derazasidan qarab,
xursandlik bilan kula boshladi.

XVII BOB

Ozod inson o‘zini qanday himoya qiladi

Oqshom tugab borardi. Kvakerlar uyida sokin besa-
ranjomlik boshlandi. Raxil Gollidey uyning u boshidan bu
boshiga shoshilmasdan yurib, o‘zining xonaki zahiralari-
dan safar uchun zarur narsalarni olardi, chunki musofirlar
shu kecha jo‘nardilar.

Oqshom ko‘lankalari sharqqa tomon cho‘zildi. Yuma-
loq qizil quyosh ufq ustida to‘xtab xayol surganday, xo-
tini bilan Jorj o‘tirgan kichkina yotoqxonaga ohista sariq
nur tashladi. Jorj tizzasiga bolasini o‘tirg‘izgan, Elizaning
qo‘li esa uning qo‘li ustiga qo‘yilgandi. Ikkovlari ham jid-

diy qiyofada xayolga cho'mib o'tirar, yuzlarida ko'zyoshi izlari ko'rinib turardi.

– Shunday, Eliza, – dedi Jorj, – bilaman, aytganlaring hammasi rost. Sen saxovatli san, mendan ko'ra yaxshisan. Men ham sening aytganingni bajarishga harakat qilaman. Men shunday qilamanki, bosgan har bir qadamim ozod inson nomiga munosib bo'lsin.

– Kanadaga yetib borganimizdan keyin esa, – dedi Eliza, – men senga yordam bera boshlayman. Yaxshi tikishni bilaman, kir yuvaman va eng nafis kiyimlarni dazmolash qo'limdan keladi. Ikkimiz bir bo'lib tirikchiligimizni o'tkazaveramiz.

– Shunday, Eliza, ishqilib biz birga bo'laylik va o'g'limiz biz bilan bo'lsin. Oh, Eliza, har kimning xotini va bolasi o'shaning o'ziniki bo'lib, bunga boshqa hech kimning daxli yo'q ekanligini bilmoq qanday zo'r baxt-a... Mana shuni kishilar tushunsalar ekan!

Men, xotini bilan bolalarini o'zimmiki deb ayta oladigan kishining yana boshqa biron narsa istashiga doim taajjublanardim. Bizning qo'limizda boshqa hech narsa bo'lmasa ham, men hozirning o'zidayoq o'zimni kuchli va badavlat his qilyapman. Garchi men yigirma besh yoshimgacha har kuni og'ir mehnat qilib kelgan va bir chaqam, boshpanam hamda bir parcha yerim bo'lmasa-da, men roziman... minnatdor bo'laman, faqat menga ozor bermasinlar. Men ishlayman va mister Shelbiga sen va bolang uchun pul yuboraman. Lekin ilgari xo'jayinimdan esa bir tiyin ham qarzdor emasman: u meni ishlatib, men uchun to'lagan pulini besh hissa chiqarib oldi.

– Lekin biz hali xavf-xatardan xoli bo'lganimiz yo'q-ku, – dedi Eliza. – Biz hali Kanadada emasmiz.

– Rost, – dedi Jorj, lekin, nazarimda, men ozodlik havosini emayotirman va bu menga kuch bermoqda.

Qo'shni xonadan ovoz kela boshladi, birov eshikni qoqdi. Eliza turib eshik ochdi.

Simeon Gollidey kirib keldi, u bilan birga bir kvaker ham kirdi. Simeon: „Bu kishi Fineas Fletcher bo'ladi“, deb tanishtirdi, Fineas mug'ombirroq va ziyrak, novchadan kelgan sariq kishi edi. Uning ko'zlarida Simeon Gollideyning ko'zlaridagi tinchlik va mo'minlik alomatlari ko'rinmasdi. Aksincha, u ayyor, aqli-hushi joyida va o'z qadr-qimmatini biladigan odam ko'rinar edi. Uning bu xususiyatlari boshidagi chambarak kvakercha shlapasi va kvakercha shevasi bilan yaxshi bog'lanmas edi.

– Do'stimiz Fineas, sen va sening hamrohlaring uchun zarur bo'lgan ba'zi bir muhim narsalarni bilib olibdi, Jorj, – dedi Simson, – uning so'zini eshitsang yaxshi bo'lar edi.

– Shunday, darhaqiqat, ba'zi narsalarni bildim, – dedi Fineas, – bu esa ba'zi vaqtlarda odam bir ko'zini ochib uxlamog'i kerak, demakdir. O'tgan kecha men bundan ancha chetdagi kichkina bir oshxonada to'xtadim. Bu joyni sen bilasan. Simson, u yerda biz bultur katta isirg'a taqqan yo'g'on xotinga olma sotgan edik. Men yuraverib charchagan edim, shuning uchun, ovqat yeb bo'lganimdan keyin burchakdagi g'aram qoplar ustiga cho'zilib olib, ustimga qo'tas po'stinni tortib, joy solib berishlarini kuta boshladim. Shu ko'yi qattiq uxlab qolibman.

– Bir ko'zingni ochibmi, Fineas? – deb bemalol so'radi Simeon.

– Yo'q, ikki soatcha ikkala ko'zimni ham yumib uxladim, chunki juda charchagan edim. Lekin biroz uxlab olganimdan keyin qarasam, xonada, stol yonida allaqanday odamlar gaplashib ichib o'tirishibdi. Xususan, ular kvakerlarni og'izga olayotganlarini eshitib, so'zlariga quloq solmoqchi bo'ldim. „Mana, – dedi ulardan biri, – ular, shubhasiz, kvakerlar qishlog'ida bo'lsalar kerak“. Buni

eshitib, men quloq soldim va ularning qochoqlar haqida so'zlayotganini angladim. Ular mening oldimda o'z rejalarini butunlay ochdilar. U yigitni, – dedilar ular, – qaytarib Kentukkiga, xo'jayinnikiga jo'natishadi, xo'jayini negrlarda qochishga havasni yo'qotish uchun yaxshilab uning tanbehini beradi. Xotinini esa yoniga ikkita yigit qo'shib, sotgani Yangi Orleanga yuboradi. Ular xotinni bir ming olti yuz yoki bir ming sakkiz yuz dollarga pul qilishni mo'ljallayaptilar. Bolani uni sotib olgan savdogarga beradilar. Jimni esa onasi bilan birga Kentukkiga, xo'jayinning oldiga yuboradilar. Ular qochoqlarni ushlash, boshqa shahardan ikki politsiya xodimi olishlarini va xotinni avval sudga chaqirtirajaklarini aytdilar. Ularning ichidagi bir majriq pismig'i sudda – „Bu mening o'z qulim“, deb qasam ichadi, shundan keyin unga xotinni beradilar, u esa xotinni Janubga olib ketadi. Ular bizning bu kecha qaysi yo'ldan jo'nashimizni yaxshi biladilar. Ular olti kishi bo'lib bizning orqamizdan quvgani chiqishadi. Sakkizta bo'lib chiqishsa ham ajab emas. Xo'sh, endi biz nima qilishimiz kerak?

Bu ma'lumotni eshitib o'tirgan kishilar chindan ham rassom qalami tasviriga loyiq edi. Raxil Gollidey xamir qilishni tashlab, un yuqi qo'llarini baland ko'tardi. Uning afti-basharasi qattiq hayajonga tushganini bildirib turardi. Simson chuqur o'yga botib qoldi. Eliza erini quchoqlagan holda uning yuziga pastdan yuqoriga termilib qarardi. Jorjning ko'zlari chaqnardi. U mushtumini yumdi va yuzida jiddiy alomatlar zohir bo'ldiki, bu hol – xotining ochiq savdoda sotilishini va o'g'li qulfurushga yuborilishini bilgan har bir erkakda sodir bo'lishi aniq edi.

– Nima qilamiz endi, Jorj? – hadiksirab so'radi Eliza...

– Nima qilishimni bilaman! – dedi Jorj va narigi xonaga o'tib, to'pponchalarni ko'zdan kechira boshladi.

– Balli, balli, – dedi Fineas. – Ko‘rdingmi, Simeon, ajoyib ishlar bo‘ladiganga o‘xshaydi!

– Ko‘ryapman, – dedi Simeon uf tortib. – Otishmasiz ish bitganda yaxshiroq bo‘lardi-da.

– Men bu ishga hech kimni aralastirishni istamayman, – dedi Jorj. – Agar sizlar menga aravalarigizni berib tursangiz va yo‘lni ko‘rsatib bersangiz, menga hech qanday kuzatuvchi kerak emas. Narigi manzilga o‘zim yolg‘iz borib olaman. Jim devday pahlavon, jonidan kechgan kishidek jasur. Men ham yuraksizlardan emasman.

– Yaxshi, do‘stim, – dedi Fineas, lekin har holda kuzatuvchi kerak. Sen juda boplab mushtlasharsan, istaganingcha olishaver. Lekin yo‘lni sendan yaxshiroq bilaman.

– Men sizni bu ishga qatnashtirishni istamayman-da, butun gap shunda, – dedi Jorj.

– Qatnashtirishni deysanmi? – e‘tiroz qildi Fineas, yuzida mug‘ombirlik alomati bilan. – Bo‘lmasa meni qatnashtira boshlaganingizda o‘zimni ogohlantirib qo‘y.

– Fineas aqlli va ish ko‘rgan odam, – dedi Simeon, – agar, Jorj, unga ishonib qo‘yib bersang, juda yaxshi ish qilgan bo‘lur eding. Keyin, – dedi u, qo‘lini Jorjning yelkasiga ohista qo‘yar ekan, to‘pponchalarni ko‘rsatib, – bu narsalarni ishlatishga shoshilmasang ham bo‘ladi: yoshlik qilib, qiziqqon bo‘lma.

– Men hech kimga hujum qilmayman, – dedi Jorj. – Bu mamlakatda men faqat shunigina so‘rayman: menga tegmasinlar va tinch ketishimga imkon bersinlar. Lekin, – deb u dahshat bilan xo‘mraydi, – mening onam bor edi, uni yangi Orleanda bozorga olib chiqib sotganlar. Mendan xotinimni tortib olib, uni ham o‘sha bozorda sotadigan bo‘lsalar-u, uni himoya qilmoq uchun kuchli qo‘llarim bo‘la turib indamay qarab turayinmi? Yo‘q, men so‘ng-

gi nafasimgacha olishaman, ularga xotinim bilan bolamni bermayman. Xo'sh, qaysingiz bu ishimni chakki deysiz?

– Hech kim chakki deyayotgani yo'q, Jorj. Boshqacha yo'l tutish mumkin ham emas, – dedi Simson.

Mening o'rnimda siz bo'lsangiz shunday qilmasmidingiz, ser?

– Bu ishlar hech qachon boshimga tushmas deb o'ylayman, – dedi Simeon. – Kishi zaiflik qiladi!

– Agar tuzukroq musht ketdi bo'lib qolsa, mushtlashish uchun qurbim yetadi, – qizg'inlik bilan dedi Fineas, – do'stim Jorj, senga hujum qilgan odamga omon bermayman, imoning komil bo'lsin!

– Tug'ma kvakerlardan emasliging yaqqol bilinib turibdi, Fineas, – dedi Simeon. – Turib-turib birdan aslingga qaytib qolasan.

Fineas yaqindagina qalin o'rmonlarda mardonavor hayot kechirgan kiyiklarni ustalik bilan otib oluvchi mergan edi. Uning mushtlari zo'rligi bilan mashhur edi. Lekin u go'zal bir kvaker ayolga uylandi va unga maftunligidan kvaker bo'lishga majbur bo'ldi. U Kvakerlar jamoasining halol, kamtar, hushyor va faol a'zolaridan bo'lib qolsa ham, kvakerlarning eng taqvodorlari uni hali ancha yovvoyi va jilovsiz deb hisoblar edilar.

– Do'stimiz Fineas doim o'z bilganicha ko'maklashadi, – dedi Raxil kulimsirab. – Lekin shunday bo'lsa ham, uning beg'arazligini bilamiz.

– Qani, – dedi Jorj, – yo'lga chiqsak ham bo'lar endi?

– Men soat to'rtida yo'lga chiqdim, otlarni rosa qichab keldim, u gazandalar aytgan vaqtlarida yo'lga chiqqan bo'lsalar, men ularni ikki-uch soat orqada qoldirdim. Har holda qorong'i tushguncha yo'lga chiqilmagani yaxshiroq. Nega desangiz, biz o'tadigan qishloqda bir qancha

yaramaslar bor. Ular aravamizni ko'rishsa, bizni u yerda uzoqroq ushlab qolishlari mumkin. Menimcha, ikki soatdan keyin jo'nasak. Men Maykl Krosning oldiga kirib: „Otingni minib orqamizdan yur va kimki orqamizdan quvsa, xabar qil“, deb iltimos qilaman. Uning oti chopqir, har qanday otdan o'zadi. Endi men borib, Jim bilan kampirni ogohlantiray, yo'lga tayyorlansinlar, o'zim ham otni tayyorlay. Biz ularni juda orqada qoldirib ketamiz. Ular bizga yetib olmasdan mo'ljallangan joyimizga yetib olamiz, imkonimiz bor. Xo'sh, tetik bo'l, do'stim Jorj. Bunday ishlarni birinchi marta ko'rayotganim yo'q, – dedi Fineas va chiqib ketdi.

– Yasha Fineas! – dedi Simeon. – Bu odamdan pand yemaysan, xotirjam bo'l!

– Bizni deb sizlar baloga qolishlaringiz mumkin, shunga qayg'uraman, – dedi Jorj.

– Do'stim, bizni xursand bo'lsin desang, bu haqda ortiq so'zlama. Biz burchimizni o'tayotirmiz. Boshqacha qilolmaymiz. Endi, ona, – dedi Raxilga qarab, tezroq bo'l – do'stlarimizni och jo'natish yaxshi emas.

Raxil bilan uning bolalari makka zog'ora pishirar, cho'chqa go'shti va jo'ja qovurar hamda stolga dasturxon yozar edilar. Bu chog' Jorj xotini bilan kichkina uychada qo'llarini bir-birlarining yelkalariga tashlashib o'tirardilar. Ular bir necha soatdan keyin abadiy judolik tahdid qilayotganini bilgan er va xotin kabi so'zlashar edilar.

– Eliza, – dedi Jorj, – bilasanmi, do'stlari, uyi, yeri va puli bor odamlar sen bilan bizday – quruqbo'ylaridan boshqa hech narsasi yo'qlar kabi bir-birlarini sevolmaydilar. Eliza, sen bilan tanishmasimdan ilgari meni bechora onam va opamdan bo'lak hech kim sevmas edi. Men bechora Emiliyamni, uni olib ketmoq uchun qulfurush

kelgan kuni ertalab oxirgi marta ko'rdim. U men uxlab yotgan burchakka kelib: „Bechora Jorj, sening yagona jigargo'shang ketyapti! Sening holing nelar kechadi endi, sho'rlik bola?“ dedi. Men irg'ib turib, uni quchoqlab yig'ladim, uning ko'zlariga ham yosh quyuldi. Bu so'z mening qulog'im eshitgan so'nggi shirin so'z edi, keyinchalik, uzoq yillar o'tib ketdi, bunday so'zni hech eshitmadim. Mening bag'rim qotdi va to senga duch kelgunimgacha kuldek qurib qoldi. Sening ishqing bag'rimga hayot baxsh etdi. O'sha chog'dan boshlab boshqa odam bo'lib qoldim. Endilikda esa, Eliza, tirik ekanman, seni mendan tortib ololmaydilar! Agar o'ligim ustidan bosib o'tsalar, unda boshqa gap!

– E Rabbim, o'zing rahm qil! – Ho'ngrab yig'larkan, dedi Eliza.– Sendan birgina narsa so'raymiz: shu mamlakatdan birga chiqib olsak bo'ldi.

Raxil kirib, astagina Elizaning qo'lidan ushlab, stol tomon yetakladi. Stol yoniga hammalari o'tirishganda, eshik taqillab, Ruf kirdi.

– Men bolaga paypoq oborib beray, deb chopib kel dim, – dedi u. – Mana, uch juft issiq jun paypoq. Bilasanmi, Kanadada juda sovuq... Qo'rqmayapsanmi, Eliza? – U Elizaning yoniga kelib, qo'lini silkidi, keyin Garriga kulchacha tutqizdi. – Bunga bir paket kulchacha keltirdim... Bolalar tez-tez ochqab turadi.

– Qulluq! Juda vullomatsiz! – dedi Eliza.

– O'tir, ovqat ye, Ruf, – dedi Raxil.

– Rahmat, iloyasi yo'q! Bolani Jonga yolg'iz qoldirganman, pirojkalar pechkada. Bir daqiqa ham o'tirolmayman, o'tirib qolsam, Jon pirojkalarni kuydirib qo'yadi, qanddondagi qandlarni bitta qo'ymay bolaga yediradi. U kishi shunaqa! – dedi kulib kichkina kvakercha. – Xo'sh,

xayr, Eliza. Xayr, Jorj. Oqyo‘l bo‘lsin! – dedi-da, shoshilganicha chiqib ketdi.

Ovqat yeb bo‘lishlari bilan, xiyol o‘tmay, eshik yoniga katta soyabon arava kelib to‘xtadi. Yulduzlar chaqngan kecha edi. Fineas aravadan sakrab tushib, yo‘lovchilarini joylay boshladi. Jorj o‘g‘lini ko‘tarib, Eliza bilan qo‘ltiqlashib chiqdi. U salmoqlab qadam tashlar, yuzida qat‘iyat barqaror edi, Raxil bilan Simeon ular ortidan chiqishdi.

– Birpas tushib turinglar, – dedi Fineas aravada o‘tirganlarga, men ayollar bilan bolaga joy hozirlay, ular undan yiroq bo‘lsin.

– Manavi ikkita po‘stakni ol, – dedi Raxil – Butun tun yurishga to‘g‘ri keladi, taglari yumshoqroq bo‘lsin.

Avval Jim aravadan kampir onasini avaylab tushirdi; kampir uning qo‘liga yopishib, quvg‘inchilar hozir yetib kelib qoladigandek qo‘rqib, alanglardi.

– To‘pponchalaring joyidami, Jim? – deya sekin, ammo qat‘iy yo‘sinda so‘radi Jorj.

– Bo‘lmasam-chi – dedi Jim.

– Agar ular yetib olishsa, nima qilishing darkor, bilasanmi?

– Bilsam kerak, – dedi Jim zo‘r ko‘ksini kerib. – Yoki ular onamni tortib olsa qarab turadi deb o‘ylaysanmi?

Bu qisqa so‘zlashuv chog‘ida Eliza ko‘ngilchan do‘sti Raxil bilan xayrlashdi. Simson unga aravaga chiqqishga yordam berdi va uni Garri bilan birga po‘stak ustiga o‘tqazdi. Keyin kampirni o‘tqazdilar: Jorj bilan Jim ularning ro‘parasiga, Fineas esa oldinga o‘tirdi.

– Yaxshi boringlar, do‘stlarim! – dedi Simeon.

Arava qatqaloq yo‘lda silkinib, guldurab jo‘nadi, g‘ildiraklar guldurashidan so‘zlashib bo‘lmas edi. Ular

goh uzoq va qorong'i chakalakzor yo'llardan, goh yaydoq va bo'm-bo'sh dalalardan yurib bordilar. Ular tepaliklarga ko'tarilib, vodiylarga tushib borgan sayin uzoqlashaverdilar. Bola tez orada onasining tizzasida uxlab qoldi. Yuragini oldirib qo'ygan baxtsiz kampir asta-sekin o'ziga kelib qo'rqmaydigan bo'lib qoldi. Eliza ham tashvishini unuta boshladi va mudrab ko'zini yumdi. Fineas hammadan tetik ko'rinar va xudojo'y kvakerlarning didiga uncha yoqmaydigan kuylarni hushtak qilib chalib borardi.

Soat uchga yaqinlashganda Jorj orqa tomonda, ancha narida chopib kelayotgan ot tuyoqlarining tovushini eshitib, Fineasni tirsagi bilan turtib qo'ydi. Fineas otlarni to'xtatib, quloq soldi.

– Maykl bo'lsa kerak, – dedi u. – Uning oti shekilli, chopishidan bilaman.

– U pastga tushib, hadiksirab yo'lga ko'z tutdi. Tepalik ustida ot boshini baralla qo'yib kelayotgan suvoriyning qorasi ko'rindi.

– Ha, rost, bu Maykl, – dedi Fineas.

O'zlarining nima qilishlarini bilmasdan turib, Jorj bilan Jim ham birdan aravadan tushdilar. Hamma qayrilib qarab, suvoriyga ko'z tikib jim qolishdi. Otliq yaqinlashib kelar edi. Mana u, vodiyya tushib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Lekin tez chopib kelayotgan otning oyoq tovushlari borgan sari yaqinlashar edi. Oxiri u tepalik cho'qqisida, kishi ovozi eshitilgudek masofada paydo bo'ldi.

– Balli, bu Mayklning o'zi! – dedi Fineas va qichqirdi. – Hoy Maykl.

– Fineas, senmisan?

– Ha! Nima yangiliklar bor? Ular yaqinmi?

– Orqamizdan kelishyapti... mast... so'kishyapti, sak-kiz-o'ngacha bor... Bo'ridek darg'azab.

U soʻzlar ekan, shamol tez chopib kelayotgan otlarning oyoq tovushlarini yetkazdi.

– Joy-joyingizga oʻltiring, yigitlar! – dedi Fineas. – Bordi-yu olishsalarimiz ham sal naribroq eltay!

Ikkovlari irgʻib aravaga chiqishlari bilan, Fineas otlarni haydadi. Suvoriy ularning yonida chopar edi. Arava gum-burlar, siltanar, qatqaloq yerda sapchir; quvgʻin tovushlar esa borgan sayin yaqinlashardi. Shovqinni eshitgan xotinarlar qoʻrqib aravadan qaradilar va ancha orqada, uzoqdagi tepalikda, tong shafagʻi nurida otliqlar toʻdasini koʻrdilar. Yana bir tepalikdan oʻtgach, taʻqibchilar aravani koʻrdilar. Uning oq qopdan qilingan soyaboni uzoqdan yaqqol koʻrinar edi. Qattiq qiyqiriqlar qochoqlar qulogʻiga yetdi. Eliza hushdan ketayozib, bolasini qattiq koʻksiga bosdi. Kampir, xudoga sigʻinib oh tortar, Jorj va Jim esa gʻazab bilan toʻpponchalarini qisib ushlab borardilar. Taʻqibchilar ularga tez yetib kelmoqda edi.

Arava birdan burildi, qochoqlar tepaliklar ustida tik koʻtarilib turgan qoyatosh yoniga yetdilar. Bu yakka qoyatosh oqarib borayotgan osmonda tund qorayib turar va boshpana hamda najot vaʼda qilgandek koʻrinar edi. Fineas ovchilik qilib yurgan vaqtlarida bu joyni yaxshi oʻrgangan edi.

– Chiqinglar! – dedi u, birdan otlarni toʻxtatib va yerga sakrab tushib. – Hammalaring chiqinglar, darrov boʻlinglar, endi orqamdan qoyatosh yoniga yuringlar! Maykl, otingni aravaga bogʻlab Amariyaning oldiga chop, u odamlarni olib yordamga kelsin!

Bir lahzada hammalari aravadan chiqishdi.

– Bu yoqqa! – dedi Fineas, Garrining qoʻlidan ushlab. – Yuguring, yuguring, ayollarga koʻmaklashing, orqada qolishmasin!

Zotan, ularga gap uqtirishning hojati yo'q edi. Qochoqlar juda tez chetan devordan oshib o'tib, qoyatoshga qarab yugurdilar. Maykl esa irg'ib otdan tushdi va otini aravaning orqasiga bog'lab, o'zi aravaga o'tirib, otlarni haydadi.

– Tepaga chiqinglar, – dedi Fineas, ular qoyatosh yoniga yetib, yulduz va tong shafaqlari nurida so'qmoqlarni ko'rgach, – Bu yer biz ovchilarning qadimgi panohimiz, Tezroq yuqoriga chiqinglar!

Fineas bolani ko'tarib, toshlar ustidan sakrab-sakrab oldinda borardi, uning ortidan Jim onasini opichlagan, Jorj va Eliza esa orqada borardilar.

Suvoriylar baqirib va so'kinib chetan devorga yetdilar va otdan tushib, qochoqlarning orqasidan chiqishga tayyorlandilar. Bir lahzada qochoqlar cho'qqi yoniga yetishdi. Bu yerdan so'qmoq juda tor dara ichidan borar, unga faqat bir kishi sig'ar edi, xolos. Dara ularni to'satdan keng chuqurlikdan chiqardi, bundan nari balandligi o'ttiz fut keladigan nishab tepali tog'lar yuksalar edi. Fineas chuqurdan lip etib o'tib, bolani barra o't bosgan yerga o'tqazdi.

– Hammangiz bu yoqqa! – deb chaqirdi u. – Agar joningiz aziz bo'lsa, sakrang!

Hammalari birin-ketin chuqurdan sakrab o'tdilar. Xar-sanglar ularni pastdagilardan yashirib turardi.

– Juda yaxshi, hammamiz shu yerdamiz. – dedi Fineas, shovqin solib tog'ga chiqayotgan ta'qibchilarga qarash uchun toshlar orasidan boshini chiqarib. – Qo'llaridan kelsa – qani, oldimizga chiqib ko'rsinlar. Kimki bu yerga kirmoqchi bo'lsa, sizlarning to'pponchalaringiz tahdidi ostida xarsangtoshlar orasidan o'tib kelishi kerak, shunday emasmi, yigitlar?

– Shunday, – dedi Jorj. – Modomiki bu jang biz uchun bo‘lar ekan, o‘zimiz yolg‘iz urishamiz.

– Marhamat, Jorj, istaganingcha urishaver, – dedi Fineas, tut bargini chaynab. – Mayli! Urish yomon ish emas. Faqat menga xalaqit berma, sizlarning jangingizni bir tomosha qilay. Uni qara, ular u yerda, pastda maslahat qilayotganga o‘xshaydi, qara, xuddi qo‘noqqa chiqqani intilayotgan tovuqqa o‘xshab, yuqoriga qarayptilar. Ular chiqmasdan yaxshi kengash bersang, bu niyatlaridan qaytsalar, yo‘qsa hammalari o‘qqa uchadi.

Tong nurida, pastda turgan kishilar aniq ko‘rinib turardi. Ular eski tanishlarimiz Tom Loker bilan Merke bo‘lib, yonlarida ikkita politsiyachi bilan bir to‘da bezorilar bor edi, odatda, bularni negr oviga olib bormoq uchun mayxonalardan bir shisha aroqqa yollar edilar.

– Xo‘sh, Tom, ular endi qo‘lga tushdi! – dedi birovi.

– Ho, ana ular! – deb javob berdi Tom – Men ularning yuqoriga chiqayotganlarini ko‘rdim... Mana, so‘qmoq ham bor ekan, qoyaning ustiga chiqsak bo‘ldi – tappa bosib olamiz. Axir, ular o‘zlarini tog‘dan pastga tashlamas.

– Lekin, Tom, ular qoyaning orqasiga o‘tib olib o‘q uzsalar nima deysan? – dedi Merks. – Unda uncha ma‘qul ish bo‘lmaydi.

– O‘ho‘! – kulimsirab dedi Tom. – Sen doim joningning omonligini o‘ylaysan, Merks! Negrlar juda qo‘rqoq bo‘ladi. O‘q uzishga jur‘at etolmaydi.

– Jonimning omonligini nega o‘ylamayin ekan! – dedi Merks. – Bisotlarimning eng yaxshisi – jonim. Negrlar gohida devdek mushtlashadi.

Bu chog‘ qoya tepasida Jorj ko‘rindi.

– Janoblار, sizlar kim bo‘lasiz, sizlarga nima kerak? – xotirjamlik bilan, dona-dona qilib so‘radi u.

– Bizga qochoq negrlar kerak, – dedi Tom Loker. – Bizga Jorj Garris, Eliza Garris va ularning o'g'li kerak. Bizga Jim Selden bilan uning kampiri kerak. Bu yerga biz bilan birga polismenlar kelishgan, qamash uchun qo'limizda orderlarimiz ham bor. Biz kerakli odamlarni qo'lga olamiz ham, eshitdingmi? Shelbi okrugidagi kentukkilik mister Garrisga qarashli Jorj Garris sen emasmisan?

– Ha, Jorj Garris men bo'laman. Ilgari kentukkilik mister Garris meni chindan ham o'z mulkim deb aytar edi. Lekin endi men ozod kishiman va xotinim bilan bolamni o'zimmiki deb hisoblayman. Jim va uning onasi shu yerda. O'zimizni himoya qilmoq uchun bizning qurolimiz bor, shu sababli biz birlashamiz. Istasangiz, bu yerga chiqishingiz mumkin, lekin qaysi biringiz o'q yetadigan joyga kelib qolsangiz – til tortmay o'lasiz. Kim yaqinlashsa o'la beradi, bitta qoldirmay qirib tashlaymiz.

Xayr, bas, – dedi ko'pchigan semiz bir odam oldinga chiqar ekan, mishirinib, – Hoy yosh yigit, biz bilan bunday so'zlashmang. – Biz – qonun odamlarimiz. Qonun, kuch va hokimiyat biz tomonda. Shuning uchun tinchlik bilan taslim bo'linglar, chunki baribir taslim bo'lasiz.

– Qonun va hokimiyat siz tomoningizda ekanini juda yaxshi bilaman, – afsuslanib dedi Jorj. – Siz mening xotinimni olib Yangi Orleanda sotmoqchi bo'lasiz, o'g'limni esa buzoq singari qulfurushning qulxonasiga tashlamoqchisiz. Jimning keksa onasini esa yana o'sha muttahamga jo'natasiz, u muttaham esa Jimga ozor berolmasdan, uning onasini urar va ranjitar edi. Men bilan Jimni esa xo'jayin deb aytgan kishilaringiz yana ursin, azoblasin va oyoqlari ostida piypalasin uchun qaytarib yubormoqchi bo'lasiz. Agar sizning qonunlaringiz shularga yo'l qo'yar ekan, sizlarga va qonunlaringizga

ming la'nat! Lekin bizlarni ushlayolmaysiz. Biz sizning qonunlaringizni tanimaymiz! Biz sizning mamlakatingizni tanimaymiz! Biz bu yerda sizlar kabi ozod turibmiz va o'z ozodligimiz uchun so'nggi tomchi qonimiz qolguncha urishamiz.

Jorj o'zining „mustaqillik deklaratsiyasi“ni bayon etayotganda, yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Tong nurlari uning qoracha yuzini hamda g'azab va iztirobdan yongan qora ko'zini yoritardi.

Uning turishi, ovozi, ko'zi va harakati pastda turganlarga ta'sir qildi, ular indamay qolishdi. Kishidagi tetiklik va qat'iylikda xosiyat bor. U eng dag'al odamlarni ham jim qolishga majbur etadi. Jorjning so'zi yolg'iz Morksga ta'sir qilmagan edi. U shoshilmasdan to'pponchasini o'qladi-da, xuddi Jorj so'zdan to'xtagan chog'da o'q uzdi.

– Baribir, o'likmi, tirikmi, Kentukkida uning uchun bir xil haq to'laydilar, – dedi u beparvo, nimchasiga to'pponchasini artar ekan.

Jorj orqaga tashlandi, Eliza qichqirib yubordi. O'q Jorjning sochi tepasidan o'tdi-da, Elizaning yuzini sal yalab, daraxt tanasiga kirib ketdi.

– Hechqisi yo'q. Eliza, – shoshib dedi Jorj.

– Agar va'z aytmoqchi bo'lsang, pana joyda turib ayt, – dedi Fineas. – Bular muttahamlar-ku, ko'rmaysanmi!

– Xo'sh, Jim, – dedi Jorj. – to'pponchangga qara-chi, tuzukmikan, men bilan shu darani qo'riqla. Bu yerga birinchi tumshuq suqqanni men o'ldiraman, sen ikkinchisini va hokazo. Bitta odamga ikkita o'q sarf qilmaslik kerak, buni unutma.

– Tekkizolmasang-chi?

– Tekkizaman, – sovuqqonlik bilan dedi Jorj.

– Juda yaxshi! Yigit ishiga pishiq ko'rinadi! – tish orqasidan g'udingladi Fineas.

Merks o'q uzgandan so'ng, ta'qibchilar bir necha vaqt nima qilishlarini bilmay turdilar.

– O'qingiz bittasiga tekkanga o'xshaydi, – dedi ularning biri. – Birovning dodlaganini eshitdim.

– Men yuqoriga chiqaman, – dedi Tom. – Negrlardan hech qachon qo'rqqan emasman, endilikda ham qo'rqmayman. Qani, mening orqamdan kim boradi? – dedi-da, qoyama-qoya yuqoriga sakray boshladi.

Jorj bu so'zlarni aniq eshitdi. U, yonidan to'pponchasini olib, uni siypab ko'rdi-da, daradan birinchi ta'qibchi chiqadigan joyni nishonga oldi.

Ta'qibchilar orasida eng jasuri deb hisoblangan bittasi Tomning ortidan ergashdi, qolganlar uning orqasidan ergashdi. Orqadagilar oldindagilarni turtardi. Ular yuqoriga tez-tez chiqa boshlashdi va daraga kiraverishda to'satdan Tomning barvasta qomati ko'rindi.

Jorj o'q uzdi. O'q Tomning biqiniga tegdi, lekin u yarador bo'lsa ham, chekinishni istamas va mast buqa kabi bo'kirib chuqurlikdan sakrab o'tdi.

– Oshnam, – dedi Fineas to'satdan ilgari odimlab va uzun qo'li bilan Tomni itarib, bu yerda senga orzumanda emasmiz.

Tom o'ttiz fut balandlikdan pastga ag'darildi, u daraxtlar, toshlar, g'o'lalar va changallar orasidan jarning tubiga qulab tushdi. Uning hamma yogi timdalandi. U qattiq oh tortar edi. U yiqilganda kiyimi daraxt shoxiga ilinib, yerga uncha qattiq tushmadi va o'lmay qoldi.

– Yo, Rabbim, rahm qil, bular shaytonning o'zginasi-ku! – deb g'udullab qocha boshladi Merks. U yuqoriga chiqishdan ko'ra pastga ancha jadal chopar edi.

Qolganlar uning orqasidan yugurdilar. Ayniqsa, semiz polismen inqillab va nafasi og'ziga tiqilib, o'lar-qolariga qaramay chopar edi.

– Gap bunday, yigitlar, – dedi Merks, – tog‘ni aylanib o‘tib, Tomni ko‘tarib olinglar. Men esa otda borib yordamchilar keltiray.

Merks hamrohlarining qichqiriq va mazaxlashlariga qaramay, qochdi. Tezda uzoq tepaliklar ustida uning ot chopib borayotgan qorasi ko‘rindi.

– Dunyoda bunday ham benomus gazandalar bo‘lar ekan! – dedi ta‘qibchilardan biri. – Biz bu yerga uning ishi bilan kelganmiz, u esa bizni yolg‘iz tashlab qochdi.

– Unisini olib kelishi kerak, – dedi yana bittasi. – U tirik qoldimi, o‘ldimi – rostini aytсам menga baribir.

Daraxtlar, toshlar, g‘o‘lalar va changallar orasidan o‘rmaalashib, Tomning ovozi chiqayotgan tomonga bordilar. Polvon esa qahr bilan so‘kinib va inqillab yotar edi.

– Juda qattiq baqiryapsan-a, Tom, – dedi ulardan biri. – Qattiq yarador bo‘ldingmi?

– Bilmayman. Meni ko‘taringlar. Ko‘tara olasizlarmi? Mal‘un kvaker! Agar shu bo‘lmasa, men negrlarning bir nechtasini tepib tashlagan bo‘lardim, keyin ular men bilan boshqacha gaplashardilar.

Hamrohlari ancha qiynalib uni o‘rmidan turg‘izdilar; u to‘xtovsiz oh tortar edi. Uning qo‘ltig‘idan ushlab, ot yoniga yetakladilar.

– Meni o‘sha oshxonaga olib borolganingizda yaxshi bo‘lardi. Menga ro‘mol yoki boshqa narsa beringlar, la‘nati yaraga tiqib qo‘yay...

Tomni egarga mindirayotganlarini Jorj qoya orasidan ko‘rib turdi, ikki-uch bor urinib ko‘rganlaridan keyin, Tom chayqalib, gumburlab yerga yiqildi.

– O‘lmagan bo‘lsa kerak-a? – deb qo‘ydi, boshqalar kabi bo‘layotgan voqeaga qarab turgan Eliza.

– Sadqayi afsus! – dedi Fineas. – Badtar bo'lsin! Lekin, birdan yana, dedi:

– Azbaroyi Xudo, uni tashlab ketishmoqchi!

Zotan, bu gap rost edi. Ta'qibchilar birpas maslahatlashganlaridan keyin otlariga minib, jo'nadilar.

Ular ko'zdan butunlay yo'qolgandan so'ng, Fineas ham qo'zg'alish taraddudini ko'ra boshladi.

– Pastga tushib, biroz piyoda yurishimiz kerak, dedi u. – Men Mayklga – yordamchilar olib, bu yoqqa aravada kel, deganman. Tez orada uni yo'lda uchratsak kerak. Ishqilib, u tezroq qaytsin! Hozir vaqt juda erta, yo'lovchilar yo'lda kam uchraydi. Uzog'i bilan ikki mil yo'l bosishimiz kerak. Yo'l bunchalik yomon bo'lmaganida, ular bizni hech bir quvib yetolmasdilar.

Ular chetan devor yoniga yetganlarida, uzoqda o'z aravalarini ko'rdilar, aravaning yonida bir necha otiqlar kelar edi.

– Ana Maykl, Stiven, Amariyalar ham kelishyapti! – dedi Fineas quvonib, endi eson-omon qutulib qoldik.

– Shoshmanglar, – dedi Eliza, – bu sho'rlikka yordam beraylik axir. Juda qattiq oh tortyapti.

– Qani, uni aravaga solaylik, – dedi Jorj.

– Va uni kvakerlarnikida davolaymiz! – dedi Fineas, – Fikringizga balli... Menga baribir, bilganlaringni qilave-ringlar. Qani, o'zini bir ko'ray.

Ovchilik qilib yurgan mahallarida jarrohlikdan unchamuncha bilim orttirgan Fineas yarador ustida engashib yarasini ko'ra boshladi.

– Merks, – sekin ovoz chiqardi Tom, – senmisan, Merks?

– Yo'q, oshnam, u emas, – dedi Fineas, – Merks sening g'amingni yemaydi – o'z jonini olib qochadi. Uning gumdon bo'lganiga ancha bo'ldi.

– Oh, endi o‘laman! – dedi Tom. – Razil, qo‘rqqoq, ko‘ppak, yolg‘iz o‘lavarsin, deb tashlab qochibdi-da! Sho‘rlik kampirim: doim mana shunday ahvolga tushib o‘lasan, der edi.

– Oh, bechora! So‘zini eshiting. Onasi ham bor ekan! – dedi keksa negr xotin. – Unga rahmim kelyapti.

– Sekinroq, sekinroq, oshnam, pitirlama, bo‘kirma, – dedo Fineas Tom og‘rinib-titrab uning qo‘lini itarib yuborarkan: – Qoningni to‘xtatmasam, ishing chatoq bo‘ladi.

Fineas dastro‘mol va latta-puttalarni yara o‘ragani tayyorlay boshladi.

– Meni pastga itarib yuborgan senmi? – deb so‘radi Tom, zo‘rg‘a ovoz chiqarib.

– Ha, men. Men itarib yubormaganimda, sen bizlarni itarib yuborarding, – dedi Fineas, uning yarasini bog‘larkan. – Hozir, hozir yarangni mahkam bog‘lab qo‘yay. Xotirjam bo‘l, senga yomonlik qilmaymiz, sendan xafa ham emasmiz. Bir uyga olib boramiz, u yerda onangning uyidagidek senga qarashadi.

Tom inqillab ko‘zini yumdi.

Tomga o‘xshash odamlardan qon bilan birga mardlik ham yo‘qoladi. Bu payt qo‘lidan hech ish kelmaydigan bu ulkan kishining holi juda ayanchli edi.

Arava yetib keldi. Po‘stakni to‘rt qavat qilib soldilar, keyin to‘rt kishi Tomning katta va og‘ir tanasini zo‘rg‘a ko‘tarib aravaga qo‘ydi. Tom batamom hushidan ketgan edi. Negr kampir rahmi kelib, Tom yoniga o‘tirdi-da, boshini tizzasiga oldi. Eliza, Jorj va Jim siqilishib o‘tirganlaridan keyin arava jo‘nadi.

– Yarasi tuzalarmikan? – deb so‘radi Jorj, yonida o‘tirgan Fineasdan.

– Yarasi chuqur, lekin suyakka tekkan emas. Jarga qulab foyda qilmadi. Qon ko‘p ketibdi, juda ko‘p ketgani-

dan, madorsizlanib qolibdi. Xayr, hech nima qilmaydi, bular o'tib ketadi, ehtimol, bu hodisa unga ancha-muncha saboq bo'lsa.

– Xayriyat, ahvoli uncha qo'rqinchli emas ekan, – dedi Jorj. – Uni o'ldirishga haqli bo'lsam ham, batamom o'ldirganimda vijdonim azoblangan bo'lardi.

– Dunyoda o'ldirishdan yomon ish yo'q, – dedi Finneas. – Odam o'ldirish ham og'ir, hayvon o'ldirish ham. Men ilgari juda ishqiboz ovchi edim. Qattiq yarador bo'lib, joni bo'g'ziga kelgan kiyikning odamdek termilishini ko'rib, qilmishimga pushaymon yer edim. Odam o'ldirish bundan ham og'ir-ku.

– Xo'sh, buni nima qilamiz endi? – deb so'radi Jorj.

– Amariyanikiga olib boramiz. U yerda Stivenning bita kampiri bor, oti Dorkas. Yaxshi tabib. Kasallarni jon deb parvarish qiladi. Xavotir bo'lma. Ikki haftadan keyin uni oyoqqa turg'izib yuboradi.

Bir soatdan so'ng yaxshi bir fermaga yetdilar, bu yerda jafokash sayyohlarga yaxshigina ovqat tayyor edi. Tom Lokerni avaylab, ozoda, yumshoq ko'rpaga yotqizdilar, bunday ko'rpada u hech yotmagan edi. Jarohatini avaylab bog'ladilar, u charchagan bolaga o'xshab yotar va ko'zini dam ochib, dam yumib, oq pardalarga va tovush chiqarmay yurgan kishilarga tikilar edi.

MUNDARIJA

| | |
|--------------------|-----|
| Nashriyotdan | 3 |
| I bob | 5 |
| II bob | 17 |
| III bob..... | 21 |
| IV bob | 27 |
| V bob..... | 42 |
| VI bob | 53 |
| VII bob | 64 |
| VIII bob..... | 82 |
| IX bob | 101 |
| X bob..... | 119 |
| XI bob | 130 |
| XII bob..... | 148 |
| XIII bob..... | 166 |
| XIV bob | 177 |
| XV bob..... | 186 |
| XVI bob | 206 |
| XVII bob | 218 |

Adabiy-badiiy nashr

GARRIET BICHER-STOU

TOM TOG‘ANING KULBASI

Roman

Birinchi kitob

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

| | |
|-----------------|-------------------------|
| Muharrir | <i>Oybek Haydarov</i> |
| Badiiy muharrir | <i>Nasiba Ergasheva</i> |
| Musahhih | <i>Gulandom Umarova</i> |
| Sahifalovchi | <i>Umar Qodirov</i> |

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
29.05.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$.
Ofset qog‘ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 12,6. Adadi 5000. Shartnoma № 115–20.
Buyurtma raqami 455-20.

„Ziyo nashr“
Mas‘uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz

Bicher-Stou, Garriet.

B 74 Tom togʻaning kulbasi: birinchi kitob. [Matn]: roman / G. Bicher-Stou; tarjimon: Sh. Rizo. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 240 b.

ISBN 978-9943-6439-0-1

UOʻK: 821.111(73)-31

KBK 84(7AQSh)






26910

GARRIET BICHER-STOU
TOM TOGANING
KULBASI

ROMAN I KITOB



 t.me/ziyonashi
 fb.com/ziyo.nash
 zionashi@mail.ru



ISBN 978-9943-6439-0-1

